

R.A.Mulladjanova, Z.A.Ilhomov, M.M.Temirova

MARKAZIY OSIYONING QADIMGI YOZMA YODGORLIKLARI

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan oliy o'quv yurtlarining 5110600-Tarix o'qitish metodikasi ta'lim
yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

Toshkent-2020

R.A.Mulladjanova, Z.A.Ilhmov, M.M.Temirova
Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari. O'quv qo'llanma. Toshkent:
"Farg'ona" nashriyoti, 2020. 221 bet.

Ushbu o'quv qo'llanmada Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari, qadimgi yozma yodgorliklarning Markaziy Osiyo tarixini o'rganishdagi ahamiyati, piktografik belgilar, piktografik belgilar topilgan yodgorliklar, O'rta Osiyo hududining qadimgi tub aholisi va uning yozma yodgorliklarda aks etishi, qadimgi so'g'd yozuvi va yozma yodgorliklari, oromiy yozuvi va yozma yodgorliklari, manixey yozuvi va yozma yodgorliklari, qadimgi Xorazm yozuvi va yozma yodgorliklari, turkiy yozma yodgorliklarning vatan tarixini o'rganishdagi ahamiyati kabi masalalar o'z aksini topgan.

O'quv qo'llanmada, ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni o'tishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari tavsiya etilgan. O'quv qo'llanma mutaxassis tarixchi va tarix faniga qiziquvchi keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Ma'sul muharrir:

Tuzuvchilar: **R.A.Mulladjanova**, pfn, dots. Nizomiy nomidagi TDPU
Z.A.Ilhmov, tfn, dots. Nizomiy nomidagi TDPU
M.M.Temirova, o'qituvchi, Muqimiy nomidagi Qo'qonDPI

Taqrizchilar: **T.Axmedov**, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Jizzax davlat pedagogika instituti
M.Shamsiyeva, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Farg'ona davlat universiteti
G.Raximova, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Qo'qon davlat pedagogika instituti

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi O‘zbekiston xalqiga ma’naviy uygonish, o‘zlikni anglash, boy tarixiy o‘tmishini o‘rganishga imkon yaratib berdi. Mustaqillik tufayli o‘zbek xalqining ko‘p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va ma’naviy merosini o‘rganish, undan xalqning bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo‘l ochildi. Ma’naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazinasini va taraqqiyot manbai hisoblanadi. Aynan ushbu ma’naviy va mafkuraviy asosni mustahkamlash hamda rivojlanishda tarix fani alohida ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishni ko‘zda tutish bilan birgalikda bugungi kunda oliy ta’limning sifati va samaradorligini yuksaltirish borasida pedagoglar oldida katta mas’uliyat turganligi belgilab beradi. Ayni vaqtda "...yoshlar va axoli o‘rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib qilish..."ni "...yoshlarimiz. jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega..." vazifalar sifatida belgilab beradi¹.

Bugungi kunda yuqori malakali kadrlar tayyorlash, yetuk kadrlarni birlamchi va yozma manbalar asosida bilim olishlari uchun kasbiy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish dolzarb masala qilib qo‘yilgan. Yozma manbalar va yodgorliklar har bir talabani izlanishga, o‘z ustida ijodiy ishlashga, asosan fan sohasidagi masalalarning yechimini topishga o‘ziga xos yondashuvning shakllanishida muhim o‘rin egallaydi.

Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori" asarida " bizga

¹ Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент - «Ўзбекистон». 2017. 44-47-бб.

bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak"¹ deb ta'kidlagan edilar.

“Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlidovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo'lib emas, ... aksincha o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z ma'suliyati bilan, ongli tarzda, ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi”².

Oliy ta'lim tizimida talabalarning mukammal bilim olishlarida qadimgi yozuvlar va yozma yodgorliklarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buungi axborotlar tizimi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan, globallashuv jarayoni kuchayib borayotgan, ba'zi davlatlarning jug'rofiy-siyosiy xuruji va mafkuraviy tazyiqlari, axborotlar xuruji, diniy ekstremistik tashviqotlarning tahdid solib turgan bir paytda etishib kelayotgan kadrlarning tafakkurini, mustaqil erkin fikrlashni va mavjud vaziyatning to'g'ri echimini topa olish qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan.

Erkin va mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlay oladigan kishilardagina mutaassiblikka, turli buzg'unchi g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitet oson vujudga keladi¹.

Mazkur o'quv qo'llanma 5110600-Tarix o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun “Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari” fanidan o'quv qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

¹ Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т.: Шарқ, - 1997. 96.

² Баркамол авлод орзуси / Тузувчилар Ш.Қурбонов., Ҳ.Саидов., Р.Аҳмаджонов. – Т.: Шарқ, - 1999. 336.

¹ Эркаев А. Тафаккур эркинлиги. – Т.: Маънавият. -2007. 5-66.

1-§. YOZUVLARNING KISHILAR JAMIYATI HAYOTIDA TUTGAN O'RNI.

1.Yozuvlarning kishilar jamiyati hayotida tutgan o'rni.

2. Paleografiya fani va uning tadqiqot manbai.

Adabiyotlar:

1. Жабборов И. Антик маданият ва маънавият хазинаси. –Т., 1999.
2. Древние цивилизации. М., 1989.
3. Махмудов Қ. Қадимги Туркистон. –Т., 2011.
4. Исҳоқов М. Суғд ёзувининг шаклланиши ва тараққиёти. –Т., 1989.
5. Исҳоқов М. Унитилган подшоликдан хатлар. –Т., 1992.
6. Қадимги Ўзбекистонда буддавийлик ва буддавий мерос. –Т., 2011.
7. Сагдуллаев А.Қадимги Ўрта Осиё тарихи. -Т., 2004.
8. Эгамбердиева Н. Археология . –Т., 2011
9. Ҳомидов Ҳ. “Шоҳнома”нинг шуҳрати. –Т., 1991.
- 10.Фирдавсий. Шоҳнома. –Т., 1991.
- 11.Исҳоқов М. Суғдиёна тарих чорраҳаларида. –Т., 1990.
- 12.Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart.A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.

Yozuvlarning kishilar jamiyati hayotida tutgan o'rni.

Kishilik jamiyatining rivojlanish zamini - tarix, o'tmish va uning tajribalari hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir davrda o'tmishga, tarixga e'tibor kuchayadi. Uni haqqoniy, o'ektiv yoritish kunning dolzarb masalasiga aylanadi. U avlodlarning ma'naviy ruhiyatini mustaxkamlashda eng muhim omildir.

О'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkani, davlatimiz hududining xolis va haqiqiy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi”².

Dunyo halqlarining bir necha yuz ming yillardan beri davom etib kelayotgan tarihi bor. Lekin shu uzoq tarihiy taraqqiyotining eng keyingi 5-6 minginchi yillardan boshlabgina yozma asarlari bo'lib, undan avval halqlarda yozuv va tarix bo'lmagan.

Tarixni ob'ektiv yoritishda moddiy va yozma manbalardan keng

² И.А.Каримов. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. –Т., 1997, 6-жилд, 127б.

foydalaniladi. Ayniqsa, yozma manbalar tarix uchun eng muxim ob'ektdir. U insoniyatning avlodlari uchun qoldirgan nomasi bo'lib, yozuv uzoq va tadrijiy rivojlanish jarayonini boshdan kechirgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda tarixiy tadqiqotchilik O'rta Osiyoda juda ham qadimdan boshlangan. Xorazmlik mashhur olim **Beruniy**ning yozishiga ko'ra, arab istilochilari O'rta Osiyodagi mahalliy olimlarni yo'qotibgina qolmay, mahalliy til va mahalliy yozuvdagi asarlarni ham yo'q qilib, yondirib yuborganlar. Shu sababli eng qadimgi zamonlarda yozilgan asarlar saqlanmagan. Ming yil davomida yozilib kelgan tarixiy asarlar juda ko'p. **Muhammad Narshaxiy**ning "**Buxoro tarixi**", **Bal'amiy**ning "**Tarixi Tabariy**" asari yozilganiga ming yildan oshdi.

O'zbekistondan topilgan pigtografik belgi - yozuvlar, bu xududning ilk yozuvlar shakllangan markazlardan biri ekanligini ko'rsatadi, shuningdek, yozuvlarni o'rganish jarayonida olimlar tomonidan uning rivojlanish jarayonlari aniqlangan.

Pigtografik yozuvlar O'zbekistonning janubiy xududlaridan topilgan. Ular **Darband, Sopollitepa, Jarqo'ton va G'oz yodgorliklarida** mavjud ekanligini aniqlangan.

Paleografiya fani va uning tadqiqot manbai.

Paleografiya so'zi ikkita yunoncha so'zdan tashkil topgan: «**palayos**»-**qadimgi** va «**grafo**»-**yozaman**. Paleografiya fani qo'lyozma manbalarining tashqi belgi-xususiyatlarini tarixiy rivojlanishda o'rganadigan fandır.

Paleografiya fani o'rganadigan u yoki bu qo'lyozma manbaning tashqi belgi – xususiyatlari quyidagilardan iborat: qo'lyozma harflari, bu harflarning yozilish xususiyatlari, yozuv turi, qo'lyozmaning materiali, yozuv qurollari, qo'lyozmada ishlatilgan bezaklar, qo'lyozma yozilgan siyoh, qo'lyozmadagi tamg'alar, muhrlar, qo'lyozmaning formati, qo'lyozma muqovasi va boshqa tashqi belgilar.

Paleografiyaning vazifasi quyidagilardan iborat: harflarning grafikasi, xususiyatlarini, harflarning rivojlanishini, yozuvning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, qo'lyozmadagi matnni xatosiz o'qiy olish; qo'lyozma manbaning yozilgan vaqtini aniqlash; qo'lyozma yaratilgan

hududni aniqlash; qo'lyozma kim tomonidan yozilganligini belgilash; qo'lyozmaning asl nusxa yoki qalbaki ekanligini aniqlash va hokozolardan iboratdir.

Paleografiya ilmiy fan sifatida **epigrafika, sfragistika, numizmatika, xronologiya**, shuningdek **manbashunoslik** fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu fanlar bir-birini o'rganishga yordam beradi va o'zaro bir-birini to'ldiradi.

Paleografiyaning ish uslubi: paleografiyaning uslubi asosida qo'lyozmadagi bir qator belgi – xususiyatlar, masalan, xarflarning grafikasi, yozuvda ishlatilgan material, qo'lyozmadagi bezaklar, qo'lyozmani yozishda ishlatilgan yozuv qurollari ustidan o'tkaziladigan kuzatishlar yotadi. Shuningdek, bu xususiyatlarning tarixiy bir davr uchun o'zaro mos kelish-kelmasligini aniqlash ham bu fanning ish uslubiga kiradi.

Ma'lumki, tarixdagi har qanday davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy taraqqiyot darajasi o'sha davrdagi yozuvning holatida o'z izini qoldiradi, yozuvning xususiyatlarini belgilaydi. Boshqacha aytganda, paleografiyaning tadqiqot ob'ekti bilan qo'lyozmalarning tashqi belgilarini bir-biri bilan bog'laydi. Masalan, arab xalifaligining VIII asr o'rtalari va IX asr boshlaridagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyoti o'sha davrdagi yozuvga o'z ta'sirini o'tkaza olgan. Bundan tashqari o'sha davrda yaratilgan qo'lyozmalarda ham o'zining izini qoldirgan ya'ni sekinlik bilan yoziladigan **kufiy yozuvi** o'rnida davlat muassasalaridagi ish yuritishda undan ko'ra tezroq yozish imkoni bor bo'lgan **nasx yozuvi** bilan almashgan. Shuningdek, qo'lyozma yozish uchun ishlatiladigan va o'sha davr uchun o'ta qimmat va kamyob hisoblangan papirusni qog'oz siqib chiqargan. Chunki papirus ish yuritishdagi betinim o'sib borayotgan ehtiyojni qondira olmay qolgan edi.

Yana bir misol: Temuriylar imperiyasining eng rivojlangan davri markazlashgan davlatchilikning eng yuqori darajasiga to'g'ri keladi. Bu davrda yozuvning eng asosiy turi **nasta'liq xati** hisoblanardi.

Tarixdan ma'lumki, arab yozuvlari ichida eng go'zal, eng jozibador va xattotdan eng ko'p diqqat talab qiluvchi yozuv nasta'liq yozuvidir. Taraqqiyotning xuddi shunday bosqichini qo'lyozmalarning boshqa tashqi

belgilari, shu jumladan, undagi bezaklar ham bosib o'tgan. Bu esa o'z navbatida nafaqat madaniyat taraqqiyotining ichki shart-sharoitlari, balki tashqi siyosiy va madaniy aloqalarning yanada intensivlashgani bilan bog'liq edi. Bunda esa, turli xalqlar madaniyatining o'zaro ta'siri va uning umumtaraqqiyotdagi tutgan o'rni masalasini keltirib chiqaradi.

Xullas, paleografiya fani ko'makchi tarixiy fanlarning eng muhimlaridan hisoblanadi va tarixni yanada chuqur o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat tarixida yozuv juda qadim zamonlardan beri mavjuddir. Ibtidoiy jamoa davrida odamlar o'z fikrlari, xohish-istaklarini, biror voqea-hodisa haqidagi xabarni turli xil narsa-predmetlar yordamida ifodalaganlar (etkazganlar).

Lekin bu hali yozuv hisoblanmas edi. Ma'lum muddat vaqt o'tganidan keyin u yoki bu fikrni bildiradigan shartli belgilar paydo bo'lgan. Bu shartli belgilardan keyin biz yozuv deb ataydigan va ma'lum tizimga ega bo'lgan belgilar vujudga kelgan.

Eramizdan avvalgi to'rtinchi ming yillikda **Arabiston yarim orolidagi** qadimgi davlatlar hududlarida **misr va shumer yozuvlari** paydo bo'lgan. Ikkinchi ming yillikning boshlariga kelib, **O'rta Yer dengizi** qirg'oqlarida **ossuriylar va bobiliylar yozuvi** shakllangan. Hozirgi **Hindistonning Shimoliy qismi va Old Osiyo hududlarida** esa **hind yozuviga** asos solingan. Undan ham keyinroq yozuvning **g'arbiy-somiy tizimi** vujudga kelgan.

Umuman, insoniyat tarixi yozuvning to'rt qadimiy turini biladi:

1. Piktografik yozuv. Bu so'z lotincha «**piktus**»-rasm, surat; «**grafo**»-yozaman qismlaridan iborat bo'lib, rasm yozuv demakdir. Bu yozuvning dastlabki shakllari **mezeolit va neolit** davrida paydo bo'lgan.

Odamlar o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, xohish-istaklarini turli rasmlar, suratlar orqali bir-birlariga etkazganlar. Odamlarning o'zi chizgan bu suratlar harbiy yurishlar, urushlar, to'qnashuvlar, majburiyatlar, ultimatumlar, sevgi-muhabbat borasidagi xabarlarni bir joydan ikkinchi joyga etkazish uchun xizmat qilgan.

Yozuvning bu turi juda katta hududda va uzoq muddat ishlatilgan. Lekin yozuvning bu turida konkret narsa-hodisa to'g'risidagi xabar oson

etkazilgan bo'lsa-da, abstrakt (mavhum) tushunchalarni etkazish uchun bu yozuvdan foydalanish qiyin bo'lgan. Shu sababli yozuvning bu turi insonning talabiga to'la javob bera olmagan.

Lekin shunga qaramay, piktografik yozuvning ayrim shakllari hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, darvoza tepasiga qo'yilgan itning surati hovlida qopag'on it borligining belgisidir. Transformator budkasi devoridagi kalla suyagi rasmi xatarning mavjudligiga ishoradir. Katta qilib ishlangan barmoq surati harakat yo'nalishini bildiradi va hokazo.

Vaqt o'tishi bilan piktografik yozuv o'rnini undan mukammalroq va murakkabroq bo'lgan **logografik yozuv** egallagan.

2. Logografik yozuv. Bu so'z lotincha «**logos**» - **so'z, mantiq va «grafo» - yozaman** so'zlaridan shakllangan. Jamiyat rivojlanishda davom etar ekan, har bir predmet yoki har bir tushuncha shu predmet yoki tushunchaning surati yordamida ifodalana boshlagan. Demak, yozuvning bu turida ifodalangan shakl bilan ifodalanishi kerak bo'lgan predmet yoki tushuncha o'rtasida mantiqiy bog'liqlik mavjuddir.

Shuning uchun bu yozuv logografik yozuv deb nom olgan. Bu yozuvda masalan, ikkita qo'lning surati «**jangchi**», «**askar**» ma'nosini ifodalagan. Agar bir qo'lda qalqon, ikkinchi qo'lda nayza surati bor bo'lsa, bu «**jang**» yoki «**jang qilmoq**» so'zlarini bildirgan. «**Ko'rmoq**» fe'lini bildirish uchun ikkita ko'z surati xizmat qilgan. «**Baxillik**», «**ochko'zlik**» ma'nosini **timsohning surati** bildirgan. **Bitta oyoqning rasmi «qadam tashlamoq»** ma'nosini ifodalasa, ikkita oyoqning surati «**yurmoq**», «**bormoq**» ma'nolariga to'g'ri kelgan. Yozuvning bu turi **ideografiya deb ham ataladi.**

Logografik yozuvning kamchiligi shundan iboratki, bu tur yozuvni hamma ham bilavermagan. Undan asosan **ruhoniylar, davlat tepasidagi amaldorlar, mutaxassislar, kotiblar va xattotlar** xabardor bo'lishgan.

3. Bo'g'in yozuvi. Eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillikning o'rtalarida va birinchi ming yillikning boshlarida ilgarigi yozuvga nisbatan qulayroq va soddaroq bo'lgan yozuv shakli shakllana boshlagan. Bu yozuvda so'zlar hamda ayrim sodda jumlar bo'g'inlarni bildiruvchi belgilar yordamida ifodalangan.

Shuning uchun bu yozuv **bo'g'in yozuvi** deb ataladi. Yozuvning bu

turi ilgari yozuvlardan qulayroq bo'lgan, lekin uning ham o'ziga yarasha nuqsoni bo'lgan. U ham bo'lsa, bu yozuv asosan so'zlar bir yoki ikki bo'g'indangina iborat bo'lgan tillar uchun qulay bo'lgan.

Bunday tillarga **hind tilining** ayrim tarixdagi variantlari kiradi. Shu kamchiligi bor bo'lgani uchun bu yozuv boshqa xalqlar orasida kam tarqalgan.

Lekin yozuvning bu turkumiga kiruvchi **mixxat deb atalgan yozuv** nisbatan keng tarqalgan. Uni eramizdan avvalgi to'rtinchi mingyillikning oxirida **Mesopotamiyada** (hozirgi **Iroq davlati** hududi)da yashagan **shumerlar** o'ylab topganlar.

Mixxat yozuvidagi elementlar asosan **mix yoki pona** shaklini eslatgani uchun mixxat deb nom olgan. Mixxat eramizdan avvalgi birinchi mingyillikning oxirlarigacha **bobiliylar, assuriylar, xetlar, finikiylar** tomonidan qo'llanib kelingan. Bu yozuvdan **Urartu davlati** aholisi, **forslar** va boshqa qo'shni xalqlar ham foydalanishgan.

Mixxat yozuvi piktografik yozuvdan kelib chiqqan. Bu dastlab **italiyalik savdogar P'etro della Valle** tomonidan o'rganilgan.

Mixxat yozuvlari ichida eng ko'p tarqalgani **forsiy mixxat**dir. Bu yozuv eramizdan avvalgi VI-IV asrlargacha **Ahamoniylar davlati** hududida qo'llanib kelingan. Bu yozuvdan qo'shni davlat xalqlari, shu jumladan **O'rta Osiyo xalqlari** ham foydalanishgan. Ahamoniylar davlatining qulashi bilan bu yozuvdan foydalanish ham kamaya boshlagan.

4. Harfiy yozuv. Yozuvning bu turida tildagi har bir tovushga bittadan harf yoki belgi to'g'ri keladi. Bu tizimdagi yozuv hech bir istisnosiz **finikiylar, suriyaliklar va falastinliklar** ijod etgan **somiy yozuviga** borib taqaladi. Eramizdan avvalgi YI-IY asrlarda **Qadimgi fors davlati** devonxonalarida davlat ahamiyatiga molik hujjatlar **oromiy tilida** olib borilgan va bunda **finikiylar** alifbosining **oromiy variantidan** foydalanganlar.

Keyinchalik vaqt o'tishi bilan bu alifboning juda ko'p variantlari shakllana boshlagan. Bu variantlarning biri hozirgacha eng ko'p xalqlar tomonidan qo'llanib kelayotgan **arab yozuvidir** va kvadrat shaklga ega bulgan **yahudiy yozuvidir**.

Keyinchalik eramizdan avvalgi IY-III asrlarda **oromiy alifbosi**

eroniy tillarda soʻzlashuvchi koʻpgina xalqlar tomonidan ishlatib kelingan. **Oʻrta fors yozuvi va Parfiya yozuvi** xuddi shu tariqa paydo boʻlgan. Bu alifbo asosida keyinchalik **soʻgʻd yozuvi, xorazmiy yozuv** va paydo boʻlgan. Eramizning VII-VIII asriga kelib bu **eroniy yozuvlarni arab yozuvi** siqib chiqargan.

Bundan tashqari **eroniy va Oʻrta Osiyodagi Muqaddas kitob** uchun maxsus **Avesto yozuvi** yaratilgan. Bu yozuv **oromiy-eroniy yozuvi** asosiga qurilgan boʻlgan.

Yevropada esa, bu yerdagi tillar uchun **grek yozuvining** turli variantlari, xususan, **lotin yozuvi** qoʻllanilgan. IX-X asrdagi grek qoʻlyozma alifbosining yana bir varianti **slavyan tillari** uchun moslashtirilgan va shu ariqa **qadimgi rus alifbosi-kirillitsa** vujudga kelgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yozuvning kashf etilishi insoniyat tarixida juda katta hodisa boʻlgan. Yozuv vositasida inson oʻzidan uzoqda boʻlgan boshqa inson bilan aloqada boʻla olgan, shuningdek u yoki bu maʼlumotni oʻzidan keyingi avlodga qoldirish imkoniga ega boʻlgan.

Tayanch soʻz va iboralar:

1. Piktus.
2. Logos.
3. Piktografik yozuv.
4. Grafo.
5. Ideografiya.
6. Logografik yozuv.
7. Boʻgʻin yozuvi.
8. Mixxat.
9. Fors mixxati.
10. Harfiy boʻgʻin.
11. Petro Chella Valle.
12. Oromiy yozuvi.

Nazorat uchun savollar:

1. Kirill yozuviga qaysi yozuv asos qilib olingan?
2. Avesto yozuvining paydo boʻlishi qanday?
3. Qadimgi fors davlatida qaysi yozuvdan foydalanishgan?
4. Mixxat yozuvi qaysi yozuvga borib taqaladi?

5. Mixxat yozuvi yozuvning qaysi turiga mansub?
6. Mixxat yozuvi qachon va qaerda paydo bo'lgan?
7. Mixxat yozuvini dastlab kim o'rgangan?
8. Nima uchun bo'g'in yozuvi keng tarqalmagan?
9. Bo'g'in yozuvi qachon paydo bo'lgan?
10. Logografik yozuv qanday yozuv?
11. Piktografik yozuv qanday yozuv?
12. Qadimiy yozuvlar necha turga bo'linadi va nomlari qanday?

2-§. ILK YOZUVLAR TARIXI VA ULARNING O'RGANILISHI

1. Markaziy Osiyodagi ilk yozuvlar va ularning o'rganilishi.

2. O'rta Osiyodagi qadimgi yozuvlar: Pahlaviy yozuvi, so'g'd yozuvi, baqtriya yozuvi, parfiya yozuvi, qadimgi xorazm yozuvi, avesto yozuvi, urxo'n-yenisey yozuvi, uyg'ur yozuvi.

Adabiyotlar:

1. Жабборов И. Антик маданият ва маънавият хазинаси. –Т., 1999.
2. Древние цивилизации. М., 1989.
3. Махмудов Қ. Қадимги Туркистон. –Т., 2011.
4. Исҳоқов М. Суғд ёзувининг шаклланиши ва тараққиёти. –Т., 1989.
5. Исҳоқов М. Унитилган подшоликдан хатлар. –Т., 1992.
6. Қадимги Ўзбекистонда буддавийлик ва буддавий мерос. –Т., 2011.
7. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. –Т., 2004.
8. Эгамбердиева Н. Археология . –Т., 2011
9. Ҳомидов Ҳ. “Шоҳнома”нинг шухрати. –Т., 1991.
10. Фирдавсий. Шоҳнома. –Т., 1991.
11. Исҳоқов М. Суғдиёна тарих чорраҳаларида. –Т., 1990.
12. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.

Markaziy Osiyodagi ilk yozuvlar va ularning o'rganilishi.

O'rta Osiyoning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi xalqlarini **shaklar (saklar)** va **massagetlar** tashkil etadi. Bu xalqlarning ham o'z yozuvlari mavjud bo'lgan. **O'rta Osiyo xalqlari bilan G'arbiy Osiyodagi davlatlar** o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi natijasida O'rta Osiyoga G'arbiy Osiyodan **oromiy yozuvi** kirib kelgan. Bungacha O'rta Osiyoda **fors mixxatidan** foydalanishar edi. **Oromiy yozuvi** mixxatga qaraganda ancha sodda bo'lib, taxminan yigirmata harfdan iborat bo'lgan. Eramizdan avvalgi III-II asrlarda **Xorazm, Baqtriya, Parfiya va So'g'd davlatlarida** shu **oromiy yozuvida** kitoblar yozilgan.

Shuningdek davlat ahamiyatiga molik diplomatik hujjatlar ham shu yozuvda rasmiylashtirilar edi. Bu davlatlarda qisman **grek yozuvi** ham iste'molda bo'lgan. **Oromiy yozuvida** xat o'ngdan chapga qarab yozilgan. Bu yozuvda unli tovushlarni ifodalash uchun harflar bo'lmagan. **Oromiy yozuvi** zaminida **fors yozuvi** shakllangan.

O'rta Osiyodagi qadimgi yozuvlar

Umuman, eramizdan avvalgi IY asrdan eramizning IY asrigacha bo'lgan davrda O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekiston hududida ham quldorlik tuzumi mavjud bo'lgan. Bu hududda o'sha davrda bir necha mustaqil davlatlar mavjud bo'lib, ularning har biri o'z yozuviga ega edi. Bu yozuvlar quyidagilardan iborat:

1. Pahlaviy yozuvi. Bu yozuv **oromiy yozuvidan** kelib chiqqan eng qadimgi yozuvdir. Pahlaviy yozuvining ikki turi mavjud: 1. **Pahlaviy yozuvi**, 2. **Arshakiy yozuvi**.

Pahlaviy yozuvidan keyinchalik **so'g'd yozuvi**, eramizning III asrida esa, qadimgi **xorazm yozuvi** shakllangan. Eramizning YI asrida yana shu yozuv asosida **O'rxun-Yenisey yozuvi** paydo bo'lgan.

2. So'g'd yozuvi. Zarafshon daryosi vohasi va hozirgi Qashqadaryo viloyati hududida **So'g'd davlati** (grekcha nomi-Sogdiana) mavjud bo'lgan. Bu davlat qisman hozirgi **Tojikistonning** ayrim tumanlarini ham o'z ichiga olgan. Bu davlatda **so'g'd yozuvi** deb ataladigan yozuvdan foydalanishgan. Bu yozuv **oromiy yozuvining pahlaviy variantidan** shakllangan.

So'g'd yozuvi keyinchalik vujudga kelgan **uyg'ur yozuvi**, **mo'g'o'l yozuvi** va **manchjur yozuvlari** uchun asosiy element bo'lib xizmat qilgan. Bu yozuvning dastlabki bosqichida harflar alohida-alohida yozilgan. Vaqt o'tishi bilan ularni bir-biriga ulab yozish rasm bo'lgan.

3. Baqtriya yozuvi. Bu yozuv **Baqtriya davlati** hududlarida amalda qo'llanilgan. U **oromiy-pahlaviy yozuvi** variantlaridan biri bo'lib, Baqtriyadagi mahalliy so'zlashuv tiliga moslab, isloh qilingan yozuvdan iboratdir.

4. Parfiya yozuvi. Bu yozuv eramizdan avvalgi III-I asrlarda **Parfiya davlati** hududida amalda qo'llanilgan. **Parfiya davlati Kaspiy dengizining janubiy - sharqiy qirg'oqlarini** o'z ichiga olgan. Bu hudud aholisi **parfiy tilida** so'zlashgan. Bu til esa **qadimgi fors tili** variantlaridan biri bo'lgan **dariy tiliga** yaqin bo'lgan. Bu til fonetikasi va grammatikasi nuqtai nazaridan **oromiy tilidan** farq qilgan. Shuning uchun bu yozuv ham **oromiy yozuvidan** ma'lum darajada farq qiluvchi yozuv

hisoblangan.

5. Qadimgi xorazm yozuvi. Bu yozuv **oromiy yozuviga** juda yaqin bo'lgan. Bu alifbo **Ahamoniylar dinastiyasi davridagi klassik oromiy yozuvi tarmoqlaridan biri hisoblanadi** va u o'zida **qadimgi oromiy yozuvi** an'alarini yaxshigina saqlab qolgan. Ushbu yozuv eramizning II asrigacha amalda qo'llanib kelgan.

6. Avesto yozuvi. Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) imperiyasi qulaganidan keyin, O'rta Osiyodagi davlatlar, shuningdek **Parfiya, Xorazm davlati, Eron** o'z mustaqilliklarini qayta qo'lga kiritganlar. Eronda **Sosoniylar dinastiyasi** davlat tepasiga kelgach, o'zlarining qadimgi muqaddas kitoblari bo'lgan «**Avesto**»ni qayta tiklash masalalasi ko'tarilgan.

Ma'lumki, o'n ikki ming mol terisiga yozilgan bu kitobni A.Makedonskiy o'z yurtiga olib ketgan. Uning foydali tomonlarini o'z faylasuflariga tanishtirib, so'ng uni yo'q qilib yuborgan edi.

Biroq «**Avesto**» kitobi yozilgan yozuvni hech kim bilmagani va biladiganlardan hech kim hayot emasligi sababli, bu kitobni tiklash mumkin emas edi. Shu sababli eramizdan avvalgi YI-III asrlarda **Eronda** mazkur «**Avesto**» ni qayta yaratish maqsadida yangi yozuv ijod qiladilar va bu yozuv tarixga «**Avesto yozuvi**» nomi bilan kirgan.

Keyinchalik bu yozuv **pahlaviy yozuvi** bilan bir qatorda mahalliy aholi tomonidan qo'llana boshlagan. Bu yozuvda tilda mavjud bo'lgan qisqa va cho'ziq unlilar **grek yozuvida** qanday ifodalansa, shunday ifodalangan.

Umuman unli tovushlarni ifodalash uchun esa, harflarning soni 35 ta bo'lgan. Bu yozuv **qadimgi fors tili** hisoblangan **dariy tilining fonetikasini** hisobga olgan holda tuzilgan bo'lgani uchun uzoq vaqt amalda qo'llanib kelingan va eramizning YII asrigacha-arablarning bostirib kelgunigacha Eron hududida qo'llanib kelingan.

7. Urxun-Yenisey yozuvi. Eramizning YI asriga kelib, O'rta Osiyoda **Turk xoqonligi** davlati vujudga keldi. Bu davlat **g'arb tomondan Vizantiya bilan, janub tomondan Eron va Hindiston bilan, sharq tomondan Xitoy bilan chegaradosh bo'lgan**. Xullas, **Azov dengizidan Uzoq Sharqqacha** bo'lgan ulkan territoriya bu davlatga

qarashli bo'lgan.

Bu davlat **turkiy qabilalar davlati bo'lib, Urxun-Yenisey yozuvi bu davlatning yozuvi hisoblangan.** Bu yozuv ham **pahlaviy yozuvi** asosida vujudga kelgan bo'lib, unda **so'g'd va oromiy yozuvlari** elementlari mavjud bo'lgan.

8. Uyg'ur yozuvi. Bu yozuv **so'g'd yozuvi** variantlaridan biri bo'lgan va **Urxun-Yenisey yozuvi** bilan parallel qo'llanib kelgan. XIY-XVI asrlarda **mo'g'o'llar mo'g'o'l tili** xususiyatlarin hisobga olib bu yozuvni isloh qilishgan va **mo'g'o'l tili yozuvini** yaratishgan. Keyinchalik **uyg'ur va mo'g'o'l yozuvi** asosida **manchjur, oyrot, buryat tillari yozuvi** vujudga kelgan. Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, O'zbekiston hududida yashagan xalqlar qadimdan o'zlarining mustaqil davlatlariga ega bo'lganlar. Shuningdek davlatchilikning muhim elementlaridan biri bo'lgan yozuv masalasi ham bu hududlarda ijobiy hal qilingan bo'lgan. Har bir davlat o'zining mustaqil yozuviga ega bo'lgan.

Tayanch so'z va iboralar:

Oromiy yozuvi, saklar yoki shaklar, massagetlar, baqtriya, so'g'd davlati, pahlaviy yozuvi, so'g'd yozuvi, baqtriya yozuvi, parfiya yozuvi, avesto yozuvi, qadimgi xorazm yozuvi, urxun-yenisey yozuvi, uyg'ur yozuvi, mo'g'o'l yozuvi, buryat yozuvi, dariy tili.

Nazorat uchun savollar:

1. O'rta Osiyo aholisi qadimda qaysi elatlardan iborat bo'lgan?
2. O'rta Osiyoga G'arbiy Osiyodan qaysi yozuv kirib kelgan?
3. Oromiy yozuvida nechta harf mavjud bo'lgan?
4. Eramizning IV asrigacha O'rta Osiyoda qanday davlatlar bor edi?
5. Pahlaviy yozuvi necha variantdan iborat?
6. Pahlaviy yozuvidan eramizning III asrida qaysi yozuv shakllangan?
7. Sug'd yozuvi qaysi hududda bo'lgan?
8. Avesto yozuvi qanday paydo bo'lgan?
9. Avesto yozuvi qachon paydo bo'lgan?
10. Urxun-Yenisey yozuvi qaysi davlatning yozuvi bo'lgan?

3-§. MARKAZIY OSIYO HUDUDLARIDA PIKTOGRAFIK BELGILAR. ARXEOGRAFIYA.

1.Riktografik belgilarning paydo bo'lish tarixi.

2.Sopollitepa, Jarqo'ton, G'oz yodgorliklaridan topilgan piktografik belgilar.

3.Arxeografiya.

Adabiyotlar:

- 1.Чориев З., Шайдуллаев Ш., Аннаев Т., Ўзбекистон худудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. –Т., 2007
- 2.www.penhistor.ru/hist.htm; wikipedia.org/wiki/Istoriya_pismennosti
- 3.Мулладжанова Р.А. Тарихий ўлкашунослик ва туризм. Т., 2014.
7. Сагдуллаев А.Қадимги Ўрта Осиё тарихи. -Т., 2004.
8. Эгамбердиева Н. Археология . –Т., 2011
9. Ҳомидов Ҳ. “Шоҳнома”нинг шуҳрати. –Т., 1991.
10. Фирдавсий. Шоҳнома. –Т., 1991.
11. Исҳоқов М. Суғдиёна тарих чорраҳаларида. –Т., 1990.
12. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart.A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York,2011.

Piktografik belgi. Piktografiya lotincha «**piktus**»-rasm, surat; «**grafo**»-yozaman degan ma'noni anglatib, rasm yozuv demakdir. Insoniyat tarixida **Shummerliklar** miloddan avvalgi IV ming yillikda – **piktognrafik belgi usullarini** ixtiro qilganlar.

Sopollitepa va Jarqo'ton piktografik belgi – yozuv yodgorliklari Akademik A.Asqarov tomonidan fanga kiritilgan. Amerikalik arxeolog **Lamberg-Karlovskiy** Sopolli madaniyatini “**Oks sivilizatsiyasi**” deb atashni taklif etgan. Italiyalik arxeolog **Mavrutsio Tosi** “**Turon sivilizatsiyasi**” deb atashni taklif etgan.

1969-1973 ymlarda **Sopollitepa yodgorligi** to'liq qazib o'rganilgan va 29 ta belgi chizilgan idishlar topilgan. Sopollitepadan topilgan belgilar qanday fikrni ifodalaganligini hozircha olimlar ma'lum qilmadilar. Ular bu belgilar quyidagicha ifodalashga xarakat qilmoqdalar:

1. Bu belgilar **kulollarning usta belgisi** – deb aytish mumkin. Ammo bu fikrga qarshgi talaygina dalillar mavjud.
2. Patreaxal oilalarning **totem belgisi** bo'lishi ham mumkin.

Jarqo‘ton piktografik belgi- yozuv. Jarqo‘ton yodgorligi piktografik belgilari xumlar, ko‘zalar va qasqonlarda uchraydi. Jarqo‘ton yodgorligiga oid 46 xil belgi yozuv bitilganligi aniqlangan. Jarqo‘ton yodgorligiga oid piktografik belgi – yozuvlar orasida xoch eng ko‘p uchraydigan belgi hisoblanadi.

Qadimgi Sharq ilk shaharlarning iqtisodiy asosi dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli Jarqo‘ton yodgorligi piktografiyasida omoch rasmi ko‘p uchraydi. Ma‘lumki, bronza davrida ilk mexanikaga asos solingan. Kulolchilik charxining, aravaning kashf etilishi bunga misol bo‘ladi.

Jarqo‘ton yodgorligi sopollarida uchraydigan aylana va aylana ichida chizilgan, o‘zaro markazlarda kesishuvchi chiziqlarni arava g‘ildiragi deb hisoblash mumkin. Jarqo‘ton yodgorligi qabrlarida bronzadan yasalgan “narvon” rasmining uchrashi juda ko‘p marotaba kuzatilgan.

Arxeologlar bu xolatni **narigi dunyoga o‘tish yoki animistik tushunchalar** bilan bog‘laydilar. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Jarqo‘ton yodgorligi piktografik yozuv-belgilarni olimlar biror bir alfavitga asos bo‘lgan degan fikrdan yiroq bo‘lishgan.

G‘oz piktografik belgi-yozuv. Bu yodgorlikka ilk temir davrida asos solingan. **E.V.Rtvladze** tomonidan 1974 yil o‘rganilgan. G‘oz yodgorligida 4 ta koriz uslubida qazilgan sun‘iy sug‘orish shaxobchalari va 3 ta arxeologik yodgorlik joylashgan. Bu yodgorlikdan ilk temir davriga oid sopollar majmualari va toshdan yasalgan keli topilgan.

Keli yumshoq monolit toshdan yasalgan bo‘lib, balandligi 22 sm, eni 20 sm, keli kosasining chuqurligi 12 sm. Idishning tashqi tarafida 13 ta piktografik belgi-yozuv mavjud.

Arxeografiya. Arxeografiya (**grekcha arheos– qadimgi va grafko - yozaman, ta’riflayman**) maxsus, yordamchi tarix sohasi bo‘lib, u quyidagilarni o‘rganadi:

- Yozma manbalarning umumiy nashrini;
- Nashr uchun manbalarni tanlashning prinsipi va uslubini, shuningdek, ularni nashrga tayyorlashni;
- Nashr bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar ishini;
- Arxiv va tarixiy manba (hujjat)larning nashr tarixi va tarixiy

manbalarning, matnlarning mazmuni;

- Tarixiy manbalarni nashr etishni.

Arxeografiya arxivshunoslik, **tilshunoslik, tarixshunoslik, manbashunoslik, paleografiya, tektologiya, diplomatika** kabi fanlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Arxeografiya yozma manbalarni nashr etishning nazariy va amaliy sohalarini o'rganuvchi fandır, u tarixiy yodgorliklarni yig'ib nashr etishning uslublarini, manbalarni ilmiy tanqidiy nashr etishning qoidalarini ishlab chiqadi. Arxeografiyaning vazifasi qo'lyozma manbalarni qayti ishlash usullari va nashrga tayyorlashdan iboratdir. Arxeografiya fan sifatida XII – XVIII asrlarda vujudga kelgan. Dastlabki hujjatlarning tanqidiy nashri XVI – XVIII asrlarda nashr etilgan. Arxeografiyaning vazifasi qo'lyozma manbalarni qayti ishlash usullari va nashrga tayyorlashdan iboratdir. Dastlabki arxeograflarni tayyorlovchi institut 1821 yilda **Fransiyada** asos solingan **Parij Xartiya maktabi** hisoblanadi.

XIX – XX asrlarda nashrga hujjatlarni mavzusiga qarab **arab va fors manbalarini nashr etish** ommaviy (**Germaniya va Fransiyada**) tus oldi. Ko'plab hujjatlar **Buloq (Qoxira yaqini)**da, **Arab qo'lyozmalar instituti (Misr, Qohira)**da, **Hindistonda, Eron, Yaponiya, Damashq (Suriya)**da ko'plab arab va fors manbalari nashr etildi.

Tayanch so'z va iboralar:

Piktografik yozuvi, arxeografiya, paleografiya, tektologiya, G'oz yodgorligi, Jarqo'ton, Sopollitepa, patreaxal oila, parfiya.

Nazorat uchun savollar:

1. Piktografik belgilarni eng avval kimlar ixtiro qilganlar?
2. Piktografik belgilarga oid yodgorliklar dunyoning qaysi xududlaridan topilgan?
3. Markaziy Osiyo xududidan topib o'rganilgan piktografik yodgorliklar?
4. Bu yodgorliklarda kim va qachon tadqiqot ishlari olib borganlar?
5. G'oz piktografik belgi haqida nimalar bilasiz?
6. Sopollitepa piktografik yozuvlar haqida nimalar bilasiz?
7. G'oz yodgorligida kim va qachon tadqiqot ishlari olib borgan?
8. Sopollitepa yodgorligida kim va qachon tadqiqot ishlari olib borgan.
9. Jarqo'ton yodgorligidan qanday arxeologik manbalar topilgan?
10. Jarqo'ton yodgorligida kim va qachon tadqiqot ishlari orli borgan?
11. Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda qadimgi yozma yodgorliklarning ahamiyati qanday?

4-§. MARKAZIY OSIYODA OROMIY YOZUVI YODGORLIKLARI

1. Oromiy yozuvining shakllanish tarixi.
2. O'rta Osiyodan topilgan oromiy yozuvi yodgorliklari.
3. Oromiy yozuvi asosida shakllangan qadimiy yozuvlar va yodgorliklar: Qadimgi Baqtriya yozuvi yodgorliklari, qadimgi Xorazm yozuvi yodgorliklari, Manixey yozuvi yodgorliklari.

Adabiyotlar:

1. Qadimgi Ўзбекистонда буддавийлик ва буддавий мерос. –Т., 2011.
2. Қаяумов А., Исҳоқов М., Отаҳўжаев А., Содиков Қ. Қадимги ёзма ёдгорликлар. –Т.: “Ёзувчи”, 2000.
3. Чориев З., Шайдуллаев Ш., Аннаев Т., Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. –Т., 2007.
4. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. –Т., 2004.
5. Эгамбердиева Н. Археология . –Т., 2011
6. Ҳомидов Ҳ. “Шоҳнома”нинг шухрати. –Т., 1991.
7. Фирдавсий. Шоҳнома. –Т., 1991.
8. Исҳоқов М. Суғдиёна тарих чорраҳаларида. –Т., 1990.
9. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.

Oromiy yozuvining shakllanish tarixi. Alfavitli yozuvning vujudga kelishi bilan ieroglif va mixxat yozuvlaridan foydalanilmay qo'yildi. Bu esa ko'p yozuvlarning muomaladan chiqib ketishiga olib keldi. Ilk alfavitli yozuv mil.avv 1100 yilda **Falastinda g'arbiy semit qabilalaridan biri Oromiylarda paydo bo'lgan.**

Dastavval **Suriyaning** cho'l qismida istiqomat qilgan **oromiylarning Suriya va Mesopatamiyaning** dehqonchilik uchun qulay bo'lgan unumdor vohalariga kelib o'rinishi miloddan avvalgi II ming yilning oxirida sodir bo'lgan.

Miloddan avvalgi XI-VIII asrlarda **oromiylarning Mesopatamiya hududida** bir qancha kichik davlatlari vujudga kelgan. Suriyaning **Damashq va Xamat** xududlari oromiylarning muhim markazlari hisoblangan.

Bu qabila nomi bilan atalgan **oromiy yozuvi shimoli-g'arbiy semit**

tiliga mansub bo'lib, ularning tili qadimgi **yahudiy** va **finikiya tili** bilan qardosh bo'lgan. Taxminan miloddan avvalgi I ming yillikdan Oromiy yozuvida **finikiya harflari** qo'llanila boshlangan.

Ossuriya davlati tomonidan oromiylarning ommaviy ravishda ko'chirilishi, **Tigr va Yefrot** daryolari oralig'idagi xududda oromiylarning keng tarqalishi, **savdogar va tijoratchilar** tomonidan savdoda oromiy tilining keng qo'llanilishi miloddan avvalgi I ming yillikda Mesopatamiyada oromiy tilining asosiy muloqat tiliga aylanishiga olib kelgan.

Miloddan avvalga VII-VI asrlarda o'rganish uchun qulay 22 harfdan iborat oromiy yozuvi **Old Osiyoda** hukmron bo'lgan **akkad, shumer va urartu mixxatlarining** qo'llanilishini keskin kamaytirgan. U 22 ta undosh va yarim undosh belgilardan iborat bo'lgan. **Finikiya alfaviti kirill, lotin va grek alfavitiga** asos solgan. Finikiya alfavitida **misr ierogliflarida** bo'lmagan tovush belgilari ham bo'lgan. Har bir finikiya xarfining nomi bo'lgan: **alef, bet, gimel, dalet, zayin va bq.**

Alfavitda harflar ketma ketligi qat'iy tartibda bo'lgan. Hozirgi alfavitlar unga nihoyatda kam o'zgartirishlar kiritilgan. **Grek**lar bu alfavitga **unli tovushlarni** kiritdilar va uni yanada takomillashtirdilar. **Lotin, kirill va runiy alfavitlari** shu alfavitlarning g'oyalari ostida yaratilgan.

Harfli alfavitni dastlab **greklar ixtiro** qilgan. Greklar alfaviti oson va aniq bo'lgani uchun uni darrov boshqa xalqlar **lidiyliliklar, frakiylar, etruslar** qabul qildi. **Lotin alfaviti** ham **grek yozuvi** asosida shakllangan.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda ko'plab xalq va elatlarni o'z tasarrufiga birlashtirgan, **Kichik Osiyodan Sirdaryo bo'ylari va Shimoli G'arbiy Hindistongacha** ulkan sarhadlarni tarkibiga qamrab olgan dunyoning eng qadimgi va ulkan imperiyasi **ahamoniy**lar Eronida **oromiy tili ma'muriy boshqaruv va ish yurituvchi tilga aylangan.** **Oromiy** yozuvi zaminida **fors** yozuvi shakllangan.

Oromiy kotib Eronda mahalliy fors, Midiyada midiyalik, O'rta Osiyoda parfiyalik, baqtriyalik, so'g'dlik va xorazmlik amaldorlarning og'zaki talaffuzi davomida ma'muriy va boshqa ishlarni oromiy tilda rasmiylashtirgan.

Tabiiyki, har bir viloyat (satraplik) amaldori oromiy kotibga ma'muriy ishlarni o'z tilida bayon etgan. Kotib esa ayni bir paytda har bir amaldorning mahalliy tilda bayon etgan fikrini oromiy tiliga o'gira olgan.

“Ayni shu jarayon tufayli, - deb ta'kidlaydi olimlar: **E.V.Rtvladze va V.A.Livshis**, - oromiy va mahalliy (O'rta Osiyoda **parfiya, baqtriya, so'g'd, xorazm**) tillarining o'ziga xos leksik va gramatik mutanosibligi yuzaga kelgan. Shu bilan bir qatorda oromiy tiliga, mahalliy tillarning ta'siri kuchaygan, oromiy tiliga mahalliy ma'muriy atamalar va iboralar kirib borgan, natijada oromiy so'zlar tuzilishi o'zgara borgan”¹.

Ta'kidlaganimizdek, O'rta Osiyoda oromiy xatining eng qadimgi namunasi miloddan avvalgi V-VI asrga oid. Sopol idish - xum sirtiga bitilgan bu yozuv arxeolog olim **M.Mambetullaev** tomonidan **Katta Oybuyrqal'a** shahrini o'rganish davomida topilgan. Mutaxisislar fikricha, bu xat bo'lagi **xorazm yozuvida** emas, balki **oromiyda** bo'lgan. Garchand shunday bo'lsada, bu xat oromiy yozuvining **Oks va Yaksart** oralig'ida tarqala boshlaganligining ilk namunasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi O'zbekiston xududida Oromiy yozuvi asosida **Xorazm, Baktriya, Sug'd yozuvlari** vujudga kelgan. Ularning tadqiqotchilar tomonidan o'qilishi tariximizning ko'pgina jihatlarini yoritishga imkon berdi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat izlari bugungi kunda o'z taraqqiyotini ko'rsatmoqda.

Qadimgi Baqtriya yozuvi yodgorliklari. Bu yozuv Baqtriya davlati hududlarida amalda qo'llanilgan. U oromiy-pahlaviy yozuvi variantlaridan biri bo'lib, Baqtriyadagi mahalliy so'zlashuv tiliga moslab, isloh qilingan yozuvdan iboratdir. U mil. av. II asrlarda yuzaga kelgan.

Baqtriya yozuvini fanga 1957 yilda **B.Xenning** tadqiqotlari olib kirgan. U **Afg'onistonda Bag'lon** xududida joylashgan **Surxko'htal yodgorligidan** topilgan yozuvni o'rganib, uning baqtriya yozuvi ekanligini aniqlagan.

Baqtriya yozuvi O'zbekiston xududidan dastlab 1962 yilda arxeolog **B.Ya.Stavskiy** tomonidan **Qoratepadagi g'orsimon buddaviylik ibodatxonasining devoridan** topilgan. Bu yozuvlar

¹ Чориев З.У., Шайдуллаев Ш.Б., Аннаев Т.Ж. Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. Т., 2007. 366.

ibodatxona devor betlariga bu joyga tashrif buyurgan shaxslar tomonidan **kursiv uslubida** bitilgan bo‘lib, u milodiy III-IV asrlarga oid.

Qoratepa yodgorligi topilmalaridan so‘ng baqtriya kursiv yozuvlari Surxon vohasining bir qancha qadimiy shahar, shahar-qal’a va buddaviylik ibodatxonalarini o‘rganish jarayonida topilgan bo‘lib, ular quyidagicha davrlanadi:

Eng qadimgi Baqtriya yozuvlari qayd etilgan yodgorliklar

Mirzaqultepa yodgorligi	M.avv. I – milodiy I asrlar
Fayoztepa yodgorligi	Milodiy I asr
Kampirtepa yodgorligi	Milodiy II asrning I yarmi
Qoratepa yodgorligi	Milodiy II – IV asrlar
Ayritom yodgorligi	Milodiy II – III asrlar
Zartepa yodgorligi	Milodiy III – IV asrlar
Dalvarzintepa yodgorligi	Kushon davri
Xotinrabot yodgorligi	Kushon davri
Xayitobodtepa yodgorligi	Milodiy IV – V asrlar

1969-1976 yillarda **arxeolog L.I.Albaum** tomonidan **Fayoztepa yodgorligidan** topilgan.

2004-2006 yillarda **arxeolog T.Annayev** tomonidan **Fayoztepa yodgorligini** qayta o‘rganish jarayonida sopol sirtiga bitilgan ikki xat namunasi topilgan. Bu sopol idish mil.avv. I-milodiy I asrlarga oid bo‘lgan. Shu bilan **baqtriya yozuvining** shakllanib borish jarayoni aniqlangan.

Kushonlar davlati xukmronligi davrida **baqtriya yozuvi** keng tarqalgan. **Kanishka** davrida tangalarda podsholarning ismlari ham **baqtriya yozuvida** yozilgan. Davlat tili **boxtar tili** bo‘lgan. Kanishka islohatlari bo‘yicha, **boxtar tili** va **yozuvi**ga mos tushmagan ismlar ham o‘zgartirilgan.

Milodiy 383 yildan Baqtriya o‘lkasi **baqtriya yozuviga** ko‘ra **Toxoriston** deb atala boshlangan. Uning xududi Baktriya xududi bilan teng bo‘lgan. Sima Szan toxarlar haqida ma’lumotlar yozib qoldirgan. Unga ko‘ra, **baqtriya xarfi** 25 ta bo‘lib, chapdan o‘ngga qarab yozilgan.

Baqtriya yozuvining 2 turi bo‘lgan: **mohobatli** yoki **lapidar va kursiv. Moxobatli yozuvlar** Surhko‘htal, Ayirtom va Kampirtepa

yodgorliklaridan topilgan. Kursiv yozuvlari Fayoztepa, Qoratepa yodgorliklaridan topilgan.

Termiz shahridan 20 km sharqda, Amudaryo bo'yida joylashgan **Ayritom yodgorligi** XX asrning 30 yillaridayoq jahonga musiqa asboblari o'ynayotgan, oq toshga o'yib ishlangan haykallar majmui bilan mashhur bo'lgan.

1979 yilda arxeolog olim **B.A.Turg'unov Ayritom yodgorligida Buddaviylik ibodatxonasi** bilan bog'liq inshootlarni o'rganish davomida yana bir muhim kashfiyotni aniqladi. Buddaviylik ibodatxonasining bir qismida **oq toshga** o'rnatilgan haykallar, va oqtosh asos yuza qismida mahobatli **baqtriya yozuvi** borligini aniqlandi.

Ayritom yozuvi yillar davomida tabiiy ofat va boshqa turli sabablarga ko'ra katta talofat ko'rishiga qaramasdan, baqtriya yozuvining taraqqiyoti nuqtai nazaridan o'ta beqiyosdir.

Ayritom yodgorligini tadqiq etgan olimlar: **V.A.Livshis, E.V.Rtvladze, B.A.Turg'unovning** fikricha bu tosh asosida dastavval 350-360 harf bo'lib, yuqori qismidagi besh qatorning har biri 60-65 harfdan, quyi, ya'ni 6 qator 51 harfdan iborat bo'lgan. Yozuvdan jami to'liq yoki qisman 260 ta harf saqlanib qolgan.

Ayritom yodgorligi yozuvlarida **Kushon podshosi Xuvishkaning** to'rtinchi yil hukmronligida **Shudia** ismli shaxsning **Ayritomga**, undagi tashlandiq holga kelib qolgan buddaviydlik ibodatxonasini tiklashga yuborilganligi, ibodatxonaga **Kanishka** nomi berilganligi haqida ma'lumotlar beradi.

Baqtriya yozuvi na'munalari, aniqrog'i **qayin po'stlog'iga** bitilgan qo'lyozmalar **Termizdan** 40 km g'arbda joylashgan **Kampirtepa yodgorligi** orqali ma'lum. **Kampirtepa yodgorligida** olim **V.E.Rtvladze** tadqiqot ishlari olib boradi va quyidagilarni aniqlaydi: **Kampirtepa** va yonidagi miloddan avvalgi V-VI asrga oid **Sho'rtepa yodgorliklarini** yozma manbalar bilan taqqoslab, **Oks bo'yidagi kechuv – "Pandaxeyon"** deb aniqlagan.

Kampirtepa yonidagi Sho'rtepa ahamoniylar Eroni hukmronligi davridayoq **Oksdagi** asosiy kesichuv joyi bo'lgan. Manbalarda

Kampirtepa Oksdagi Iskandariya deb talqin etilmoqda¹.

Kampirtepa yodgorligida qayin po'stlog'iga bitilgan **baqtriya yozuvlari** 1983 yilda qal'aning shimoli-sharqiy burchagidagi xonalarning birida uchragan. Kampirtepa yodgorligidan har xil kattalikdagi 2,2x1,6 sm; 2,9x1,2 – 1,3 sm; 0,8x0,3 sm yoki bir-biriga yopishgan naycha shaklidagi yupqa qayin po'stloqlarining kengligi 0,5 sm bo'lib, 0,1-0,2 sm qalinlikda saqlanib qolgan².

Kampirtepa yodgorligi yozuvlari **baqtriya - kursiv xatida** bitilgan. Yodgorlikdagi bu yozuvlar majmui **Kanishka** nomidan zarb etilgan tanga asosida milodiy II asrga oid deb aniqlangan.

Qadimgi Xorazm yozuvi yodgorliklari. Bu yozuv **oromiy yozuviga** juda yaqin bo'lgan. Bu alifbo Ahamoniylar dinastiyasi davridagi klassik **oromiy yozuvi** tarmoqlaridan biri hisoblanadi va u o'zida **qadimgi oromiy yozuvi** an'analari yaxshigina saqlab qolgan. Ushbu yozuv eramizning II asrigacha amalda qo'llanib kelgan.

Ularning eng qadimiysi **Qoraqalpog'iston** xududidan joylashgan **Oybuyirqal'a yodgorligidan** topilgan. Bu yodgorlik mil.avv. V-IV asrlarga oid bo'lib, u yerdan xum sirtiga yozilgan yozuv topilgan.

Bu yozuvni **M.M.Mambetullaev va V.A.Livshislar** o'rganganlar. Xumdagi yozuvni **V.A.Livshis** taxlil qilgan. Olim uni **oromiy yozuviga** asoslangan **xorazm yozuvi** deb aytgan. Yozuv **lotin yozuvida** quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan: **mrys (mry) XI h III III III**, ya'ni 11 mari 9-x. Bu xumning sig'imini bildirgan. Hajm o'lchovi **mari Eron, Parfiya, Misr va old Osiyoda** keng qo'llanilgan. Lekin ular turlicha belgilangan¹. Xorazmda 1 mari 16,5 yoki 17 litr bo'lgan. Xumga 200 litrga yaqin suyuqlik sig'gan². Bu topilma Xorazmda qo'llanilgan xajm o'lchovi haqida ma'lumot berdi.

Eramizdan oldingi IV-III asrlarga oid eng qadimgi yodgorliklar majmui esa endi aniq **xorazm tilidagi yozuvlar** ekanligidan dalolat beradi. Bu yozuv **Qo'y qirilgan qal'a** shaxarchasidan topilgan xumdagi yozuv

¹ Чориев З.У., Шайдуллаев Ш.Б., Аннаев Т.Ж. Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. Т., 2007. 496.

² Чориев З.У., Шайдуллаев Ш.Б., Аннаев Т.Ж. Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. Т., 2007. 496.

¹ Мамбетуллаев М.М. Хум из городища Большая Айбугиркала с древнейшей надписью в Средней Азии // "Вестник" ККО АН УзССР, 1979, № 1, с. 47; Его же. : Городища Большая Айбуйиркала, с. 99-100.

² Мамбетуллаев М.М. Городища Большая Айбуйиркала, с. 100.

bulib, faqat bitta **so'z-ASPABAREK- u otliq sipoxiy (chavandoz)** degan so'zdan iborat edi.

Professor **S.P.Tolstov** tomonidan eramizdan oldingi IV-III asrlar sanasi qo'yilgan va o'ziga xos belgilariga ega bo'lgan mazkur yozuv arxeologik va paleografik ma'lumotlarga ko'ra eng **qadimgi xorazm yozuvi** yodgorligi va **O'rta Osiyo Sharqiy Eron guruxi tillaridan birida yozilgan geterografik yozuv** tizimlarining eng qadimgi yodgorligi xisoblanadi.

Eramizdan oldingi I ming yillikning so'nggi asrlariga va eramizning dastlabki asrlariga ta'luqli ko'p miqdorda qadimgi afrig'idgacha bo'lgan xorazm tangalarida **kursiv** oldi bosqich **xorazm yozuvida** bitilgan yozuvlarni ham o'z ichiga olgan. Bular **Artamax, Vazamar, Sanobar** va boshqa shoxlar tomonidan chiqarilgan tangalar edi.

Yozuv yodgorliklarining ikkinchi majmuasi eramizning II-III asrlariga oid xorazm ma'muriy xo'jalik yozuviga xos yozuv yodgorliklari tashkil etadi, ularni 1948-1949 yillarda arxeologlar **Tuproqqal'a yodgorligini** qazish chog'ida topgan edilar.

Bu yerda **taxta va tayoqqa 18 ta hujjat, teriga yozilgan 8 ta** yirik matn parchalari, shuningdek chirib **ketgan teri o'ramalaridagi matnlarning** izlari bo'lgan 114 ta parcha bo'lib, ular bir vaqtlar mazkur o'ramlarni qoplagan va ular yordamida ikkilamchi loy qavatlarini xosil qilgan loy tufayli bizga qadar etib kelgan bo'lib, ularda matnning bir necha yorqin izlari saqlanib qolgan edi.

Qadimgi O'rta Osiyo yozuv tizimlari paleografiyasini tadqiq qilgan tarix fanlari doktori **M.M.Isxoqovning** qayd qilishicha, **Tuproqqal'adan** topilgan yozuv yodgorliklarida «**kursivlik** (yozma xarflarga o'girish) darajasi ancha yuqori» bo'lgan.

Tuproqqolchadan topilgan hujjatlarga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, -deb takidlaydi **M.M.Isxoqov**, - xorazm yozuvi eramizning III asriga kelib o'zining kursivlik bosqichiga yetgan va grafik tomondan «**imperiya-aramey yozuvidagi belgilardan ko'p jixatdan uzoqlashgan...**».

Xorazmiy yozuvi yodgorliklarning uchinchi majmui uning rivojlanishidagi ancha keyingi davrni, yozuv grafikasi erkin rivojlangan

kursiv bosqichiga o'tgan davrni aks ettiradi. VI-VIII **asrlardagi xorazm yozuvi yodgorliklari**ni qamrab oladi va VI-VIII asrlardagi kumush kadaxlardagi yozuvlardan (214, s. 159; 218; s. 165) iborat.

To'qqal'a yodgorligi qabristonidan o'rta asrda topilgan ossuariylardagi yozuvlardan va **Giyovur qal'adagi (Mizdakxon)** yozuvlardan tashkil topgan. Keyingi yozuvlar VII-VIII asrlarga oiddir. 60-yillarning boshlarida qabristonlarda o'tkazilgan dastlabki qazish ishlari natijasida 100dan ortiq yozuvlar topilgan bo'lib, ular orasida butunlay saqlanib qolgan bir qator matnlar ham bor edi.

Yozuvlarni o'qish fanga Xorazmdagi musulmon davridan oldingi zamon va **zardushtiylik dini**, jamiyatining tuzilishi oilalar tarkibi va ularning o'ziga xos xususiyatlari tarixi to'g'risidagi manbaviy materiallar g'oyat qimmatli material berdi, Xorazmning o'ziga xos yil xisobi- **Xorazm taqvimi, xorazm tili leksikasi haqidagi** ma'lumotlarni jiddiy ravishda to'ldirdi.

Qadimgi Xorazm hududida o'tkazilgan shundan keyingi arxeologik qidiruv ishlari, shak-shubxasiz, yangi tarixiy material berdi, **xorazm yozuvining** rivojlanishi bosqichlari haqidagi tassavurimizni yanada boyitdi. Tadqiqotchilar **A.V.Gudkova va V.A.Livishis**ning yozishlaricha, «**To'qqal'**ada chamasi, butun bir kutubxona joylashgan bo'lib u o'zining tuzilishi mazmuni va O'rta Osiyo xalqlari madaniyati tarixi uchun ahamiyatiga ko'ra butunlay noyobdir».

Yozuv yodgorliklari turtinchi majmuining qolgan barcha yodgorliklardan farqi shundaki, unga XI-XIV asrlarda yashab o'tgan mualliflarning **arab yozuvida** bitilgan asarlari kiritilgan, ularning matniga arab grafikasida yozilgan **xorazmcha sharxlar** ham ilova qilingan.

Ana shu yozuv qayd etilgan bosqichni **M.M.Isxoqov** qadimgi xorazm yozuvi rivojlanishidagi turtinchi arab yozuvi bosqichi sifatida ta'riflaydi, xorazm tilining sekin-asta barham topib borishi natijasida bu bosqich tarixan uzilib qoladi. Buyuk qomusiy olim, kelib chiqishi jixatdan xorazmlik bo'lgan **Abu Rayxon Beruniy** (973-1048)ning e'tirof qilishicha, xorazm tili uning uchun «tabiiy» til bo'lgan.

U o'zining «**Al asr al - baqiyaan al qurun al xoliya**» («**O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar**» yoki «**Xronologiya**») asarining

boblaridan birinchi xorazmliklarning bayramlari va taqvimini tasvirlashga bag'ishlab, unda hafta kunlarining, oylar, yulduzlari turkumi, bayramlarning xorazmcha nomlarini keltirib o'tardi.

V-VI asrlardagi arab mualliflari **Ibn Fadlan, Istaxriy, Muqaddasiy, as-Saolibiy Yoqut Hamaviyning jug'roriy, filologiyaga**, tarixga oid asrlarida, **Abul-Fazl Bayxaqiyning «Tarixi Mas'udiy»** asari va boshqalarda o'nlab xorazmcha so'zlar uchraydi.

Xorazmlik **az-Zamaxshariy** XII asrda yaratgan **arabcha-forscha lug'at «Muqadimot al-arab» («Yaxshi xulqlarga kirish»)** da 40 ga yaqin xorazmcha so'zlar (13 ibora) uchraydi. XII asrning birinchi yarimiga munosib bo'lgan **arab tilida** yozilgan fixkga doir xorazm tilidagi bir qancha yuridik formulalar tarjimasiz shundoq keltirib o'tilgan. Lekin eng ko'p xorazmcha sharxlar qariyb ikki yarim mingta xorazmcha ayrim so'z, ibora va xatto butun - butun dialoglar XII asrda Xorazmda yashagan qonunshunos **Muxtor az-Zoxidiyning «Kun'at al-mun'a...» («Istalgan narsaga ega bulish...»)** kitobida mavjuddir, XIV asrda qayta ko'chirilgan bu asr qo'lyozmasini 1936 yilda **SSSR FA Sharqshunoslik instituti** qo'lga kiritgan edi.

Bu qo'lyozma asar arab tilida yozilgan bulib, fors tiliga o'girilgan va uning asosiy matniga xorazmcha iboralar ham kiritilgan. Kitobning boblari nigoxdan o'tish va uni bekor qilishga, qasamiytga, xulq-atvor va odob qoidalariga bag'ishlangan. Qo'lyozma **Jalol al-Imodiyning** asari (asosan lug'at va sharxlar) bitilgan daftar va sharxlar, bitilgan daftar ilova qilingan edi. Asar **«Kun'at al-mut'a»** kitobida xorazmcha keltirilgan so'zlarni tushuntirishi deb ataladi.

Lug'at muallifi bunday yozadi: «Bu xorazmcha iboralar bu mazkur tilga mansub bo'lmaganlar uchun tushinarsizdir va qiyinlik qiladi, va tarjima qilib berishiga muxtoj bo'ladilar... muallif o'zi uchun noaniq tuyulgan so'zlarni bu tilni yaxshi biladigan kishilardan so'rab bilib olmaguncha ularning tarjimasini yozmagan.

Bu tilning nozik tomonlarini va xususiyatlarini yaxshi biladigan kishilarga murojat qilib, qandaydir ma'no, so'zning xaqiqiy ma'nosini anglatishini bilib olgandan keyingina uni o'z asariga kiritgan».

Ushbu lug'at muallifni 1333 yilda Urganchda **arab sayyoxi Ibn**

Batuta ko'rib qoladi. «**Kun'at al-mun'a**» kitobida mavjud bo'lgan xar bir xorazmcha so'zning batafsil sharxlanishi va tushuntirilishini iltimos qiladi. **Jalol al-Imodiy** unga, so'z va iboralarining, nikox, ajralish, qasamyod formulalari, xorazmcha o'ziga xos axloqiy va ma'naviy tushunchalarning tarjimasiga qarab, Xorazm tarixini, xorazimcha turmush tarzini nozik tomonlarini tushuntirib beradi. Yuqoridagilardan **Jalol al-Imodiyning**, Xorazm ijtimoiy-madaniy muxitini va xorazm tilini yaxshi bilganligiga ishonch xosil qilish mumkin.

Arab yozuviga bitilgan xorazmiycha matnlar **eronshunos M.N.Bogolyubovning** maxsus o'rganish ob'ekti bo'lib xizmat qildi, u mazkur matnlarni alohida arab grafikasidagi xorazmiy yozuvi namunasi sifatida qaragan.

«Xorazm tilidagi arab-xorazmiy alifbosida yozilgan qulay materiallarning imloviy usullari o'zining birxilligi bilan ajralib turadi, - deb ta'kidlaydi **M.N.Bogolyubov**. – Bu narsa shunday xulosaga kelishga imkon beradiki, mazkur matkriallar muayyan imlo tizimiga izchilik bilan amal qiladi, bu tizim xorazmliklarda arabcha alifbo yozuvi amaliyotida vujudga kelgan. Mazkur tizimning shartli tomonlari bir muncha qiyinchilik bilan ochib beriladi, chunki ular ayni vaqtning o'zida xorazm tilining tovush tarkibi to'g'risidagi, bu tildagi so'zlar, urg'ular va iboralar fonetikasi haqidagi tasavvurlarimizning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Fonetik prinsip xorazm tilida juda muxim rol o'ynagan. Xorazmiycha matnlardagi o'zlashtirma so'zlar yozilishining o'zgarishi ana shundan dalolat beradi. Xorazm imlosidagi yozuvning fonetik jixati tarixiy-morfologik prinsipdan ustunlik qilgan». Professor **A.A.Freyman** xorazmcha til materialini o'z ichiga olgan **arab yozuvi** manbalari asosida 1951 yili xorazm tili va tovush tarkibi va morfologiyasini asosiy xususiyatlarini tiklashga birinchi marta urinib ko'rgan.

Xozirgi vaqtda xorazmiy yozuviga oid ko'plab yodgorliklarga ega bo'lishga qaramasdan, xorazm tilining fonetik va grammatik tuzilishiga doir batafsil demokratik tasvir mavjud emas. Olimlarning bu masalaga doir muloxazalari izchil xususiyatga ega emas. Biroq, **V.B.Xenning**, **D.N.Makkenzi**, **V.A.Livining** asarlarida Xorazm grammatikasining asosiy nazariy masalalari Amaliy jixatdan ishlab chiqilganini qayd etib o'tish

kerak. Bu xol mazkur muammoning yaqin kelgusida xal etilishiga umid tug'diradi.

Xorazmiy yozuvi yodgorliklarini bir tizimga keltirish va palografik jixatdan urganish jiddiy muammolardan biri bo'lib, mazkur muammo ustida **M.M.Isxoqov** ko'p yillardan buyon ish olib bormoqda. Xozirgi vaqtda u ilk bosqichdagi yodgorliklarning batafsil ilmiy obrazini tuzib chiqqan, **xorazmiy yozuvining** kursiy bosqichiga doir materiallar to'plash, ularni bir tizimga kelitirish va polegrafik jixatdan tasvirlash ishlarini davom ettirmoqda. Mazkur ish qadimgi va ilk o'rta asr Xorazm yozuvi va kitob madaniyati tarixiga doir ko'pgina masalarga javob beradi.

Manixey yozuvi yodgorliklari. Kelib chiqishi va genetik ildizlariga ko'ra parfiyalik bo'lgan, lekin semit madaniy muxitida o'sib ulg'aygan **Patikanning** (216-277) o'gli **Manidir**. Uning diniy ta'limoti o'sha vaqtidagi ma'rifatli dunyoda olib borilgan jadal diniy izlanishlar avj olgan tarixiy bir davrda vujudga keldi. Bu ta'limot shaxsning ichki moyiyati namoyon bo'lishi sifatida uning madaniy olamining barcha tomonlarini aks ettirgan edi. Mani o'z talimotida **Yaqin Sharq, Yunoniston, Rim, Xindiston, Eron va O'rta Osiyo** q adimgi xalqlari ilmiy badiiy tafakkuri yutuqlarini ijodiy jixatdan qayta ishladi va taxlil qildi. Butun insoniyat uchun yagona diniy ta'limot yaratishga intilish Manining ko'p asarlarida aks etgan bo'lib, uni o'sha zamonda mavjud bo'lgan zardushtiylik, xristianlik kabi diniy qarashlardan ko'pgina narsalarini o'zlashtirishga undadi.

«Mani asarlariga qomusiy olimlik xos bo'lib, ularni o'qish uchun sharxlarga muxtoj bo'ladi, - degan edi **I.S.Braginskiy**. U o'z davrining afsonaviy va ilmiy, tarixiy va falsafiy bilimlarini (**falakiyot, geografiya, kimyo, astronomiya, matematika, botanika, tibbiyot va xokazolari**) qamrab olishga hamda ularni uzining olam tabiati falsafasi bilan tom ma'noda yoritib berishga xarakat qilgan, o'zining amaliy yaxshilik odobi va insonsevarligi bilan odamlar ommasini hayotga yaqinlashtirishga uringan». **I.S.Braginskiy** manixey yozuvining yaratilishini payg'ambar Mani bilan bog'laydi. Bu yozuv eramiz III asrining birinchi yarmida **aramey yozuvining** palmircha qiya yozuvi asosida yaratilgan va faqat manixey diniga doir matnlarni ko'chirish uchun ishlatilgan.

Manixey yozuvi alifbosi boshqa **oromiy yozuviga** asoslangan tizimlardan farqli o'laroq 29 ta xarfdan tashkil topgan, ya'ni u undosh tovushlarni ancha to'liq aks ettirishga moslashgan.

Monixey imlosining fonetikasi o'z tabiatiga ko'ra so'zlarni o'z davrida qanday talaffuz qilingan bo'lsa, yozuvda ham xuddiy shunday aks ettirish imkonini bergan, bunda albatta, iloji boricha masalan, yozuvning qisqa undoshlar uchun maxsus belgilar va shu kabilarning yo'qligi kabi xususiyatlarini xisobga olgan xolda ish ko'rilgan. Maniyning yangi diniy ta'limotini yoyish maqsadida uning tarafdorlari va izdoshlari manixeychilikning muqaddas kitoblarini va diniy targ'ibotlarini ko'chirganlar va **O'rta Osiyo** hamda **Eron** xalqlarining turli tillariga – **Parfiya, o'rta Eron, so'g'd, qadimgi turkiy, uyg'ur tillariga** tarjima qilganlar. Manixeylikni targ'ib qiluvchilar orasida ko'pgina rassomlar va kasbi chiroyli ko'chirishdan iborat bo'lgan xusnixatchilar ham bo'lgan. Manixey jamolarida kitoblar va tasviriy sa'natga e'tiqod kuchli edi. Manixeylarning kitoblar va tasviriy sa'natga bo'lgan munosabatidan ular barpo etgan ibodatxonalarning tuzilishi ham guvoxlik beradi. Bu ibodatxonalarda beshta asosiy zaldan biri, albatta muqaddas kitoblarga va tasviriy sa'nat asrlariga ajratilgan. O'rta Osiyolik buyuk olim **Beruniyning** guvoxlik berishicha, «turli dinlarga e'tiqod qiluvchi kishilardan ko'plari chunonchi: **yaxudiylar, xristianlar** va ayniqsa, **manixeylar** kitoblarda va ibodatxonalarda tasvirlar yaratishga moyildirlar».

Turli-tuman manbalarda saqlangan ayrim ma'lumotlarga qarab fikr yuritiladigan bo'lsa, manixeylarning kitoblari miniatyuralar bilan bezatilar, ularda odamlar ham, xayvonot va o'simliklar dunyosi ham geometrik va o'simlik orgumentlari ham aks ettirilar, kitoblar charm muqovalar bilan ziylatlanardi.

Manixeylarda ularning o'zlari tomonidan ishlab chiqilgan turli tarkibdagi bo'yoqlar, siyoxlar, ularning o'zlari maqul ko'rgan oxanglar va naqsh kompozitsiyalari bo'ladi. Manixey diniy qonunlarini qamrab olgan etti kitobdan iborat to'liq to'plamni X asrdayoq **O'rta Osiyo** shaxarlaridan topish mumkin edi.

Manixey yozuvi yodgorliklariga avvalo payg'ambar **Mani** tomonidan yozilgan kitoblar mansub bo'lib, ulardan ettitasi manixey diniy

qonunlariga kiritilgan, shuningdek uning izdoshlari tomonidan yozilgan o'nlarcha asarlar ham yodgorliklar sarasiga kiradi. Ulardan bizgacha ayrim parchalar xolida etib kelgan kitoblarga qarab muallifning va asarning nomini bilib olish qiyin bo'lib, ular **M.Boysning «Katalog»**ida xisobga olingan

Manining kitoblari haqida ham deyarli aytish mumkin, uning asarlaridan birortasining ham matni bizgacha to'liq etib kelmagan, ular yo umuman saqlanmagan, yoxud parcha-parcha xoldagi qo'lyozmalar shaklida saqlangan, ba'zi parchalar **xristian** va **musulmon mualliflarining** asarlarida keltirilgan.

Shunga qaramasdan, olimlar tomonidan uzoq vaqtlar mobaynida olib borilgan tarixiy-filologik izlanishlar natijasida **Mani** asarlaridagi **manixiy qonunlarining** nomlari va joylashtirish izchiligini aniqlash bilan bir qatorda, uning ayrim kitoblari mazmunini ochib berishga va tavsiflashga muvaffaq bo'lingan.

Shunday qilib, manixey diniy qoidalariga **Manining «Paxlavonlar haqida kitob», «Xatlar»** manixeylik qoidalari to'g'risidagi **xitoy hujjatida O'rta Eron tillaridagi** maktublar to'plamiga **«In-van»** ya'ni 29 **«Divan»** degan nom berilgan: u **«div» (xat)** so'zining ko'plik shaklidir: **«Divan»** so'zi to'plamining nomi sifatida **suriya va mandey** tillariga **O'rta Eron tilidan** o'zlashtirib olingan, shunga asoslanib olimlar bu **mani** xatlarining payg'ambarning o'zi tomonidan birinchi marta berilgan chinakam nomidir, degan xulosaga kelganlar (**«Oyatlar va dublar»**) Mani asarlari ro'yxatidan shu narsa ma'lumki, u ayrim ibodat asarlari ham yaratgan, lekin ularni payg'ambarning o'zi mustaqil kitob qilib birlashtirgan, deb aytish qiyin.

Xar xolda manixeycha **«Oyatlar kitobi»** O'rta Eron tilida **«Afrinsar»** nomi bilan, Parfiya tilida esa **«Afrinvansar»** nomi bilan mashxur bulib, V asrdayoq mavjud bo'lgan.

A.Yozoberdiyevning yozishicha, diniy qoidalar tarzidagi asarlar jumlasiga ettita asardan tashqari, Mani asarlari mazmuniga mos keladigan rasmlar kitobi ham kiradi, mazkur rasmlarni uning o'zi ishlagan edi. **Parfiya tilida** bu kitob **«arjang»** deb atalardi. Mazkur kitob keyinchalik uzoq vaqt saqlangani to'g'risida **Abu-l-Ma'alining** bergan ma'lumoti

asosida xukm chiqarish mumkin.

U Eron tilidagi nodir asar xisoblangan **«veyane al-aydan» (din haqida xikoyalar)** asarining muallifidir. Bu kitobda u quyidagilarni ta'kidlagan: «aytishlaricha, Mani bir parcha oq shoyiga shunday rasm chiza olardiki, bordiyu, undan aqalli bitta ip sug'urib olinsa, barcha chizilgan narsalar yo'q bo'lib ketardi: u xilma-xil rasmlar solingan kitobning muallif bo'lib, bu kitobni **«Arjang Mani»** deb atashardi: bu kitob **Gazni shaxrining xazinasida (ya'ni kutubxonasida)** saqlanadi». Bu so'zlar 1092 yilda yozilgan. **«arjang»** shak-shubxasiz, buyuk sa'nat asaridir, chunki uning nomi keyinchalik **Eronda** va butun **Yaqin Sharqda** sa'nat durdonasini ifodalaydigan turdosh otga aylanib ketdi. **«Arjang»** kitobiga kiritilgan rasmlar mazmunini ochib beradigan mustaqil bir kitob ham bor edi. Bu kitob **«Arjang vifraz» («Arjang talqingi»)** deb atalardi. Bu kitobdan olingan parchalar **parfiya tilida** bizning kunlarimizgacha yetib kelgan.

Tayanch so'z va iboralar:

Arjang vifraz, veyane al-aydan, Afrinvansar, Afrinsar, Mani xatlari, In-van, Divan, div, Manixey yozuvi alifbosi.

Nazorat uchun savollar:

1. Manixey yozuvi alifbosi yodgorliklari qayerlardan topib o'rganilgan?
2. "Div" so'zining ma'nosi nima ?
3. "In-van" qanday ma'noni anglatadi?
4. Bu yodgorliklarda kim va qachon tadqiqot ishlari olib borganlar?
5. "Arjang vifraz" deganda nima tushunilgan?
6. Mani kim edi?
7. Manining ta'limotida qanday g'oyalar ilgari surilgan?
8. "Oyatlar kitobi" nechanchi asrda mavjud edi?
9. Mani yozuvi necha harfdan tashkil topgan?
10. «Kun'at al-mun'a» kitobida qanady g'oyalar o'z aksini topgan?

5-§. QADIMGI ERON YOZMA YODGORLIKLARIDA MARKAZIY OSIYO TARIXINING AKS ETTIRILISHI

1. **Bexustun qoyatosh yozuvi, Suza yozuvi va ularning tahlili.**
2. **Naqshi Rustam va Persopol saroyi yozuvlarida Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzining ifodalanishi.**

Adabiyotlar:

- 1.Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш –энг олий саодатдир. –Т., 2015.
- 2.Асқаров А.А Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т.: Университет, 2007.
- 3.Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни Т.: Шарқ, 2001.
- 4.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.1.—Т.12. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” , Давлат илмий нашриёти, 2000-2006.
- 5.Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Тошкент, 1996.
- 6.Ўзбекистон тарихини ўқитиш ва ўрганиш бўйича материаллар (“Тафаккур сарчашмалари” туркумидан). Тошкент, 2007.
- 7.Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart.A History of the World from the
- 8.Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York,2011.
- 8.Mulladjanova R.A. O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi fanidan mashg‘ulotlarni o‘tkazish texnologiyalari

Miloddan avvalgi II – ming yillikning ikkinchi yarmi **Eron va Turon** zamin uchun tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va siyosiy voqealarga boy davr bo‘ldi. Avesto manba’sining real hayot va diniy rivoyatlar asosida bitilgan ma’lumotlarini taxlilida Fors va Eron atamalarini O‘rta Sharqda paydo bo‘lishini qadimgi xalqlar migratsiyasi bilan bog‘lash an’anaga aylandi. Ana shu an’anaga asoslanilsa, forslarning ajdodlari - **oriylar** dastlab akkadcha “**Elamtu**”ga (“**Tog‘li mamlakat**”) joylashgan. **Elamitlar** esa o‘z yurtlarini “**Xotamtu**” deb ataganlar. Qadimgi “**Xotamtu**” (“**Elamtu**”) hozirgi Eronning janubiy-g‘arbiy qismi hisoblanadi.

Bu joyda oriylar makon topgach, “**Xotamtu**” **Persua** deb ataladigan bo‘ldi. Manba’larda rivoyat qilinishicha, uzoq zamonlarda bu joylar shumerlilar tomonidan “**Nim mamlakati**”, yani “**balanddagi mamlakat**” deb yuritilgan ekan.

Rivoyatlarga ko'ra, shu yurtga qachonlardir (arxeologik manba'larning taxliliga ko'ra, miloddan avvalgi II- ming yillikning ikkinchi yarmida) shimoldan **oriylar** bostirib kelib, xukmronlikni qo'lga kiritgan va o'z charva mollarini boqib yurishgan.

Avestoda ular "**arya**" deb yuritilgan, ya'ni ozod, erkin chorvador qabilalar. Sekin-asta ular mahalliy dehqon jamoalari ustidan o'z xukmronliklarini o'rnatib, janubiy-g'arbiy Eron hududlarini xo'jayiniga, egasiga aylanadi. Miloddan avvalgi VIII asrning oxiri va VII asrning boshlarida oriylarning nufuzli sardorlaridan biri **Ahamen** o'z sulolasiga asos soladi.

Miloddan avvalgi VII asrda uning o'g'li Chishpish fors qabilalarining ittifoqini tuzadi. Taxminan miloddan avvalgi 640 yilga oid mixxatlarda **Parsumash**, ya'ni fors mamlakatining podshosi sifatida Kir I tilga olingan. U bir necha mahalliy podsholiklarni birlashtirib yagona davlat barpo etadi. Miloddan avvalgi 559 yilda Kir II hokimiyatga keladi.

Bu haqda miloddan avvalgi 550 yilga oid Vavilon xronikasida Kir IIning Parsuani hukmdori ekanligi eslatiladi. Kir IIning podsholik davrida Yaqin **Sharqda Midiya, Lidiya, Vaviloniya** va **Misr** kabi yirik davlatlar mavjud edi. U avval **Midiyani** bosib olib, **Elamni** o'ziga qaratdi. So'ng **Vaviloniya** va **Lidiyani** qo'shib oldi. Endi, Kir II ning hujumlari **Baqtriyaga** va saklarning yerlariga qaratildi.

Miloddan avvalgi 545-540 yillarda ahamoniylar **Baqtriya, Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya va Sug'diyona viloyatlarini** bo'y sundiradilar. Miloddan avvalgi 530 yilda KirII massagetlar yurtiga bostirib kiradi. Kir tomonidan **O'rta Osiyoni** bosib olish jarayonini uch bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqichda u **Parfiya** va **Kaspiy** bo'yi saklari ustiga yurish qildi; **ikkinchi bosqichda** Baqqtriya va Amyurgiya saklari ustiga yurish; **uchunchi bosqichda** Orol bo'yi saklari (massagetlar- M.R) ustiga yurish.

Parfiyani qo'shib olinishi va Kaspiy bo'yi saklari ustiga yurish Midiyani tor-mor qilinishidan keyinroq boshlangan edi. Miloddan avvalgi 530 yili Orol bo'yi saklari (massagetlar) ustiga uyushtirilgan urush KirII uchun muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Orol bo'yi saklari miloddan avvalgi 518 yilda Doro I tomonidan istelo qilingan.

Doro I istelolariga yakun yasab ta'qidlash joizki, uning davrida (miloddan avvalgi 522-486 yillarda) ahamoniylar sulolasi **Hind vodiysidan O'rta er dengiziga qadar hududlarda o'z xukmronligini o'rnatadi.**

Ana shu istilolar natijalari, ahamoniylardan (soliq) to'lovchi mamlakat va xalqlar nomi ahamoniy podsholarining qoyatoshlarda, **Persopol shahridagi** shoh saroyi ko'tariluvchi pillapoya devorlarida, **Suza shahrida** qad ko'targan Doro I haykal yozuvlarida keltirilgan.

Ular haqida **V.V.Struve, V.V.Bartold, M.M.Dyakonov, I.M.Dyakonov, V.I Abaev, M.A.Dandamaev, E.A.Grantovskiy** va boshqalar ko'p yozganlar.

Ular tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, ahamoniy podsholarining bitiklari qadimgi fors tilida yozilgan turli ijtimoiy, siyosiy va diniy masalalarga doir podsho buyruqlaridan va nutqlaridan iborat.

Behistun yozuvlari. Bu kitoba **Doro I** davrida Karmanshoh va **Hamadan shahri** o'rtasidagi yo'lda baland qoyatoshda qadimgi **fors, elam** va **akkad tillarida** bitilgan. Yozuvda shoh Doro I habar qiladi: "Men-Doro, ulug' podsho, shahanshoh, mamlakatlar podshosi, **Vishtasp** o'g'li, Arshan nevarasi, Ahamoniy. Axuramazda irodasi bilan quyidagi davlatlarni qo'linga kiritib, ularning podshosi bo'ldim: **Fors, Elam, Bobil, Ossuriya, Arabiston, Misr, Lidiya, Moniya, Armaniston, Kappadokiya, Parfiya, Drang'iyona, Arya, Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona, Gandxara, Saka, Sattagadiya, Araxoziya, Maka.** Hammasi bo'lib 23 davlat".

Shoh Doro I davom etib, "Men Bobilda bo'lganimda, quyidagi davlatlar mendan ajralib chiqib ketganlar: **Fors, Elam, Midiya, Ossuriya, Misr, Parfiya, Marg'iyona, Sattagodiya, Saka**".

Behistun yozuvida yana quyidagi habarlarni o'qiymiz: "Marg'iyona nomli davlat mendan ajralib chiqib ketdi. Marg'iyonalik Frada ismli bir odam o'zini viloyatning hokimi deb e'lon qildi. Keyin men, Baqtriya satrapi, bo'ysunuvchi odamim fors Dadarshishni chaqirib, unga gapirdim: "Menga bo'ysunmaganlarni tor-mor qilish kerak".

Dadarshish qo'shinlari bilan o'tlanib, marg'iyonaliklar bilan jang qildi. Axuramazda menga yordam ko'rsatdi. Axuramazda irodasi bilan mening

qo‘shinlarim qo‘zg‘olonchilarni butunlay mag‘lubiyatga uchratdi.... Mana men Baqtriyada nimalarni qildim”.

Podsho Doro I yana o‘z yutuqlari haqida so‘zlashni davom ettirib, deydi: “Bundan so‘ng men saklarga qarshi ular yurtiga bostirib bordim, ularning o‘zlari cho‘qqi qalpoq kiyib yuradilar. Men daryoga yetib keldim. Ularning sardori Skunxa ismli odamni tutib, mening huzurimga keltirdilar. Men o‘z xohishim bilan saklar yurtiga yangi boshlik tayin qildim. Shundan so‘ng mamlakat mening qo‘l ostimga o‘tdi”.

Naqshi Rustam. Doro I Behistun yozuvlarida Ahamoniylar davlatining g‘arbiy viloyatlarini ko‘rsatib bergan bo‘lsa, **Naqshi Rustam** yozuvlarida mamlakatlar ro‘yxati **Midiya** va **Elamdan** so‘ng sharqiy viloyatlardan boshlanadi.

Doro so‘zi: “Men-Doro, ulug‘ podsho, shahanshoh, ko‘p qabilalar mamlakatlarning podshosi, keng sayhon yerlarning podshosi, Vishtasp o‘g‘li, Ahamoniy, fors, forsning o‘g‘li, oriylar urug‘idan kelib chiqqan oriy. Fors viloyatidan tashqari quyidagi mamlakatlarni men bo‘ysundirganman, menga xiroj to‘lovchi bo‘lgan, mening so‘zimni ijro etgan, mening qonunimga asoslanib rivojlanayotgan: **Midiya, Elam, Arya, Baqtriya, Sug‘diyona, Xorazm.... Saka Xaumavarka, Saka Tigraxauda...**dengizdan narigi yerdagi saklar”.

Suza yozuvi. Doro I ning Suza shahridagi podshoh saroyida o‘rnatilgan xaykalidagi yozuvlarda **Baqtriya, Sug‘diyona** va **Xorazmdan** tashqari “balchiq va tuproq o‘lkasi saklari” tilga olinadi. Suzadan topilgan yana bir yozuvda Doro I e‘lon qiladi: “Suzadagi saroyi men bino qilganimda uning bezaklari uzoq yurtlardan olib kelingan. Uaka yog‘ochi –Ganxaradan, oltin – Sard va Baqtriyadan, yaltiroq toshlar va lojuvard-Sug‘dionadan, firuza-Xorazmdan, kumush va bronza – Araxoziyadan, tosh ustunlari-Elamdan yetkazib berilgan”.

Persepol devorlaridagi bo‘rtma rasmlar. Persepol (Taxti Jamshid) shahrida Doro va Kserks saroyiga olib boruvchi tosh pillapoya devorlariga Eron ahamoniylariga tobe mamlakatlardan xiroj olib kelgan vakillar suratlari burtma uslubda ishlangan.

Xaykaltarosh har bir mamlakatdan kelgan vakillarni savg‘a-salomlari bilan shunchalar real tasvirlaganki, ularni qaysi bir xalqqa tegishli ekanini

aniqlash qiyin emas. Chunki, suratlarda ularning qiyofasi, kiyim-boshlari, qurollari, xatto ularga xos an'anaviy hayvon suratlari ham o'z aksini topgan.

Masalan, Sug'diyonadan kelganlar devoriy suratlarda **8-qatorni** tashkil etadi. Ular yetti kishidan iborat bo'lib, shohga kumush idishlar, ipak matolari, noma'lum hayvon terisi (Sher bo'lsa kerak) va ikki qo'yni yetaklab kelayotgani tasvirlangan.

O'n birinchi qatorda cho'qqi qalpoq kiygan **tigraxauda saklari** tasvirlangan. Ular kiyim-boshlarni ko'tarib, dasht otini yetaklab bormoqdalar. O'n beshinchi qatorda baqtriyaliklarning besh vakili asl metallardan ishlangan qimmatbaho idishlarni ko'tarib va ikki o'rkachli tuyani (bakrianani) yetaklab bormoqda.

O'n ettinchi qatorda xorazmliklar, ularning qo'llarida dudama xanjar, jangavor harbiy bolta, bilaguzik va jiyron otni yetaklab bormoqdalar.

Shunday qilib, Persepol suratlari **Sug'diyona, Baqtriya, Xorazm** xalqlari va sak qabilalarining nafaqat kiyim-boshlari va ularga xos xunarmandchilik haqida, balki bizni qiziqtirgan jabha - O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari etnik tarkibi to'g'risida noyob ma'lumotlar beradi.

Shuningdek, O'rta Osiyoning tub joyli aholisi to'g'risidagi tasavvurlarimizni boyitadi. Umuman olganda, Ahamoniy bitiklarida qadimda yashagan yurtimiz xalqlarining viloyatlari, xalqlarining nomlari, siyosiy jarayonlar (Frada qo'zg'oloni), saklar yurtiga qarshi yurishlar, iqtisodiy hayot va moddiy madaniyat to'g'risida ilmiy manbaviy ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Tayanch so'z va iboralar:

Geradot, saklar, massagetlar, Ahamoniy, Frada qo'zg'oloni, etnik tarkib, baktriana, Taxti jamshid, persepol.

Nazorat uchun savollar:

1. Bexiston qoya tosh bitiklarida nimalar aks ettirilgan?
2. Bexiston qoyatosh bitiklari kimning buyrug'iga asosan yozib qoldirilgan?
3. Suza yodgorligida aks etgan tarix xaqida nimalar bilasiz?
4. Bu yodgorliklarda kim va qachon tadqiqot ishlari olib borganlar?
5. Sak qabilalari haqida nimalar bilasiz?
6. Bexistun qoya toshlarda Markaziy Osiyoda yashagan qabilalar haqida nimalar deyilgan?

6-§. QADIMGI VA O`RTA ASRLARDAGI YOZMA YODGORLIKLAR.

1. Yunon grafikasi asosidagi yozuvlar tizimi yodgorliklari.
2. Yunon yozuvi asosida yozilgan yodgorliklar.
3. Hind yozuvlari tizimi. Hind yozuvlari brahma va kxaroshti yozuvi.
4. Hind yozuvlari tizimining O`rta Osiyoga kirib kelishi.
5. Qadimgi turkiy yozuvning paydo bo`lishi.

Adabiyotlar:

1. Чориев З. Шайдуллаев Ш. Аннаев Т. Ўзбекистон худудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. –Т., 2007.
2. Қаюмов А. Исҳоқов М... Қадимги ёзма ёдгорликлар. –Т., 2000.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.1.—Т.12. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти, 2000-2006.
4. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Тошкент, 1996.
5. Ўзбекистон тарихини ўқитиш ва ўрганиш бўйича материаллар (“Тафаккур сарчашмалари” туркумидан). Тошкент, 2007.

Yunon grafikasi asosidagi yozuvlar tizimi. Mil avv. 327 yilda Markaziy Osiyo xududi Iskanlar Zulqaynar tomonidan zabt etilgach, barcha qis`hloq va s`haxarlar vayron etiladi. Birgina Surxondaryo xududida 40ga yaqin qis`hloq va shaxarlar butunlay vayron etilgan.

Makedonlar tomonidan tas`hkil etilgan shaharlar esa, greklar uchun harbiy tayanch vazifasini o`tagan. Shu davrda Markaziy Osiyo xududiga **yunon alifbosi** kirib kelgan. Bu davrda davlat ishlarini yuritishda **oromiy yozuvi** bilan birgalikda **yunon yozuvi** ham ishlatilgan.

Salavkiylar davlati tashkil etilgach, mil avv. III asrdan bu yerda iqtisodiy va madaniy rivojlanish kuzatiladi. Bu davrdan **yunon yozuvi** va **tili rasmiy tarzda joriy etildi**.

Shu davrdan bizgacha ko`p miqdordagi zarb qilingan tangalar yetib kelgan. Ularda Yunon afsonalari aks ettirilgan. Yunon yozuvi asosida yozilgan yodgorliklar Baqtriyasida **Oyxonim** shaxarchasi kutubxonasidan ko`plab topilgan. Oyxonim shaharchasi bugungi kunda Afg`oniston xududida, **Qunduz daryosining** Amudaryoga quyilish joyda joylashgan

ellinizm davri shahri. Buni dastlab fransuz arxeologi **P.Bernar Oksdagi Iskandariya** deb aniqlangan edi. Keyinchalik P.Bernarning shogirdlari **F.Grene, K.Rapenlar** bu shaharni **Yunon – Baqtriya** shohi **Evkradit** nomi bilan bog‘lab “**Evkraditiya**” deb ataganlar.

Bu yerdan topilgan ko‘plab yozma manbalar **Yunon-Baqtriya** davlatida **rasmiy til yunon tili bo‘lganligini** isbotlaydi. Shuningdek, mahalliy aholi **Yunon-Baqtriya** davlatini boshqaruvida faol ishtirok etganlar. Bu topilmalar orasida baqtriyalik amaldorlarning ismlar ham **yunon tilida** yozilganlari topilgan.

Kampirtepadan mil avv. III-I asrlarga oid **yunon yozuvida yozilgan xatlar** topilgan. **Kampirtepa yodgorligi** XX asrning 70 yilarida **E.V.Rtvladze** boshchiligidagi tadqiqotlar jarayonida o‘rganilgan. **Janubiy Tojikiston** xududidagi **Yovon**, shuningdek, **Vaxsh** va **Panj** daryolari qo‘shilish joyida joylashgan Oks-Amudaryoga bag‘ishlab buvnyod etilgan **Taxti - Sangindagi “Oks ibodatxonasidan” yunon yozuvida** yozilgan matnlar topilgan.

Ushbu yodgorliklar XX asrning 70-yillarida **B.A.Litvinskiy** boshchiligidagi **Janubiy Tojikiston** arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tadqiqotlari jarayonida o‘rganilgan. Yunon yozuvi mil.avv. IV asrning oxirlaridan milodiy I asrgacha mavjud bo‘lgan.

Yunon yozuvi va tili rasmiy yozuv va til sifatida dastlabki **Kushon pods‘holari Kujula Kadfiz** va **Vima Kadfiz** davridagi ayrim tangalarda foydalanilgan.

Ular boshqa mamlakatlar bilan bo‘lgan aloqalarida **xind yozuvi va tilidan** ham foydalanilgan. **Kujula Kadfiz** tangalarining tuzilishi **Yunon, xind-sak** va **Rim** tangalariga o‘xshash bo‘lgan.

Ularda aks ettirilgan afsonalar ko‘pincha ikki tilda – **xind va Yunon tillarida** bo‘lgan. **B.Ya.Staviskiyning** izoxlashicha, bu «**Kushon imperiyasini jaxon miqiyosida qaror toptirishiga urinishdan iborat bo‘lgan...»**.

Kanishka davrida (eramizning 78 yili) **Kushonlar davlatida** ichki va tashqi vaziyat keskin o‘zgardi. Kushon davlatining tasiri **Markaziy va Sharqiy Turkistonga, Shimoliy va Shimoliy-G‘arbiy Xindistonga** ham yoyildi. Baqtriyaning ichki iqtisodiy ahvoli ancha mustaxkamlandi.

Kanishka tomonidan o'tkazilgan isloxotlar orasida yozuv ham bor edi. Olimlarning aniqlarishicha, bunda **Yunon alifbosi** an'anaviy tarkibi saqlanib qolgan, faqat «Ch» xarfining vazifasi o'zgargan, u **Baqtriya tilida sh** tovushini anglatgan.

Hind yozuvlari tizimi. Kushon podsholari **Kujula Kadfiz** va **Vima Kadfiz** davridagi ayrim tangalarda foydalanilgan. Bu podsholarning boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan aloqalarida **xind yozuvi va tilidan** ham foydalanilgan. Kujula Kadfiz tangalarining tuzilishi **Yunon, xind-sak va Rim** aloqalariga taqlid sifatida belgilangan. Ularda aks ettirilgan afsonalar ko'pincha ikki tilda – **xind va Yunon tillarida** bo'lgan.

Hind yozuvlari: brahma va kxaroshtxi bo'lgan. Ularning O'rta Osiyoga kirib kelishiga O'rta Osiyoning janubiy qismi **Surxon vohasida** buddaviylik dinining kirib kelishi bilan bog'liqdir.

2003-2006 yillarda olib borigan tadqiqotlar natijasida **Fayoztepa**dan sopol sirtiga qora siyohlar bilan bitilgan qadimgi hind yozuvi namunalari topildi. Bunday yozuv turlari **Qoratepa ibodatxonasidan** ham topilgan. Bu yozuvlarni xindshunos olimi **V.Vertogradova** tomonidan o'rganilgan.

Uning “**Eski Termizdagi Qoratepaning hind epigrafikasi**” Moskvada 1995 yilda chop etilgan. Buddaviylik ibodatxonasidan topilgan bu yozuvlarda buddaviylik ta'limoti, hikmatlar yozilgan. Shuningdek, unda uni taqdim etgan shaxs va idish egasiga bag'ishlangan.

V.Vertogradova va **R.Solomon**larning olib borgan tadqiqotlari natijasida **Tarmita (Eski Termiz)** va uning atroflarida buddaviylik **Xinayana ta'limotining Mahasanghika maktabi** mavjud bo'lgan.

Mahasanghika maktabi vakillari buddaviylikka **Bodhisatva** (shaxzoda **Siddxartxanin yos'hligi**) obrazini va stupaga sig'inish kabi ibodatning yangi ko'rinishlarini kiritganlar.

Bu **Fayoztepa** va **Qoratepa ibodatxonalarining** qurilishi bilan bog'liq, ular mil avv. I asr –mil I asrlarda bunyod etilgan. **Fayoztepa yodgorligidan** milodiy I-IV asrlarga oid **hind yozuvlari** topilgan. Ular tajribali **kalligraflar** tomonidan yozilgan.

Ilk o'rta asrlarda **Shimoli-G'arbiy Toxariston** (Surxon vohasi) xududida ham buddaviylik dini keng tarqalgan. 629 yilda Toxariston

bo'ylab sayoxat qilgan **Syuan Szan Tarmitada 10 ta buddaviylik ibodatxonasi va** ularda 1000 dan ortiq kohin bo'lganligini yozib qoldirgan. **Chag'oniyonda (Surxon voxasining s'himoliy qismi)** 5 ta ibodatxona bo'lgan.

Ilk o'rta asrlarga oid **Zangtepa yodgorligi** (Surxondaryo viloyatining Angor tumani) dan **qayin po'stlog'iga braxma yozuvida** bitilgan 12 sanskrit qo'lyozma parchalarini topilgan.

Buddiviy rohiblar buddaviylik dinini **Xitoy va Uzoq Sharqqa** yoyishda muxim o'rin tutganlar. Toxoristonlik buddaviy rohib **Dxarmaraksha** 284 yildan 313 yilgacha **Chan'anda** (Xitoy poytaxtiga yaqin joy) yuzdan ziyod buddaviylikni targ'ib qilis'hga asoslangan asarini xitoy tiliga tarjima qilgan va bir necha ming kohin ta'lim olgan ibodatxonaga asos solgan. Tarmitalik kohin **Dxarmamitra** Tibetda buddaviylikning qaror topishida va buddaviylik asarlarini **xitoy tiliga** tarjima qilishda muxim rol o'ynagan.

Qadimgi Turkiy yozuvlar tizimi. Qadimgi **turkiy yozuvning** paydo bo'lish vaqtini eramizdan oldingi I ming yillika mansub deyishadi. Xozirgi vaqtda Yevropa va Osiyoning turli mintakatlarida bu yozuvga doir topilgan yodgorliklarning umumiy soni 300 ga yaqinlashib qoldi.

Markaziy Osiyo eng qadimgi madaniyat va ma'rifat o'choqlaridan biridir. Bu territoriyada yashagan xalqlar juda qadimdan yozuv madaniyatiga ega bo'lganlar.

Arxeologik tekshirishlar **Xorazmda** yashagan xalqlar eramizning boshlaridayoq (III asr) ancha rivojlangan yozuv sistemasiga ega ekanliklarini isbotlab berdi.

Tojikiston territoriyasidagi **Mug' tog'ida (Zarafshon daryosining chap qirg'og'ida)** qazuv ishlari (1933 yil) vaqtida arxeologlar VIII asrga oid **sug'd yozuvida** bitilgan qimmatli hujjatlarni qo'lga kiritdi.

Bundan tashqari, **Sibirda, Mo'g'ulistonda, Qozog'iston va Markaziy Osiyoning** turli joylarida **ikki xil turk yozuvi yodgorliklari** topildi. Bu yozuv yodgorliklari, keyin aniqlanishicha, **qadimgi turk va qadimgi uyg'ur yozuvi yodgorliklari** bo'lib chiqdi.

Bu yozuvlarning ahamiyati juda kattadir. Turk xalqlarining tarixi uchun ham, turk tillari tarixi uchun ham bu yodgorliklar g'oyat

qimmatlidir. Shu bilan birga bu yozuvlarning etnografik ahamiyati ham bor. Qadim zamonlarda turk xoqonlarining qabriga o'lgan kis hining tarjimai holi, qilgan ishlari, olib borgan urushlarini aks ettiruvchi bitik toshlar qo'yar ekanlar. Shuningdek, bu yozuvlar qadimgi turk davlatining qurilishi, ijtimoiy tuzumi haqida ham ancha yaxshi tasavvur beradi.

Qadimgi turk yozuvi yodgorliklari dastlab **Yenasoy va O'rxun (Shimoliy Mo'g'uliston)** daryolari bo'ylarida topilganligi uchun ularni O'rxun-Yenasoy yozuvlari deb atadilar. Keyinchalik bu yozuvlar **G'arbiy-Yevropa runa yozuvlariga** o'xshas'h bo'lganligi uchun ularni **runik yozuvlar** nomi bilan ham atadilar.

Runik yozuvlar ("O'rxun-Yenasoy" yozuvlari) alfavit (fonetik) yozuvning ancha takomillashgan turidir. Bu yozuvlarda tilda mavjud bo'lgan har bir tovush uchun maxsus belgi qo'llangan. 28 tovushni ifoda etish uchun alohida belgilar olingan.

Shu jumladan to'rtta belgi unli tovushlar uchun (a-a", i-i, o'-u, o-u) ishlatilgan. Bundan tashqari, til oldi va til orqa (yumshoq-qattiq) d, y, l, n, q, s, t, r tovushlari uchun har biriga alohida-alohida belgilar (16 harf) ishlatilgan; shuningdek, (lt, nt, nch) tovush birikmalari uchun ham alohida belgilar olingan. Bundan tashqari, ko'pgina tovushlarning ifodasi bir necha shaklga ega bo'lgan. Shunday qilib, **runik yozuvlarda** hammasi bo'lib 72 belgi qo'llangan.

XIX asr oxirlarida, **runik yozuvlardan** tashqari, Sharqiy Turkistonda **uyg'ur yozuvi yodgorliklari** ham topilgan, keyinroq **uyg'ur yozuvi yodgorliklari** ham **Markaziy Osiyo** territoriyasida topildi.

X-XV asrlarda yaratilgan bu yodgorliklarning ko'pchiligi **eski o'zbek tilida** yozilgan. **Qadimgi uyg'ur yozuvida** bitilgan yodgorliklarning eng eskisi **Yusuf Xos Hojibning "Qudadg'u bilik"** asaridir (**"Vena nusxasi"**).

Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq" asari, **Xorazmiyning "Muhabbatnoma"**si, **"Me'rojnoma"** (XIV asr), **Lutfiy** va boshqa shoirlarning **ayrim she'rlari**, **To'xtamishxon** va **Temur Qutlug'ning yorliqlari** mana shu **uyg'ur alifbosida** bitilgan.

VIII asrda **arablar Markaziy Osiyoni** istilo qildilar. Arablar kelgandan keyin bu yerda **islom dini** tarqala boshladi. Islom dini bilan birga asta-sekin **arab yozuvi** ham tarqaldi.

Ma'lum tarixiy sabablarga ko'ra, **arab alfaviti** Markaziy Osiyo xalqlarining yozuvlarini asta-sekin siqib chiqardi. Lekin bir qancha asrlar davomida arab yozuvi bilan birga Markaziy Osiyo xalqlarining (**turk xalqlari va tojiklarning**) yozuvlari ham ishlatilganligi ma'lum.

Bizning davrimizgacha yetib kelgan **“Qutadg‘u bilik”** (XI asr), **“Hibatul-haqoyiq”** (XII asr) asarlarigina emas, balki XIV-XV asrlarda yaratilgan ayrim yodgorliklarning ham **uyg‘ur yozuvida** bitilganligi, hatto **“Oltun yorug‘”** yodgorligining XVII asr oxirlarida yozilganligi **uyg‘ur alfavitining** juda uzoq davrlargacha saqlanib kelganidan darak beradi.

Yenisey va Urxun daryolari xavzasidan topilgan dastlabki yodgorliklarning joylashish o'rniga va belgilarning o'ziga xos shakliga ko'ra, u **Urxun - Yenisey runiy yozuvi** deb atala bos'hlagan.

U 28 ta xarfdan iborat. Bu yozuv **Janubiy Sibir, Markaziy Osiyoning turkiyzabon qabilalari va elatlari** o'rtasida keng tarqalgan. **Urxun-Yenisey** yozuvi ilk o'rta asrlarga oid bo'lib, bu davrda Markaziy Osiyo xududida **Turk xoqonligi** xukmron bo'lgan.

Runiy yozuvlarining aksariyati qoyalarga, yodgorlik tos'hlarga, tos'hdan yasalgan odamlarga, qabr toshlariga o'yib yozilgan. Ba'zilarigina **metaldan** ishlangan idishlarga, **sopol , tanga, qog'oz va yogochga** yozilgan.

Urxun-Yenisey yozuvi janr jixatidan bir necha turlarga bo'linadi.

Birinchisi, tarixiy biografik matnlar bo'lib, **u turk, uygur, qirg'iz** zodagonlari, Xoqon urug'idan chiqqan mashxur kishilarning xizmatlari va qaxramona hayoti bayon etilgan. Mazkur matnlar bu shaxslarning yaqin kishilari va qadimdosh urug'lari yoki o'zlari tomonidan yozilgan.

Ikkinchisi, qabr usti yozuvlari bo'lib, ularni turkolog **S.E.Malov** «qadimgi turk davrining qabrlarga oid she'riyati» deb tariflagan edi. Bular nihoyat qoyalar, toshlar va imoratlardagi yozuv yodgorliklari bo'lib, ular mualliflarning hayotida sodir bo'lgan muxim voqealarga bag'ishlangan edi.

Uchinidan, qog‘ozlarga yozilgan yuridik hujjatlar, shuningdek sexrli va diniy matnlar **manixeycha** mazmundagi parchalar,

To‘rtinidan, ruzg‘or buyum ashyolaridagi yozuv parchalari, metall idis‘hlar va kuzgularidagi, sopol va tangalardagi yozuvlar alohida guruxlarni tashkil etadi.

Qadimgi turkiy yozuvning eng yirik yodgorliklari va turkiy tildagi eng qadimgi nasriy asarlar «**Folbinlik kitobchasi**» bo‘lib, u qariyb 100 saxifadan iborat kichik bichimli kitobdir.

Urxun - Yenisey yozuvi. Yeramizning YI asriga kelib, O‘rta Osiyoda Turk xoqonligi davlati vujudga keldi. Bu davlat **g‘arb tomondan Vizantiya** bilan, **janub tomondan Yeron** va **Hindiston** bilan, **sharq tomondan Xitoy** bilan chegaradosh bo‘lgan.

Xullas, **Azov dengizidan Uzoq Sharqqacha** bo‘lgan ulkan territoriya bu davlatga qarashli bo‘lgan. Bu davlat **turkiy qabilalar davlati** bo‘lib, **Urxun-Yenisey yozuvi** bu davlatning yozuvi hisoblangan. Bu yozuv ham pahlaviy yozuvi asosida vujudga kelgan bo‘lib, unda **so‘g‘d** va **oromiy yozuvlari elementlari** mavjud bo‘lgan.

Uyg‘ur yozuvi. Bu yozuv **so‘g‘d yozuvi** variantlaridan biri bo‘lgan va **Urxun-Yenisey yozuvi** bilan parallel qo‘llanib kelgan. XIY-XYI asrlarda **mo‘g‘o‘llar mo‘g‘ul tili** xususiyatlarini hisobga olib bu yozuvni isloh qilishgan va **mo‘g‘o‘l tili yozuvini** yaratishgan. Keyinchalik **uyg‘ur va mo‘g‘ul yozuvi** asosida **manchjur, oyrot, buryat tillari yozuvi** vujudga kelgan.

Tayanch so‘z va iboralar:

Urxun - Yenisey, Turk xoqonligi, buddaviylik ibodatxonasi, uygur, oyrot, buryat tillari, brahma va kxaroshtxi, braxma.

Nazorat uchun savollar:

1. Markaziy Osiyodan topilgan uyg‘ur yozuvi nechanchi asrlarga oid?
2. Uyg‘ur yozuvi asosida qanday yozuv paydo bo‘lgan va ular Markaziy Osiyoning qayerlaridan topib o‘rganilgan?
3. O‘rta asrlarga oid yozma yodgorliklarning ro‘yxatini tuzing.
4. Bu yodgorliklarda kim va qachon tadqiqot ishlari olib borganlar?
5. O‘rta asrlarga oid yozma yodgorliklardan qanday arxeologik materiallar topilgan?
6. Urxun – Yenisey yozuvi nechta xarfdan iborat bo‘lgan?

7. Turkiy qo'lyozmalarning geografiyasi qayerlarni o'z ichiga oladi?
8. Turkiy qo'lyozmalarning eng qadimgilari qaysilar?
9. O'rta Osiyodagi ilk qo'lyozmalar qaysilar?
10. Xorazmda XII-XIII asrlarda yashagan qaysi olim va shoirni bilasiz?
11. «Qissasul-iqbol» ning muallifi kim?
12. Temuriylar davrida yashagan shoirlar kimlar?
13. Shayboniylar saroyida ijod qilgan kimlarni bilasiz?
14. Boburiylar saroyida ijod qilgan kimlarni bilasiz?
15. Buxoroda XVII-XVIII asrlarda yashagan qanday shoirlar sizga ma'lum?
16. Xivada yashagan tarixnavis olimlarning qanday asarlari bor?
17. XIX asr boshlaridagi Qo'qon shoirlaridan kimlarni bilasiz?
18. XIX asrda forsiydan tarjima qilingan qanday asarlarni bilasiz?
19. O'rta Osiyo kutubxonalari haqida nima bilasiz?

7-§. ARAB YOZUVI YODGORLIKLAR.

1. Arab yozuvining paydo bo'lishi.
2. Arab yozuvida o'tkazilgan islohotlar.
3. Arab yozuvi turlarining shakllanishi.

Adabiyotlar:

1. Қаямов А. Исҳоқов М. ва б. Қадимги ёзма ёдгорликлар. –Т., 2000
2. Материалы по этнической истории тюркских народов Центральной Азии. – Т.: 2003
3. Содиқов Қ. “Қутадғу билиг”нинг тил хусусиятлари. –Т.. 1989.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.1.—Т.12. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти, 2000-2006.
5. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Тошкент, 1996.
6. Ўзбекистон тарихини ўқитиш ва ўрганиш бўйича материаллар (“Тафаккур сарчашмалари” туркумидан). Тошкент, 2007.

Eramizning dastlabki yillarida **Arabiston yarim orolining** shimoliy-g'arbiy qismida **Nabatiylar davlati** mavjud edi va bu davlatning yozuvi oromiy yozuvi edi. Bu yozuv nabatiylar davlatida ishlatilganligi sababli **nabatiylar yozuvi** deb ham atalgan. Bu alifbo 22 belgidan iborat bo'lgan. Keyinchalik bu alifbodan hozirgi kunda Afrikaning shimoliy-g'arbiy qismidan Hindistongacha bo'lgan ulkan hududda amalda qo'llanib kelinayotgan va arab yozuvi deb ataladigan yozuv shakllangan.

Ilk arab yozuvining eng qadimgi yodgorliklari **Janubiy Suriyadan** topilgan **bitiklar** bo'lib, ular eramizning IY-YI asriga mansubdir.

Yeramizning Y-YI asriga kelib, arab yozuvi Shimoliy Afrikaga ham tarqalgan edi.

Arablar hayotidagi eng ulkan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy burilish VII asrning boshlarida vujudga kelgan islom ta'limotidir. Bu ta'limotning beshigi o'sha davridayoq umumarab ahamiyatiga ega bo'lgan savdo markazi Makka shahridir.

Islom ta'limotining va uning birinchi kitobi bo'lgan Qur'oni Karimning sharofati bilan deyarli savodsiz hisoblangan ko'chmanchi arablar juda boy va rang-barang yozuvga ega bo'lgan, sivilizatsiyalashgan va madaniy xalqqa aylangan. Shuning uchun ham Qur'on ya'ni

kitoblarning onasi deb ataladi.

Islom dini ildiz otib, aholi bu dinga e'tiqod qilishga boshlaganidan keyin, Qur'on va arablarning o'sha davrdagi og'zaki she'riyati asosida arab adabiy tili shakllana boshlagan. Arablarning harbiy sohadagi qo'lga kiritgan yutuqlari, islom dinining qo'shni hududlarda tarqalishi arab tilining obro'- e'tiborini kuchaytirgan.

YII asr oxirida (685-705 yy.) xalifa Abdulmalik davrida (ungacha to'rtta dastlabki xalifalar va **Muoviya, Yazid, Marvonlar** xalifalik qilishgan edi) xalifalikning poytaxti Damashqda barcha davlat muassasalari va rasmiy yozishmalarni faqat arab tilida olib borish haqida farmon qabul qilindi va bu farmon xalifalikning barcha hududlari uchun umumiy deb e'lon qilindi. Chiqarilgan bu farmon arab tili va yozuvining jamiyatda tutgan mavqeini yanada mustahkamladi.

- a) kufiy yozuvi;
- b) muhaqqaq yozuvi;
- v) rayhoniyy yozuvi;
- g) suls yozuvi;
- d) tavqi' yozuvi;
- ye) riqo yozuvi;
- j) nasx yozuvi;
- z) ta'liq yozuvi;
- i) shikastayi ta'liq;

Arab tilining rivojlanishi, uning xalifalikka tobe bo'lgan hududlarda keng tarqalishi arab yozuvi va uning orfografiyasini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Bu narsa esa, yozuvda islohot o'tkazish masalasini ko'ndalang qo'ydi. Bu islohni amalga oshirishda o'sha davrda Iroqning hukmdori bo'lgan Al-Hajjojning tashabbusi va xizmati ulkan bo'lgan.

Yozuvda o'tkazilgan bu islohotning vaqti aniq bilingan emas. Yehtimol u bosqichma-bosqich uzoq muddat davomida amalga oshirilgan va 680 yildan 780 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Umuman arab yozuvida o'sha davrda o'tkazilgan islohotning mohiyati qisqacha quyidagilardan iborat:

Yuqorida aytganimizdek, **nabatiy yozuvida** 22 ta harf mavjud

bo'lgan. Bu harflar orasida 4 ta harf shaklan juda o'xshash bo'lgan. Ular deyarli bir xil yozilgan. Ilk arab yozuvida bu harflarni bir-biridan farqlash uchun ularning ustiga yoki ostiga nuqtalar qo'yish joriy etilgan. Shundan keyin bu harflarning shakli bir xil yozilavergan va ular faqat tepa yoki pastdagi nuqtalar va ularning soni bilangina farqlangan.

Hudda shunday uslub bilan **nabatiy tilida** bo'lmagan, lekin arab tilida mavjud bo'lgan undosh tovushlar uchun ettita harf ijod etilgan. Nabatiy yozuvidagi bitta harf arab tilida yo'q bo'lgan tovushni ifodalaganligi uchun u iste'moldan chiqarib yuborilgan.

Shunday qilib 28 ta harfdan iborat bo'lgan arab yozuvi shakllangan. Bu yozuvdagi bir-biridan shaklan farq qiladigan harflar nabatiy yozuvida bo'lgani kabi 15 tadir.

Nabatiy yozuvida so'z tarkibidagi harflar asosan bir tomondan ulab yozilgan. Ilk arab yozuvida esa, harflarning ko'pchiligi har ikki tomondan qo'shib yozilgan. Shu sababli shakllanib takomiliga yetgan arab yozuvida har bir harfning so'z boshida, o'rtasida, oxirida yoziladigan va alohida shakllari ishlab chiqilgan va amalda qo'llana boshlagan.

Istisno tariqasida 6 ta harf ilgarigi xususiyatini saqlab qolgan va ular faqat o'ng tomondagi harf bilan qo'shib yoziladi. Shuning uchun ularning ikkitagina shakli mavjud. Shunday qilib, arab yozuvidagi 28 harfning 100 ta ko'rinishi shakllangan.

Ilk arab yozuvida ayrim harflarga nuqtalarning qo'yilishi, ko'pchilik harflarning har ikki tomondan qo'shib yoziladigan shakllarini ishlab chiqish bilan bir qatorda harflarning o'zaro katta-kichiklik normalari ham ishlab chiqilgan.

Nabatiy yozuvida cho'ziq unlilar harflar yordamida ifodalanar edi. Bu qoida arab yozuvida ham saqlab qolingani. Shuning uchun arab yozuvidagi __, __, __ harflari undosh tovushlarni ifodalash bilan birga cho'ziq **a, u, i unlilarni** ham ifodalaydigan bo'lgan.

Qisqa unlilar esa, alohida harflar yordamida emas, balki shu unlilardan oldingi harflarning ostiga yoki ustiga qo'yiladigan **zabar, zer, pech** harakatlari bilan ifodalanadigan bo'lgan. Bu harakatlardan tashqari turli vazifalarni bajaruvchi bir necha qo'shimcha harakatlar ham joriy etilgan.

Shunday qilib, **Qur'on** va o'sha davr og'zaki poeziyasi talaffuz normalariga to'la javob bera oladigan yozuv ishlab chiqilgan. Arablarning bu yozuv sistemasi VII asrning o'rtalariga kelib, takomiliga yetgan.

Shu tariqa arablar chetdan olib kirgan yozuvni takomillashtirish yo'li bilan kelajakda yozma yodgorliklarni yaratish uchun juda qulay va ixcham yozuvga ega bo'lganlar. Bunda har bir undosh tovushni ifodalash uchun alohida harf mavjud bo'lgan. Unli tovushlar ham qo'shimcha belgilar yordamida yozilish imkoniga ega bo'lgan. Bundan tashqari bu yozuv ixchamligi bois tejamkor hisoblangan. Bu esa arab tilida kitob yozish an'anasining shakllanishida muhim shartlardan biri bo'lgan.

Arablar hukmronligining kengayishi, arablarning boshqa arab bo'lmagan hududlarga tarqalishi, arab tili va islom dinining bosib olingan o'lkalarning ziyoli aholisi orasida yoyilishi, **arab tilining davlat tili** sifatida mavqeining mustahkamlanishi va nihoyat arab yozuvida imlo qoidalarining ishlab chiqilishi – bularning hammasi arab yozuvining kelajakda yanada keng tarqalishiga zamin yaratgan.

XI asrda arablarda shakllanagan fikrga ko'ra, arab yozuvining dastlabki bosqichida faqat **kufiy yozuvi** mavjud bo'lgan. Qur'oni Karimning dastlabki nusxalari shu yozuvda ko'chirilgan. Bu yozuv 4-xalifa **Ali ibn Tolib** tomonidan takomiliga yetkazilgan. Arab grafikasidagi boshqa xat turlari shu **kufiy yozuvi** asosida keyinchalik shakllangan xat turlaridir. X asrga kelib arab yozuvi ya'na isloh qilingan. Bu isloh **Ali Muhammad ibn Ali ibn Muqla** (272-328)-(886-940) nomi bilan bog'liq. Bu kishi uch abbosiy xalifa qo'lida vazirlik lavozimida ishlagan.

U **kufiy xati** asosida sharq olamida keyinchalik mashhur bo'lib ketgan olti xat turini yaratgan olimdir: **muhaqqaq, suls, riqo, nasx, tavqi' va rayhoniy xat** turlari. Ibn Muqlaning bu ishini Yeronlik olim **Ali ibn Hilol** davom ettirgan. Uning taxallusi Ibn Bavvob bo'lgan va u 413-1022 yilda vafot etgan. U Sherozdagi mashhur kutubxonada xodim bo'lib ishlagan. Islohot ishini undan keyin davom ettirgan shaxs so'nggi abbosiy xalifa saroyida xattot bo'lib ishlagan **Yoqut Musta'simiydir** (640-696)-(1242-1298 yy.) **Ibn Muqlaning** yaratgan sistemasi aniq matematik hisob-kitobga asoslangan mutanosiblik asosida qurilgan. Bunda harflarning shakli, diametri alif harfiga teng bo'lgan aylana ichiga joylashtirilgan

kvadrat, besh burchakka qiyoslab yaratilgan. Bu harflarning moduli esa, qamishqalamning bir harakati bilan hosil qilingan rombik shaklidagi nuqtadir. Bu nuqtalarning soni bilan harflarning katta-kichikligi aniqlangan. Umuman **Ibn Muqla**ning bu tizimida harflarning shakli va razmeri alifning uzunligiga teng bo'lgan rombik nuqtalarning soni bilan aniqlangan. Natijada, **Ibn Muqla** yaratgan olti xat turining hammasida harflarning yozuvdagi o'rni, ularning hajmi ilmiy jihatdan aniqlab berilgan. Umuman, xattotlar va qalam sohiblari orasida eng ko'p tarqalgan va eng e'tiborli sanalgan xat turlari quyidagilardan iboratdir:

1. Kufiy yozuvi yoki xatti kufiy-

Kufiy yozuvi nabatiy yozuvi asosida shakllangan dastlabki arab yozuvidir. U birinchi marta Kufa shahrida ishlatilib, u yerda rivoj topgani uchun «kufiy» deb nom olgan. Arab olimlarining fikricha, (bu olimlar XI asrga mansubdirlar) Qur'onning birinchi qo'lyozma nusxasi yozilgan bu yozuv turi 4-xalifadan biri hisoblangan **Ali ibn Abu Tolib** tomonidan takomillashtirilgan.

Natijada o'sh davrda turli yozishmalar, davlat idoralaridagi hujjatlar va boshqa yozuv-chizuvlar shu yozuvda olib borilgan. O'sha davrdagi qo'lyozma kitoblar ham shu yozuvda yaratilgan.

Keyinchalik esa, **Ibn Muqla** o'tkazgan islohot natijasida vujudga kelgan boshqa turdagi yozuvlar o'rnini egallay boshlagan. XII asrga kelib **Suriya, Iroq, Eron** hududlarida **kufiy yozuvi** amalda qo'llanishdan to'xtagan.

Lekin u umuman iste'moldan chiqib ketgan emas. **Kufiy yozuvi** islom badiiy san'atining asosiy elementlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan bog'liq holda bu yozuv turi ishlatilish sohasiga qarab, yana bir necha turga bo'linib ketgan.

Masalan, bu xat turidagi harf elementlariga **gullar, barglar, ko'raklar** shakli berilib, xusnixat turlarida ishlatilgan va unga **gulli xatti kufiy** deb nom berilgan. **Kufiy yozuvidagi** harflarning yozilishidagi to'g'ri chiziqlar o'rtasidagi to'g'ri burchaklarga yanada ishlov berilgan, ya'ni uning geometrik shakli qayta ishlangan va undan turli xil binolarning ustki qismidagi bezaklar sifatida ishlatila boshlagan. Bunda mazkur xatti kufiy, birinchidan, yozuv sifatida ma'lum tushunchani ifodalasa, ikkinchidan,

naqsh yoki bezak sifatida imoratlarning chiroyli chiqishi uchun xizmat qilgan. **Xatti kufiy**ning bu turi **kufiyyi bannoiiy-binokorlik kufiy xati** deb nom olgan. Kufiy yozuvida qabr toshlariga turli yozuvlar bitilgan. Shuningdek, XV asrgacha qo'lyozmalarda asar nomi, asar boblari va qismlari nomi, asar boshlanishidagi bosmalani yozishda kufiy yozuvidan foydalanilgan.

2. Muhaqqaq yozuvi yoki xatti muhaqqaq-

Bu yozuv turi abbosiylar hukmronligining boshlanishida-YII asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. U Iroq hududida paydo bo'lgani sababli **xatti iroqiy** deb ham ataladi.

Bu yozuv turida harflardagi egri chiziqlar bilan to'g'ri chiziqlar o'rtasidagi proporsiya 1,4 va 3,4 ga to'g'ri keladi. Muhaqqaq yozuvi katta harflar bilan yoziladigan matnlarga mo'ljallangan. Shuning uchun u katta hajmdagi Qur'on nusxalarini ko'chirishda ishlatilgan. Bundan tashqari boshqa bitiklarda ham, agar harflar vositasida ulug'vorlik, tantanavorlik ifodalash zarur bo'lgan o'rinlarda shu yozuv turidan foydalanilgan. Eron xattotlari tomonidan shu yozuv turida yaratilgan Qur'on nusxalari o'sha davrlarda katta shuxrat qozongan. Xususan, **Amir Temurning** nabirasi **Boysunqur Mirzo** (vaf.837-1434y.) juda katta hajmdagi Qur'on nusxasini shu yozuvda ko'chirib, kitob yaratgan. Bu Qur'onning xar bir varag'i 170-101 sm hajmga ega bo'lgan. Yana shuni aytish joizki, muhaqqaq yozuvining ishlatilish sferasi juda keng bo'lmagan. Undan asosan Qur'on nusxalarini ko'chirishda, xattotlik namunalari yaratishda hamda imoratlarning peshtoqiga bezak sifatida Qur'on oyatlarini bitishda foydalanilgan. XYII asr o'rtalariga kelib, bu yozuv o'z o'rnini yana bir yozuv turi hisoblangan mn suls yozuviga bo'shatib bergan. Suls yozuvida esa, Qur'on nusxalari to'laligicha yaratilgan emas, balki uning ayrim oyatlarigina yozilgan.

3. Rayhoniyy yozuvi yoki xatti rayhoniyy-

Hozirgacha sharq paleografiyasida bu yozuv turiga aniq ta'rif berilmagan. Bir xil olimlar rayhoniyy yozuvi bilan **muhaqqaq yozuvi** o'rtasidagi farq **rayhoniyy yozuvidagi** chiziqlarning faqat ingichkaligi va go'zalligidan iborat, bundan boshqa ular o'rtasida farq yo'q desalar, boshqalarning fikricha, agar muhaqqaq yozuvidagi harflarning o'zaro

mutanosibligi qonun-qoidasiga rioya qilgan holda nasx yozuvi bilan bir xil hajmda harflar yozilsa, bu **rayhoni yozuvi** bo'ladi.

Yana uchinchi toifa olimlarining fikricha, **muhaqqaq yozuvida** ayrim harflarni tashkil etuvchi doiralar kvadratga yaqinroq turadi. **Rayhoni yozuvi** ham **muhaqqaq yozuvi** bilan bir xil funktsiyani bajargan va XYII asrning o'rtalariga kelib, o'rnini **nasx yozuviga** bo'shatib bergan va iste'moldan chiqib ketgan. Yana shuni aytish joizki, XIY-XY asrlardayoq ayrim xattotlar bu yozuvni qo'lyozmalarning hoshiyalaridagina ishlata boshlagan edilar.

4. Suls yozuvi - yoki xatti suls-

O'rta asrlarda bu yozuv musulmon olamining barcha hududlarida eng keng tarqalgan yozuv turlaridan edi. Bu yozuvni **muhaqqaq yozuvi** bilan qiyoslasak, muhaqqaq yozuvida tantanavorlik, ulug'vorlik aks etib tursa, **suls yozuvida** esa, o'ziga xos mayinlik, noziklik ustun turadi. Bu yozuvda harflardagi yo'g'on yoziladigan qism bilan ingichka yoziladigan qism o'zgacha bir noziklik bilan almashinadi.

Bu yozuvda chiziqlarning uchdan bir qismi to'g'ri chiziqdan va uchdan ikki qismi egri chiziq va dumaloq shakldan iborat bo'lgani uchun bu yozuv «**suls**» deb atalgan (**arabchada** bu so'z «**uchdan bir**» ma'nosini bildiradi).

O'rta asr an'analari binoan, hukmronlarning rasmiy ko'rsatmalari, farmonlari shu yozuvda bitilgan. Shuningdek, **qo'lyozmalarning titul varaqlari, oxirgi sahifasi suls yozuvida** amalga oshirilgan.

Me'moriy yodgorliklarda bezak o'rnida ishlatilgan suls yozuvlarini ham uchratish mumkin. Bundan tashqari suls yozuvida xattotlik yozuvi namunalari ham yaratilgan.

5. Tavqe' yozuvi yoki xatti tavqe'-

Bu yozuv turi xatni tez yozishga mo'ljallangan, harflarning shakli dumaloq bo'lgan yozuvdir. O'rta asr xattotlarining fikricha, bu yozuv suls yozuvidan kelib chiqqan va uning modifikatsiyasidir.

Bu yozuv turida harflarning hajmidagi o'zaro mutanosiblik suls yozuvidagi mutanosiblik bilan bir xil bo'lsa-da, ularning bir-biriga ulanishi suls yozuvidan farq qilgan. Chunki bu yozuv turida elementlarning oltidan bir qismi to'g'ri chiziqli elementlardan iboratdir.

Shunday qilib, **tavqe' yozuvi** mavjud bo'lgan etti yozuv turi ichida eng tez yoziladigan yozuv hisoblangan. Bu yozuvda harflarning barcha elementlari bir xil yo'g'onlikda yoziladi va unda yo'g'on elementlarning ingichka yozuvlar bilan almashinish hodisasi uchramaydi. Bunga esa - qamish qalamning uchini boshqacharoq chiqarish yo'li bilan erishilgan.

Tavqe' yozuvida nafaqat bir so'z ichidagi yozuvlar, balki ayrim so'zlar ham qo'shib yozilgan. Islom olamida bu yozuvdan hukmronlar u yoki bu farmonga, ko'rsatmaga imzo qo'yishda foydalanganlar. Bundan tashqari davlat ahamiyatiga molik bo'lgan muhim hujjatlar, qozilarning chiqargan hukmlari ham shu yozuvda bitilgan.

Vaqt o'tishi bilan XIY asrdan keyin qo'lyozmalarning so'nggi sahifalari, undagi turli xil qo'shimcha ma'lumotlar shu yozuv bilan bitilgan. Dunyoviy mazmundagi qo'lyozmalar, hamda Qur'onning yangi ko'chirilgan nusxalarining hoshiyalari ham ko'proq shu yozuv turida yozilgan.

6. Riqa yozuvi yoki xatti riqo-

Bu yozuv turi tavqe' yozuvining kichraygan shakli bo'lib, u ham suls yozuvi bazasida vujudga kelgan. U ham hukmronlarning farmon va yorliqlarini yozishda qo'llanilgan. **Riqa yozuvi** o'zining hususiyatlari bilan tavqe' yozuvidan farq qilmaydi.

Faqat riqo tavqe'ga qaraganda maydaroq va ingichkaroq yoziladi. Qisqa qilib aytganda bu yozuv ham tez yozishga mo'ljallangan, harflari dumaloq shaklli yozuvdir. Bu yozuvning taraqqiyotini kuzatgan olimlarning fikricha, bu yozuv kichkina qog'oz varaqchalariga yoziladigan shaxsiy maktublarni yozishga mo'ljallab yaratilgan yozuvdir.

Shuning uchun ham bu yozuv riqo'- kichkina qog'ozga yozilgan xat demakdir. Keyinchalik bu yozuvda ko'ngilochar mazmundagi qisqa-qisqa hikoyachalar ham yozila boshlagan. Shuningdek, Qur'on, hadislar va dunyoviy mazmundagi qo'lyozmalarning titul varag'i va oxirgi sahifasi yozilgan va bunda qo'lyozmaning ko'chirilgan joyi, sanasi, xattotning ismi, asarning nomi, ba'zan qo'lyozmani ko'chirishga buyurtma bergan shaxsning ismi va hokazolar yozilgan. **Tavqe'** bilan **riqa'** o'rtasidagi o'xshashlik oxir-oqibatda shunga olib kelganki, keyinchalik **riqa'** termini ostida ham **tavqe' yozuvi**, ham **riqa' yozuvi** tushunila boshlagan.

7. Nasx yozuvi yoki xatti nasx-

«**Nasx**» soʻzining lugʻaviy maʼnosi «**yoʻq qilish, bekor qilish, chizib tashlash**»dir. Termin sifatida u «boshqa xat turlarini bekor qiluvchi» maʼnosida qoʻllanilgan. Bu yozuv hozirgi kungacha ham butun musulmon Sharqida eng koʻp tarqalgan va eng ommabop yozuv turidir.

Hozirgi kunda bosma usulda chiqayotgan barcha kitoblar, jurnallar, gazetalar va hokozolar **nasx yozuvi** bazasida nashrdan chiqadi. Bu yozuvning bu darajada keng tarqalishiga sabab unda harflarning aniq, ravshan, oʻzaro mutanosib ravishda bir-biriga ulanishi va eng asosiysi, uni oʻzlashtirishning nisbatan osonligidir. Bu yozuv turi harflar shakl va hajmining oʻzaro mutanosibliqi qoidasi asosida shakllangan.

Nasx yozuvi X asr oxiridan boshlab ishlatila boshlagan. Keyingi ikki yarim asrlik muddat ichida undan «**nasxi eroniy**» deb ataladigan variant vujudga kelgan. Bu esa mashhur xattot va olim **Yoqut Mustaʼsimiy** faoliyati bilan bogʻliqdir.

XIII-XIY asrlarda moʻgʻollar bosqini bilan bogʻliq holda bu yozuv bir oz eʼtibordan chetda qolgan boʻlsa ham, u **Eron va Oʻrta Osiyoda** XYII asr oxiri-XYIII asr boshlarigacha hukmronlik qilgan. Uni mashhur xattot **Ahmad Nayriziy** bir oz oʻzgartirgan va uni **nastaʼliq yozuviga** yaqinlashtirgan. Garchi XIY asr oxirida **yangi nastaʼliq yozuvi** paydo boʻlib, uni bir oz chekkaga surgan boʻlsa ham, nasriy asarlarning koʻpchilik qismi nasx yozuvida kitobat qilingan va XX asr **boshlarigacha nasx yozuvi** bilan **nastaʼliq yozuvi** xattotlar uchun asosiy yozuv turi boʻlib xizmat qilgan. Biz yuqorida koʻrib oʻtgan yozuv turlari kelib chiqish nuqtai nazaridan arabiy hisoblangan, anʼanaviy va mumtoz yozuv turlari deb tan olingan va ular arab mamlakatlarida, **Eronda va Oʻrta Osiyoda** keng qoʻllanib kelingan. Bundan tashqari **Temuriylar davrida Xuroson va Movarounnahr** hududlarida vujudga kelgan yozuv turlari ham mavjudki, ularning asosiylari «**taʼliq**», «**shikastayi taʼliq**», «**nastaʼliq**» va «**shikastayi nastaʼliq**» yozuvlaridir. Xullas, arab olamida shakllanib, amalda qoʻllana boshlagan arab yozuvi keyinchalik shunday taraqqiy etganki, unda vujudga kelgan yozuv turlari haqiqiy sanʼat darajasiga koʻtarilgan va bu yozuvlarda bitilgan qoʻlyozmalar hozirgacha ham dunyo miqyosida sharq sivilizatsiyasining tipik namunasi

sifatida e'zozlanib kelinmoqda.

Sharq va shu jumladan O'rta Osiyo xalqlari qo'lyozmalarining asosiy xususiyati shuki, bu xalqlar islom dini shakllangan davrdan boshlab XV asr davomida ilmiy va badiiy asarlarini nafaqat o'zlarining ona tillarida, balki arab va fors tillarida ham yaratganlar. Tarixda O'rta Osiyo bilan Eron o'rtasida, shuningdek arab mamlakatlari o'rtasida chegara bo'lmagan. Shuning uchun arab tilidagi qo'lyozmalarning bir qismi O'rta Osiyo hududida yaratilgan bo'lsa, qolgan qismi arab mamlakatlaridan yoki Erondan olib kelingan bo'lishi mumkin.

Xuddi shunday gapni fors tilida qo'lyozmalarga nisbatan ham aytish joyiz. Shunday qilib, O'rta Osiyo hududida turkiy tillarda bitilgan qo'lyozmalar bilan bir qatorda arab va fors tillarida bitilgan qo'lyozmalar ham mavjuddir. Fikrimizning dalili uchun quyidagi raqamlarni fakt sifatida keltiramiz: O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutining hazinasida hozir 17 mingdan ziyod qo'lyozma kitoblar saqlanmoqda. Shularning 10 foizdan oshiqrog'i ya'ni, qariyb 1700 tasi turkey tilda bitilgan qo'lyozmalardir. Taxminan 30 foizini fors tilida bitilgan qo'lyozmalar tashkil etadi. Bu esa 5000 dan ziyod qo'lyozmadir. Qolgan 6 foizi esa, arab tilida yaratilgan qo'lyozma kitoblardir.

Tayanch ibora va birikmalar:

Nasx, «ta'liq», «shikastayi ta'liq», «nasta'liq», «shikastayi nasta'liq», tavqe', suls, nabatiy.

Nazorat uchun savollar:

1. Arab yozuviga oid yodgorliklar Markaziy Osiyoning qaysi xududlaridan topilgan?
2. Arab yozuvida yozilgan qanday yozma manbalarni bilasiz?
3. Nabatiy yozuvi haqida nimalar bilasiz?
4. Kufiy so'zining ma'nosi qayerdan olingan?
5. Temuriylar davrida Xuroson va Movarounnahrda qaysi arab yozuvlari amalda bo'lgan?
6. Xatti riqo xaqida nimalar bilasiz?
7. Nechanchi yillarda arab yozuvini takomillashtirish uchun islohotlar o'tkazilgan?
8. Islohotlar qaysi halifalar tomonidan o'tkazilgan?
9. Arab yozuvi yodgorliklarining Markaziy Osiyo tarixini o'rganishdagi ahamiyati qanday?

8-§. SUG'D YOZMA MANBALARI YODGORLIKLARI

1. Sug'd yozma manbalari va yodgorliklarining o'rganilish tarixi.
2. Sug'd yozuvining o'rganilishi.
3. "Qilmishlarimizning sabablari va oqibatlari" sug'd yozma manbasi talqini.

Adabiyotlar:

1. Исҳоқов М. Суғд ёзувининг шаклланиши ва тараққиёти. –Т., 1989.
2. Қаяюмов А., М.Исҳоқов... Қадимги ёзма ёдгорликлар. –Т., 2000.
3. Исҳоқов М. Унитилган подшоликдан хатлар. –Т., 1992.
4. Согдийские документы с горы Муг юридические документы и письмо./Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. Вып.II. –М., 1963.

So'g'd yozma manbalarining o'rganilish tarixi. Miloddan avvalgi III-II asrlarda **oromiy yozuvi** asosida shakllangan sug'd yozuvi o'lkamiz madaniyati tarixida muhim ro'l o'ynadi. Bu yozuv ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarida keng qo'llangan. **Sug'd tili va yozuvi Sug'diyona** hududlaridan tashqari **Farg'ona vodiysida, Toshkent vohasida va Yettisuvda** keng yoyilgan. Sug'd yozuvi orqali bizgacha eramiz boshlaridan to XI asr birinchi choragiga qadar yozilgan ko'plab noyob yozma yodgorliklar yetib kelgan. Ular orasida ko'plab **numizmatika materiallari (tanga yozuvlari), metall, sopol, yog'och, charm, qog'oz** va boshqa buyumlarga bitilgan **matnlar, shaxsiy maktublar, xo'jalik va moliya hisoboti hamda huquqiy va diplomatik xujjatlar, nikoh guvohnomalari, ayg'oqchilik maktublari, diniy, ahloqiy-falsafiy matnlarning parchalari** mavjud. **Sug'd yozuvining o'rganilishi.** Sug'd yozuvi 22 ta harf-belgidan iborat. U bir necha bosqichni o'z boshidan kechirgan. Uning **ilk bosqichi Yunon-Baqtriya** tangalariga taqlid qilib chiqarilgan **sug'd tangalarida** uchraydi. Shuningdek, **sug'd yozuvining** namunalari **Afrasiyobdan** topilgan milodiy eraning I-III asrlarga tegishli **sopol parchalarida** va **terrakota xaykalchalarda** uchraydi. Milodiy II asrda **Sug'dda** kumush tangalar zarb etila boshlaydi va u jahon bozoriga chiqadi. Bu tangalar to milodiy V-VI asrlarda **Kesh poytaxti bo'lgan sug'd konfederativ davlati** tashkil topgunga qadar davom etadi. VII asr o'rtalaridan **Sug'd konfederatsiyasining** poytaxti **Samarqandga** ko'chgandan keyin sug'd

yozuvining tashqi shakli yanada takomillashib, uning ichki til tovush mazmuni aniq ifodalash tomon o'sadi va muayyan orfografik normalar vujudga keladi. Sug'dda kumush tangala r zarb etilib, jahon bozoriga chiqqach, sug'd savdogarlarining ishi yurishib, sug'd savdo karvonlari **Sharqda** uzoq o'lkalarga kirib boradi. **Janubiy-sharqiy O'rolorti** o'lkalarida, **Yenisey havzalari rayonlarida, Janubiy Sibir va Angara daryosi havzalarida, shimoliy Xitoy va Mongoliyada** sug'd savdo faktoriyalari (savdo karvon saroylari) va qishloqlari paydo bo'ladi. Sug'd savdogarlari uzoq o'lkalarga ham kirib borganlar. Ular qayerga kirib borsa, o'sha joyga sug'd yozuvi ham kirib borgan. Fikrimizning dalili sifatida **1889 yilda Mo'g'ulistonda** topilgan **sug'd yozuvini** ko'rsatish mumkin. Mo'g'ulistondagi sug'd yozuvi yodgorligi – XI asrda xukmronlik qilgan **uyg'ur hoqoni** sharafiga **qabr ustidagi plitaga yozilgan yozuv** edi. Qadimda yirik xalqaro savdo punktlaridan biri **shimoliy – g'arbiy Xitoy** shahri **Dunxuanda** bo'lib, aynan mana shu shaharda 3 ming samarqandlik savdo ahli joylashgan samarqand kvartali tashkil topgan.

Dunxuan savdo faktoriyasi savdogarlari ona vatani – ona shahri **Samarqand** bilan uzviy aloqada bo'lib, Samarqandga karvonlar orqali xatlar yubarib turishgan. Ana shunday xatlardan 9 tasi egasiga etib bormay, Dunxuan pochta-bashnyasida qolib ketgan. U xatlar milodiy 313-317 yillarda yozilgan bo'lib, ularni o'tgan asrning boshlarida **ingliz arxeologlari** topib o'rganganlar. Sug'd tilida yozilgan bu xatlar tarixda **“Qadimgi sug'd maktublari”** nomi bilan mashhurdir. Ana shunday yodgorliklarning katta guruhi 1933 yilda **Hayrabod qishlog'i** yaqinida **Mug' qal'a qasri harobalaridan** topilgan **sug'd xujjatlaridir. Mug' qala sug'd arxivi deb yuritilgan** bu yozma xujjatlar majmuasi VIII asrning dastlabki o'n yilligiga oid (712-722) **89 ta xujjat bo'lib**, ulardan 74 tasi sug'd tilida shundan, **29 tasi teriga, 22 tasi qog'ozga, 23 tasi yog'ochga** yozilgan edi. Qolganlari **arab tilida** yozilgan edi.

Davlat xujjatlarini **Sug'd podshosiga tobe Panch (Panjikent) hokimligi** saroyidan Mug' qal'a qasriga borib qolishining boyisi shundaki, arablar bosqini davrida **Panjikent hokimi Devashtich** arab istilochilariga qarshi **sug'd-choch-farg'ana-turk** harbiy ittifoqini tuzish maqsadida, u o'lka va mamlakat boshliqlari bilan diplomatik yozishmalar olib boradi.

Samarqand ixshidi (podshosi) **Tarxunning** qatg'iyatsizligidan norozi bo'lib, bir vaqtni o'zida o'zini **Samarqand taxti davogari** deb e'lon qiladi va arablarga qarshilik ko'rsatishni boshlab yuboradi. Ammo, arablar kuchli kelib, **Devashtich qo'shinlari** bir necha zarbalardan so'ng tog' tomon chekinadilar va tog'dagi Mug' qal'aga oila va barcha yaqinlari bilan joylashib oladilar. **Devashtich Mug' qal'aga** chekinganda saroy arxivini ham birga olib ketgan bo'lgan. Arab qo'shinlari mudofaachilarni u erda ham tinch qo'ymadi. 722 yilda ikki orada qattiq janglar bo'lgan, qal'a esa vayron qilingan. Arab ko'mondanligi Devashtichni **Xurosondagi xalifalik noibi** xukmiga yubaradi. Devashtich **Xuroson noibi** qo'ygan shartlarni qabul qilgach, uni Sug'dga go'yo qaytarib yubaradi. Ammo, xufiya buyruq asosida **Rabinjon (Kattaqo'rg'on shahri yaqinidagi ilk o'rta asrlar shahar xarobasi)** zardushtiyalar qabristonida oyoq-qo'llarini yog'ochga mixlash yo'li bilan qatl qiladilar. **Mug' qalasida** qolib ketgan **sug'd arxivi** rosa 1210 yil o'tgach, 1932-1933 yillarda topildi. Mutaxassis olimlar mug' qal'a xujjatlarini o'rganib birnecha turkumlarga ajratganlar.

Ana shu tadqiqotlarga ko'ra, **A-14 xujjat** - Sug'd elchisi **Fatufarnning Chochdan** jo'natgan maktubi bo'lsa, **V-8** - yer xarid qilish haqidagi sug'dcha xujjat, **V-4** - tegirmon ijarasi haqidagi xujjat, **nov 3** - sug'dcha nikox guvoxnomasi, **nov 4** - kuyovning kelin tomon oldidagi majburiyatlari, **A-9** - qo'shni hokimliklardagi ahvol to'g'risida **Devashtichga uning ayg'oqchisi yozgan maktub** va boshqalar.

Sug'd tili va yozuvi haqidagi yana bir xujjat **Afrasiyobdan, Samarqand ixshidi Varxuman** saroyi devoridan topilgan. Varxuman 651 yilda hokimiyat tepasiga kelishi sharafiga shohona saroy qurdirgan.

Saroy qalin paxsadan qurilgan monumental: 11 x 11 m. bino bo'lib, uning devorlari rang-barang devoriy suratlar bilan bezatilgan edi. Saroy devorining **bir tomonida Chog'aniyon** mamlakatidan **Samarqandga** tashrif buyurgan elchilik karvoni chizilgan bo'lsa, saroyning **ikkinchi** devorida Uzoq Sharqdan, extimol Xitoydandir dengizda yelkanli ulkan kemada suzib kelayotgan elchilar tasvirlangan.

Uchinchi devor o'rtasida eshik bo'lib, uning o'ng tomonida muqaddas **Varuqasha dengizida** bolalarini suzayotganligini tizzasidan suvga kirib, tamosha qilayotgan go'zal ayollar, suzib yurgan baliq va

toshboqalar tasvirlansa, eshikning chop tomonida erkaklarni ot ustida **chovgan** o'yini o'ynayotganliklari tasvirlangan. **Yana bir devorda** 3 yarusda suratlar, suratlarning yuqori yarusi to'liq saqlanmagan. Uning **ikkinchi yarusida** podsho **Varxuman** taxti ravonda o'z ayonlari, unga tobe ishxidliklarning hokimlari bilan (ular 11 hokimlik boshliqlari bo'lsa kerak, chunki taxti ravon yaqinida 11 ta bayroq xilpillab turibdi) elchi mehmonlarni kutmoqda. Saroyning birinchi qavatidan ikkinchi qavatga, qo'llarida qimmatbaho sovg'alari bilan pillapoyadan yuqoriga ko'tarilayotgan elchilar tasviri tushirilgan. Birinchi yarusda (qavatda) qabulga navbat kutayotganlar qatorida, bir chekkada, uzun xala kiygan musavvir surati ham bor. Uning xalati etagiga 11 qatorli sug'dcha xat bitilgan. Xatda Samarqandga kelgan elchilar haqida ma'lumotlar berilgan. Yelchilarni **Chog'aniyon va Chochdan** kelgani aniq. Chunki xatda ular xaqida to'liq ma'lumot berib yozilgan.

Xatning buzilgan, uqalanib ketgan joylarida yana nimalardir yozilgan. Xatda **Samarqand Smarakansa** talaffusida berilibdi. Shunday talaffusdagi Samarqand nomi **Dunxuan maktublarida va Mug' qala xujjatlarida** ham bor. Demak, **sug'diylar** o'z tillarida **Samarqandni "Smarakansa"** deb atagan ekanlar. XX asrning 70 yillarida milodiy IV asrga tegishli yog'ochga bitilgan sug'dcha xujjat **Afrasiyobdan** topilgan. Sug'dshunos olim **M.Isxoqovning** xabar berishicha, bu xat Samarqandlik bir savdogarni o'z hamkasbiga qarzga bergan puliga tilxat ekan. Xat mazmuni va qarz shartlarining tahliliga ko'ra, qarz oluvchi qarz beruvchiga sutxo'rlik shartlari qo'ymay, qaytarish muddati kelganda, qarzga olgan pul qimmatini barobarida qarzni qaytarish qayd qilingan. Buning uchun qarz beruvchi qarz oluvchi bilan bozorga borib, berilayotgan pulga qancha so'yishga tayyor navvos kelishini aniqlaganlar. Qaytarish vaqtida ham xuddi shunday qilinib, qarz qaytarilgan. Ushbu tilxat ana shu haqda bo'lgan.

Sug'd yozuvi ko'p sohalarga kirib borgan. Masalan, **Paxlavon Rustam** to'g'risidagi **xalq dostonida "Kalila va Dimna"** to'g'risidagi ikkita parcha sug'dcha bayon qilingan, VIII-IX asrlarga doir diniy mazmundagi bir necha **budda, xristian, manixey matnlari, budda ilohiyati, budda adabiyoti asarlarini** o'z ichiga olgan bir gurux **xujjatlar**

sug‘d tili va sug‘d yozuvida bitilgan. Xullas, yuqorida qayd qilingan yozuv namunalarida, garchi ularning deyarli barchasi ayrim sug‘d yozuvi parchalaridan iborat bo‘lishiga qaramay, O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbek xalqi qadimgi tarixi va madaniyati haqida qimmatli va noyob ma‘lumotlar beradi. Shuningdek, ularni ilmiy tahlili asosida o‘zbek etnogenezi va etnik tarixini o‘rganish uchun ham tegishli ma‘lumotlar olish mumkin. **Qadimda sug‘diy, bohtariy va xorazmiy yozuvlari** qatorida **oromiy alifbosi asosida turkiy yozuv ham kashf etilgan.**

“Qilmishlarimizning sabablari va oqibatlari” sug‘d yozma manbasi talqini. “Qilmishlarimizning sabablari va oqibatlari sutrasi” (sutra- asosiy muqaddas kitoblar) sug‘diylarning budda dini qarashlari aks etgan falsafiy ahloqiy yozma merosi hisoblanadi. Sug‘diylar **zardushtiylik, moniylik, nasroniylik, buddaviylik** va boshqa dinga e‘tiqod qilishgan. O‘rta Osiyoda **sug‘d yozma manbalariga oid** o‘nlab kitoblar va turli parchalar topilgan. X-XI asrlarda sug‘d halqi **turkiy va eroniy halqlar** tarkibiga singib ketganligi sababli, ularning tili yo‘qolib, **“o‘lik”** tilga aylana borgan. Sug‘d yozma manbalari orasida **budda dinining** eng asosiy aqidalari, ahloqqa oid risolalar, **bodisatvalarning** hayotiga bag‘ishlangan, adabiyot, budda sutralari haqidagi kitoblar ko‘p topilgan. **“Qilmishlarimizning sabablari va oqibatlari sutrasi”** nomli matn **sug‘d yozma manbalari** orasida axloqiy, falsafiy risola sifatida alohida diqqatga sazovor.

Tayanch ibora va birikmalar:

Zardushtiylik, moniylik, nasroniylik, buddaviylik, sug‘d, turkiy, eroniy, bohtariy, xorazmiy, Varxuman, Paxlavon Rustam.

Nazorat uchun savollar:

1. Xurosonda shakllangan yozuv turlaridan qaysilarini bilasiz?
2. Sutra- so‘zining mohiyatini ochib bering.
3. So‘g‘d tilida yozilgan xujjatlar, xujjatlar topilgan yodgorliklarni sanang.
4. Devashtich xujjatlarida nimalar aks etgan?
5. Budda dinining eng asosiy aqidalari nimalardan iborat?
6. So‘g‘d yozuvi asosan qaysi sohalarga kirib borgan?

9-§. QADIMGI BAQTRIYA YOZUVI YODGORLIKLARI

1.Qadimgi Baqtriya yozuvining rivojlanishi.

2.Qadimgi baqtriya yozuvlari qayd etilgan yodgorliklardagi inshoot va madaniy qatlamlar va ularning sanalari.

Adabiyotlar:

1. Чориев З. Шайдуллаев Ш. Аннаев Т. Ўзбекистон худудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. –Т., 2007.
2. Қаяумов А. Исҳоқов М... Қадимги ёзма ёдгорликлар. –Т., 2000.
3. Эгамбердиева Н. Археология. Ўқув қўлланма. Тошкент. 211. 110б.

Bu yozuv Baqtriya davlati hududlarida amalda qo'llanilgan va oromiy-pahlaviy yozuvi variantlaridan biri bo'lib, Baqtriyadagi mahalliy so'zlashuv tiliga moslab, isloh qilingan yozuvdan iboratdir. Qadimgi Baqtriya yozuvi miloddan avvalgi II asrlarda yuzaga kelgan.

Baqtriya antik davr mualliflari asrlarida **Baktriana**, O'rta Osiyoning qadimiy tarixiy-madaniy o'lkalaridan biri hisoblangan. Bu o'lka forsiyda **Baqtrish**, Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da **Baxdi**, Eronga nisbatan Sharqda joylashgan o'lka degan ma'noni anglatadi.

Baqtriya o'lkasi tarkibiga Oks, ya'ni Amudaryoning o'rta va yuqori oqimidagi xududlar, jumladan, Tojikistonning janubiy qismi, Surxondaryo viloyati va Shimoliy Afg'onistonning Hindikush tog'lariga qadar bo'lgan yerlar kirgan. Bu o'lka qadimgi Sharqda hozirda ham baqtriyona deb ataladigan ikki o'rkachli tuyalar, otlari va qimmatbaho la'l tosh, ya'ni lazuretlari bilan ham mashhur bo'lgan.

Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida, ya'ni taxminan miloddan avvalga 545-539 yillarda Baqtriya Eron ahamoniylari qo'shinlari tomonidan zabt etilib, bu davlatning satrap (viloyat)laridan biriga aylantirilgan.

Miloddan avvalgi 329-327 yillar oralig'ida Baqtriya makedoniyalik Iskandar qo'shinlari tomonidan egallanib, uning imperiyasi parchalanishi oqibatida, ma'lum bir davr oralig'ida ya'ni, miloddan avvalgi 311 yildan milodiy III asrning 50-yillariga qadar Salavkiylar tasarrufida bo'lganligi

tarixdan ma'lum. Miloddan avvalgi III asrning o'rtalaridan boshlab Baqtriya Yunon-Baqtriya davlatining asosiy o'zagi hisoblangan.

Baqtriya yozuvining rivojlanishida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, oromiy yozuvining o'rni muhim bo'lib, miloddan avvalgi II asrda **oromiy-baqtriya yozuvi** yuzaga kelgan.

Baqtriya yozuvi O'zbekiston xududidan dastlab 1962 yilda **arxeolog B.Y.Stavskiy** tomonidan **Qoratepadagi g'orsimon buddaviylik ibodatxonasining devoridan** topilgan. **Qoratepa yodgorligi Shimoliy Baqtriyaning** eng katta ibodatxonasi bo'lib uning geografik o'rni Termiz yaqinidadir. Yodgorlik dastlab **V.Y.Staviskiy** tomonidani o'rganilgan¹. Bugungi kunda bu yerda turli soha mutaxassislari, yapon olimlari tadqiqot ishlarini olib borishmoqda.

Qoratepa yodgorligida sakkizdan ortiq inshootlar majmuasi ochib o'rganilgan. Har bir bunday inshoot yo'lak – ayvonlar o'rab turgan to'g'ri to'rtburchakli katta hovli va yer ostiga qurilgan inshootlardan iborat. Xonalardan budda haykali, buddizm diniga xos inshoot – **stupalar** topilgan².

Barcha stupalar bir xil qurilgan. Ularning aossi to'rt burchak bo'lib, uning ustiga silindrsimon inshoot qurilgan, uning usti gumbazsimon tarzda bo'lgan. Ustiga yog'och yoki toshdan yasalgan langar o'rnatilgan. Langarda toshdan yasalgan bir necha soyabon bo'lgan. Soyabonlar muqaddas daraxt ramzi bo'lib, buddistlar uni **chatra** deb atashgan. Shu daraxt soyasi ostida Buddha o'zining g'oyalarini ishlab chiqqan.

Yer ostiga qurilgan inshoot bilan yer ustiga qurilgan inshoot bir-biri bilan bog'liq bo'lgan. Ular zinalar orqali birlashtirilgan. Qoratepa ibodatxonasi yodgorligining devorlariga diniy mazmundagi rasmlar va ibodatxonaning qurilishida xomiylik qilgan insonlarning rasmlari solingan. Rasmlar judda katta mahorat va san'at bilan chizilgan va davrning diniy mafkurasini o'zida aks ettirgan.

Eng asosiysi yodgorlikdan Baqtriya yozuvlari topilgan. Bu yozuvlar ibodatxona devor betlariga bu joyga tashrif buyurgan shaxslar tomonidan **kursiv uslubida** bitilgan bo'lib, u milodiy III-IV asrlarga oid ekanligi

¹ Эгамбердиева Н. Археология. Ўқув қўлланма. Тошкент. 211. 1096.

² Эгамбердиева Н. Археология. Ўқув қўлланма. Тошкент. 211. 1106.

olimlar tomonidan isbotlangan.

Qoratepa yodgorligi topilmalaridan so'ng baqtriya kursiv yozuvlari Surxon vohasining bir qancha qadimiy shahar, shahar-qal'a va buddaviylik ibodatxonalarini o'rganish jarayonida topilgan. Ana shulardan yana biri bu Eski Termiz (Tarmita) atrofidagi **Fayoztepa** buddaviylik ibodatxonasidir. **Fayoztepa** ibodatxonasidan oromiy-baqtriya yozuvi topilganligi tarix fani uchun tub burilish bo'ldi.

Fayoztepa ibodatxonasi yodgorligi Qoratepa ibodatxonasi yodgorligidan 2-3 km shimoli-sharqda bo'lib, yodgorlik 1968 yilda topib arxeologlar tomonidan o'rganilgan. Hozirda bu yodgorlik to'la o'rganilgan bo'lib, Fayoztepa **vixara** tipidagi ibodatxona ekanligi isbotlangan¹.

U 3 qismdan iborat bo'lib, har birida hovli bo'lgan, ularning atrofida uylar joylashgan. Ibodatxonalarning markaziy qismida diniy marosimlar o'kazilgan. Ikkinchi qismi monastir, uchinchi qismi esa xo'jalik ishlariga mo'ljallangan inshootlar bo'lgan. Markaziy qismida yaxshi saqlangan stupa topilgan. Markaziy qismining ayvonidan loy va ganchdan yasalgan **Budda** uning safdoshlari - **baddisatvalarning** haykallari topilgan. Ular qizil rang va tilla suvi bilan bezatilgan. Devorlariga diniy marosimlar rasmlari tasvirlangan bo'lib, ularda hayotiylik izlari ko'rinadi. Oq marmar va alibastrdan ishlangan haykallar xam topilgan. 1972 yilda bu yerdan oq marmartoshdan yasalgan muqaddas **Badxi daraxti** tagida o'tirgan **Budda** va tik turgan ikki **ruhoniy haykali** topilgan.

Shunisi quvonchliki, 2004-2006 yillarda **arxeolog T. Annaev** tomonidan **Fayoztepa** yodgorligini qayta o'rganish jarayonida sopol sirtiga bitilgan ikki xat namunasi topilgan. Bu sopol idish davriy jihatdan miloddan avvalgi I – milodiy I asr oralig'iga oid ikki xat bo'lagining topilishi **oromiy-baqtriya** yozuvi shakllanib rivojlana borish jarayonlarini bir qadar aniqlashtiradi.

Baqtriya, umuman, O'zbekiston tarixida qadimgi til va yozuvning taraqqiyotida, qolaversa, butun bir Markaziy Osiyo xalqlari iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida Kushon podsholigi davri: miloddan avvalgi – I milodiy III asrlar alohida o'rin tutgan. Kushon podsholigiga asos solgan qabilalarning katta guruhi tarixiy manbalarda **yuechji** (toxar)lar deb

¹ Эгамбердиева Н. Археология. Ўқув қўлланма. Тошкент. 211. 1106.

nomlangan¹.

Bu yirik qabilalar uyushmasining ilk vatani, yozma manbalarga ko'ra, hozirgi Xitoy xalq Respublikasining Gansu o'lkasi hisoblangan. Miloddan avvalgi II asrning to'rtinchi choragida bu qabilalar ittifoqi O'rta Osiyoning janubiy xududlari tomon yurish qilib, makedoniyalik Iskandar merosxo'rlari boshqargan Yunon-Baqtriya davlatining hukmronligiga barham berganliklari tarixdan ma'lum.

Miloddan avvalgi I asrda Buyuk Kushonlar davlatining shakllanish jarayoni yuz bergan. Kushon podsholari Kujula Kadfiz (milodiy 30-80 yillar), Vima Tok (to) (milodiy 80-90 yoki 80-110 yillar), Vima Kadfiz (milodiy 90-100 yoki 110-120 yillar), ayniqsa, Kanishka (milodiy II asrning I choragi yoki birinchi yarmi) hukmronliklari davrida bu podsholik hududiy jihatdan kengaygan va ravnaq topgan.

Kanishka davriga kelib, Hindistonning katta qismi Pokiston va Sharqiy Turkiston hududlarini o'z tasarrufiga olgan Kushon podsholigi ko'hna dunyoning to'rt yirik imperiyalari, xususan, g'arbda Rim, Parfiya va sharqda Xan Xitoyi bilan bir qatorda turgan davlatlardan biriga aylangan².

Ko'xna dunyoning yirik davlatlari bilan mavjud bo'lgan iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalar o'z navbatida Kushon podsholigining iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, hozirgi **Xindiston** va **Pokiston** xududlarining katta qismini **Kushon davlati** tarkibiga kiritilishi O'rta Osiyoning janubiy qismida dunyo dinlaridan biri buddizmni va uning bilan bog'liq me'moriy inshootlar, san'at va shu jumladan, yangi yozuv turlarining ham payodo bo'lishiga olib kelgan¹.

Birinchidan, podsho Kanishka o'z nomidan zarb etilgan tangalardagi yunoncha laqablar baqtriya yozuvi bilan almashtirilgan; tangalardagi grekcha laqab (titulatura) o'rniga Baqtriya "**Shaonano shao Kaneshki kushano**", ya'ni "**Shohlar shohi Kanishka Kushon**" laqabi paydo bo'lgan. Demak, Kanishkaning bu islohoti hukmdorning mahalliy,

¹ Чориев З. Шайдуллаев Ш. Аннаев Т. Ўзбекистон худудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. –Т., 2007. 416.

² Чориев З. Шайдуллаев Ш. Аннаев Т. Ўзбекистон худудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. –Т., 2007. 426.

¹ Чориев З. Шайдуллаев Ш. Аннаев Т. Ўзбекистон худудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. –Т., 2007. 426.

ya'ni Markaziy Osiyoga xos an'analarga sodiqligiga yana bir ishora bo'lib, Kushon davri madaniyati, shu jumladan uning davriga kelib to'liq shakllangan tanga – pul muomalasining yanada taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Ikkinchidan, juda ulkan hududni o'z tasarrufiga olgan Kushon podsholigida dinlar barqarorligini ta'minlashga erishgan. Bu jarayon podsho Kanishka tomonidan buddaviylikka homiylik qilish, uni davlat dini deb e'lorn qilish bilan bir qatorda, Kushon davlati tasarrufidagi hududda mahalliy dinlar, shu jumladan zardushtiylik va Yunon dunyosiga xos ma'bud va ma'budalarga topinishni taminlanganligi kuzatiladi. Kanishkaning bu siyosati o'z davlatida mavjud bo'lgan dinlarga nisbatan bag'rikengligini yana bir bor namoyon etadi.

Uchinchidan, butun davlat aholisi manfaatlaridan kelib chiqib, **baxtar tilini umumdavlat tili** deb tan olinishiga erishgan. Bu juda katta va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan voqeadir. Zero, umumdavlat tiliga erishish mustaqillik yo'lini tanlagan har bir davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

To'rtinchidan, podsho Kanishka tomonidan amalga oshirilgan islohotlarning mantiqiy yakuni sifatida podsho ismlari davlat, ya'ni baqtriya tiliga moslashtirilib o'zgartirilgan. Bu milliylik – mustaqil davlatning buyuk yutuqlaridan biridir.

Podsho Kanishka islohotlarining yana bir ko'rinishi uning tomonidan ota-bobolari sharafiga **Bag'londagi Surxko'htal** sulolaviy **ibodatxona yodgorligi** va uning zinapoyalariga bitilgan **“Katta Surxko'xtal yozuvi”** deb nomlangan mahobatli yozuvda o'z aksini topgan.

“Baqtriya yozuvi va tili”ning tarix fani, o'zbek tilshonosligi fani va shaqshunoslik fanlariga kiritilishi mashhur nemis olimi V. Xenning nomi bilan bog'langan. Olim 1957 yilda Shimoliy Afg'onistonning Bag'lon xududidagi Surxko'xtal deb nomlangan, Kushon podsholari sharafiga bitilgan mahobatli xatning topilishi fanda Baqtriya yozuvining o'rganilish tarixini boshlab bergan edi.

Baqtriya yozuviga ko'ra Baqtriya o'lkasi milodiy 383 yildan boshlab Baqtriya o'lkasi **Toxoriston** deb atala boshlangan. Xitoycha **“tuxolo”** – Toxariston nomining kelib chiqishi qadimgi Yunon va Rim

mualliflari yozib qoldirgan, miloddan avvalgi II asrning IV choragida Yunon-Baqtriya podsholigining hukmronligiga barham bergan qabila nomi - toharlarga bog‘liq. Toxar so‘zi xalqning nomini anglatish bilan bir qatorda, IV asrdan boshlab geografik ma‘no ham kasb etib, toxar xalqi kelib o‘rnashgan o‘lkaning nomini ham anglatgan¹.

Toxar so‘zi etimologiyasi, Tibet etimologiyasiga ko‘ra “**oq bosh**” degan ma‘noni bildiradi. Toxariston xududiy jihatdan Baktriyaga teng bo‘lib, o‘z tasarrufiga Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston, va Shimoliy Afg‘oniston yerlarini birlashtirgan. Syuan Szyan ma‘lumotlarida “Ularning asosiy xarflari 25 ta bo‘lib, chapdan o‘ngga o‘qiladi” deb deb yozib qoldirgan.

Mutaxassislar **Baqtriya xatini** ikki, ya‘ni: **mohobatli** yoki **lapidar** hamda **kursiv** ko‘rinishida mavjud bo‘lganligini ta‘kidlaydilar. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, **Moxobatli yozuvlar** **Surhko‘htal**, **Ayirtom va Kampirtepa yodgorliklaridan**, **Kursiv yozuvlari** esa **Fayoztepa, Qoratepa yodgorliklaridan** topib o‘rganilgan.

O‘rta Osiyo hududidan **baqtriya yozuvi** topilgan yana bir yodgorlik – bu **Ayritom yodgorligidir**. Ayritom Termizdan 18 km sharqda, Amudaryo sohilida joylashgan. 1932 yilda bu yodgorlikdan topilgan tosh rasmlarni M.YE.Masson o‘rgangan. 1933 yilda maxsus ekspeditsiya uyushtiriladi. Ayritom – ibodatxona xarobasi bo‘lib, bu yerda asosan ohaktoshdan yasalgan haykallar topilgan¹. Haykallarda soz chalayotgan ayollar tasvirlangan, budda diniga oid haykallar ham topilgan. XX asrning 60-70 yillarida O‘zbekiston san‘atshunoslik ekspeditsiyasi tadqiqot ishlarini davom ettirdilar. Natijada, fort, buddizm dini kompleksi, qabr va eng asosiysi **baqtriya yozuvi** bo‘lgan haykallar guruhi topilgan.

Baqtriyada buddizm davlat dini darajasiga ko‘tarilgach, Budda haykaltaroshlik san‘ati ma‘naviy hayotning mazmuniga aylandi. Bularni Dalvarzintepa, Fayoztepa, Ayripitom, qoratepa va boshqa yodgorliklarida ko‘rishimiz mumkin.

1979 yilda arxeolog olim **B.A.Turg‘unov Ayritom yodgorligida Buddaviylik ibodatxonasi** bilan bog‘liq inshootlarni o‘rganish davomida

¹ Чориев З. Шайдуллаев Ш. Аннаев Т. Ўзбекистон худудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. –Т., 2007. 466.

¹ Эгамбердиева Н. Археология. Ўқув қўлланма. Тошкент. 211. 1096.

yana bir muhim kashfiyot sodir bo'ldi. Buddaviylik ibodatxonasining bir qismida **oq toshga** o'rnatilgan haykallar majmui kashf etilib, oq tosh asos yuza qismida mahobatli **baqtriya yozuvi** borligini aniqlandi.

Ayritom yodgorligi haykallari va undagi yozuvlarni tadqiq etgan mualliflar: **V.A.Livshis, E.V.Rtvladze, B.A.Turg'unovlardir.** Ularning fikricha bu tosh asosida dastavval 350-360 harf bo'lib, yuqori qismidagi besh qatorning har biri 60-65 harfdan, quyi, ya'ni 6 qator 51 harfdan iborat bo'lgan. Yozuvdan jami to'liq yoki qisman 260 ta harf saqlanib qolgan.

O'rta Osiyo hududidan **baqtriya yozuvi** topilgan yana bir yodgorlik – bu **Kampirtepa yodgorligidir.** Kampirtepa – ellinizm va Kushon podsholari davriga oid umumiy maydoni 4 gektardan iborat shahar-qal'a. Kampirtepada arxeologik tadqiqot ishlarini olib borgan olim E.V.Rtvladze: Kampirtepa yozuvlari baqtriya – kursiv xatida bitilganligini isbotlagan va yodgorlikdagi bu yozuvlar majmui Kanishka nomidan zarb etilgan tanga asosida milodiy II asrga oid deb aniqlangan.

Xulosa qilib aytganda, V-VIII asrlar davomida Baqtriya yozuvi Baqtriyaning o'rnida yuzaga kelgan Toxaristonda keng tarqalgan va o'lkaning rasmiy xati hisoblangan. Bu fikrni milodiy 629 yilda Tohariston bo'ylab sayohat qilgan xitoylik buddist-kohin Syuan Szyan yozib qoldirgan ma'lumotlar yana bir bor tasdiqlaydi.

Tayanch ibora va birikmalar:

Ayritom, Kampirtepa, Syuan Szyan , Toxariston, baqtriya, Fayoztepa, fort, buddizm, Surxko'htal, Iskandar, Kushon, Paxlaxon, Rustam.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Qo'ratepa yodgorligi xaqida nima bilasiz?
- 2.Syuan Szyan xaqida .
- 3.So'g'd tilida yozilgan xujjatlar, xujjatlar topilgan yodgorliklarni sanang.
- 4.Devashtich xujjatlarida nimalar aks yetgan?
- 5.Budda dinining yeng asosiy aqidalari nimalardan iborat?
- 6.So'g'd yozuvi asosan qaysi sohalarga kirib borgan?

10-§. QADIMGI XORAZM YOZUVI YODGORLIKLARI

1.Qadimgi Xorazm yozuvining rivojlanishi.

2.Qadimgi Xorazm yozuvlari qayd etilgan yodgorliklar

Adabiyotlar:

1. Чориев З. Шайдуллаев Ш. Аннаев Т. Ўзбекистон худудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. –Т., 2007.
2. Қаюмов А. Исҳоқов М... Қадимги ёзма ёдгорликлар. –Т., 2000.
3. Эгамбердиева Н. Археология. Ўқув қўлланма. Тошкент. 211. 110б.
4. Ислам. Энциклопедический словарь.-М.: Наука, 1991.
5. Халидов А.Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция.
6. -М., 1985.
7. Ахмедов Б. А. Ўзбекистон тарихи манбалари. - Тошкент: Ўқитувчи,
8. 2001.
7. Саидкулов Т.С. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихнавислигидан лавҳалар. - Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
9. Рукописная книга в культурах народов Востока. Книга первая.-М.: Наука, 1987.
8. Крачковский И.Ю. Арабская географическая литература . Соч. IV
10. том.-М.,-Л., 1957.
11. Вахабова Б. Памятники арабоязычной биографической литературы XII-XIV веков как источник для истории культуры Средней Азии// Автореф... дисс. канд. филол. наук. -Ташкент, 1970.
9. Тарихий манбашунослик / Тузувчилар: А.А.Мадраимов, Г.С.Фузаилова. - Тошкент: Фан, 2006, 57-85 бетлар.

Bu yozuv **oromiy yozuviga** juda yaqin bo'lgan. Bu alifbo Ahamoniylar dinastiyasi davridagi klassik **oromiy yozuvi** tarmoqlaridan biri hisoblanadi va u o'zida **qadimgi oromiy yozuvi** an'analarini yaxshigina saqlab qolgan. Ushbu yozuv eramizning II asrigacha amalda qo'llanib kelgan.

Oks (Amudaryo)ning quyi havzasida shakllangan qadimgi Xorazm davlati haqidagi eng davtlabki ma'lumot Doro I ning Behustun yozuvida va "Avesto"da uchraydi. Aksariyat olimlar Xorazmni "Avesto"da ta'riflangan ilk zardushtiylikning vatani Aryanam Vaychax bilan taqqoslashadi. Miloddan avvalgi VI asrga kelib, vohada mavjud bo'lgan so'nggi jez (bronza) davri madaniyatlari manbaida Xorazmning Ko'zaliqir, Qal'aliqir kabi markazlari shakllangan. Miloddan avvalgi VI asr

o'rtalarida Kir II hukumronligida Xorazm ahamoniylar Eroni qo'l ostiga o'tgan.

Geroodotning "tarix" asaridagi ma'lumotlarga qaraganda Xorazm, Parfiya, So'g'd va Oiriyona bilan birgalikda, ahamoniylar Eronining XVI satrapligini tashkil etgan. Ahamoniylar Eroni shohi Artakserks II davrida (miloddan avvalgi 404-358 yillar)da Xorazm bu davlatning alohida satrapligiga aylangan. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan arxeologiya dalillari asosida, miloddan avvalgi V-IV asrlar bilan sanalgan Katta Oybuyirqal'adan topilgan oromiy xati ham aynan shu davrga oid.

Miloddan avvalgi IV- III asrlarda Xorazm jadal rivojlangan: yangi shahar (Bozorqal'a, Jonbosqal'a) larga asos solingan, yangi kanallar qurilgan, hunarmandchilik va san'at ravnaq topgan. Bu davrda Xorazm madaniyatida Qang' davlatining madaniyati sezilarli bo'lsa-da, eramiz boshlari va milodiy II-III asrlarda, Tuproqqal'ada Xorazm shohlarining qarorgohini o'rganish davomida to'plangan ashyoviy manbalarda, ayniqsa haykaltaroshlik namunalarida Kushon podsholigi davri madaniyatining ta'siri yaqqol seziladi.

Xorazmda yozuv o'z yo'nalishida davom etgan va oromiy alifbosi asosida qadimgi xorazm yozuvi shakllangan.

Qadimgi Xorazm xududlaridan xorazm yozuvi topilgan Oybuyirqa'a, Qo'yqirilgan qa'a, Tuproqqa'a yodgorliklari topib o'rganilgan.

Oybuyirqal'adan eng qadmigi Xorazm yozuv namunasi topilgan. U xum sirtiga yozilgan bo'lib, unda xumning sig'imi ko'rsatilgan. Oybuyirqal'a Qoraqalpog'istondagi Shumanay qishlog'idan 41 km shimoli-g'arbda joylashgan. Xalq uni Djampikqal'a deb ataydi. Yodgorlik dastlab 1946 yilda Xorazm ekspeditsiyasi tomonidan ro'yxatga olingan. XX asrning 70-80 yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida uning miloddan avvalgi V asrlarga oid madaniy qatlamlari topildi. Qal'aning umumiy maydoni 10 ga. Burjlar bilan mustahkamlangan mudofaa devoriga ega bo'lgan. Tadqiqotlar natijasida uning 3 bosqichi aniqlangan.

1 bosqich. Miloddan avvalgi I-III asrlarning oxiri.

2 bosqich. Miloddan avvalgi I-IV asrlar asrlar.

3 bosqich. Milodiy IX-XI asrlar.

Yodgorlikning quyi qatlamidan bir metr balandlikdagi 3 ta xum topilgan. Ularda suyuq va sochiluvchan narsalarni saqlaganliklari arxeolog olimlar tomonidan aniqlangan. Xumlarning har birida yozuv bor, bu yozuvlarni so'g'dshunos olim V.A.Livshits o'qigan. Olimning ta'kidlashicha **Oromiy yozuvi** asosida shakllangan ilk Xorazm yozuvi ekan.

O'zining qurilishi uslubi jihatidan **Qo'yqirilgan qa'a** alohida ajralib turadi. Bu yodgorlik miloddan avvalgi IV- III asrlarga oidddir. Qal'a aylana shaklda qurilgan. Uning markaziy qismida ark joylashagan. Arkning atrofi 2 qator mudofaa devori bilan himoyalangan, Tashqi mudofaa devorda har 18-26 metrdan burjlar joylashgan. Bu devor xom g'isht va paxsadan qurilgan bo'lib, qalinligi 1 metr, balandligi 7 metr bo'lgan. Qal'a ibodatxona vazifasini o'tash bilan birga rasadxona sifatida ham foydalanilgan.

Eng asosiysi bu yerdan **oromiy xatiga asoslangan Qadimgi xorazm yozuvi** topilgan¹. Yozuv qisqagina bo'lib, xumning tepa qismiga "aspabarak", ya'ni "otda ketayotgan" yoki "ot minib turgan" ma'nomini anglatganligi olimlar tomonidan o'qilgan.

Tuproqqa'a yodgorligi ham qadimgi Xorazm yozuvlari topilgan xududlardan biriga kiradi. **Tuproqqa'a yodgorligi** o'ziga xos qurilish uslubiga ega. U to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib qudratli mudafaa devoriga ega. Devor burchaklarida burjlar bor. U 17,5 gektar maydoni (500x350) egallaydi.

Ushbu yodgorlikdagi devorlar rasm va xaykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan. 138 ta xaykallar, saroy ayonlari, jangchilar, oxular, sozanda ayollar tasvirlangan rasmlar topilgan.

1948-1949 yillarda teri va yog'ochga yozilgan 140 ta hujjat arxeologlar tomonidan topilib, ulardan 26 tasi yaxshi saqlangan.

Bu yerda **taxta va tayoqqa 18 ta hujjat, teriga xorazm yozuvida yozilgan 8 ta** yirik matn parchalari, shuningdek chirib **ketgan teri o'ramalaridagi matnlarning** izlari bo'lgan 114 ta parcha bo'lib, ular bir vaqtlar mazkur o'ramlarni qoplagan va ular yordamida ikkilamchi loy

¹ Эгамбердиева Н. Археология. Ўқув қўлланма. Тошкент. 211. 1096.

qavatlarni xosil qilgan loy tufayli bizga qadar yetib kelgan bo'lib, ularda matnning bir necha yorqin izlari saqlanib qolgan.

Tuproqqa'a yodgorligining ilk o'rta asrlarga oid xorazm yozuvlari tushirilgan ostadonlar 1959-1962 yillarda A.V.Gudkova tomonidan qazib ochilgan.

Ilk o'rta asrlarga oid teriga bitilgan boshqa bir Xorazm hujjati Yakkaparon ko'shkida 1959 yilda Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan topilgan.

Tayanch ibora va birikmalar:

Ayritom, Kampirtepa, Syuan Szyan , Toxariston, baqtriya, Fayoztepa, fort, buddizm, Surxko'htal, Iskandar, Kushon, Paxlavon, Rustam. Oybuyirqa'a, Qo'yqirilgan qa'a, Tuproqqa'a

Nazorat uchun savollar:

- 1.Qo'ratepa yodgorligi xaqida nima bilasiz?
- 2.Syuan Szyan xaqida.
- 3.So'g'd tilida yozilgan xujjatlar, xujjatlar topilgan yodgorliklarni sanang.
- 4.Devashtich xujjatlarida nimalar aks yetgan?
- 5.Budda dinining yeng asosiy aqidalari nimalardan iborat?
- 6.So'g'd yozuvi asosan qaysi sohalarga kirib borgan?

11-§. MARKAZIY OSIYONING IX-XII ASRLAR TURKIY VA FORSIY, ARAB YOZMA YODGORLIKLARI VA TARIXIY ASARLARI TALQINI

- 1. Turkiy yozuvlarning o'rganilish tarixi.**
- 2. Turkiy – run yozuvlari.**
- 3. Ёзма манбааларнинг турлари.**
- 4. Шоҳноманинг тарихий талқини.**
- 5. Ҳуқуқий ҳужжат ва ёзишмалар.**
- 6. Араб тилида ёзилган ёзма ёдгорликлар.**
- 7. Араб тилидаги манбаларнинг хусусиятлари.**

Adabiyotlar:

- Аманжулов А.С. Тюркская руническая графика, – Алма-Ата, 1980.
- Юсуф Хос Хожиб. Кутадғу билик. –Т.: 1971.
- Исҳоқов М. Унитилган подшоликдан хатлар. –Т., 1992.
- Сагдуллаев А.Қадимги Ўрта Осиё тарихи. -Т., 2004.
- Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart.A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.

XVIII asrda **turkiy xalqlar yozuvlari** haqida dastlabki ma'lumotlar paydo bo'ldi. Lekin yozuvlar qaysi xalqqa mansub ekanligi muammoligicha qolaverdi. Chunki bu yozuvlarni hech kim o'qiy olmadi. Faqat taxminlar, mulohazalar bilan ish ko'rildi.

Qadimgi turkiy yozuvning kelib chiqishi va taraqqiyoti olis davrlarga borib taqaladi. Turkiy xalqlar yozuvi **G'arbdagi run yozuvlari** paydo bo'lgunga qadar mavjud bo'lgan.

Qadimgi turkiy yodnomalarning ilk to'plovchisi va tadqiqotchisi **F.I.Stralenberg** bo'lgan. **F.I.Stralenbergning** faoliyati **D.G.Messershmidt** bilan bog'liq. Ikki olim 1720 yilda **Tobolsk shahrida** tanishdi.

Messershmidt hukumatdan **Stralenbergni** o'z ekspeditsiyasiga kiritishni iltimos qilgan. Ular ikki yil ekspeditsiyada birga ishlaganlar. 1730 yilda **Lyubenda “Ovropo va Osiyoning sharqiy va shimoliy**

qismining tarixiy hamda geografik tasviri” kitobini nashr qildilar.

Bu kitob Stralenberg va Messerschmidtning kundaliklaridan iborat bo‘lib, unda dunyo ahamiyatiga molik fikrlar bayon qilingandi.

Shundan keyin **Enasoy (Enisey) yozuvlari** haqida ilk bor munozara boshlandi. Bu yozuvlarni shakliga qarab goh **slavyanlarga**, goh **kelt** va **greklarga** nisbat berdilar. Ayniqsa, **slovyan nazariyasi** hukmron bo‘lib qoldi. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha, turkiylar **Sibiriyaning** turg‘un aholisi emas, shuning uchun yozuvlarning turkiy xalqlarga tegishli ekanligi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

Bundan taxminan yuz yillar ilgari turkiy xalqlarning yozuvi taqdiri **shumer mixxatlari** taqdiriga o‘xshardi. Bir necha ming yillar davomida shakllangan **turkiy yozuvlar** uzoq vaqt jamoatchilikka ma‘lum bo‘lmay keldi.

Ushbu yozuvlarning turkiy xalqlarga tegishli ekanligini birinchi bo‘lib **N.M.Yadrinsev** isbotlab berdi. U topilgan yozuvlarning taxminan 2000 yillar ilgari yaratilganini, turkiy xalqlarning **skif va gotlarga** qo‘shni bo‘lganligini, bu yozuvlar turkiy xalqlarga taalluqli ekanligini aniqladi. Lekin bu bitiktoshlarda nimalar ifodalangani noma‘lumligicha qolaverdi.

N.M.Yadrinsev boshliq ekspeditsiyaning **Urxun va To‘la daryolariga** qilgan safari **run bitiklarini** butun dunyoga ma‘lum va mashhur qildi.

Kul tigin bitigida xitoycha yozuv matnlari ham bor edi. Bu matnlardan ma‘lum bo‘lishicha, bitiktoshlarning biri **turk xoqoni Bilga xoqon** va biri uning ukasi, **turk xoqonligi lashkarboshisi Kultigin** sharafiga bitilgan ekan.

Avvalgi Enasoy daryosi irg‘oqlaridan topilgan **Enasoy yozuvlari** **N.M.Yadrinsev** topilmasidan so‘ng **Urxun – Enasoy (Enisey) yozuvlari deb nomlandi.**

Bu yozuvlarning **Ovropo (Evropa) Run yozuvlariga** o‘xshashligini nazarda tutib, olimlar uni **Turkiy-Run yozuvlari** deb atayverdilar.

Oradan ko‘p o‘tmay, bu bitiklarning **finlarga** mansub ekanligini isbotlash maqsadida **Xeykel** boshliq ilmiy safar **Mo‘g‘ulistonga** jo‘nadi.

Ular ham ilmiy safar materiallarini bir necha to‘plamda nashr qildilar. 1891 yilda **V.V.Rodlov** boshliq ilmiy safar a‘zolari Rossiya

Fanlar akademiyasining ko'rsatmasiga binoan, bitiktoshlar topilgan joyga – **Shimoliy Mo'g'ulistonga** kelib qadimshunoslik tadqiqotlari olib bordilar.

1891 yili **N.M.Yadrinsev Ungin daryosi** bo'yidan yana bir bitiktosh topdi. U fanda "**Ungin bitiktoshi**" yodgorligi deb yuritiladi. Oradan sal vaqt o'tgach, **Yettisuvdan** ham **bitiktosh yodgorliklari** topildi. Ular shakl jihatidan ozigina farq qiladi.

Yozuvlarni o'qish **daniyalik olim Vilgelm Tomson** va **rossiyalik olim V.V.Radlovlar** zimmasiga tushdi. Nihoyat, 1893 yilning oxirida **V.Tomson Urxun daryosi** qirg'oqlaridan topilgan yozuvlarni o'qiganligi haqida **Daniya qirolligi Fanlar akademiyasi** yig'ilishida axborot berdi.

V.Tomson "noma'lum yozuv"larni o'qish bo'yicha yirik mutaxassis, **etnograf**, tengi yo'q tarixchi olim edi. Uning boshqa xalqlar yozuvini **deshifrovka qilish – o'qishda** qo'llagan tajribasi **Urxun yozuvlarining** kalitini ochishda ham qo'l keldi.

U yozuvlardagi turli belgilarning qanday tovush ifodalashini bilib olgach, unga tayangan holda **Urxun yozuvlaridagi** butun alifboni aniqladi va birinchi marta "**tangri**", "**turk**" so'zlarini o'qidi. **Bitiktoshlarning** turkiy xalqlarga mansub ekanligi aniq isbotini topdi.

Turkiy yozuv eramizdan oldingi I ming yillikda yaratilgan, degan fikrlarda jon bor. Yaqin vaqtlargacha **O'rta va Markaziy Osiyodan** topilgan **qadimgi turkiy yozma yodgorliklar Ikkinchi turk xoqonligi** yoki **uyg'ur xoqonligi** davriga mansub deb qaralardi.

Lekin 1970 yilda **Olmaotadan** tasodifan topilgan bir qo'og'ondagi ashyoviy dalillar bu fikrni rad etdi. Shu yili **Olmaota yaqinidagi "Issiq qo'rg'oni"** yodgorligidan to'rt mingga yaqin buyum topildi. Bular ichida o'n sakkiz yoshli yigitchaning jasadi, bosh tomoni uchli temir qalpoq, cholvor, chakmon, etik kabi kiyimlar alohida diqqatga sazovor. Kiyimlar oltin lavha bilan bezatilgan bo'lib, yo'lbars, ot, tog' echkisi tasviri tushirilgan edi.

Qabrning ichida o'ttizga yaqin **idish, yog'och tovoq, cho'mich, yupqa loy idishlar, naqshli kumush piyola, kumush qoshiq** (qoshiqning bandi qushning boshi shaklida, tumshug'i uzun) ham bor edi.

Ayniqsa, chetlariga **turkiy runiy yozuvlarga** o'xshash belgilar bitilgan kumush kosacha hammaning diqqatini o'ziga tortdi. Qazilma rahbari **K.A.Akishev**ning ko'rsatishicha, bu qabr hamma belgilariga ko'ra, eramizdan oldingi V-IV asrlarga mansub.

Yozuvni **qozog'istonlik turkiy run yozuvlari** bilan shug'ullangan olimlar, shuningdek, taniqli **shoir O'ljas Sulaymonov** o'qishga harakat qildilar.

Kumush kosachadagi yozuv bir tomondan, **turkiy run yozuvlariga** o'xshasa, ikkinchi tomondan, **O'rta er dengizi bo'ylaridagi ilk yozuv belgilarini** eslatardi. Shunisi muhimki, yozuv qadimgi **turkiy tilda bitilgan**, Yettisuvning ilk ko'chmanchilari ham **qadimgi turkiy tilda** gapirganlar.

1960 yillarda **Turkiston shahriga** yaqin joyda loyga bir-ikki millimetr chuqurlikda botirilib yozilgan **bitik** topildi. Uchta belgini hisobga olmaganda, bitik **Urxun yozuviga** mansub.

Uni o'qish natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin: Bu loy muhr **“afsungar”** yozuvning o'ziga xos turi – **tumor** bo'lgan. Yozuvdagi **As – Burgut** so'zi ilk turkiylar sajda qilgan Osmon ilohasiga ishora qiladi.

V-VIII asrdagi **turkiy yozuvni** esa takomillashgan, **qadimgi turkiy tilning** tovush tarkibini to'liq ifodalashga moslashgan yozuv edi, deb qarash kerak.

1929 yilda **Ye.D.Polivanov** bir necha turkiy runiy belgilarning kelib chiqishi haqida qisqa bir maqola chop etdi. Uning qarashlaricha, **turkiy alifbo turkiylar muhitida paydo bo'lgan**, shuning uchun ham **turkiy til grammatik qurilishini** va siganmonizm qonuniyatini o'zida to'liq ifodalaydi. Shuningdek, **oromiy, so'g'd va pahlaviy yozuvlarining** ham ma'lum darajada ta'siri bor.

Turkiy qabilalarda eramizdan avvalgi asrlardan **sug'd, urxun-enasoy, kufiy, uyg'ur, moniy yozuvlarining** kirib kelishi va qo'llanishidan maqsad bor. Bu yozuvlar **ikki yo'l bilan: savdo-sotiq munosabatlari yoki dinni targ'ib qilish maqsadida** kirib kelgan. Lekin din turkiylar orasida mavqeini tiklay olmagani kabi yozuv ham o'z o'rnini topa olmagan.

Eski uyg'ur yozuvida turli huquq va devon hujjatlari bitildi. Shu

bilan birga, tarjima asarlari ko'chirildi. **Uyg'ur yozuvi** katta hududdagi xalqlarga ma'lum edi.

960 yilda **Qoraxoniylar davlatida** islom rasman qabul qilindi va xalqqa singishib ketgan **Budda dinini** siqib chiqara boshladi. **Arab yozuvi** qabul qilingandan keyin **eski uyg'ur yozuvi** barham topa qolmadi, balki **Hirotgacha** bo'lgan hududda keng qo'llanaverdi. Qoraxoniylar davrida yashagan xalq islom qabul qilingunga qadar **uyg'ur madaniyati** ta'siri ostida edi.

“**Uyg'ur**” degan atama faqat **Sharqiy Turkistonda** yashaydigan xalqqa tegishli emas. **Uyg'urlar turkiy xalqlarning bir qismi bo'lib, qadimgi turk davri madaniyati, xususan, yozuv madaniyati rivojida ma'lum rol o'ynagan.** Turkiy-Run yozuvi dastlab barcha qabilalar, jumladan, **uyg'urlarga** ham tegishli edi.

Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo va Markaziy Osiyoga turli dinlarning kirib kelishi va ularning o'zaro “kurashi” murakkab. Dinlar kirib kelgach, ularni olib kelgan missionerlar emas, diniy oqimlarning o'zi kurashgan. Yozuvlarning vazifasi bu sohada alohida ahamiyatga ega. Yozuvlar u yoki bu dinni olib kelishda asosiy vazifani bajargan.

III asrdan boshlab **G'arbning ikki din vakillari: – moniylik va nasroniylik** vakillari o'z alifbosini joriy qilib, har tomonga tarqata boshladilar. **Zardushtiylik** g'oyasini **nasroniylik va buddizm** bilan birlashtirishga urindilar.

O'rta Osiyoda **moniylik nasroniylik ta'limotidan** ertaroq boshlangan. Dinlar faqat tor, xususiy maqsadda emas, balki butun jamiyatning manfaatlarini nazarda tutib, ezgulikni targ'ib qildi. Hamma dinning maqsadi ham aslida shunday.

Bu davrda endi yozuvning maqsadi ancha oydinlasha boshladi. **Yozuv va din** o'rtasida munosabat yuzaga keldi. **Moniy yozuvi** ham, **nasroniy yozuvi** ham **har ikki din targ'ibotiga xizmat qila boshladi.**

Yozuvlarning kirib kelish yo'llari ko'p. Jumladan, **Qadimiy Eron yozuvi** diniy tashviqot tufayli emas, balki savdo-sotiq munosabatlari sababli turkiylar orasiga tarqaldi.

Turkistonda topilgan **turkiycha** budda matnlarining ayrimlari **hind alifbosida** yozilgan. Buddistlar sug'd alifbosini ham o'zlashtirib olishdi.

Turkiylar o'rtasida bu yozuv qo'llandi. Uyg'ur yozuvi bizning hududimizda VI asrdan XV asrgacha qo'llangan. **Uyg'ur yozuvi** arab yozuviga o'xshab ketgan. Unga qadar eslatib o'tganimizdek **Urxun – Enasoy** ozuvlari bo'lgan.

“Noma'lum yozuv”. Bu yozuvga tegishli dastlabki ma'lumot 1954 yilda fransuz arxeologi **A.Marik** tomonidan bir idish parchasidagi yozuvdan boshlandi. Bu birinchi **“noma'lum yozuv”** namunasi edi.

1966 yilda **G.A.Pugachenkova Holchayon yodgorligidan “nomalum yozuv”** lavhasini topadi. Bu yozuv ham o'qilmay noma'lumlighicha qoldi. 1967 yilda **Dashti Navur (Afg'oniston)**da qoyaga yozilgan shunday yozuv namunasi topiladi. U eramizning I asriga tegishli bo'lib, u uch tilda, ya'ni **kxaroshta**, **yunoncha grafika asosidagi baqtriyacha** va **noma'lum tilda** yozilgan edi.

Mashxur tilshunos olim **J.Fyusman** bu xat o'ng tomondan chap tomonga qarab yozilishini, **Surx-Ko'xtal va Holchayon yozuvlari** bilan bir ekanligini isbotlaydi.

1972 yilda arxeolog **K.Akischev** mashxur **«Issiq» qo'rg'oni yodgorligidan** kumush kosaga yozilgan, miloddan avvalgi IV-III asrga tegishli yozuvni topadi, tilshunoslar esa uni **“noma'lum yozuv”** sirasiga qo'shadilar.

Uni o'qishda mutaxassislar orasida har xillik bo'lsada, ammo **“Issiq” qo'rg'oni yodgorligi** miloddan avvalgi III asrdan kam emasligi masalasida mutaxassislar orasida ikkilanish yo'q.

Yana **“issiq” yozuvi yodgorligi “noma'lum yozuvi”** tarqalgan tarixiy-madaniy mintaqalar geografiyasiga aniqlik kiritdi. Bu yozuv namunalari **janubiy O'zbekistonning Xotinrabod, Qoratepa, Fayoztepa, To'qqiztepa, Kampirtepa** kabi yodgorliklaridan, **Shimoliy Afgonistonning Oyxonum yodgorligidan** ham topilgan.

“Issiq” yozuvi (yoki “noma'lum yozuv”) yodgorliklarini akademik **Ye.V.Rtveladze Yuechji qabilalari** bilan bog'laydi. **V.A.Livshis** esa uni **saklarga** tegishli deydi. Shu bilan birga, **«issiq» yozuvini Kushon imperiyasi** yozuv tizimining rasmiy shakllaridan biri degan xulosaga keladi. Keyingi yillarda tadqiqotchilar bu yozuvni eng qadimgi **turkiy yozuv** bo'lishi kerak, degan farazlarni o'rta

tashlamoqdalar.

Masalan, **A.S.Omonjulov “Issiq” yozuvi** turkiy yozuv ekanligiga shubxa qilmaydi. Biz ham shu fikrdamiz. **Ye.V.Rtveladze “noma’lum yozuv”** tilini aniqlash muayyan etnosni yozuv atributikasiga uzil-kesil tuzatishlar kiritadi. Har holda **“noma’lum yozuv”**ni tarqalish geografiyasi ham uni **yuechji qabilalariga** mansubligiga shubxa uyg‘otmaydi deydi.

Darhaqiqat, bu yozuv **O’rta Osiyoning janubiy-sharqiy qismi va Afg‘onistonning shimoliy g‘arbida** shakllangan ko‘rinadi. Yozuv yodgorliklarining tarqalish mintaqasi **“Issiq” qo’rg‘oni yodgorligi** rayoni va **Yettisuvdan janubda to Hindiqushgacha va sharqda shimoliy Afg‘onistondan g‘arbda to Sharqiy Turkmanistongacha** yoyilgan. Faoliyat doirasi miloddan avvalgi III asrdan to milodiy VIII asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Biz quyida Markaziyning Osiyoning Qadimgi Yozma manbalarini keltirishga qaror qildik.

Yozma manbaalarning turlari.

Yozma manbalar tarixiy manbalarining muhim va asosiy turidir. Insonning ijtimoiy faoliyati, aslzoda kishilariing o‘zaro hamkorligining natijasi ularda yaratilgan va o‘sha zamonlarda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni o‘zida aks ettirgan manba sifatida o‘rta asr (VI-XIX asrlar) tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Yozma manbalar o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi:

1.Oliy va mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan rasmiy hujjatlar (yorliq, farmon, inoyatnoma, moliyaviy-hisobot daftari, rasmiy yozishmalar).

Ijtimoiy-siyosiy, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarga oid masalalarni o‘rganishda rasmiy hujjat, moliyaviy - hisobot daftar va yozishmalarning ahamiyati benihoya kattadir. Rasmiy hujjatlar ijtimoiy-siyosiy hayotni ma’lum yuridik shaklda bevosita va ko‘p hollarda aynan qayd etish bilan qimmatlidir. Lekin ularning orasida, ayniqsa, rasmiy yozishmalarda soxtalari ham uchrab turadi. Shuning uchun ham ulardan foydalanilganda diqqat-e’tibor va zo‘r ehtiyotkorlik talab qilinadi. Hujjatlar ustida ish olib borganda, undan biron ijtimoiy-siyosiy voqea yoki dalilni tahlil etish uchun foydalanish jarayonida, bittasi bilan

kifoyalanmasdan, o'xshash bir necha hujjat, manbalarni qo'shib o'rganmoq zarur. Chunki, bitta hujjatda faqat bir kelishuv yoki dalil ustida gap boradi. Shuning uchun faqat bir hujjat bilan ma'lum ijtimoiy-siyosiy masala ustida qat'iy fikr yuritib, umumlashtirib qat'iy xulosaga kelib bo'lmaydi.

2. Tarixiy, geo-kosmografik hamda biografik asarlar.

Tarixiy, geo-kosmografik hamda biografik asarlar to'g'risida shuni aytish kerakki, ular hukmron sinfning topshirig'i bilan yozilgan va shu tufayli ularning sahifalarida ko'proq podsho va xon, amir va yirik ruhoniylarning hayoti va faoliyati yoritilgan, moddiy boylik yaratuvchi mehnatkash xalqning tarixi esa ko'p hollarda chetlab o'tilgan yoki kamroq yoritilgan.

Xullas, yozma manbalarda hukmron feodal sinfning dunyoqarashi o'z ifodasini topgan, o'sha sinfning maqsad va manfaatlari ifoda etilganligi bilan ajralib turadi.

Asosiy ijtimoiy-siyosiy voqealar.

Bag'dod xalifaligining sobiq xududida tashkil toptan ent yirik davlatlardan biri Somoniylar davlati (819-999) edi. Unta Nuh ibn Asad (819-842) asos soldi. Bu davlat, ayniqsa X asrning I yarmida - Ismoil ibn Axmad davridan (892-907) boshlab kuchaydi. Somoniylar Movarounnahr, Xuroson, Eron, hozirgi Afg'onistonning katta qismi, shuningdek. Toshkent, Turkiston va Ispijob (Sayram) ustidan o'z hukmronligini o'rnatdilar.

Somoniylar yirik yer egalari, nufuzli ruhoniylar hamda yirik savdogarlarning ko'magiga tayanib, feodal tarqoqlik va ichki urushlarga, Ila vodiysida va Sirdaryo bo'ylarida ko'chib yurgan qorliqlarning Movarounnahrning ichki tumanlari ustiga qilib turgan hurujlariga barham berdilar (893). Bu hol mamlakatning iqtisodiy va madaniy yuksalishiga yo'l ochdi.

Bu sulola davrida markaziy davlat boshqaruvi birmuncha takomillashdi. Amir davlatni o'nta muassasasi (devon): *devoni vazir* (Bosh mahkama), *devoni mustavfiy* (moliya ishlari mahkamasi), *devoni omid ul-mulk* (insho va elchilik idorasi), *devoni sohib shurat* (amir gvardiyasi ishlari bilan shug'ullanuvchi idora), *devoni sohib barid* (pochta ishlari

mahkamasi), devoni mushrif (o'ziga xos davlat xavfsizligi idorasi), devon ad-diya (amirning yer-mulkini boshqaruvchi idora), devoni muxtasib (shariat ishlari mahkamasi), devoni vaqf (vaqf ishlarini nazorat qiluvchi idora), devoni kuzzot (qozilik mahkamasi) yordamida boshqargan. Davlatni bopqarishda turk amirlarining roli juda katta bo'ldi.

Somoniylar davrida hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi. Buni Buxoro, Samarqand, Marv, Balx, G'azni, Hirot va Toshkent kabi yirik, taraqqiy etgan shaharlar misolida kuramiz. Bu davlatning Hazar xoqonligi, Buxoro xonligi, Rus va Xitoy bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari birmuncha rivoj topdi.

Bu davr ilm-fan va madaniyatning o'rta asr sharoitida benihoyat rivojlangan davri hisoblanadi. Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy singari ulkan shoirlar, Farobiy, Beruniy, Ibn Sinodek allomalar yetishib chiqdilar.

Katta yer egaligi munosabatlarining rivojlanishi, mahalliy yer egalari bilan byurokratik apparat, katta yer egalari bilan ijarachi dehqonlar o'rtasidagi ziddiyatlar natijasida o'zaro feodal kurash va yirik yer egalarining ajralib chiqishga bo'lgan harakati kuchayib ketdi. X asr oxirlariga kelib feodal tarqoqlik yanada kuchaydi. Hamadon, Isfahon va Rayda Buvahiylar, Tabariston va Jurjonda Ziyoriyalar mustaqillikka erishdilar. 962 yilda Somoniylarning G'aznidagi noibi Alptakin ham mustaqillik e'lon qildi. Sirdaryoning o'ng sohilidagi yerlar, shuningdek, Chag'oniyon va Xorazm ham Somoniylarga itoat etishdan bosh tortdilar.

Mamlakatda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy parokandalikdan Qoraxoniylar ustalik bilan foydalandilar. Ular 996 yili Zarafshonning shimoliy tarafidagi barcha yerlarni, 999 yili esa Buxoroni ishg'ol etib, Somoniylar hukmronligiga bardam berdilar. Qoraxoniylar (X asrning 90-yillarida Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyanshanning janubiy qismida tashkil topgan feodal davlatga asos solgan sulola) 996-999 yillari Nasr ibn Ali (1012 yili vafot etgan) boshchiligida butun Movarounnaxrni egalladi. Faqat Somoniylar lashkarboshisi Abu Ibroxim Ismoil (Muntasir) 1001 yilgacha Qoraxoniylar bilan kurashdi, lekin ulardan ustun kelolmadi. Nasr ibn Alidan keyin Movarounnaxrni Iligxon Ali takin (1034 yilning kuzida vafot etgan) idora qildi. 1025 yili Qoshg'ar xoni Qodirxon (Tamrochxon) bilan Mahmud G'aznaviy (998-1030 yy.) birgalikda Movarounnahr ustiga

yurish boshladilar. Ali takin Buxoro va Samarqandni qoldirib cho'lg'a chekinishga majbur bo'ldi. Ittifoqchilar Movarounnahrda o'zlarining harbiy-siyosiy mavqelarini mustahkamlay olmadilar va uni tashlab chiqishga majbur bo'ldilar. 1032 yili Xorazm hukmdori Oltintosh (1017-1032) ham urinib ko'rdi, lekin uning barcha harakatlari zoye ketdi. Tarixiy manbalar, masalan, Abulfazl Bayhaqiy bergan ma'lumotlarga qaraganda, Ali Takindan keyin taxminan 1040 yilga qadar uning o'g'illari hukmronlik qildilar. Ulardan keyin 1060 yilgacha Abu Ishoq Ibrohim ibn Nasr hukm yuritgan. U Qoraxoniylar poytaxtini O'zganddan (Farg'ona vodiysidan) Samarqanga ko'chirib olib keldi. Uning vafotidan keyin o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurash boshlandi. Bu kurashda Abu Ishoq Ibrohim ibn Nasrning Shamsul-mulk Nasr ismli o'g'li g'olib chiqdi. Shams ul-mulk Nasr davrida (1068-1080) Qoraxoniylar va Saljuqiylar o'rtasida Termiz va Balx uchun kurash kuchaydi. Buning ustiga Tamg'ochxon Qodir Yusuf va uning o'g'illari o'nga qarshi kurash boshladilar va Sirdaryoning shimoliy sohilidagi yerlarni hamda Farg'onani undan tortib oldilar.

Abu Ishoq Ibroxim ibn Nasr va uning avlodi bilan musulmon ruhoniylari o'rtasidagi ziddiyatlar Shams ul-mulkning taxt vorislari Xidir va Ahmad (1081-1089) davrida benihoyat kuchaydi. Saljuqiy Malikshoh 1 1089 yili Movarounnhrga qo'shin tortib, Buxoro va Samarqandni zabt etdi. Lekin, Saljuqylar tez orada sulh tuzib, Movarounnahrdan chiqib ketishga majbur bo'ldilar. Sulton Sanjar davrida (1118-1157), 1130 yildan boshlab, Qoraxoniylar unga tobe bo'lib qoldilar. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik kuchaydi - viloyat va o'lkalarning ko'pchiligi mustaqillik e'lon qildi. Ana shunday mustaqil viloyatlardan biri Buxoro bo'lib, bu yerda hokimiyat Sadrlar (Burhoniylar) deb ataluvchi ruxoniylar sulolasi (1130-1207) qo'liga o'tdi. Qoraxoniylar inoqirozga yuz tutgan va Movarounnahr tarqoqlik iskanjasiga tushib qolgan paytda, uning shimoli-sharqiy va g'arbiy tarafida ikki yirik harbiy, siyosiy kuch paydo bo'ldi. Bulardan biri qoraxitoylar bo'lib (etnik tarkibi aniqlanmagan), ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, ularning asli tungus, ayrim olimlarning fikricha mo'g'ul edi. Ular XII asr boshlarida dastlab Chug'uchak, keyinchalik Bolosog'un shahri bilan birga butun Yettisuv vohasini ishg'ol qildilar. Qoraxitoylarning oliy hukmdori **gurxon** deb atalgan. Yana bir yirik g'arbiy siyosiy kuch

Xorazmda shakllandi. Ilgari Saljuqiylarga tobe bo'lgan Xorazm 1127 yili mustaqillikka erishdi.

XII asrning 30-yillari boshlaridan qoraxitoylarning Movarounnaxrga talonchilik xurujlari boshlandi. Ular Shosh va Farg'ona bilan kifoyalanib qolmay, Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalariga ham kirib bordilar. Qoraxitoylar 1138 yili Samarqand xoni Qoraxoni Maxmudxonni (1132-1141) tor-mor keltirdilar va katta o'lpon olib, Yettisuvga qaytib ketdilar. 1141 yili ular Samarqandga yaqin Katavon degan joyda Mahmudxon va Sulton Sanjarning birlashgan kuchlarini tor-mor keltirib, Samarqand, so'ngra Buxoroni egalladilar. Lekin, ular Yettisuvdan Movarounnaxrga ko'chib o'tmadilar, balki har yili o'lpon olib turish bilan kifoyalandilar.

Xorazmning mustaqillikka erishuvi Xorazmshox Otsiz (1127-1156) nomi bilan borliq. U qisqa vaqt ichida Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan Jand shahrini va Ming qishlog'ni egalladi. Sulton Sanjar Xorazmni yana buysundirishga harakat qildi, lekin bunga erisha olmadi. El Asrlon (1156-1172) va Sulton Takash (1172-1200) vaqtida Xorazmshohlar davlati birmuncha mustahkamlandi. Xorazmshoxlar 1156-1192 yillar orasida Hind daryosidan Iroqqacha bo'lgan yerlarni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldilar. Xorazmshox Muxammad (1200-1220) davlati hududini juda kengaytirdi.

1206 va 1212 yillarda Buxoro va Samarqandni bosib oldi, 1210 yili esa Yetgisuvda Gurxon qo'shinlariga qaqshatqich zarba berdi va bu bilan Qoraxitoylarning Movarounnaxrga bo'lgan da'volariga chek qo'ydi. Ammo, bu ulkan davlat markazlashgan va mustahkam emas edi. Shuning uchun ham u mo'g'ullarning kuchli zarbasiga dosh berolmadi.

Qoraxoniylar davrida davlat tepasida xon (manbalarda Tomg'ochxon) turgan va u rasman oliy hukmdor hisoblangan, aslida esa nomigagina shunday bo'lib, ijtimoiy-siyosiy hayotda ulus xokimlarining, manbalarda ular **iligxon** deb atalgan, tutgan mavqei kuchli bo'lgan. Ulardan ayrimlari mustaqil siyosat yuritganlar. Farg'ona (markazi Uzgand) hamda Movarounnahr (markazi Samarqand) iligxonlari shular jumlasidandir.

Qoraxoniylar davlat tuzulmasi haqida ma'lumot kam. Lekin vazir, sohib barid, mustavfiy atalmish lavozimlarning mavjud bo'lishiga

qaraganda, ular davrida ham Somoniylar davlati idoralari saqlangan ko‘rinadi.

XI asrdan boshlab O‘rta Osiyoda yerga egalik qilishning yangi shakli **iqto**, toju-taxt oldida ko‘rsatgan xizmatlari uchun shaxzoda va xonzodalar, amir va mansabdorlarga in‘om tariqasida beriladigan yer-suv taraqqiy eta boshladi. Qoraxitoylar bosib olgan yerlaridan o‘lpon yig‘ib olish (har bir xonadondan bir binor miqdorida) bilan kifoyalandilar. Bu davrda chet el bosqinchilariga qarshi qo‘zg‘olonlari ham bo‘ldi. Masalan, 1206 yili Buxoroda va 1212 yili Samarqandda bo‘lib o‘tgan kosiblar (qo‘zg‘olonlari shular jumlasidandir). X-XII asrlarda O‘rta Osiyoda ilm-fan, adabiyot bir muncha rivoj topdi, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Termiz, Marv, Gurganj kabi shaharlar kengaydi, rivojlandi. Bu davrda Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Bakr Muxammad ibn Jafar Narshaxiy (X asr), Maxmud Qoshg‘apy (taxminan 1029-1038 yillar orasida tug‘ilgan) kabi zabardast olimlar, Unsuriy, Am‘oq Buxoriy, So‘zaniy Samarqandiy, Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Yusuf Xos Xojib Bolasog‘uniy kabi ajoyib shoirlar va adiblar yetishib chiqdilar.

Huquqiy hujjat va yozishmalar

O‘zbekistonning qadimgi va o‘rta asrlar tarixini o‘rganishda ilmiy tekshirish institutlarining kutubxonalarida, davlat tarix arxivida, o‘lkashunoslik muzeylarida saqlanayotgan rasmiy hujjat va yozishmalarning ahamiyati benihoya kattadir. Lekin ularni topish, o‘rganish va o‘z o‘rnida foydalanish o‘ta qiyin bo‘lib, talabadan chuqur bilim, maxsus malaka, qunt va sabot-matonat talab qilinadi. Huquqiy hujjatlarni ham, jamiyatda katta nufuzga ega bo‘lgan shaxslar o‘rtasida olib borilgan yozishmalarni ham bir yerdan, aniqrog‘i bir yoki ikki asar ichidan, bir muzey, arxiv fondidan topib bo‘lmaydi.

Ularni barcha muzey, arxiv va fondlar ichidan, Qo‘lyozma kitob va chop etilgan asarlardan qidirib topish mumkin. Huquqiy hujjat – podsho va xonlarning farmonlari, yorliqlari, inoyatnoma, rahnoma, vasiqalar, vaqfnoma va boshqa O‘zbekistondagi tarix va o‘lkashunoslik muzeylarida, maxsus ilmiy tekshirish institutlari va universitetlarning kutubxonalarida, shuningdek, Davlat tarix arxivlarida hamda shaxsiy majmualarda saqlanadi. Ammo IX-XII asrga oid hujjat hali alohida to‘planib

o‘rganilganicha yo‘q.

Bu davrda maxsus kotib yoki dabirlikka qancha katta e‘tibor berilgani Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “To‘rt maqola” asarida bayon etiladi Burxoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asarida keyincha o‘zining rasmiy tavsifini topadi.

Arab tilida yozilgan yozma yodgorliklar

O‘rta Osiyoning VII asr oxiridan boshlab, XII asrgacha bo‘lgan tarixi deyarli arab tilidagi yozma manbalarda yoritilgan va bu an‘ana keyincha ham Temuriylar davrigacha davom etgan. Bu davrda yurtimiz avval arab xalifaligi tarkibida, so‘ngra Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarini boshdan kechirdi. Arab tilida vatanimiz tarixiga oid yozma manbalarni mualliflarning kelib chiqishiga qarab, ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh - arab tilida ijod etgan yurtimizdan chiqqan tarixchi va olimlar. Bular MuHammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Maxmud Qoshg‘ariy, Maxmud Zamaxshariy, Abu Said Sam‘oniy, Shahobuddin Muhammad Nisoviy va boshqalardir. Ushbu muarrixlar asarlarida ona-Vatanga muhabbat alohida namoyon bo‘ladi. Bu, ayniqsa Abu Rayhon Beruniyning **“Osor ul-boqiya”** asarida xalqimiz qadimgi madaniyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarida alohida ko‘zga tashlanadi.

Ikkinchi guruh - xorijlik olimlardan iborat bo‘lib, ular yaratgan arab tilidagi asarlarida yurtimiz tarixi, madaniyati, siyosiy-ijtimoiy hayoti yoritilgan. Ushbu mualliflarning eng yiriklari Abulhasan Madoiniy (vaf. 840), Abulabbos al-YA‘qubiy (IX asr), Abubakr al-Balazuriy, Ibn Xurdodbeh (820-taxm.913), Abu Ja‘far Tabariy (839-923), Ishoq al-Istahriy (850-934) va boshqalardir.

Mazkur muarrixlar yurtimiz hududini umummusulmon olami, arab xalifaligi bir qismi sifatida yoritganlar. Ular, asosan arab xalifaligini ikki qismga, ya‘ni arab va ajam - g‘ayri arabga ajratib o‘rganar edilar.

Arablar tomonidan yurtimizga berilgan nom Movarounnahr - daryoning u yog‘idagi mamlakat mazmunini bildiruvchi jug‘rofiy nom bizgacha yetib kelgan bo‘lib, asosan arab mualliflari asarlarida istifoda etiladi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, bu davrda arab tili bilan bir

vaqtning o‘zida fors tili ham amalda qo‘llanilgan. Shu sababli arab tilidagi yozma yodgorliklar bilan bir vaqtda fars tilida ham manbalar yozib qoldirilgan. Shunday fors-tojik yozma manbalardan biri Abulqosim Firdavsiyning **“Shohnoma”** asaridir.

Abulqosim Firdavsiyning hayoti va ijodi. Fors tojik adabiyotining ulkan shoiri Abulqosim Firdavsiy 941 yilda Xurosonning, xozirgi Eron Islom Respublikasi xududidagi Tus shahri yaqinida bo‘lgan **Boj qishlog‘**ida o‘rta hol dehqon oilasida tug‘ilgan.

Xozirgi **Tus shahri Firdavs** deb yuritiladi. Bo‘lajak shoirning otasi Tus hokimining **“Firdavs”** ya’ni, **“jannat” nomli bog‘ida** bog‘bon bo‘lgan. Firdavsiy avval qishlog‘ida diniy maktabda, so‘ng Tus shahridagi madrasalarida tahsil olgan. Otasi vafotidan keyin bog‘bonlik qilgan va taxallus sifatida o‘ziga shu bog‘ nomini oladi. U yoshligidan qadimgi xalq afsonalari, qahramonlik dostonlarini o‘qiydi, halq qahramonlariga qiziqadi. Sharq xalqlari tarixini zo‘r zavq bilan o‘rgangan. Abulqosim Firdavsiy 1025 yili o‘z vatanida vafot etadi. 1934 yili Firdavsiy dafn etilgan joyda maqbara o‘rnatilgan.

Ruhoniylar uning jasadini musulmonlar mozoriga qo‘ydirmaganlaridan so‘ng, uni o‘zining bog‘iga dafn etadilar. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, uning she’rlari va **“Yusuf va Zulayxo”** dostoni ham bo‘lib, ular bizgacha yetib kelmagan.

Shohnomaning tarixiy talqini. Abulqosim Firdavsiy Sharq xalqlarining ko‘xna rivoyatlarini doimo yozib boradi. Aytishlaricha, Xuroson hukmdori Mahmud G‘aznaviy shoirga **“Shohnoma”**ni (shohlar haqidagi kitob) yozishni topshiradi va asarning har bir misrasi uchun bir dinor oltin tanga berishni va’da qiladi. Ammo shohasar yozilib tayyor bo‘lgach, hukmdor va’dasidan tonib, shoirga 120 donagina kumush beradi. Firdavsiy bundan g‘azablanib bu tangalarning bir bo‘lagini hammom xodimiga, bir qismini sharbat sotuvchisiga va yana bir qismini pulni hukmdordan olib kelgan mulozimlarga taqsimlab beradi. So‘ng alamidan Mahmud G‘aznaviyni xasislik va pastkashlikda ayblovchi hajviya yozadi. Shundan so‘ng shoir quvg‘inda yuradi. Iroqqa ko‘chib boradi va Bog‘dodda **“Yusuf va Zulayxo”** asarini yozib tugatadi.

“Shohnoma” adibning o‘ziga qoldirgan ulkan haykalidir. Firdavsiy

shohnomasi hajmi, mavzusi, obrazlari, g'oyaviy mativlari va badiiy qimmatini jihatidan dunyodagi eng katta epik asardir. U 100 dan ortiq dostonlardan tashkil topgan bo'lib, ularda mingdan ziyod bir-biriga o'xshamagan obraz va personajlar tasvirlangan.

Firdavsiyning Shohnoma"si aslida ham, tarjimasida ham o'zbeklar orasida mashhur va manzur bo'lgan. "Shohnoma" dostonlari syujetlari asosida "Zaxxoki moron", "Siyovush" singari sahna asarlarini yaratadi. Shoiralarimizdan Hamid G'ulom, Jumaniyoz Jabborov, Shoislom Shomuhamedovlar "Shohnoma"ning yangi she'riy tarjimasini yaratadilar.

Asar qahramoni **Rustam Shag'odning** makr - hiylasidan vafot etadi. Asardagi **Zoli Zar, Rudoba, Suxrob, Gudarz** singari qahramonlar ham yer yuzida adolat tantanasi uchun kurashadilar.

"Shoxnoma" asarida **Afrosiyob** tushida davlat bayrog'ining qulaganini ko'radi va qarshi tomonga mag'lub bo'lishdan qo'rqib sulh taklif etadi. Quyidagi fikrlarni ham u aytgan:

....Faridundek oqil bo'lsak bo'lmasmu?!

Jahonni beurush bo'lsak bo'lmasmu?!

Asardagi "**Siyavush**" qissasida ezgulikka yo'g'rilgan sulh yo'li ulug'lanadi.

Sharq olamida birinchi bo'lib Iskandar mavzusini ham Firdavsiy qalamiga olgan.

Asarning bosh g'oyasi: vatanni ulug'lash, xalq qudrati va salohiyatini ko'z-ko'z qilish, elning yetuk farzandlari qadrini ko'tarish shu tariqa o'quvchida kuchli vatanparvarlik hissini singdirishdir. "Shohnoma"dan zolim va qonxo'r Zaxxok ("Ilonshox" - yelkasidan ilon o'qib chiqqan shox) haqida, "Rustam va Suxrob" haqida va shu kabi ko'pgina dostonlar o'rin olgan.

Shoirning bu asarini ilk bor 1682 yilda Mulla Xomushiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Keyingi tarjima 3 jildda 1975, 1976, 1977 yillarda nashr qilingan.

"Shoxnoma" dagi voqealar eramizgacha bo'lgan 3223 yildan boshlanadi va 4 sulola tarixini o'z ichiga oladi. Bu sulola quyidagilardir:

1. Peshdodiylar sulolasi – eramizgacha bo'lgan 3223-782 yillarni o'z

ichiga oladi.

2. Kayonoylar sulolasi – eramizgacha bo‘lgan 782-50 yillarni o‘z ichiga oladi.

3. Ashkoniylar sulolasi – eramizgacha bo‘lgan 50 yildan eramizning 150 yillari.

“Shohnoma” shartli ravishda uch qismga bo‘linadi: mifologik, qahramonlik, tarixiy. Asar 30-35 yillik mehnat samarasi bo‘lib, 60 ming baytdan iborat Asar dastlab **Abu Mansur Daqiqiy** tomonidan **“Xudonoma”** nom bilan yozila boshlangan. Bu asar sosoniylar amri bilan yozilib, keyinchalik arab tiliga 9 marta tarjima qilingan. Daqiqiy asarning 1000 baytgacha qismini yozgan. Ammo, quli tomonidan o‘ldiriladi. **Abu Mansur Daqiqiy** tomonidan yozilgan **“Xudonoma”** bizning davrgacha yetib kelmagan.

Firdavsiyning “Shohnoma” asarida qariyb 4 ming yil ichida Eron zaminida hukumronlik qilgan 4 ta sulola, 50 ta podsho hayotiga tegishli tarixiy voqea – xodisalar yoritilgan. YA’ni Eronning Iskandar Zulqarnayndan to arablar bostirib kelib Sosoniy hukumdor **Yozdigard III** qatl etilgan milodiy 631 yilgacha bo‘lgan tarix o‘z aksini topgan.

Quyida arab tilida bitilgan eng muhim manbalar va ularning mualliflari haqida ixcham ma’lumot keltiriladi:

1. “OSOR UL-BOQIYA”

Ushbu banazir asar ijodkori qomusiy olim Abu Rayxon Beruniydir (973-1048). U tabiiy va ijtimoiy fanlar bo‘yicha 150 dan ortiq asarlar yaratib, asosan tabiiy fanlar sohasida ulkan kashfiyot va muvaffaqiyatlarga erishgan bo‘lsa-da, o‘zining ijtimoiy fan, ayniqsa tarix to‘g‘risidagi chuqur bilimlarini “Osor ul-boqiya an al-qurun al- holiya” (“Qadimgi xalqardan qolgan yodgorliklar”) hamda “Hindiston” yoki “Kitab tahqiq molil-Hind min manqula fi-l-aql va-l-marzuma” (“Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini tadqiq etish”) va “Kitob ul-musam-mara fi axbori Xorazm” (“Xorazm haqidagi axborotlar hqaida suhbatlar”) nomli asarlari bilan tarix va madaniyat tarixiga katta hissa qo‘shdi.

Ayniqsa, bo‘lg‘usi tarixchilar uchun “Osor ul-boqiya” har tomonlama namuna bo‘ladigan qimmatli manbadir. Asar 1000 yili Jurjon shahrida yozib tamomlangan. Unda qadimgi O‘rta Osiyo, Yunon, Eron,

Xind, nasroniy, yahudiy va boshqa xalqlarning islomiyatgacha bo‘lgan tarixi, urf-odatlari, bayramlari, asosan, vaqtni hisoblash taqvim-xronologiya to‘g‘risida mukammal ma’lumot beradi. Ushbu asarning XIV asrda yaratilgan qo‘lyozmasiga nodir rasmlar ishlangan va bu noyob san’at obidasi Shotlandiya poytaxti Edinburg shahri Universiteti kutubxonasida 161-raqam ostida saqlanmoqda.

“Osor ul-boqiya”ning ruscha va o‘zbekcha tarjimalari Toshkentda 1957 va 1968 yillari chop etildi. Kitob Yevropada “Xronologiya” nomi bilan mashhur. Biz asar to‘g‘risida ortiqcha ma’lumotlarni keltirmadik, chunki bizning vazifamiz qimmatli yozma manbalar, yodgorliklar to‘g‘risida umumiy tushuncha, bilim va yo‘nalish berishdir. Ushbu kitob to‘g‘risida talabalar mustaqil ish jarayonida yoki laboratoriya ishi jarayonida chuqurroq va keng bilimga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Beruniyning Xorazm tarixiga oid asari yuqorida zikr etilgan nom-dan tashqari, yana “Tarixi Xorazm” va “Mashohiri Xorazm” (“Xorazmning mashhur kishilari”) nomlari bilan ham mashhur bo‘lib, uning ayrim lavhalari – parchalari Abulfazl Bayhaqiyning 1056 yili yozib tamomlangan “Tarixi Bayhaqiy” va Yoqut Hamaviyning “Mu’jam ul-buldon” asarlarida saqlanib qolgan.

Beruniyning “Kitob fi axborot al-mubayyizot val-karomita” (“Oqkiyimlilar va karmatlarning xabarlarini xaqida kitob”) asari ham tarix ilmi uchun alohida qimmatga ega. Unda o‘sha zamonlarda O‘rta Osiyoda keng tarqalgan ijtimoiy harakat - karmatlar harakati haqida diqqatga sazovor ma’lumotlar bor.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Beruniyning asarlarida tarix ilmi uchun ma’lumotlar juda ko‘p uchraydi, ammo ulardan tashqari nomi zikr etilgan asari uning qana tarixchi olim, etnograf bo‘lganligini ko‘rsatadi.

2.“DEVONU LUG‘AT AT-TURK”

“Devonu lug‘at at-turk” (“Turkiy so‘zlar lug‘ati”) - Maxmud Qoshrag‘iy nomi bilan mashhur bo‘lgan XI asr yirik tilshunos olimining noyob asaridir. Olimning to‘liq ismi Maxmud ibn al-Xasayn ibn Muxammad al-Qoshg‘ariy bo‘lib, Qoraxoniylar xizmatida bo‘lgan turk

beklaridan birining oilasiga mansub. U 1029-1038 yillar orasida taxminan Barsg'onda tug'ilgan, lekin umrining ko'p qismini Bolasog'un, Qoshg'ar, Bag'dod shaharlarda o'tkazgan.

Maxmud Qoshg'ariy yoshligida yaxshi ma'lumot olgan va o'rta asr fanining ko'p sohalarini, xususan, arab tili, o'zbektillarni, tarix xamda geografiya fanlarini chuqur bilgan. Uning qimmatli "Devonu lug'at at-turk" asarining dunyoda yagona qo'lyozmasi hozir Istambulda (Turkiya) saqlanmoqda.

Ushbu asarning arabcha matni 1915-1917 yillarda uch jildda Istambulda, mukammal o'zbekcha sharhli tarjimasi S.M.Mutallibov tomonidan amalga oshirildi va 1960-1963 yillarda Toshkentda chop etilgan. **"Devonu lug'at at-turk"** asarining usmonli turkcha 1939-1941 yillarda B. Atali, inglizcha 1982-1985 yillarda R.Dankoff bilan J.Kelli, uyg'urchasi esa 1981-1984 yillarda bir guruh tarjimonlar tomonidan amalga oshirilib chop ettirilgan.

3. "KITOB UL-ANSOB"

"Kitob ul-ansob" ("Nasablar xaqida kitob") nomli asarning muallifi mashhur biograf, tarixchi va sayyoh Abu Sa'id Abdulkarim ibn Muxammad as-Sam'oniylar (1113-1167)dir. U Marvda yirik qonunshunos olim oilasida dunyoga kelgan, Marv, Buxoro hamda Samarqandda taxsil ko'rgan, 1155-1156 yillari Movarounnahr va Xorazm bo'ylab sayohat qilgan, ma'lum muddat Nishopur, Isfaxon, Bag'dod, Damashq ham da Quddus (Iyerussalim) shaharlarida hayot kechirgan.

Sam'oniylar "Kitob al-ansob"dan tashqari yigirma jildlik "Marv tarixi" nomli asarning ham ijodkoridir. Ammo, bu kitob bizgacha yetib kelmagan. Taxminlarga ko'ra, bu muhim asar Chingizxon xuruji vaqtida kuyib ketgan bo'lishi mumkin, chunki o'shanda Marvning eng katta va boy kutubxonasi bilan birga Sam'oniylar xonadoniga tegishli bo'lgan ikki yirik kutubxona ham (Yoqut Hamaviylar Sam'oniylar kutubxonasini qurganligini aytadi) yonib ketganmikan? Bizgacha olimning faq at "Kitob al-ansob" asarigina yetib kelgan.

"Kitob al-ansob" asari Ibn Xalliqonning ma'lumotlariga ko'ra sakkiz jilddan iborat bo'lgan. Uning to'liq nushasi xam yo'qolib ketgan.

Kitobning tarixchi Ibn al-Asir tarafidan taxrir etilgan uch jildlik qisqartirilgan qismigina saqlanib qolgan, xolos.

“Kitob al-ansob” asarining arabcha matni ikki marta nashr etilgan, bosh qismi 1835 yili prof. D.S.Margolius tarafidan chop etilgan. Uning Bayrut nashri ham bor. Bu asarda islomiyatdan to muallifning zamonigacha musulmon mamlakatlarida, ko‘proq Eron va Movarounnahrda, zotan, mashhur kishilar xaqida keng ma’lumot beriladi. “Kitob al-ansob” Movarounnahrning qadimiy tarixi, yirik shaxarlari, qo‘shni mamlakatlar, xususan Xitoy bilan bo‘lgan savdo va madaniy aloqalarni o‘rganishda muxim manbalardan biri xisoblanadi. Ushbu asar to‘g‘risida SH.Kamoliddinov nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini yoqlagan va rus tilida “Kitob al-ansab” Abu Sa‘da Abdulkarima ibn Muxammada as-Sam‘aniy kak istochnik po istorii i istorii kulturi Sredney Azii” (-T.: 1993) nomli kitob nashr ettirgan.

4.“AL-KOMIL FI-T-TARIX”

“Al-komil fi-t-tarix” (“Mukammal tarix”) nomli asar muallifi yirik arab tarixchisi Izzuddin Abulxasan Ali ibn Muxammad (1160-1234) bo‘lib, u ko‘pincha Ibn al-Asir nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Muarrix Tigr daryosi buyida joylashgan Jazirat ul-Umar shahrida katta yer egasi oilasida tug‘ilgan. Umrining ko‘p qismini Mo‘sulda (Suriya) o‘tkazgan va o‘sha yerda vafot etgan.

Ibn al-Asir o‘z davrining keng ma’lumotli kishisi bo‘lib, bir necha tarixiy asar yozgan. “Al-komil fi-t-tarix” va Muxammad payg‘ambar sahobalari (izdoshlari) tarjimai holini o‘zida qamrab olgan besh jildli “Kitob usd al-raba fi ma’lumot as-sahoba” (“Sahobalar haqida ma’lumot beruvchi o‘rmon sherlari”, 1863 yili chop qilingan) shular jumlasidandir. Lekin, Sharq mamlakatlari xalqlari tarixi, shuningdek Movarounnahr xalqlari tarixini o‘rganishda uning “Al-komil fi-t-tarix” asari katta axamiyat kasb etadi.

“Al-komil fi-t-tarix” asari o‘n ikki jildan iborat bo‘lib, unda dunyoning “yaratilishi”dan to 1231 yilga qadar Sharq mamlakatlarida bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar yilma-yil, xronologik, ya’ni davr tartibida bayon etib beriladi.

Asarda ko'pgina qimmatli manbalar, xususan Tabariy hamda as-Sallomiyning bizgacha yetib kelmagan "Kitob fi axbor vuloti Xuroson" ("Xuroson hukmdorlari haqida axborot beruvchi kitob") kabi qimmatli asarlardan keng foydalangan.

"Al-komil fi-t-tarix"ning birinchi qismi (1-1U jiddlari) olamning "yaratilishi"dan to 931 yilgacha bo'lib o'tgan voqealar bayonidan iborat. Bular avval yashab o'tgan olimlar Balazuriy, Tabariy, Ibn Miskavayx, as-Sulamiy va boshqalarning asarlariga tayanib yozilgan. Lekin, bu qismda ham ko'p hollarda asosiy manbalarda uchramaydigan muhim qimmatli ma'lumotlar bor.

Masalan, 751 yili Talas daryosi bo'yida arab va Movarounnahr qo'shinlari bilan Xitoy armiyasi o'rtasida bo'lib o'tgan jang va unda ko'p minglik xitoy qo'shinining tor-mor etilishi haqidagi ma'lumot shular jumlasidandir.

Undan tashqari, as-Sallomiy va uning muhim tarixiy asari haqida ma'lumot Ibn al-Asir tufayligina bizgacha yetib kelgan. Asarning 7-12 jiddlari mustaqil, alohida ahamiyatga ega bo'lib, 924-1231 yillar orasida Sharq mamlakatlarida, shuningdek Movarounnahrda bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi va asosan qo'lyozma manbalar shuningdek tarixni yaxshi bilgan kishilar bergan axborotlar hamda muallifning shaxsiy kuzatishlari davomida to'plagan boy va daliliy material asosida yozilgan.

"Al-komil fi-t-tarix" asarining, ayniqsa mo'g'ullar istilosiga bag'ishlangan XII jildi alohida ahamiyatga ega va Movarounnahr hamda Sharq mamlakatlarining XIII asrning I choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda asosiy manba vazifasini o'taydi. Kitobning to'la matni ikki marta (1851-1876 yillarda va 1901) chop etilgan. Ayrim parchalarni rus tiliga NA.Mednikov, A.YE.Krimskiy, B.A.Axmedov tarjima qilganlar. P.G.Bulgakov asarning O'zbekistan tarixiga oid VIII - XIII asrlarga doir qismini rus tiliga qilgan tarjimini 2006 yili Toshkentda SH.S.Kamoliddan chop yetdi. Asar Xivada to'liq holda o'zbek tiliga Muhammad Rahim Soniy (1863-1910) davrida Nurillo Muftiy, Muxammad Sharif oxund va boshqalar tomonidan tarjima qilingan bo'lib, Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida o'n uchta mu'tabar qo'lyozmalari saqlanmoqda.

5. “TARIXI YAMINIY”

“Tarixi Yaminiy” (Yamin -arabchada - o‘ng qo‘l degan ma‘noni anglatgan. Sulton Mahmudga Bag‘dod xalifasi al-Qodir (991-1031) tomonidan berilgan laqab, faxriy nom) - (“Yamin ud-davla tarixi”) asarining ijodkori Utbiydir. Uning haqiqiy ismi Abu Nasr Muxammad ibn Abdujabbor Utbiy (taxm.961-1077 yoki 1036) bo‘lib, asli Eronning Ray shahridan.

Olimning xonadoni badavlat va nufuzli zodagonlardan bo‘lib, uning tog‘alari Somoniylarning vaziri sifatida xizmat qilgan. Abu Nasr Muxammad Utbiy ham yuqori davlat lavozimlarida turgan, Somoniylarning Xurosondagi noibi Abu Ali ibn Simjur (989-998), sungra Ziyoriylardan (Ziyoriylar - 927-taxminan 1090 yillarda Eronning Tabariston hamda Jurjon viloyatlarida hukmronlik qilgan sulola) Shams ul-Maoliy Qobus ibn Vushmagir (998-1030)ning shaxsiy kotibi, keyinchalik G‘aznaviylardan (G‘aznaviylar - Xuroson, Afg‘oniston va Shimolny Hindiston ustidan 977- 1186 yillari hukmronlik qilgan sulola) Sabuktakin (977-997), Sulton Maxmud (998-1030) hamda Sulton Mas‘ud (1031-1041) saroyida xizmat qilgan. Masalan, Utbiy Sulton Mahmudniig elchisi sifatida (999) Garchistonga (Garchiston - Murg‘ob daryosining yuqori oqimida joylashgan tarixiy viloyat. Janubda G‘azni, shimolda Marvarrud, sharqda G‘ur va g‘arbda Bodhiz, Hirot viloyati) borgan, keyin Ganj rustakda (Ganj rustak – Bodhizning sharqiy qismida joylashgan viloyat) sohib barid bo‘lib ishlagan va 1023 yili Sulton Mahmudning amri bilan xizmatdan chetlatilgan.Manbalarda, xususan as-Saolibiy tazkirasida aytilishicha, al-Utbiy bir nechta yirik asar yozgan. Lekin, ulardan faqat bittasi – “Tarixi Yaminiy” nomli tarixiy asari saqlanib qolgan, xolos. Uning yana “Latoif al-kuttob” (“Kotiblarning latif so‘zlari”) nomli asari bo‘lib, u bizgacha yetib kelmagan. “Tarixi Yaminiy” amir Sabuktakin hamda Sulton Maxmud zamonida G‘aznaviylar imperiyasi tarkibiga kirgan Afg‘oniston, Xuroson, Xorazm va qisman Movarounnahrning 975-1021 yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etadi. Asarda Qoraxoniylarning Movarounnahrni bosib olishi (992-996) haqida keltirilgan malumotlar benihoyat qimmatlidir.Asar o‘rta asr tarixshunosligiga xos og‘ir saj - qofiyali nasr uslubida yozilgan. Unda Sulton Maxmud va uning yaqinlari

ko'klarga ko'tarib maqtaladi. Shuning bilan birga, tarixchi uzluksiz davom etgan urushlar, zulm, turli-tuman soliq va jarimalar tufayli xonavayron bo'lgan mehnatkash xalqning og'ir turmushiga ham ayrim o'rinlarda ko'z tashlab o'tadi.

“Tarixi Yaminiy” asarining arabcha matni 1874 yili Dexli, 1874 yili Buloq va 1883 yili Lohur shaharlarida chop etilgan. Undan ayrim parchalar K.Shefer, T.Nyoldeke, G.Elliot va N.Douson tomonidan fransuz, nemis va ingliz tillariga tarjima qilingan. Kitobning forscha tarjimalari bo'lib, Abu Sharif Nosix al-Jorbozaqoniy qalamiga mansub. Bu tarjima Eronda 1856, 1956 va 1966 yillari chop etilgan. Asarni Londonda 1858 yili Reynolds ingliz tiliga tarjima qilgan.

6.«AHSAN AT-TAQOSIM»

“Ahsan at-taqosim” yoki “Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim” (“Ilmlarni o'rganish mmmuchun eng yaxshi qo'llanma”) nomli asar muallifi X asrning taniqi geograf olimi al-Muqaddasiydir. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muxammad ibn Ahmad ibn Abubakr al-Muqaddasiydir.Olim 947 yili Quddisda tug'ilgan, butundunyo musulmon mamlakatlari buylab sayohat qilgan va 1000 yili vafot etgan. Al-Muqaddasiy sayohat vaqtida to'plagan hamda boshqa manbalardan olingan aniq ma'lumotlar asosida 985 yili o'zining qimmatli asarini yozib qoldirgan. Kitobning ikkita tahriri mavjud. Birinchi tahriri 986 yilda amalga oshirilgan bo'lib, Somoniylarga (989 yilgi), ikkinchisi esa Fotimiylarga bag'ishlangan.Asar muqaddima va ikki qismdan iborat. Muqaddimada muallif asarning yozilish tartibini bayon etgan va o'zidan avval o'tgan geograf olimlarning asarlariga to'xtalib o'tgan.Birinchi qismda arab mamlakatlari, Arabiston yarim orolida joylashgan mamlakatlar Iroq, Mesopotamiya, Suriya, Misr, Marg'ib hamda Kichik Osiyoning geografik holati, mashhur shahar, osori atiqalari, aholisi va uning mashg'uloti, e'tiqodi hamda urf-odatlar, aholidan to'planadigan soliq va jarimalar va ularning umumiy hajmi, shuningdek, har bir mamlakat va viloyatning ma'muriy tuzulishi hamda mashhur kishilari haqida ma'lumot berilgan.Ikkinchi qismda Ajam mamlakatlari Xuroson, Seiston va Movarounnahr tavsiflangan. “Ahsan at-taqosim” ijtimoiy-

iqgisodiy, tarixiy xamda madaniy hayotga oid qimmatli aniq ma'lumotlari bilan boiqa geografik asarlardan ajralib turadi va arab mamlakatlari, hamda, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy tarixini o'rganishda muhim manba bo'ladi.

Asarning arabcha matni M. Y. De Gue tomonidan 1877 yili chop etilgan edi. Asar ikki marotaba 1906 va 1967 yillarda ham nashr etildi.

7.“YATIMAT AD-DAXR”

“Yatimat ad-daxr” yoki "Yatimat ad-daxr fi mahosin ahl ul-asr" (“Asr ahlining fozillari xaqida zamonining durdonasi”) nomli tazkirani o'z davrining yirik olimi va shoiri Abu Mansur Abdulmalik ibn Muxammad ibn Ismoil as-Saolibiy yaratgan. U 961 yili Nishopurda tug'ilgan, ilm-fanning turli sohalari tarix, adabiyot, mantiq, arab tili va boshqalarni yaxshi bilgan, asosan tulki terisidan po'stin tikib sotish bilan shug'ullangan va as-Saolibiy degan nom bilan mashxur bo'lgan. Olim Eron va O'rta Osiyoning talay shaharlari Jurjon, Marv, G'azni, Buxoro, Xorazmda turgan va ularning madaniy hamda ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan yaqindan tanish bo'lib, 1038 yili Nishopurda vafot etgan. As-Saolibiy ellikka yaqin asar yozgan bo'lib, O'zbekistan xalqlarining X-XI asrdagi tarixi va madaniy hayotini o'rganishda “Yatimat ad-daxr” hamda “Kitob al-g'urur” asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. “Yatimat ad-daxr” (995-1000 yillari yozilgan) O'rta Osiyo, xususan Marv va Buxoroning X asrdagi adabiy muhitini o'rganishda asosiy manbalardan biridir.

“Kitob al-g'urur” yoki “G'urur axbor muluk ul-furs va siyaruxum” (“Eron podshoxlarining tarixi va ularning hayoti”) nomli kitob G'aznaviylarning Xurosondagi noibi Abu Muzaffar Nasr ibn Nosuriddin (1020 yili vafot etgan)ning topshirig'i bilan yozilgan muhim tarixiy asardir. “Yatimat ad-daxr”ning arabcha matni 1883 va 1947 yillarda Bayrut va Qoxirada chop etilgan. Uning O'rta Osiyoning X asrdagi adabiy muxiti xaqida bahs yurituvchi to'rtinchi qismi O'zbek tiliga Ismatulla Abdullayev tomonidan tarjima qilinib, 1976 yili Toshkentda chop etilgan.

8.“MAFOTIX UL-ULUM”

O'z davri qomusi bo'lmish bu kitobni Abu Abdullox Muxammad al-Xorazmiy yaratgan. U X asrda o'tgan mashxur filolog va tarixchisidir.

Uning to'liq ismi sharifi Abu Abdulloh Muxammad ibn Yusuf Kotibiy al-Xorazmiy bo'lib, olim Somoniy Nuh II ibn Mansurning (976-997) vaziri al-Utbiy qo'lida dabir bo'lib xizmat qilgani asosan, Nishopurda istiqomat qilib, fan tarixi hamda davlat bosh idoralari uchun muhim qo'llanma bo'lgan "Mafotix ul-ulum" ("Ilmlarning kalitlari") nomli asar yozib qoldirganligi ma'lum. Ushbu asardan ma'lum bo'lishicha, Abu Abdulloh yunon, suryoniy, arab va fors tillarini mukammal bilgan keng ma'lumotli kishi bo'lgan. "Mafotix ul-ulum" 976-991 yillar orasida yozilgan o'ziga xos izohiy terminologik lug'at bo'lib, ikki qismdan iboratdir. Birinchi qism olti bobdan iborat bo'lib, unda shariat bilan borlik ilmlar fiqh, aqidalar, grammatika, idora ishlarini yuritish tartibi, she'riyat va tarix to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ikkinchi qism to'qqiz bobdan iborat bo'lib, u ajam, ya'ni arab bo'lmagan xalqlar yunonlar, suriyaliklar, forslar, hindlar va boshqa xalqlar orasida taraqqiy etgan ilmlar - falsafa, mantiq, tibb, arifmetika, handasa-geometriya, falakiyot-astronomiya, mexanika, musiqa va kimiyo fanlarini o'z ichiga oladi. Asarda yurtimiz haqida, xususan bu yerda amalda bo'lgan sug'orish o'lchovlari haqida muhim ma'lumotlar ham bor. "Mafotix ul-ulum" ilmiy jamoatchilik, hususan V.V.Bartold, I.Y.Krachkovskiy, S.L.Volin, van Flotenning yuksak bahosiga sazovor bo'lgan. Uning arabcha matni 1895 yili van Floten tomonidan, ayrim parchalar tarjimasini S.L.Volin tomonidan 1939 yili nashr etilgan. Toshkeitda bu asarni R.M.Bahodirov tadqiq etib, maxsus kitob yozgan.

Arab tilidagi manbalarning xususiyatlari

Arab tilida yaratilgan tarixiy asarlar yoki yozma yodgorliklar quyidagi umumiy xususiyatlarga ega. Ular garchi arab tilida yozilgan bo'lsa-da, barchasida umumiy tarixni qamrab olishga, ya'ni tarixni jahon tarixi sifatida idrok etishga, talqin qilishga intilish alohida sezilib turadi. Arab tilidagi yozma manbalarning eng qadimgilari, asosan mumtoz yozuv turlaridan kufiyda "Qur'oni Karim" va tafsir, xadislar nasx, suls yozuvlarida bitilgan. XV asrdan so'ng iste'molga nasta'liq yozuvi kirgan. Alohida farmon va hujjatlar ta'liq yozuvida bitilgan. Tarixiy asarlar mazmuni va tarkibiga kelganda shuni aytish kerakki, asar kimga bag'ishlangan bo'lsa, odatda ular yuksak lavozimdagi shaxslar yoki

xokimlar bo'lgan, o'sha xomiylarga bag'ishlov-maqtov yoziladi va ana shundan keyin kamtarin muallif o'zi xaqida, qanday asar yozmoqchi ekanligi, uning nomi va asarning ixcham mazmuni yoki zamonaviy til bilan aytilsa annatatsiyasi bayon etiladi. Asarning oxiridagi xotima - kolofonda esa, muallif asarini tugatib olgani uchun shukronalar keltirib, mazkur qo'lyozma asar va uning ushbu nusxasi, ko'chirilish joyi va tarixi, xattoti haqida ma'lumot keltiriladi. Tarixiy asarlarda keltiriladigan faktlar, odatda asosiy matndan ajratib va ko'pincha boshqa yozuv, xat turi, masalan kufiy, nash yoxud suls yozuvida boshqacha siyoh bilan bitilib, alohida ziynatlanadi.

Tarixiy asarlar qo'lyozmalari o'z davri an'analariga mos ravishda charm muqova - jildlarga olingan, kitob boshlanishi shams, unvon, sarlavha, zarvara, naqshlari bilan, matn o'rtalarida lavha naqshlar va mo'jaz rasmlar bilan bezatilgan. Namuna sifatida Beruniyning "Osor ul-boqiya" asarining qo'lyozmasini ko'rsatish mumkin. Umuman, arab tilida yurtimiz tarixiga oid manbalar bilan tanishib ularning son jihatidan ko'pligi hamda ilmiy saviyasi juda yuqori ekanligi guvohi bo'lamiz. Garchi, qomusiy olimimiz Beruniy arablarda tarix yaratish an'anasi juda qadimiy va boy emasligini asosli ravishda qayd etgai bo'lsa-da, arab xalifaligi shakllanganidan so'ng, yunon, eron, yahudiy va nasroniy tarix an'analaridan ijobiy va ijodiy foydalangan arab va asosan, arab tilida ijod etuvchi muarrixlar ham arab xalqlari, ham arab xalifaligi hududiga kirgan yoki unga qo'shni bo'lgan xalqlar tarixini yozishga juda katta hissa qo'shlar.

Shuning bilan birga, yurtimizdan yetishib chiqqan tarixchilarimiz ham arab tilida, ayniqsa Beruniy, Sam'oni, Shahobiddi Nisoviy kabi tarixchilar ajoyib asarlar yaratib arab tilidagi tarix ilmi taraqqiyotiga munosib ulush qo'shdilar. YA'ni, arab tilidagi manbalarni o'rganish hali o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Ular xalqimiz boy merosining ajralmas qismi bo'lib, o'tmishdagi yuksak taraqqiyotimiz guvohidir.

Ushbu ma'ruzada arab tilida bitilgan yurtimiz tarixiga oid eng muhim yozma manbalar to'g'risida ixcham va qisqa ma'lumot berishga intildik.

Chunki tariximizning bu qatlami, ya'ni arab tilida 7-14 asrlar

davomida yaratilgan yozma manbalar hali mukammal o'rganilgan deyish qiyin. Bu kelgusi tarixchilar oldidagi sharaflı vazifa. Albatga, biz keltirgan yoki zikr etgan asarlar nomlari bilan arab tilidagi manbalar ro'yxati chegaralanmaydi, yoxud tugamaydi, ammo bakalavriat talabalarida umumiy tasavvur hosil qilish uchun kifoya qiladi, deb hisoblaymiz.

Tachnch ibora va birikmalar:

Yuechji qabilalari, "Issiq" yozuvi, Surx-Ko'xtal, Holchayon yozuvlari.

Nazorat uchun savollar:

1. Turkiy yozuviga oid yodgorliklar Markaziy Osiyoning qaysi xududlaridan topilgan?
2. Turkiy yozuvida yozilgan qanday yozma manbalarni bilasiz?
3. Holchayon yozuvlari haqida nimalar bilasiz?
4. Temuriylar davrida Xuroson va Movarounnahrda qaysi Turkiy yozuvlari amalda bo'lgan?
5. "Issiq" yozuvi haqida nimalar bilasiz?
6. Turkiy yozuvining Markaziy Osiyo tarixini o'rganishdagi ahamiyati qanday?
7. "Шоҳнома" нечи минг мисрадан иборат?
8. "Шоҳнома" да нималар ҳақида сўз боради?
9. Араб тилида ёзилган манбалар ва уларнинг юртимиз тарихини ўрганишдаги аҳамияти?
10. Берунийнинг "Осор ул-боқия" асарининг тарихни ўрганишдаги аҳамияти нимада?

12-§. MARKAZIY OSIYONING XIII-XV ASR YOZMA YODGORLIKLARI

- 1.Markaziy Osiyoning XIII-XV asr asosiy ijtimoiy –siyosiy voqealari.**
- 2.Huquqiy xujjatlar va yozishmalar.**
- 3.Fors tilining yozma manbalarni o‘rganishda tutgan o‘rni.**
- 4.Fors tilidagi yozma yodgorliklar.**

Adabiyotlar

1. Ахмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. - Тошкент: Ўқитувчи, 2001.
2. Саидкулов Т.С. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихнавислигидан лавҳалар. - Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
3. Рукописная книга в культурах народов Востока. Книга первая.-М.: Наука, 1987.
4. Ахмедов Б. А. Историко-географическая литература Средней Азии. XVI-XVIII вв. (Писменные памятники).-Ташкент: Фан, 1985.
5. Манбашуносликдан маърузалар мажмуаси / Тузувчи А.А.Мадраимов.-Тошкент: ТДПУ, 2001.
6. Тарихий манбашуносликдан / Тузувчилар: А.А. Мадраимов, Г. С.Фузаилова. -Тошкент: Фан, 2006, 86-124 бетлар.
7. Камолиддин Ш. Илхамов З. Средневековые источники Средней Азии. Т. 2018.

Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar: 1219-1221 yillar ichida O‘rta Osiyo mo‘g‘ullar tomonidan istilo etildi. 1227 yili Chingizxon Yettisuv, Qoshg‘ar, Movarounnaxr va Xorazmning sharqiy qismini, shuningdek, hozirgi Afg‘onistonning shimoliy qismini ikkinchi o‘g‘li Chiratoyg (1227-1241 y.) in‘om qildi. Bu ulus tarixda Chig‘atoy ulusi nomi bilan mashhur. Chig‘atoy ulusining oliy xukmdorlari ham, koraxitoylar singari, ulusni maxsus ijaradorlar, ya‘ni xorazmlik mashhur savdogar Maxmud Yalavoch (1125-1238) va uning o‘g‘li Ma’sudbek (1238-1289) yordamida idora qidilar. Munko qoon (1251-1260) taxtga o‘tirgandan keyin, Jo‘ji ulusining oliy hukmdori Botuxon (1227-1255) bilan til birlashtirib, Chig‘atoy avlodining ko‘pchiligini qatl ettirdi va uning ulusini o‘rtada bo‘lib olishdi.

Lekin, oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Olg‘u (1261-1266) ulus mustaqilligini tiklashga muvaffaq bo‘ldi. Muborakshoh (1266) va

Baroqxon (1266-1271) davrida Mo'g'ul xukmdorlari mahalliy aholi bilan yaqinlashish maqsadida islom dinini qabul qildilar. Natijada, 1266 yili xon hamda ba'zi mo'g'ul urug'lari (masalan, jaloyirlar) Yettisuvdan Movarounnahrda ko'chib o'tdilar. Bu hol o'z navbatida tarqoqlik va parokandalikka olib keldi. XIV asrning 50-yillariga kelib, Chig'atoy ulusi ikkiga ajralib ketdi - Yettisuv va Qoshg'arda qolgan mo'g'ullar mustaqillik e'lon qilib, o'z davlatlarini tuzib oldilar. Bu davlat tarixda Mo'g'uliston yoki Jete nomi bilan mashhurdir.

Mo'g'ullar xukmronligi yillarida Movarounnaxr xalqi ikki tomonlama - mo'g'ul xukmdorlari dorug'alar, bosqoqlar hamda mahalliy yer egalari zulmi ostida qoldi. Ular asosiy daromad solig'i xirojdan tashqari talaygina boshqa soliq va jarimalar –dorug'agi , sar shumor, ulufa, tamg'a, qopchur yasog'i, tag'or, bigor va boshqalarni to'lashga majbur etilgan edilar.

Og'ir chorakorlik mehnati, mo'g'ul xukmdorlarining beboshligi mehnatkash xalqning sabr kosasini to'ldirdi. Buxoro viloyatining xalqi kosib Maxmud Tarobiy va Ilohiyot olimi Shamsuddin Mahbubiylarning atrofiga uyushib, 1238 yili qo'zg'olon ko'tardi, lekin u boshqa shahar va viloyatlarga yoyilmadi. Natijada, Buxorodagi qo'zg'olon Yettisuv va Xo'janddan Ildiz No'yon hamda CHo'qan qurchi boshchiligida yuborilgan mo'g'ul qo'shini tomonidan bostirildi.

XIV asr II yarmiga kelib Chig'atoy ulusining janubi-g'arbiy qismini tashkil etgan Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik yanada kuchaydi. Bu, ayniqsa amir ul-umaro Qazag'on vafotidan (1358 yili) keyin kuchayib, mamlakat mayda qsismlarga bo'linib ketdi. Masalan, Shahrisabzda Hoji Barlos mustaqillik bayrog'ini ko'tardi. Xo'jandda Boyazid jaloir mustaqillik e'lon qildi. Balxda Amir Husayn xon ko'tarildi, Shibirg'onni Muhammad Apardi egalladi. Xuttalonda Kayxusrav o'zini podshoh deb e'lon qildi. Badaxshon mahalliy xukmdor - Badaxshon shohlari qo'liga o'tdi.

Amir Temur 1370 yili oliy hokimiyatni qo'lga oddi. U 1370-1378 yillarda mamlakatdagi tarqoqlikni tugatib, Movarounnahrda va Xorazmni o'ziga bo'ysundirdi, 1381-1402 yillarda Amir Temur qo'shni mamlakatlar ustiga harbiy yurish qilib, Eron, Kavkaz orti, Iroq, Kichik Osiyo va

Shimoliy Hindistonni istilo qildi, Oltin O'rda xoni To'xtamishga (1376-1395) qaqshatqich zarba berib, uni poytaxti Saroy Berkani egalladi.

Amir Temur va Temuriylar davlati mayda uluslarga bo'lingan xolda idora qilindi. Masalan, Amir Temur saltanati to'rt qismga bo'lingan edi: Xuroson, Jurjon, Mozandaron va Seiston (markazi Hirot shahri)

Shohruxga G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz), Mironshohga Fors, ya'ni Eroniing janubiy qismi (markazi Sheroz), Umarshayxga Afg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G'azni, keyinchalik Balh), Pirmuxammadga suyurg'ol (shaxzoda amirlarga toju taxt oldidagi katta xizmatlari uchun shartli tarzda in'om qilingan yer-suv va uni idora qilish huquqi) berilgan edi.

Amir Temur vafotidan (1405 yil 18 fevral) keyin 1409 yilgacha o'zaro kurash davom etdi. Shohruh Mirzo (1409-1447), Mirzo Ulug'bek (1409-1449), Sulton Abu Said Mirzo (1451-1469), Sulgon Husayn Mirzo (1459-1506) davrida davlat nisbatan markazlashgan bo'lib xalqaro obro'ga ham ega edi.

XV asrning 80- yillaridan boshlab o'zaro hamjihatlik juda susaydi. Movaronnahrning bir o'zida deyarli uchta mustaqil davlat bo'lib, ularda Sulton Abu Said Mirzoning o'g'illari Sulton Ahmad Mirzo Samarqandda, Umarshayx Mirzo Farg'onada va Sulton Maxmud Mirzo Hisor, Xuttalon hamda Badaxshonda hokimi mutlaq hisoblanar edilar.

Amir Temur va Temuriylar davrida ham yer-suv hamda hunarmandchilik korxonalarining katta qismi podshoh xonadoni va badavlat kishilar qo'lida bo'lib, mehnatkash xalq ularning yerini ijaraga olib kun kechirar edi. Ular xiroj, dorug'agi, mirobona, jon solig'i, avorizot, boj, tamg'a, zakot, peshkash, sovari kabi soliq va jarima to'lar, hukumat va katta yer egalarining turli-tuman yumushlarini bajarishar edilar.

Amir Temur davrida davlat tepasida rasman Chingiz avlodidan bo'lgan Suyurg'atmish (1370-1380) va Sulton Mahmudxon (1380-1402) turdi. Keyincha xon ko'tarish tartibi bekor qilindi va oliy hukmdor o'zini podshoh deb e'lon qildi. Viloyat va tumanlarda hokimiyat markaziy hukumat tarafidan tayinlangan dorug'alar qo'lida bo'ldi. Davlat ishlari, asosan turli muassasa - devonlar, devoni oliy - markaziy ijroiya organi, devoni mol - moliya ishlari mahkamasi va devoni tavochi – harbiy ishlar

mahkamasi va boshqalar qo‘lida bo‘lgan. Din, shariat bilan bog‘liq ishlar qozi va shayxulislom qo‘lida edi. Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahrda Samarqand, Shahrisabz, Buxoro kabi shaharlar Ijodiy va madaniy jihatdan o‘tdi, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topti. Movarounnahrning Xitoy, Hindiston, Arabiston mamlakatlari, Mo‘g‘uliston, Oltin O‘rda va Yevropa mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar kengaydi.

Bu davrda ilm-fan va madaniyat rivojlandi. Nizomiddin Shomiy va Hofizi Abru, Sharafuddin Ali Yazdiy va Abdurazzoq Samarqandiy, Muxammad Mirxond va G‘iyosiddin Xondamir kabi muarrix olimlarni, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, Bisotiy Samarqandiy va Xoja Ismatulla Buxoriy, Shayx Ahmad Suhayliy va Kamoluddin Binoiy kabi juda ko‘p iste’dodli shoir va olimlar yetishib chiqdi.

HUQUQIY HUJJAT VA YOZISHMALAR

Xoja Axrorga tegishli vasiqa va vaqfnomalar. Bu turdagi hujjatlar ko‘p va ularni arxiv va muzeylarning fondlaridan, shuningdek, Qo‘lyozma kitoblar saqlanayotgan kutubxonalardan topish mumkin. Yirik sharqshunos olim O.D.Chexovich (1912-1982) O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti va O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan vasiqa va vaqfnomalar fondini ko‘p yillar davomida o‘rgandi va ular ichida Xoja Ubaydulla Axrorga tegishlilarini ajratib olib, matni va ruscha tarjimai va maxsus tadqiqot bilan birga qo‘shib 1974 yili “Samarkandskiye dokumenti XV-XVI vekov” nomi bilan nashr etdi.

Xoja Ubaydulla Axror o‘z davrining badavlat obro‘li kishisi bo‘lib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta nufuzga ega bo‘lgan. Uni shu darajaga yetkazgan omillardan biri bu uning qo‘lida to‘plangan katta yer-suv va mol-mulk bo‘ldi. Tarixiy manbalarning vohlik berishicha, uning 300 jufti nov (bir juft ho‘kiz yordamida haydab ekiladigan yer) yeri, shaharlarda tim (usti yopiq bozor), do‘kon, hammom, karvonsaroy, tegirmon, moyjuvozlari bo‘lgan. Xoja Ubaydulla Axror ma’rifatli va raiyatparvar kishi edi. Daroradining bir qsmi xayrli ishlarga sarflagan, xalq manfaatini himoya qilgan. Masalan, 1463 yili Temuriyzoda

Umarshayx Mirzo Toshkent xalqidan katta mtiqdorda xiroj talab qilganda, Xoja Ubaydulla Ahror uni o‘z hisobidan to‘lagan, hunarmandlar va bozor ahlidan olinadigan tamg‘a solig‘iga qarshi chiqqan, uning o‘zi va mulki barcha soliqlardan ozod qilinganiga qaramay, ayrim yillari hamma qatori xiroj, ushr va boshqa soliqlar - **ma’unoti devoniya** va **navoibi sultoniya** to‘lab turgan. Xoja Ubaydulla Ahror har yili Sulton Ahmad Mirzo (1458-1494 Movarounnahr hukmdori)ning devoniga 80 ming man (4,32 kg.ga teng) g‘allani xiroj o‘rnida yuborib turgan, yiliga unga xirojning bir qismini - 10 ming kumush tanga berib turgan.

Xoja Ubaydulla Ahrorga tegishli vasiqa, vaqfnoma va boshqa huquqiy hujjatlar hali boshqa yerlardan ham topiladi. Lekin, O.D.Chexovich nashr qilganlarning o‘zi ham O‘rta Osiyoning XU-XU1 asr boshidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini o‘rganishda birinchi darajali manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

VASIQA

Alloh jumlai jahon egasidir, uning shon shavkati yuqori bo‘lsin! (Hijriy) 859 yil jumodi ul-oxir oyining 12- kuni.

Bayramxo‘ja o‘g‘li Hasan, mulkiga mutasaddiy bo‘lishga haq-huquqi bo‘lgan holda, dedi: “Samarqandning So‘zangaron ko‘chasida joylashgan ikki xonalik uyimni, tahoratxona va ayvoni bilan, Ubaydullaxoja Jaloliddin Mahmudga sotdim.

Mazkur hovli-joyning g‘arb tarafi olijanob, hurmat-ehtiromga loyiq bo‘lgan olg‘uvchining do‘koni bilan tutash, shimoliy tarafi podshohlik yerlari va qisman Amir Shermuxammad xojaning uyi bilan, sharqi-janub tarafdin esa xalqa ko‘chalar bilan tutashdir. Ushbu mulkni, barcha haqxuquqlarim bilan, hozirda muomalada bo‘lgan 1500 **dinori adliyaga** (dinora adliya - Mirzo Ulug‘bek davrida zarb etilgan oltin tanga pul, vazni 4,4 grammga teng) sotdim.

Mazkur sado-sotiqning kafilligi o‘zimning zimmamda. Savdo quyidagi shaxslarning guvohligida bo‘ldi: Abu Mansur Muhammad, Sa’dulla Muxammad al-Ispijobiy, Ahmad Ali al-Xorazmiy, Xoja Sulton Jahongir o‘g‘li, Bayramshoh Junayd Ramazon o‘g‘li. Hammasi bo‘lib 26 guvoh.

FORS TILINING YOZMA MANBALARNI O'RGANISHDA TUTGAN O'RNI.

Arab xalifaligining siyosiy, iqtisodiy va harbiy qudratining zaiflashuvi va mahalliy hokimlarning kuchayishi asta-sekin markaziy hukumat nomigagina Bag'dodda bo'lib, uning o'lkalardagi noiblari deyarli mustaqil davlatlar sifatida faoliyat ko'rsata boshladilar. Bu esa madaniyat, ilm-fan sohasiga katga ta'sir o'tkazdi.

Nomigagina xalifalikka qaram mamlakatlarda avval oddiy xalq orasida, asta-sekin olimlar va davlat ayonlari va rahbarlari orasida arab tili bilan fors va o'zbek tillardan foydalanilishi natijasida arab tili din va diniy bilimlar tiliga aylandi. She'riyat va tarixda forsiy va o'zbek tillar ma'lum mavqega ega bo'lib, ularda ilmiy, badiiy va tarixiy asarlar yaratildi, davlat hujjatlari yuritila boshlandi. Bora-bora forsiy til davlat tili darajasiga ko'tarilib, bu tilda juda katta hududda badiiy va tarixiy asarlar yaratildi.

Masalan, Bayhaqiyning "Tarixi Mas'udiy", Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari, Mirzo Ulugbek rahnamoligi va ishtirokida bitilgan "Tarixi ulusi arba" ("To'rt ulus tarixi"), Muhammad Mirxondning "Ravzatus-safo" ("Jannat bog'i"), G'iyosiddin Xondamirning "Xulosat ul-axbor" va "Habib us-siyar", Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy" va boshqalar forsiy tilda bitildi. Movarounnahrda forsiy va uzbek tildan doimo yonma-yon foydalanilar edi. Bizning tariximizga oid salmoqli tarixiy manbalar avval arab tilida yaratilgan bo'lsa, ayniqsa davlat rahbarlari yoki hokimlar arab bo'lganlarida, keyincha forsiy tilda bitildikim, bu til ilmiy doiralar, Madrasa va maktablarda umumiy taraqqiyot darajasini belgilovchi zarurat sifatida o'rgatilar va XIX asr oxirigacha ziyoli oilalarda arab tili din va "Qro'ni Karim" tili sifatida, she'riyat va boshqa sohalar uchun forsiy va o'zbek tillari istifoda etilar edi.

FORS TILIDAGI YOZMA YODGORLIKLAR.

1. "BUXORO TARIXI"

"Buxoro tarixi", "Tarixi Narshaxiy" va "Tahqiq ul-viloyat" ("Buxoro viloyati tahqiqi") nomlari bilan mashhur bo'lgan bu asar Buxoro va Quyi Zarafshon vohasida joylashgan shahar va qishloqlarning jug'rofiy holati,

aholisining VII-X asrlardagi ijtimoiy-siyosiy) hayotini aks ettirgan qimmatli tarixiy manbadir.

Kitob muallifining nomi qisqacha Narshaxiy (899-959) deb ataladi. Uning to'liq ismi Abu Bakr Muxammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Narshahiy bo'lib, X asrda ijod qilgan buxorolik yirik tarixchi sifatida mashhurdir. Tarixchi Sam'oniyning ma'lumotiga qaraganda Narshaxiy asli Buxoroning Narshax (hozirgi Vobkent yonida) qishlog'idan. Narshaxiy o'z asarini 944 yili yozib tugallagan. "Buxoro tarixi" asarining Narshaxiy yozgan arab tilidagi asli saqlanib qolmagan. Asar 1128 yili farg'onalik (Quva shahridan) Abunasr Ahmad ibn Muxammad ibn Nasr al-Qubaviy tarafidan ilk bor qisqartirilib, forsiy tilga tarjima qilingan. Oradan taxminan 50 yil o'tgach, 1178 yili kotib Muxammad ibn Zufar ibn Umar tomonidan "Buxoro tarixi" asari ikki marta tahrir etildi. "Buxoro tarixi" asarining bizgacha yetib kelgan nusxalarida 1178-1220 yilgi voqealar bayoni uning tarkibiga kiritib yuborilgan. Shunga qaraganda, Narshaxiyning asari uchinchi marta nomalum muharrir tomonidan to'ldirilgan ko'rinadi.

"Buxoro tarixi" O'rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi, bu yerda islom dinining tarqatilishi hamda mamlakatning Somoniylar hukmronligi yillaridagi tarixini bayon etadigan noyob manbadir.

Bu asarning forsiy matni 1892, 1894, 1904 va 1939 yillarda Parij, Buxoro va Tehronda chop etilgan. Kitob rus, ingliz va o'zbek tillariga 1897, 1954, 1966 yillari tarjima qilingan.

2. "HUDUD UL-OLAM"

"Hudud ul-olam" fors tilida yozilgan (982) jug'rofiy xarakterdagi asardir. Kitobning to'liq nomi "Hudud al-olam min Mashriq ila-l-Mag'ib"dir ("Sharqdan G'arbga qarab joylashgan mamlakatlarning chegaralari"). Asar muallifi noma'lum. U Guznono (Afg'onistonning sharqi-shimoliy qismida joylashgan qadimiy viloyat) hokimlaridan (Farug'iniylar) biriga atab yozilgan. Kitobning yagona qo'lyozma nusxasi sharqshunos A.G.Tumanskiy (1861 -1920) tomonidan 1892 yilda Buxorodan topilgan.

"Hudud ul-olam" asari muqaddima va 59 bobdan iborat. Uning 1-7

boblarida yerning tuzilishi, dengiz, orol, tog‘, daryo, cho‘lu biyobonlar hamda dunyoning inson yashaydigan to‘rtidan bir qismi - **rub‘i maskun** va unda istiqomat qiluvchi xalqlar, rub‘i maskuning mamlakat hamda viloyatlariga taqsimlanishi haqida umumiy mulohaza yuritiladi. 8-59-boblarida Sharqdan G‘arbga qarab joylashgan mamlakatlar, ularning xalqi, o‘sha mamlakatlarda ishlab chiqiladigan asosiy matolar, ayrim o‘rinlarda esa savdo-sotiqning umumiy ahvoli xususida so‘z boradi.

“Hudud ul-olam” asarida O‘zbekistonning shaharlari, aholisi va ularning mashg‘uloti haqida qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz.

Asarning matni aynan (fotomatni) kirish va zarur izohlar bilan birga, 1930 yili V.V.Bartold tomonidan, inglizcha tarjimasi esa (tadqiqot va izohlar bilan birga) 1937 yili V.F.Minorskiy tomonidan nashr etilgan. Uning forsa matni ikki marta M.Sotude va Sayyid Jaloluddin Texroniy tomonidan Eronda chop etilgan. 1983 yili asarning tojikcha nashri amalga oshirilgan. Ushbu kitob fors tilidagi ilk tarixiy-jug‘rofiy manba sifatida juda qimmatli asar hisoblanadi.

3.“SIYOSATNOMA”

Bu asar muallifi Nizomulmulk tahallusini olgan Saljuqiylar davlatida vazir sifatida xizmat qilgan yirik davlat arbobi va tarixchi olimdir. Uning asli ismi Abu Ali al- Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusiy (1018-1092) bo‘lib, Saljuqiy hukmdorlar Sulton Alp Arslon (1063-1073) hamda Sulton Malikshox I larning bosh vaziri bolgan va bu davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o‘ynagan. U saltanatdagi tarqoqlikka barham berish, markaziy davlat tuzumini mustahkamlash, davlatning moliyaviy ishlarini tartibga solish uchun harakat qilgan. Shuning uchun unga mamlakatni tartibga soluvchi, ya’ni Nizomulmulk nomi berilgan. Nizomulmulk Bag‘dodda “Nizomiya” atalmish musulmon huquq- aqoid maktabiga asos solgan. “Siyosatnoma” asarining boshqa nomi “Siyar al-muluk” (“Podshohlarning turmushi”) deb nomlangan. Kitob 1092 yili yozib tugallangan. U 51 bobdan iborat bo‘lib, unda davlat tizimi, moliyaviy hisob-kitob ishlari, qo‘shin tuzulishi, mansablar va ularga amaldorlarni tayinlash tartibi, amaldorlar faoliyati muammolari xususida fikr yuritiladi.

Asarda O‘ta Osiyo tarixiga oid muhim va qimmatli ma’lumotlar

bor. Somoniylar zamonida turk g'ulomlarini davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni, Turkiston xonlari Qoraxoniylar saroyida xizmat qiluvchi xodimlarning maishiy ahvoli, Somoniylar xizmatida bo'lgan amirlar unvonlari, Xorazmshoh Oltintosh (1017-1032) bilan Sulton Maxmud G'aznaviyning vaziri Ahmad ibn Xasan o'tasidagi yozishmalar ana shular jumlasidandir. Asarda, bundan tashqari, karmatlar, botiniylar harakati, Muqanna qo'zg'oloni haqida xam ayrim diqqatga sazovor ma'lumotlar mavjud. "Siyosatnoma"ning forscha talqini 1931, 1956 yillari, fransuz tiliga tarjimasi 1893 yili, ingliz tiliga tarjimasi 1960 yili hamda rus tiliga tarjimasi 1949 yili B.D.Zaxoder tomonidan chop qilingan. Kitob uzbek tiliga ham tarjima qilingan va chop etilgan.

4.“CHOR MAQOLA”

“Chor maqola” nomi bilan mashhur bo'lgan bu asar muallifi Nizomiy Aruziy Samarqandiydir. Uning o'z ismi Najmuddin Ahmad ibn Umar ibn Ali bo'lib, asli samarqandlikdir. Otasi bir vaqtlar Saljuqiy Alp Arslon xizmatida bo'lgan. Bo'lg'usi olim IX asriing 90- yillarida tug'ilgan, 1116-1119 yillari Sulton Sanjar (1118-1157) saroyida Nishopurda hayot kechirdi, so'ngra Gur va Bomiya (Afg'onistonning markaziy qismida joylashgan viloyatlar) hukm surgan Shansabiylar xizmatiga kirdi va umrining oxirigacha o'sha yerda yashadi.

“Chor maqola” ilmiy, etik-didaktik mavzuda yozilgan asar bo'lib, “Majma' ul-g'aroyib” (“Ajoyibotlar majmuasi”) nomi bilan xam ataladi.

Asar 1156-1157 yillarda bitilgan bo'lib, to'rt qismdan iborat:

- 1.Dabir (kotib)lar va dabirlik haqiida;
- 2.She'riyat ilmi va shoirlarning qadr-qimmatini haqida;
- 3.Sayyoralar haqidagi ilm va munajjimlik haqida,
- 4.Tibb (meditsina) va tabiblik xususida.

Birinchi qismda Qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar o'rtasidagi 1141 yilning 9 sentabrida Samarqand atrofida bo'lgan urush, Qoraxitoylar bilan Xorazm, shuningdek, Sulton Maxmud G'aznaviy bilan Movarounnahr hukmdori Qoraxoniy Bug'raxon Muxammad (1033-1056 yillar atrofida vafot etgan) o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, qoraxitoylar istilosi arafasida Buxoro sadrlarining umumiy ahvoli haqida qiska, lekin kimmatli

ma'lumotlar keltirilgan. "Chor maqola"ning ikkinchi qismida ham muhim ma'lumotlarni uchratamiz. Mashhur forsiy zabon shoirlar Rudakiy (taxm.860-941), Farruhiy (1038 yili vafot etgan), Firdavsiy (taxminan 940-1020-1030 yillar orasi) larning xayotiga oid, shuningdek, Bodxizning tabiiy sharoiti, masalan u yerda bo'lgan 1000 ga yaqin koriz, uzumning 120 ta navi, Qoraxoniylar davrida Movarounnahrning adabiy va madaniy hayotiga oid axborotlar shular jumlasidandir.

Uchinchi qismda Abu Rayhon Beruniy va Umar Xayyomning (taxm. 1048-1123) hayoti (Nizomiy Aruziy Samarqandiy u bilan yaqindan tanish bo'lgan) bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan. To'rtinchi qismda O'rta Osiyolik buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) Buxoro va Xorazmdagi ilmiy faoliyati bilan bog'lik ma'lumotlarni uchratamiz.

Umuman, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning ushbu asari O'rta Osiyoning X-XI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan manbalardan biri hisoblanadi. "Chor maqola"ning forsiy matni 1910 va 1955-1957 yillarda eronlik sharqshunos olimlar Mirzo Muxammad Qazviniiy hamda Muxammad Mu'in tomonidan chop qilingan. Asar ingliz tiliga 1921 yili va 1963 yili rus tiliga tarjima qilingan. Sharqshunos Maxmud Xasaniy asarni o'zbek tiliga tarjima qilib chop ettirgan.

5. "ZAYN AL-AXBOR"

"Zayn al-axbor" ("Tarixlar bezagi") nomli kitob muallifi XI asrning yirik tarixchisi Gardiziiydir. Uning to'lliq ismi Abu Said Abdulxay ibn Zahok ibn Maxmud Gardiziiy. G'azniga (Afg'oniston) tobe bo'lgan va uning sharqiy tarafida joylashgan Gardiz qishlog'ida turilgan. U o'z zamonida shuhrat topgan olimdir. Bu esa uning "Zayn al-axbor" nomli asari tufayli bo'ldi. Kitob 1049-1050 yillar orasida yozib tamomlangan va G'aznaviylardan Sulton Abdurashidga (1049-1053) taqdim etilgan.

"Zayn al-axbor", asosan qadim zamonlardan (islomiyatdan avval o'tgan qadimgi Eron podshohlari zamonidan) to 1041 yilgacha, ya'ni G'aznaviylardan Sulton Mavdud (1041 -1050) bilan Sulton Muxammad (1030-1031, ikki marta 1041) o'rtasida, ya'ni 1041 yili Dinovarda bo'lgan urushgacha Xurosonda bo'lib o'tgan voqealar haqida hikoya qilinadi.

Asarda Xurosonning arab istilosidan 1041 yilgacha bo'lgan tarixi boshqa asarlarga nisbatan keng yoritilgan. Gardiziy ushbu asarini yozishda as-Sallomiyning “Kitob fi axbor vuloti Xuroson”, al-Jayhoniyni “Ajoyib al-buddon”, shuningdek, Ibn Muqaffa, Ibn Xalliqonning asarlaridan ham foydalangan. “Zayn al-axbor” rumliklarning madaniyati (dar ma'rifati rumiyon), turli xalqlarning diniy marosimlari va yil hisoblari, Movarounnahrning o'zbek aholisi va Hindiston haqida, degan boblardan iborat. Asarning turli xalqlarning (musulmon, yahudiylar, xristian va boshqalarning) diniy marosimlari va yil hisoblari hamda Hindiston xaqidagi boblari Abu Rayhon Beruniy asarlari, O'rta Osiyo va O'zbekistonning o'zbek axolisi haqidagi bobi esa qisman ibn Xurdadbeh, Jayhoniyy va Ibn Muqaffa asarlariga tayanib yozilgan. Gardiziyning “Zayn al-axbor” asari Xuroson va Movarounnahrning arablar istilosidan to XI asrning o'rtalarigacha bo'lgan siyosiy tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. “Zayn al-axbor” asarining forscha matni eronlik Mirzo Muxammad G'azviniy 1937 yili, Muxammad Nozim 1928 yili hamda Said Nafisiy tomonidan 1954 yili chop etilgan edi. 1969 yili Tehronda asarning to'la nashri amalga oshirildi. Uning o'zbek xalqlar haqidagi bobi rus tilida V.V.Bartold tomonidan 1900 yili nashr qilingan. Kitobning O'zbekistonga aloqador qismi A.K.Arends tomonidan ruschaga qilingan tarjimasi 1991 yili L.M.Yepifanova tomonidan nashrga tayyorlanib, Toshkentda chop etildi.

6.“TARIXI MUBORAKSHOX”

“Tarixi Muborakshox” (“Muborakshox tarixi”) asarining muallifi Faxriddin Muborakshox Mavarrudiy bo'lib, u XP asrning II yarmi va XIII asrning boshlarida yashagan yirik tarixchi olimdir. Tarixchining to'liq ismi Faxriddin Muborakshox yo ki Faxri mudir nomi bilan mashxur bo'lgan. Faxriddin Muborakshox o'z asarining debochasida, shuningdek, Ibn al-Asir va “Haft iqlim” muallifining keltirgan ma'lumotlariga qaraganda, otasi xam, o'zi xam G'uriylardan (G'uriylar - 1000-1215 yillarda Xurosonning sharqiy qismi, Afg'oniston va Shimoliy Xindistonda hukmronlik qilgan sulola.) Shaxobiddin (yoki Mu'izziddin) Muxammad (1173-1206) hamda G'iyosuddin Maxmud (1206-1212) saroyida xizmat qilgan va zamonasining keng ma'lumotli kishilaridan hisoblangan.

Faxriddin Muborakshox 1206 yilda o'zining mashxur "Tarixi Muborakshox" asarini yozib tamomladi va Loxurda G'iyosuddin Maxmudga taqdim etib, uning e'tiborini qozongan. Asar, muallifning so'zlariga qaraganda, 13 yil ichida asr tamomlangan. "Tarixi Muborakshox" asari 136 qism (shajara)dan iborat bo'lib, unda Muxammad payg'ambar, xulafoyi roshidin (Abubakr, Umar, Usmon, Ali), ansorlar (Ansorlar - yordamchi, safdosh; Muhammad payrambar 622 yili Makkadan Madinaga ko'chib ketishga majbur bo'lganida uni qo'llab-quvvatlagan Avs va Xazraj qabilalarining a'zolari.), muxojir saxobalar, G'asaniylar, ya'ni Suriya xukmdorlari, Yaman podshoxlari, joxiliyat zamonida, ya'ni islomiyatdan avval o'tgan shoirlar, saxobalar orasidan chiqqan shoirlar, Ajam podshoxlari (Peshdodiylar, Kayoniylar, Ashkoniylar, Sosoniylar), Umaviylar, Abbosiylar, Toxiriylar, Safforiylar, Somoniylar, G'aznaviylar va nixoyat G'uriylar tarixi bayon etilgan.

Ushbu asarning biz uchun qimmatini shundaki, unda Turkistonning sarhadlari va unda ishlab chiqariladigan mol va matolar, ularning xorijiy mamlakatlarda e'tibor qozongan navlari, turk qabila va urug'lari, ularning tili va madaniyati, yozuvlari, urf-odatlarini xaqida boy daliliy ma'lumotlar keltirilgan. "Tarixi Muborakshox" asarining yagona qo'lyozmasi Angliyaning Oksford shahridagi Bodli kutubxonasida saqlanmoqda. Kitobning G'uriylar va o'zbek xalklar tarixiga oid qismi matnini ingliz sharqshunosi Denison Ross 1927 yilida chop qilgan.

7. "LUBOB UL-ALBOB"

"Lubob ul-albob" ("Qalblar qalbi", 1222-1223 yillari yozilgan) nomli asarning muallifi Sa'duddin Muxammad Avfiy bo'lib, u XII asrning So'nggi choragi va XIII asrning I yarmida yashagan adib, tarjimon va tazkira navis olimidir. Avfiy 1172-1177 yillar orasida Buxoroda tug'ilgan, asosiy ma'lumotni ona shahrida olgan va 1201 yili Samarqand hokimi Qoraxoniylar Ibrohim IV ibn Husayn (1178-1204) saroyiga taklif etilgan. U, bu yerda ko'pgina fozil kishilar, jumladan shayx Najmuddin Kubro (1221 yili Urganjdagi mo'g'ullar qirg'ini vaqtida halok bo'lgan) hamda shayx Majdiddin Bag'dodiy (1216 yili xorazmshox, Alouddin Muhammadning amri bilan qatl etilgan) bilan uchrashgan. Olim 1205 yildan boshlab

Movarounnahr va Xuroson bo'ylab ko'p sayohat qilgan, dastlab Niso, Marv, Tus, Hirot va Seistonda bo'ladi U Nishopurda xam bo'lib, Xurosonning yetuk arabiynavis va forsinavis shoirlari bilan yaqndan tanishadi. Xullas, olim Xuroson shaharlari bo'ylab qilgan sayohati vaqtida bo'lajak tazkirasini uchun ma'lumotlar to'playdi.

Avfiy mo'g'ullar istilosi arafasida Hindiston safariga o'tlanadi. G'aznaga yetganda Chingizxon (1206-1227) boshliq mo'g'ul qo'shinlarining O'rta Osiyoga bostirib kirgani haqida xabar tarqaladi. Olim Xuroson va Movarounnahrdan kelgan qochoqlarga qo'shib Hindistonga jo'naydi va 1222 yili Panjobning Uch viloyatiga kelib, bu yerning xokimi Nosiruddin Qabochannng (1205-1227) xizmatiga kiradi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Avfiy Gujoratga qozi qilib tayinlanadi. U 1227 yili Dexliga ko'chib kelib, Sulton Shamsuddin Eltutmish (Shamsuddin Eltutmish (1211-1236) -XIII asrda Shimoliy Xindnstonni idora qilgan Mu'izziylar sulolasidan) ning xizmatiga kiradi va umrining oxirigacha shu yerda kun kechiradi.

Nuriddin Muxammad Avfiy Uchda turgan vaqtida o'zining "Lubob ul-albob" nomli tazkirasini yozdi, Gujoratda esa arabiynavis olim qozi Muhsin Tanuxiyning (940-994) "Al-faraj ba'd ash-shiddat" ("Ofatdan so'nggi ovunish", 984 yili yozilgan) nomli asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qildi. "Javomi ul-hikoyat va lavomi' ar-rivoyat" ("Hikoyatlar majmuasi va rivoyatlar shu'lasini") asarini ham o'sha yerda yoza boshladi. "Lubob ul-albob" tazkira bo'lib, unda O'rta Osiyo, Xuroson, Iroq, Ozarbayjon, Fazna hamda G'arbiy Hindistonda X-XP asrlarda yashab ijod etgan 299 shoir va adib haqida umumiy ma'lumot beriladi. Asar Uch viloyatining hokimi Raziuddin Abubakrning topishirig'i bilan yozilgan. "Lubob ul-albob"ning forsiy matni 1903 va 1906 yillari E.Braun va Mirza Muxammad Kazviniiy tarafidan chop etilgan. Avfiyning ikkinchi muhim asari "Javomi ul-hikoyat" bo'lib, 1227-1236 yillar orasida yozilgan. Asar to'rt qismdan, har bir qism esa 25 bobdan iborat. U Hindiston, Eron, O'rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga oid 2113 ta tarixiy latifadan iborat. Biz uchun uning ayniqsa to'rtinchi qismi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu qismda O'rta Osiyoning qadimiy o'zbek xalqlari va Buxoro sadrlari haqida muhim ma'lumotlar bor. "Javomi ul-hikoyat" chop qilinmagan. Ayrim qismlari I.Nizomutdinov va T.Fayziyev tomonidan

o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

8.“TARIXI GUZIDA”

“Tarixi guzida” (“Saylangan tarix”) asari muallifi Xamdulloh Kazviniy bo‘lib, u XSH asr so‘nggi choragi va XIV asrning P yarmida yashab o‘tgan yirik geograf va tarixshunos olimdir. Uning to‘liq ismi Hamdullox ibn Abubakr ibn Ahmad ibn Nasr Mustavfiy Qazviniy bo‘lib, kelib chiqishi arab va 1281 yili Eron Ozarbayjonining Kazvin shahrida tug‘ilgan.

Hamdullox Kazviniy Rashiduddin davrida Kazvin, Abhar va Zanjon viloyatlarining moliya ishlarini boshqargan. Rashiduddin qatl etilgandan so‘ng, uning o‘g‘li G‘iyosuddin Muxammad (1327-1336 yillarda Elxoniy Abu Sa‘idning vaziri bo‘lgan)ning xizmatida bo‘lgan. Tarixchi 1350 yili vafot etgan. Hamdullox Kazviniy “Zafarnoma”, “Tarixi guzida” hamda “Nuzhat ul-qulub” nomli asarlar muallifidir. “Tarixi guzida” umumiy tarix yo‘nalishida yozilgan asar bo‘lib, unda qadim zamonlardan to 1330 yilgacha Eron va qisman, O‘rta Osiyoda bo‘lib o‘tgan voqealar bayon etilgan. Hamdullox Kazvinny vafotidan keyin o‘g‘li Zaynuddin tomonidan asar davom ettirilgan va unga 1392 yilgacha Eronda bo‘lib o‘tgan voqealar qo‘shilgan. Kitobning asosiy qismi hoji G‘iyosuddin Muhammadga bag‘ishlangan. Asar muqddima-fotiha va olti bobdan iborat: 1) payg‘ambarlar va avliyolar; 2) islomiyatdan avval o‘tgan Eron podshohlari; 3) Muxammad Payg‘ambar, xalifai roshidin, Umaviylar va Abbosiylar tarixi; 4) Abbosiylar davrida Eron, Afg‘oniston va O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgan Safforiylar, Somoniylar, G‘aznaviylar, G‘uriylar, Daylamiylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, mo‘g‘ullar va boshqa sulolalar tarixi; 5) Islomiyat davrida o‘tgan shayx, olim va shoirlar; 6) Kazvin shahrining tarixi. “Tarixi guzida” Eron, O‘rta Osiyoning XIII-XIV asrning I yarmidagi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kitob 1910 yili ingliz sharqshunosi E.Braun tomonidan matn va qisqartirilgan inglizcha tarjimasini hamda 1960 yili Abdulhusayn Navoiy asar matnini nashr qilgan.

9.“ZAFARNOMA”

Mavlono Nizomuddin Shomiy yoki mavlono Nizomuddin Shanbiy, Shanbi G‘ozoniy asli Tabrizning shimoli-g‘arbiy tarafida, undan ikki mil masofada joylashgan joyda tug‘ilgan tarixchi “Zafarnoma” asari bilan mashhur. U 1393 yili Amir Temur xizmatiga qabul qilingan, 1404 yilgacha u bilan, soxibqironning harbiy yurishlarida voqeanavis va voiz mansabida ishtirok qilgan.

1402 yili Amir Temur uni o‘zining tarixini aniq va sodda tilda yozib berishni buyurgan. Nizomuddin Shomiy bu asarni 1402-1404 yillar orasida yozib tamomlagan. Asar jahongirning xokimiyat tepasiga kelishi (1370 yil.) dan to 1404 yilgacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi.

“Zafarnoma” asari haqiqatan xam sodda tilda, ravon uslubda yozilgan, daliliy ma’lumotlarga boy. Lekin, Amir Temur xayoti mazkur asarda birmuncha, Sharafuddin Aliga nisbatan kam idealashtirilgan. Asar O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarining XIV asr II yarmi va XV asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘rganishda muhim va ishonchli manbalardan biri xisoblanadi. Nizomuddin Shomiy o‘z asarini yozishda G‘iyosidin Ali Yazdiyning “Ro‘znomayi g‘azavoti Hinduston”, Amir Temurniig uyg‘ur kotiblari tomonidan yaratilgan “Tarixi xoniy” va boshqa saroyda bitilgan kundaliklardan foydalangan. “Zafarnoma”ning ikkita taxriri mavjud: 1) 1404 yili Amir Temur Ozarbayjon yurishidan qaytganda unga taqdim etilgan nusxa. 2) Mironshoxning o‘g‘li Mirzo Umarga (1404 yil 26 martda Amir Temur “Halokuxon taxti”ni, ya’ni G‘arbiy Eron hamda Ozarbayjonni in’om qilgan) paytida taqdim qilingan. U yuqorida qayd etib o‘tilgan birinchi nusxadan deyarli farq qilmaydi. Asar “Zafarnoma” deb ataladi. Unga ayrim uslubiy tuzatishlar kiritilgan va debocha xamda Mirzo Umarga bag‘ishlangan kichik bir ilova (zayl) qo‘shilgan. Shunga qaraganda, Nizomuddin Shomiy umrining so‘nggi yillarini Mirzo Umar xizmatida bo‘lgan va ona yurti Tabrizda istqomat qilgan. “Zafarnoma”ning qo‘lyozma nusxalari Armaniston, Angliya, Fransiya, Iroq va Turkiya kutubxonalarida saqlanmoqda. Asarning tanqidiy matni F.Tauer tomonidan 1937 va 1956 yillari Pragada chop etildi. 1996 yili Nizomuddin Shomiy “Zafarnoma” asarini Y. Hakimjonov tomonidan amalga oshirilgan forsha tarjimasi A.O‘rinbsev tomonidan tahrir qilinib nashr etildi.

10.“ZAFARNOMAYI TEMURIY”

“Zafarnomayi Temuriy”, “Fathnomayi sohibqironiy ”, “Tarixi jahonkushoyi Temuriy” yoki “Zafarnoma” nomi bilan mashhur bo‘lgan asarning muallifi davrining yirik tarixchisi Sharafuddin Ali Yazdiydir. U, asli Eronning Yazd viloyatidagi Taft qishlog‘idan bo‘lib, turli fan sohalarini egallagan edi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy uni “Sharafudin davlat va din”, ya’ni din va davlat sharafi deb ta’riflagan.

Sharafuddin Ali Yazdiy Fors viloyatining hokimi Temuriy Ibroxim Sulton (1415-1435) saroyida xizmat qilgan. U ilm-fan homiysi bo‘lmish mazkur pohzodanigina emas, balki Shohruxning ham zo‘r hurmat-e’tiborini qozongan edi. Sharafuddin Ali Yazdiy 1442 yili Shohruxning nabirasi va Sultoniya, Qazvin, Ray hamda Qum hokimi Sulton Muxammad (1442-1446)ning taklifi bilan Qumga keldi va shaxzodaning xizmatiga kirdi. Sulton Muxammad 1446 yili Shohruxning og‘ir kasalligidan foydalanib, isyon ko‘tardi, Hamadon hamda Isfaxonni bosib oldi, Sherozni qamal qildi. Shohruh unga qarshi qo‘shin tortdi. Sulton Muxammad Shohrux bilan ochiq jang qilishdan qo‘rqib toqqa qochdi (oradan bir yil chamasi vaqt o‘tgach, 1447 yili Sulton Muhammad yana Forsni egalladi, Shohrux vafotidan so‘ng (1447 yil 12 mart) Xurosonni qo‘lga kiritdi, lekin 1451 yili inisi Abulqosim Boburdan yengildi va uning amri bilan qatl etildi.). Shohrux Sulton Muxammad bilan yaqin bolgan kishilarni, shuningdek, mahalliy sayyidlardan birmunchasini isyonda ishtirok etishda ayblab hibsga oldi va ko‘plarini o‘limga mahkum qildi. O‘shanda hibsga olinganlar orasida Sharafuddin Ali Yazdiy ham bor edi. Faqat Mirzo Abdullatifning (Ulug‘bekning to‘ng‘ich o‘g‘li) aralashuvi bilan Sharafuddin Ali Yazdiy jazodan qutulib qoldi. Shaxzoda uni Samarqandga, otasi huzuriga jo‘natib yubordi. Sharafuddin Ali Yazdiy Samarqandda bir yil chamasi istiqomat qildi va fikrimizcha, Ulug‘bekning ilmiy izlanishlarida ishtirok etgan bo‘lishi kerak. Shohrux vafotidan (1447) keyin 1449 yilda Sharafuddin Ali Yazdiy Xurosonga qaytdi va Sulton Muhammadning ruxsati bilan yana vatani Taftga qaytib bordi va umrining oxirgi qismini uzlatda kechirdi. Sharafuddin Ali Yazdiy 1454 yili vafot etdi. “Zafarnoma” asosan Nizomuddin Shomiyning shunday nomli asari

asosida zo‘r badiiy mahorat bilan yozilgan. Lekin, Sharafuddin Ali Yazdiy Nizomuddin Shomiy asarida bayon etilgan voqealarning ba’zilariga yangi tarixiy manbalar asosida aniqliklar kiritdi, uni yangi isbot va dalillar bilan boyitdi. Amir Temurning shaxsiyati va uning faoliyatidagi qarama-qarshiliklar, ya’ni bir tomondan qattiqqo‘l ekanligi, ikkinchi tomondan esa Movarounnaxrdagi tarqoqlikka bardam berib, markazlashgan davlatga asos solganligi birmuncha to‘g‘ri va xaqqoniy yoritilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy asarining zo‘r qimmat shundaki, unda Mo‘g‘ul imperiyasining tarkibida tashkil toptan Oltin O‘rda, Elxoniylar davlati, Chig‘atoy ulusi, shuningdek Movarounnaxrning Chingizxon zamonidan to Temur davlatining paydo bo‘lishigacha bo‘lgan ijtimoiy-sisyoiy tarixi qisqa tarzda yoritib berilgan. Asarning bu qismi “Tarixi jahongir” , yoki “Muqaddimayi Zafarnoma” nomi bilan ataladi va 1419 yili yozib tamomlangan. “Zafarnoma” asarining asosiy qismi, muallifning dastlabki rejasiga ko‘ra, uch qism - maqoladan iborat bo‘lmog‘i, birinchi qismda Amir Temur tarixi, ikkinchi qismda Shoxrux Mirzo va nihoyat, uchinchi qismda ushbu asar yozishning tashabbuskori Ibrohim Sultonning davrida o‘tgan voqealar bayon etilishi mo‘ljallangan edi. Lekin, biz xozir asarning birinchi qismigagina egamiz, xolos. Uning ikkinchi va uchinchi qismlari saqlanmagan “Zafarnoma” asarining asosiy qismi 1425 yilda yozib tamomlangan.

Asarning qo‘lyozma nusxalari ko‘p, xorijiy mamlakat kutubxonalari, xususan Toshkentda O‘zRFA Sharqshunoslik institutida uning yigirma to‘rt nusxasi bo‘lib, ularning ikkitasiga (Inv. № 3440 va №4472) XV va XVII asrlarda rasmlar ishlangan. “Zafarnoma” asari matni Hindiston (1885-1888), Eron (1957) va 1972 yili A.U.O‘rinboyev tomonidan Toshkentda chop qilingan. Asar ikki marta o‘zbek tiliga, ingliz, fransuz va turk tillariga tarjima qilingan. Undan ayrim parchalar ingliz xamda rus tillarida bosilgan. Muxammad Ali ibn Darvish Ali Buxoriy tomonidan uzbek tiliga qilingan tarjima 1997 yili Ashraf Axmad va X.N.Bobobekov tabdili, so‘zboshi va izoxlari bilan nashr etilgan. “Zafarnoma” asarining muqaddimasi terma tarjimasi va 10 yilgi Movarounnaxr voqealari bayoni O.Bo‘riyev tomonidan tarjima qilinib, 1996 yili nashr qilindi. Kitobning Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixini o‘rganishdagi ilmiy ahamiyati juda

katta. Keyinchalik yaratilgan tarixiy asarlarga bu kitobning ta'siri yaqqol seziladi.

10. “ULUSI ARBA’-YI CHINGIZIY”

“Ulus arbā’-yi Chingiziy” (“Chingiziylar to‘rt ulusī” (tarixi) yoki “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) nomli asar asosiy mualliflaridan biri, uning yaratilish tashabbuskori XU asrda o‘tgan buyuk olim, yirik davlat arbobi, Shoxrux Mirzoning o‘g‘li Muxammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bekdir. U 1394 yil 22 martda Amir Temurning Iroq va Ozarbayjonga qilgan yurishi vaqtida Sultoniyah shahrida, Eron Ozarbayjonida tug‘ilgan. Amir Temur saroyida hukm surgan an‘anaga ko‘ra, shaxzoda Soxibronning katta xotini Saroymulk xonim - Bibi xonimning tarbiyasiga topshiriladi. Oradan bir yil chamasi vakt o‘tgach, 1395 yili Amir Temur Saroymulk xonim va nabirasini Shohuruxga qo‘shib Samarqandga jo‘natadi. 1398 yili Ulug‘bekka mashhur qissaxon, shoir va olim, shayx Orif Ozariy (1382-1462) muallim etib tayinlandi va u dastlabki asosiy ta’limni ana shu ajoyib insondan oldi. Shaxzoda Amir Temurning bir qator harbiy harakatlarida, 1399-1404 yillari Turkiya va Suriyaga qarshi o‘tkazilgan yurishda, 1404-1405 yili Xitoyga qarshi uyushtirilayotgan yurishda qatnashdi. Amir Temur 1405 yil 18 fevralda vafot etgach, Movarounnahr taxtini nabirasi Xalil Sulton zo‘rluk bilan egallab oldi. Bu vaqtda Ulug‘bek otasi Shohrux xizmatida bo‘ldi. 1409 yili Xalil Sulton o‘z amirlari tomonidan asir olingach, Shoxrux Xurosondan Movarounnahrda kelib, Mirzo Ulug‘bekni Movarounnahr v Turkiston hokimi etib tayinlandi. U 1449 yilning 25 oktabrigacha bu mamlakatni boshqardi. Mirzo Ulug‘bek yirik davlat arbobi, sarkarda edi. Lekin, u buyuk olim va ilm-fan hamda madaniyat homiysi sifatida tengi yo‘q edi. Samarqand uning davrida Sharqning yirik ilm- fan va madaniyat markazlaridan biriga aylandi.

Mirzo Ulug‘bek ikki yirik asar yaratdi. Biri “Ziji jadidi ko‘ragoniy” (“Ko‘ragoniyning yangi astronomik jadvali”) bo‘lib, 1437 yili yaratilgan kitobda ilmi nujumning nazariy va amaliy masalalari qamrab olingan, o‘sha davrdagi eng yuksak ilmiy jasorat hisoblangan. Olimning ikkinchi asari “Ulus arbā’-yi Chingiziy” bo‘lib, unda XIII-XIV asrlarda Mo‘g‘ul imperiyasi tarkibiga kirgan mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy tarixi qisqa

tarzda bayon etilgan. Kitob 1425 yildan keyin tugallangan. “Tarixi arba’ ulus” muqaddima va to‘rt qismdan iborat. Muqaddimada o‘rta asrlarda tarixchilar o‘rtasida hukm surgan an’anaga ko‘ra, islomiyatdan avval o‘tgan payg‘ambarlar, turklarning afsonaviy ota-bobolari hisoblangan Yofas ibn Nuh va uning farzandi Turkxon, shuningdek, turk-mo‘g‘ul qabilalari va Chingizxon tarixi bayon etilgan.

Birinchi qism Ulug‘ yurt, ya’ni Mo‘g‘uliston va Shimoliy Xitoy tarixi, O‘gadayxon (1227-1241), Chingizxonning uchinchi o‘g‘li davridan to Ariq Bug‘o avlodi O‘rdoy qoon zamonigacha yuz bergan voqealarni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi qismda Jo‘ji ulusi, ya’ni Oltin O‘rda tarixi, Jo‘jixon davridan to Shohruhning zamondoshi bo‘lmish Muhammadxon zamonigacha, XIII-XV asrning I choragi tarixi bayon etilgan.

Uchinchi qismda Elxoniylar, ya’ni Eron hamda Ozarbayjonning XIII-XIV asrlardagi tarixidan baxs yuritiladi.

To‘rtinchi qismda Chig‘atoy ulusining, Koshg‘ar, Yettisur, Movarounnahr, Shimoliy Afg‘oniston hududidagi XSH-X1U asrlardagi tarixi talqin etilgan. Shuni ham aytish kerakki, muallif mazkur ulusda hukmronlik qilgan har bir ukmdor xon ustida qisqa va alohida-alohida to‘xtalib, ularning davrida sodir bo‘lgan voqealardan eng muhimlarini bayon etgan.

“Tarixi arba’ ulus” asarining ayrim qismlari, xususan uning to‘rtinchi qismi, ko‘p jihatdan Sharafuddin Ali Yazdiyning “Muhaddimayi Zafarnoma”siga o‘xshab ketadi. Lekin, Ulug‘bek asari birmuncha mukammaldir. Bundan tashqari, unda to‘rt ulus o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar, “o‘zbek” etnonimining kelib chiqish vaqti xususida ham qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz. Ushbu kitobnnng faqat qisqartirilgan tahririning to‘rt mo‘tabar qo‘lyozmasi bizgacha yetib kelgan. Ularning ikkitasi Angliyada, bittasi Hindistonda va to‘rtinchi nusxasi AQShda saqlanmoqda. Mirzo Ulurbek tarixiy asarining inglizcha tarjimasi 1838 yili Mayls tomonidan Angliyada chop etilgan. O‘zbek tilidagi tarjimasi B. Axmedov, M.Xasaniy va N.Norqulovlar tomonidan bajarilib, 1994 yili Toshkentda chop etildi. “Tarixi arba’ ulus” Markaziy Osiyo va Qozog‘istonning XSH-X1V asrlardagi tarixini, ayniqsa Chig‘atoy ulusi

tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri vazifasini o'tashi mumkin.

FORS TILIDAGI MANBALARNIIG XUSUSIYATLARI

Fors tilida bitilgan tarixiy asarlar an'anaga binoan arab tilida nomlanar, ularda ham islomiy manbalar va islomiy tarixiy asarlar xususiyatlari yaqqol o'zga tashlanar edi. Xatto, yozuv yoki xat turi arab alifbosida bo'lib, keyincha forsiy va o'zbek til xususiyatlarini xisobga olgan holda yigirma sakkiz arab harfiga to'rt xarf qo'shildi va natijada arab yozuviga asoslangan fors va o'zbektil yozuvi vujudga keldi. XIV asrgacha, asosan arab yozuvning mumtoz turlaridan kufiy, nasx va sulsdan foydalanilgan bo'lsa, XV asrdan boshlab yangi yozuv nasta'liq Temuriylar davrida Mir Ali Tabriziy nomli xattot tomonidan ixtiro etilib, iste'molga kiritildi. Bu yozuv badiiy va tarixiy asarlarda yetakchi o'rin egaladi. Ammo, tarixiy asar matni ichida kelgan "Qur'oni Karim" oyatlari, "Xadisi sharif"lar an'anaga binoan arab tilida, kufiy, nasx va suls yozuvlarida barcha harakatlari ko'rsatilgan holda ajratilib bitilar va so'ngra ularga forsiy yoki o'zbek tilda izoh, tafsir keltirilar edi. Fors tilining tarixiy manbalar tiliga aylanish davri va taraqqiy etishi kitobat san'atining Movarounnahr va Xurosonda yuksak darajada rivojlanish zamoniga to'g'ri keldi.

Aksariyat fors tilidagi tarixiy asarlar oliy sifatli qog'ozga bitilar, kitob turli ajoyib naqshlar va mo'jaz rasmlar bilan ziynatlanib, saroy kutubxonolari va ayonlar uchun yaratilgan mo'tabar qo'lyozmalar oltin va kumush suvlari, turli bo'yoqlar bilan bezatilib, kitobat san'atining shoh asarlari darajasida yaratilib, yuksak san'at namunalariga aylantirilar edi. An'anaviy tarixiy asarlar, ya'ni ulkai umumiy tarixga oid barcha xalqlar tarixini o'z ichiga qamrab oluvchi mahobatli kitoblar o'rnini asta-sekin alohida davr va biron bir sulolalar tarixiga bag'ishlangan asarlar paydo bo'lib, ularning o'rnini egallay boshladi. Fors tilida bitilgan eng qadimgi manbalardan biri Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari bo'lsa, Temuriylar davrida Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Muhammad Mirxond, G'iyosiddin Xondamir kabi yirik muarrixlar bu tilda asarlar yaratdilar. So'ngti fors tilida yaratilgan tarixiy manbalardan biri sifatida Ahmad Donishning tarixiy

asarlarini namuna sifatida ko'rsatish mumkin.

Forsiy tilda bitilgan tarixiy manbalarga xos xususiyatlardan biri-matn orasida, voqealar bayoni davomida she'riy lavhalarning keltirilishidir. Bu she'riy lavhalar tarixchining o'z asari bo'lishi mumkin va u boshqalarning she'riy asarlaridan ham bemalol foydalanishi mumkin. Bu badiiy-she'riy lavhalarda konkret tarixiy shaxslar nomlari obraz, timsol sifatida juda ko'p ishlatilishidir.

Fors tilida bitilgan ayrim tarixiy asarlarda o'xshatish, mubolag'alar ko'p ishlatilib, bayon uslubi o'ta jimjimador bo'lishi mumkin. Mana shunday asarlar to'g'risida Amir Temur tarixchi Nizomiddin Shomiyga shunday degan: "Shu uslubda yozilgan, tashbih va mubolag'alar bilan oro berilgan kitoblarda ko'zlangan maqsadlar o'rtada yo'qolib ketadi, agar so'z qoida-qonunidan nasibador bo'lganlardan birontasi ma'nini fahmlab qolsa qolar, ammo qolgan o'ntasi, balki yuztasi uning mazmunini bilishdan, maqsadga yetishdan ojiz. Shu sababli, uning foydasi barchaga barobar bo'lmaydi." Yurtimiz hududida fors tilida yaratilgan tarixiy manbalarda ham arabiy, ham turkiy, ayrim hollarda mo'g'ul tili elementlari, so'z, ibora, atama va hujjatlar uchrashi va mavjud bo'lishi biz uchun bir tabiiy holdir. Chunki, o'tmishda xalqimiz ziyolilari va namoyandalari uchun bir necha tilni bilish va ularni ishlatish odatiy hol edi.

Ushbu ma'ruzada barcha fors tilidagi tarixiy manbalarni to'la qamrab olishni maqsad qilib quymay, ularning orasidan eng muximlarini namuna sifatida tanlab olib, ular to'g'risida ixcham, qisqa ma'lumotlar keltirdik, xolos. Chunki, bu bilimlarni talabalar o'zlari mustaqil kengaytiradilar degan umiddamiz. Bizning maqsadimiz, keltirilgan ushbu ma'lumotlar asosida talabada fors tilidagi tarixiy manbalar xususida umumiy tasavvurni shakllantirish va uni mustafqil fikrlashga o'rgatishdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Fors tilining tarixiy manbalarni yaratilishida qanday o'rni bor?
2. Qaysi davrlarda bu tilda manbalar yaratilgan?
3. Fors tilida yaratilgan qaysi manbalarni bilasiz?
4. "Buxoro tarixi" asari haqda nima bilasiz?
5. "Ravzat us-safo" asari muallifi kim va u qanday asar?

13-§. MARKAZIY OSIYONING XVI-XIX ASR YOZMA YODGORLIKLARI

1.Muhim ijtimoiy siyosiy voqealar.

2. Markaziy Osiyoning XVI-XIX asr yozma yodgorliklari

3.XVI-XIX asr I yarmiga oid hujjatlar.

Adabiyotlar

8. Ахмедов Б.А. Ўзбекистан тарихи манбалари. - Тошкент: Ўқитувчи, 2001.
9. Саидкулов Т.С. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихнавислигидан лавҳалар. - Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
- 10.Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии. XVI-XVIII вв. (Писменные памятники).-Ташкент: Фан, 1985.
- 11.Манбашуносликдан маърузалар мажмуаси / Тузувчи А.А.Мадраимов.- Тошкент: ТДПУ, 2001.
- 12.Тарихий манбашунослик /Тузувчилар: А. А. Мадраимов, Г. С. Фузаилова. - Тошкент: Фан, 2006,149-185 бетлар.
- 13.Камолиддин Ш. Илхамов З. Средневековые источники Средней Азии. Т. 2018.

Muhim ijtimoiy siyosiy voqealar. XV asrning 80-90- yillarida kuchayib ketgan tarqoqlik, xususan Toshkent, Fargʻona va Xisorning markaziy hukumatga itoat qilmay qoʻyishi, ayrim amirlarning siyosiy nufuzi oʻta kuchayib ketishi va yosh Temuriylarning toju taxt uchun kurashlar davlatning inqirozini tezlashtirdi.

1500 yili Muhammad Shayboniyxon (1500-1510) Dashtqi qipchoq oʻzbeklariga tayangan holda Movarounnahr, Xorazm, Xuroson va Badaxshonni boʻysundirib, yangi sulola - Shayboniylar davlatiga (1500-1601) asos soldi. Lekin, Shayboniylar maʼlum darajada ijodiy, ijtimoiy va madaniy soxada taraqqiyotga erishgan boʻlsalar-da, lekin ular ham mahalliy yirik yer-suv egalarining ayrimachilik harakatiga barham bera olmadilar.

Shayboniyxon halokatidan (1510 y. 10 dekabr) soʻng uzoq vaqt davomida mamlakatda parokandalik va tarqoqlik hukm surdi.

Ubaydullaxon vafotidan (1539) keyin esa Movarounnahrda qo'sh xokimiyatchilik boshlandi: Samarqandda Abdullatif Sulton, Buxoroda Abdulaziz Sulton xon qilib ko'tarildilar (1540-1550).

1551 - 1556 yillari esa mamlakat toju taxt da'vogarlarini Navro'z Ahmadxon, Burxon Sulton, Abdullaxon soniy o'rtasida urush maydoniga aylandi. Abdullaxon soniy 1557 yili Buxoroni egalladi va uzoq davom etgan urushlardan (1557-1582) co'ng Movarounnahrni birlashtirishdi. Toshkent va Turkistonni bo'ysundirdi, 1584 yili Badaxshon bilan Ko'lobni, 1588 yili Hirotini egalladi. U davlatni markazlashtirdi, lekin uning vafotidan (1598 y. 8 fevral) keyin ayirmachilik harakati avj oldi. Uning o'g'li va taxt vorisi Abo' Utmadi. Undan keyin xon ko'tarilgan Mirmuxammad soniy (1598-1601) esa nomigagina xon hisoblanib, aslida hokimiyat nufuzli katta yer egalari qo'liga o'tib qoldi. Bu vaqtda qozoq xonlari va sultonlarining Movarounnaxr ustiga bosqinchilik yurishlari kuchaydi. Ular 1599 va 1600 yillari Toshkent, Jizzax, Samarqand va Miyonqolgacha bostirib kirib, o'troq aholini talon-taroj qildilar. Janubdan esa Eron hukmdorlari yurtimizga tahdid sola boshladilar. Mana shunday bir sharoitda movarounnaxrlik yirik yer-suv egalari ruxoniylar va zodagonlar bilan til biriktirib, Jo'jixonning o'n uchinchi o'g'li To'qay Temur naslidan bo'lgan Yormuhammadxonni taxtga o'tqizdilar. Yangi sulola tarixda Ashtarxoniylar (1601-1785) nomi bilan mahur. (Aslida Xoji tarxon (Astraxon)lik bo'lganligi uchun sulola shunday atalgan). Bu davrda mamlakatda tarqoqlik yanada kuchaydi. Dashti qipchoqiklar, asosan qozoq xonlari va qalmoqlar, Xorazm hukmdorlari Abulg'ozixon va Anushaxon Movarounnahrda tez-tez bostirib kirib, uning Chorjo'y, Buxoro va Samarqand shaharlari va qishloqlarini talon-taroj qila boshladilar. Eron va Shimoliy Hindiston hukmdorlari Boburiylarning Buxoro xonligi ichki ishlariga aralashuvi kuchaydi. Mamlakatdagi beqarorlik Ubaydullaxon soniy (1702-1711) hukmronligi yillarida juda kuchaydi. Ular hukmdorlari, Balxdagi Mahmudbiy qatag'on markaziy hukumatga bo'ysunmay qo'yidilar. Samarqand va Hisor viloyatlarida yuz qabilasi, Shahrisabz va Qarshida kenagas va mang'it qabilalari xonga qarshi isyon ko'tardilar. Ubaydullaxon soniy o'rniga xon ko'tarilgan Abulfayz (1711-1747) nomigagina xon bo'lib, hokimiyat bir guruh yirik boylar qo'liga

o'tib qoldi.

Eron podshohi Nodirshoh (1736-1747) Movarounnahrda parokandalik va beqarorlikdan foydalanib, 1740 yilning kuzida Buxoro xonligini o'ziga bo'ysundirdi. Shundan keyin hokimiyat, asosan Nodirshoh tarafdori, mang'it qabilasidan chiqqan nufuzli, katta yer egasi Muxammad Raximbiy qo'lga o'tdi. Abulfayzxon o'ldirilganidan keyin taxtga o'tiqazilgan Abdulmo'min (1747-1751) va Ubaydullaxon soniy (1751-1753) nomigagina xon bo'lib, davlatning muhim ishlarini Muxammad Rahimbiy bosqargan.

1753 yilning 16 dekabrda Muhammad Rahimbiy xon bo'ldi. Shu kundan boshlab Buxoro xonligida hokimiyat Mang'itlar sulolasi qo'lida bo'lib, ular 1920 yilning sentabr oyigacha xukmronlik qilgan. 1709 yili markaziy hukumatning zaifligi tufayli Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi (1709-1876) tashkil topdi.

XIII-XIX asrda yurtimiz hududida Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonligi mavjud bo'lib, Rossiya asta-sekin bu hududga siqilib kelib, o'z hokimiyatini o'rnatib, mamlakatni mustamlakaga aylantirdi.

FORS TILIDAGI MANBALAR

1. "FATHNOMA"

"Fathnoma" nomli tarixiy mavzudagi she'riy doston muallifi Mulla Shodiydir. Uning hayoti va ilmiy-adabiy faoliyotiga oid ma'lumotlar juda kam. Shayboniynonning inisi Maxmud Sulton xizmatida bo'lganligi va uning topshirig'i bilan o'zining "Fathnoma" dostonini yozganligi, uni 1502 yili tugatgan bo'lib, ayni shu davrda 55 yoshda bo'lganligi ma'lum, xolos.

"Fathnoma" tarixiy doston bo'lib, unda Shayboniynon tavallud toptan 1451 yildan to Dashti qipchoq O'zbeklari tomonidan Samarqandning istilo etilishi, so'nggi marta 1501 yil iyun oyigacha bo'lgan asosiy ijtimoiy-siyosiy voqealar keng yoritilgan. Xorazm va uning Urganch, Vazir va Adoq singari shaharlari, Dashti qipchoqning aholisi, xususan mang'itlarning turish-turmushi, shuningdek, Shayboniynon askarlarining Turkiston, Andijon, Buxoro, Dabusiya va Qarshi viloyatlarini ishg'ol qilganliklari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Asar hozircha bironta tilga tarjima qilinmagan. Uning qo‘lyozma nusxalari ko‘pgina mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanadi. Rossiya va MDX mamlakatlarida “Fathnoma” dostonining beshta qo‘lyozmasi mavjud.

Bulardan ikkitasi Sankt-Peterburg Davlat universiteti kutubxonasida, ikkitasi Dushanbeda va bittasi O‘zR FA Sharqshunoslik institutida (Raqami № 5369) saqlanadi. Toshkentdagi qo‘lyozma juda qimmatli bo‘lib, XVI asrda ko‘chirilgan va unda turli mavzudagi 9 ta ajoyib miniatyura bilan bezatilgan.

2. “SHAYBONIYNOMA”

“Shayboniynoma” fors tilida bitilgan she‘riy doston bo‘lib, uning muallifi shoir va tarixnavis olim Kamoliddin Binonydir (1453-1512). Uning asli ismi Ali ibn Muxammad al-Haraviy. Ko‘proq Kamoliddin Binoiy nomi bilan mashhur. Hirotida ko‘zga ko‘ringan me‘mor ustod Muhammadxon Sabz oilasida dunyoga kelgan. Yoshlik paytlari og‘ir sharoitda, Shhruh Mirzo vafotidan keyin mamlakatda kuchayib ketgan toju-taxt uchun kurash va o‘zaro urushlar sharoitida kechdi. Ma‘lumki, 1458 yili Qoraquyunlular sulolasidan (Qora quyunlu - 1380-1468 yillari Iroqi Ajam va Ozarbayjonni idora qilgan sulola, asoschisi Qopa Muxammad Turmush (1380-1389 yy)) bo‘lgan Jaxonshoh (1438-1467) Xurosonga bostirib kirdi va Hirotni egalladi. Lekin, oradan ko‘p vaqt o‘tmay, 1459 yili Temuriyzoda Sulton Abu Said Mirzo qo‘shinlarining tazyiqi ostida poytaxt shahar va mamlakatni tashlab chiqishga majbur bo‘ldi. O‘shanda Jahonshoh yuz nafar hunarmand oilani o‘zi bilan birga Fors viloyatiga olib ketdi. Bular orasida me‘mor Muxammad Sabz va uning oilasi qariyb uch yil Sherozda istiqomat qilib, 1461 yili yana Hirotga qaytib keldi.

Manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Kamoluddin Binoiy keng ma‘lumotli kishi bo‘lib, she‘riyat, insho, ilohiyot, musiqa va tarix ilmlarini chuqur bilgan. Bundan tashqari u me‘morchilik san‘atida ham o‘z zamonasining peshqadamlaridan hisoblangan. Muxammad Sabz va uning o‘g‘li ishtirokida qurilgan binolar Hirotida va mamlakatning boshqa shaharlarida juda ko‘p bo‘lgan. Masalan, 1481 yili hozirgi

Afg'onistonning Mozori Sharif shahrida, eski nomi Xoja Hayron, Ali ibn Abu Tolib (656-661) mozori tepasiga qurilgan muhtasham maqbara va boshqa binolar shular jumlasidandir. Shoir va olimning "Binoiy" deb taxallus tanlashi ham mana shundandir.

Binoiy oradan ko'p vaqt o'tmay Tabrizga kelib qoldi va 1492 yilga qadar Sulton YA'qub Oqquyunlu (1478-1490) saroyida xizmat qildi. 1492 yili u yana Hirotga qaygdi. 1495 yili ayrim sabablarga ko'ra, o'zining so'zlariga qaraganda, ba'zi hasadgo'ylarning ig'vosi tufayli, Samarqandga ketib qoldi.

Binoiy dastlab xoja Ubaydulla Ahrorning to'ng'ich o'g'li va vorisi xoja Qutbuddin Yahyo, so'ng Zahiriddin Bobur, undan keyin 1501 yili to umrining oxirigacha, Shayboniyxon huzurida uning saroy shoiri va tarixchisi bo'lib xizmat qildi. 1507 yili Binoiy Shayboniyxon bilan birga Xirotda keldi va 1510 yilgacha ona shahrida istiqomat qildi. 1511 yili shaharga Ismoil Safaviy qo'shinlari yaqinlashishi bilan, u yana Movarounnahrda ketdi va Qarshi shahrida kun kechirdi. Kamoluddin Binoiy 1512 yili Qarshi mudofaachilari safida turib haharni Safaviylardan himoya qildi va o'sha jangda halok bo'ldi.

Kamoliddin Binoiy iste'dodli shoir va ulkan tarixshunos olim sifatida tarixda qoldi. U Markaziy Osiyo va Qozog'istonning XV asrning co'nggi choragi va XVI asrning boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda alohida qiymatga ega bo'lgan "Shayboniynoma" nomli tarixiy dostonini yozdi.

Binoiyning "Shayboniynoma" asari ham "Tavorixi guzida", "Nusratnoma" va Mulla Shodiyning "Fathnoma" asarlari bilan bir rejada yozilgan bo'lib, Shayboniyxon tavalludidan to Dashti qipchoq o'zbeklari tomonidan Movarounnahr va Xorazmni 1505 yili bo'ysundirilishiga qadar shu hududda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida hikoya qilinadi. Asar 1505-1507 yillar orasida yozilgan.

"Shayboniynoma"da 1450-1505 yillar orasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar qisqa, lekin aniq bayon etilgan. U muhim geografik, masalan, Sirdaryoning O'rta oqimida joylashgan Sabron, Sig'noq, Arquq, O'tror, Yassi, O'zgand, Oqqo'rg'on va Xorazmga tobe shaharlardan Urganch, Vazir, Buldumsoz, Adoq va boshqa joylar haqida hamda

etnografik, masalan Dashti qipchoqlik o'zbek qabilalari va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi mavqei haqidagi dalillarga boy asardir. Bundan tashqari, asarda Shayboniy amirlar va askardalarining faoliyati haqida muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin.

“Shayboniynoma” asari matni chop etilmagan. Lekin, uning qo'lyozma nusxalari ko'p tarqalgan. Faqat O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari xazinasida yetti mo'tabar nusxa mavjud. Bulardan biri №844 raqami bilan belgilangan eng qadimgi nushasi bo'lib, Shayboniyxon hayot chog'ida uning shaxsiy kotibi Muxammad Mo'min tarafidan ko'chirilgan, ayrim satrlari esa Shayboniyxonning o'z qo'li bilan ko'chirilgan. Yana bir e'tiborli tomoni qo'lyozma raqami № 3422 bo'lib, ushbu asarning xorazmlik mashhur tarixchi va tarjimon Muxammad Yusuf Bayoniy (1858-1923) tomonidan qilingan o'zbekcha tarjimasidir. Kitobdan ayrim parchalar rus tilidagi majmualarda e'lon qilingan.

3.“MEHMONNOMAYI BUXORO”

“Mehmonnomayi Buxoro” nomli nafaqat O'zbekiston va Qozog'iston, balki Markaziy Osiyoning XV asr II yarmi- XVI asr boshlaridagi voqealar bayoni mavjud qimmatli tarixiy asar ijodkori Fazlulloh ibn Ruzbexondir. Uning to'liq ismi Fazlulloh ibn Ruzbexon al-Isfaxoniy bo'lib, ko'pincha xoja Mullo nomi bilan mashhur bo'lgan.

Ro'zbexon 1457 yili Fors viloyatining Xunji qishlog'ida tavallud topgan. Otasi Jaloluddin Ruzbexon yirik ilohiyot va fiqh olimida mansabdor bo'lgan.

Fazlulloh ibn Ruzbexon asosiy ma'lumotni Isfaxon maktablari va madrasalaridan birida oldi, so'ng bilimni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida ikki marta 1474 va 1482 yillari Arabistonga bordi va yirik ilohiyot olimi shayx Jamoluddin Ardastoni (1474 yili vafot etgan) hamda misrlik mashhur tarixshunos va tilshunos olim Shamsuddin Muxammad as-Saqaviy (1427-1497)dan ta'lim oldi. Fazlulloh ibn Ruzbexon o'rta asr fanining birmuncha sohalarini, xususan, ilohiyot, fiqh, falsafa, tarix va Sharq adabiyotini keng va chuqur egallagan olim bo'lib yetishgan. Bu hol uning Sulton YA'qub Oqquyunlu (1479-1490), Sulton Husayn Mirzo (1470-1506), Shayboniyxon va nihoyat Ubaydullaxon

saroyida zo‘r e‘tibor qozondi va xizmat qildi. Bunda tashqari va eng muhimi, u bir necha fan sohalarida yirik asarlar yozib qoldirdi. Fazlulloh ibn Ruzbexon “Halli tajarrid” (“Abstraksiyaning hal etilishi”), “Ta‘liqot bar muxolot” (“Aqlga sig‘maydigan (narsalar)ning izoxi”), “Badi‘ uz-zamon fi qissayi Xayy ibn Yaqzon” (“Xayy ibn Yaqzon qissasida zamon badialari”), “Tarixi olamoroyi Aminiy” (“Aminiyning olamga bezak bo‘luvchi tarixi”), “Ibtol naj al-botil va axmol kashf al-o‘til” (“Noto‘g‘riyo‘ldan voz kechish va bid‘atni inkor etish”), “Suluk al-muluk” (“Podshohlarning xulq-atvori xaqida (risola)”) va “Mehmonnomayi Buxoro” nomli asarlarni yaratgan.

1509 yili yaratilgan “Mehmonnomayi Buxoro” asari Muhammad Shayboniyxonning 1508-1509 yil qish oylarida qozoq sultonlari Jonish Sulton, Ahmad Sulton va boshqalarning ulusi ustiga uyushtirgan harbiy yurishi tarixini bayon etadi. Bu yurish Fazlulloh ibn Ruzbexon keltirgan ma‘lumotlarga qaraganda, mazkur sultonlarning 1508 yilning kuzida va 1508-1509 yilning qish oylarida Movarounnahrning o‘troq tumanlari ustiga qilgan talonchilik hurujlariga javoban uyushtirilgan. Fazlulloh ibn Ruzbexon bu yurishda shaxsan ishtirok etgan, yuz bergan voqealarning ko‘pchiligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, ba‘zilarini esa xon va uning yaqin kishilaridan eshitgan. Asar XV asrning II yarmiga oid, shuningdek, o‘zbek va qozoq xon va sultonlarining kelib chiqishi hamda ularning o‘zaro munosabatlari haqidagi voqealar esa Shayboniyxonning qo‘lida bo‘lgan “Nasabnoma” yoki “Tarixi Humoyun” deb ataluvchi kitob asosida yozilgan.

“Mehmonnomayi Buxoro” asarining qo‘lyozma nusxalari kam. Hozirgacha dunyod uning faqat ikkkga nusxasi borligi aniqlangan. Ulardan biri muallif dastxati bo‘lib, O‘zP FA Sharqshunoslik institutida №1414 tartib raqami ostida saqlanmoqda. Ikkinchisi Turkiyada, “Nuri Usmoniya” kutubxonasiga qarashlidir (tartib raqami №3431). Ushbu qo‘lyozma asosida asar matnini eron olimi Manuchehr Setude 1962 yili chop etgan. Ruscha kisqartirilgan tarjimasini R.P.Jalilova foto matni bilan Moskvada 1976 yili nashr etgan.

Asarning biz uchun qimmat shundaki, unda Dashti qipchoq, Turkiston va qozoq ulusi geografik holati, o‘zbek va qozoqlarning kelib

chiqishi, ularning etnik tarkibi, turmushi tarzi, urf-odatları, shuningdek, boylarning xo‘jaligida qo‘l mehnatidan foydalanish hollari xaqida benihoyat qimmatli ma‘lumotlar uchraydi.

Unda Shaybonnyxonning qozoqlar ushiga yurishini g‘ayridinlar ustiga yurish deb oqlashga harakat qilingan.

3. “HABIB US-SIYAR”

“Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar” (“Inson xabarlari va fardlarida do‘stining tarjimai holi”) nomli mashhur tarixiy asar muallifi G‘iyosiddin Xondamirdir (1475-1535). Uning to‘liq ismi G‘iyosiddin Muxammad ibn xoja Burxoniddindir. Otasi xoja Humomiddin Muxammad Temuriylardan Sulton Maxmud Mirzo (1459-1494 yillari Chag‘oniyon, Xuttalon, Qunduz, Bag‘lon va Badaxshon hokimi)ning vaziri bo‘lgan. Ona tarafidan tarixchi Muxammad Mirxond nabirasidir.

Xondamir 15-16 yoshdaligi chog‘ida Alisher Navoiyning e‘tiborini qozonadi va uning kutubxonasiga xizmatga qabul qilinadi. U to Navoiy vafotiga qadar, ya‘ni 1501 yil 3 yanvarigacha xizmatda bo‘ldi va uning boy kutubxonasiga mutasaddilik qildi. Xondamir o‘zining keng va chuqur ma‘lumotlilik, ilm-fanga chanqoqligi va salohiyati bilan ko‘plarning tahsiniga sazovor bo‘ldi. U haqida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida mana bularni o‘qiymiz: “Mavlono Xondamir Mirxondning farzandidir va salohiyatli yigitdir. Tarix ilmida maxorati bordir” (Alisher Navoiy. Asarlar. 12-jild.-Toshkent: 1966.-125-bet.).

Alisher Navoiy vafot etgandan keyin Xondamir mamlakatda kuchayib ketgan o‘zaro kurash, ayniqsa saroyda avjiga mingan fisqu fujurlar oqibatida Balxga ketib qoldi va Badi‘uzzamon mirzo (1496-1506 yillari Balx hokimi, 1517 yilda vafot etgan)ning shaxsiy kotibi sifatida xizmatiga qildi. 1507 yili Xirof Shayboniyxon tomonidan ishg‘ol etilgandan keyin, u Zahiriddin Muxammad Bobur huzuriga boradi. 1512 yili Bobur Movarounnahrda siqib chiqarilgach, Xondamir Garjistonga bordi va to 1514 yilgacha Pasht qishlog‘ida istiqomat qildi. U asosan, ilmiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘ldi.

1514-1517 yillari Xondamir Balx uchun kurash olib borgan Badi‘uzzamon mirzoning o‘g‘li Muxammad Zamon bilan birga bo‘lib,

uning kotibi sifatida xizmat qildi. Muxammad Zamon Safaviylardan yengilgach, Xondamir yana Garjistonga qaygib bordi va ilmiy faoliyatini davom ettirdi.

1521 yili Xondamir vazir Xabibullo Sovajiyning taklifi bilan Xirotga qaytib bordi va uning topshirig'i bilan o'zining yirik tarixiy asari "Xabib us-siyar"ni yozishga kirishdi. Oradan olti yil o'tgach, 1527 yilning iyul oyida Xondamir Xirotni tark etdi va bu safar Xindistonga bordi. Qishni u Qandahorda o'tkazdi va 1528 yilning 17 sentabrida Agraga kelib tushdi va Bobur xizmatiga qabul qilindi. Bobur vafotidan so'ng uning to'ng'ich o'g'li va taxt vorisi Xumoyun (1530-1542, ikki marta 1555-1556) bilan birga bo'ldi. Tarixchi Dehlida vafot etdi va vasiyatiga ko'ra mashhur Nizomuddin Avliyo mozorida Amir Xusrav yoniga dafn etildi.

Xondamir sermahsul olim edi. Movarounnahr, Turkiston, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari tarixi va madaniyatiga oid o'nga yaqin asar yozib qoldirgan. "Xulosat ul-axbor" ("Xabarlar xulosasi"), "Maosir ul-muluk" ("Podshohlar asrdoshlari"), "Nomayi nomiy" ("Atoqli maktublar"), "Makorim ul-axloq" ("Olijanob xulqlar"), "Dastur ul-vuzaro" ("Vazirlarga qo'llanma"), "Qonuni Xumoyuniy" ("Xumoyun qonunlari") va "Xabib us-siyar" shular jumlasidandir. Xondamirning ilmiy merosida "Xabib us-siyar" nomli yirik tarixiy asari alohida o'rin tutadi va Movarounnahr hamda Xurosonning XV asr oxiri va XVI asrning I choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda muhim va qimmatli manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Asar 1521-1524 yillar orasida yozilgan. Lekin, olim Xindistonda turgan yillari ham asari ustida muntazam ish olib bordi, uni yangi dalillar bilan boyitdi, tahrir qildi. Kitob to'la ravishda 1529 yili yozib tamomlandi. "Xabib us-siyar" umumiy tarix yo'nalishidagi asar bo'lib, muqaddima (iftitoh), xotima (ixtitom) va uch jild (mujallad)dan iborat. O'z navbatida har bir jild to'rt qism (juz)ga bo'linadi. Asarning I-II jildlari hamda III jildning 1-2- qismi, juzlari Turkiston xonlari, Chingizxon va uning Mo'g'uliston, Dashti qipchoq, Movarounnahr va Eronda xukmronlik qilgan avlodi, Mamlyuklar (Mamlyuklar - turk va cherka qullaridan chiqqan sulola, 922-1217 yillari Misrni idora qilgan.), Kirmon Qoraxitoylari, Kartlar va Xuroson sarbadorlari tarixini o'z ichiga oladi. III jildning 3- va 4- qismlari, juzlari esa yangi bo'lib, Xuroson va

Movarounnahrning XV asrning 90- yillaridan to 1524 yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy ahvolini chuqur va atroflicha bayon etadi.

“Habib us-siyar” asarida katta yer egaligi, iqtisodiy ahvol, tinimsiz urushlar tufayli vujudga kelgan sharoit to'g'risida ayrim, diqqatga sazovor dalillar va ma'lumotlarni uchratamiz. Masalan, asarda o'z aksini topgan 1498 yilgi Samarqand qamali paytidagi shahar xalqining ayanchli ahvoli, 1512 yilgi Safaviylar tomonidan Qarshi shahrida uyushtirilgan qirg'in-qatliom, 1514, 1515 yillari Hurosonda yuz bergan qahatchilik va ochlik haqidagi ma'lumotlar ana shular jumlasidandir. Xondamirning ushbu asarida muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid, yer egaligi, tarxonlar, suyurg'ol egalari va ularning jamiyatda tutgan mavqei, Temuriylar davlatining ma'muriy tuzilishi haqida muhim ma'lumotlar bor. Shuningdek, asar etnografik va geografik ma'lumotlarga ham boydir. “Habib us-siyar” asarining qo'lyozma nusxalari ko'p. Asarning matni 1857 yili Bombay shahrida va 1954 yili Tehronda chop etilgan. Undan ayrim parchalar rus, fransuz va ingliz tillarida turli to'plamlarda e'lon qilingan. Xondamir ijodini O'zbekistonda B.Axmedov, D. Yusupova, M. Axmedov va boshqalar tadqiq etganlar.

4. “TARIXI RASHIDIY”

“Tarixi Rashidiy” (1544-1546 yillarda Kashmirda yozilgan) nomli mashhur asar muallifi Boburning kichik xolavachchasi Mirzo Muxammad Haydar bo'lib, uning ota-bobolari O'rtubu, Po'lodchi, Xudoydod, Said Ahmad, Sonsiz Mirzo, Muxammad Haydar, Muxammad Husayn turklashgan mo'g'ul urug'laridan dug'lot (murulcha “dog'olot”-cho'loq) qabilasiga mansubdir. Ular Mo'g'uliston xonlari, Chig'atoylar davrida ulusbegi, Qoshg'ar hokimi lavozimida turganlar. Olimning otasi amir Muxammad Husayn bir vaqtlar Andijonda Umarshayx Mirzo, so'ngra Toshkent xokimi Sulton Maxmudxon (1487-1503) xizmatyda bo'lgan. U 1495-1503 yillarda ana shu Sulton Maxmudxon nomidan O'ratepani idora qilgan. 1503 yili Sulton Maxmudxon va Sulton Axmadxon Axsi atrofida Shayboniyxon qo'shinlari tomonidan tor-mor keltirilgani va asir olingan. Ko'tmay Qobulga, Bobur Mirzo huzuriga keldi. 1507 yilgi Boburga qarshi fitnada ayblanib, yana Hirotga qochib bordi. 1508 yili Shayboniyxonning

amri bilan Muxammad Husayn qatl etilgan.

Muxammad Xaydar 1500 yilda Toshkentda tug'ildi. Otasining o'ldirilganidan keyin Muxammad Xusaynga sodiq kishilar uni birmuncha varqi Buxoroda asradilar, so'ng Badaxshonga olib borib qarindoshi Sulton Uvays Mirzoning (Xon Mirzo deb atalgan) qo'liga topshirdilar. Muxam Xaydar keyincha Qobulga keldi va Bobur xizmatida 1512 yilgacha bo'ldi. 1512 yil kuzida u Andijonga, Sulton Sa'idxon xuzuriga keldi va u bilan qo'shib Qoshrga ketdi. Sulton Sa'idxon ko'p o'tmay bu yerda Abubakr dug'lot ustidan g'alaba qozondi va Qoshg'ar hamda Yorkandni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Muxammad Xaydar 1533 yilgacha, ya'ni Sulton Sa'idxon vafotiga qadar, uning xizmatida bo'ldi. Dastlab xonzoda Abdurashidxonga tarbiyachilik-otalik qildi, so'ng yirik harbiy bo'linmalarga qomondonlik qildi va xonning Badaxshon, Lodak, Tibet ustiga qilgan harbiy yurishlarida faol ishtirok etdi. Otasi o'rniga taxtga o'tirgan Abdurashidxon (1533-1570) dug'lot amirlarini ta'qib ostiga oldi, ularning ba'zilarini qatl etdi. Bularning orasida Muxammad Haydarning tog'asi Said Muxammad mirzo va qarindoshlarining ko'pchiligi bor edi. Tibetda bo'lgan Muxammad Xaydar bundan xabar topib, Badaxshon tarafga qochdi va ko'p mashaqqatlardan keyin Qobulga, Bobur Mirzoning o'g'illaridan Komron Mirzo xuzuriga keldi, so'ng u yerdan Agraga, Humoyun podshoh huzuriga bordi va uning xizmatiga kirdi.

Muxammad Xaydar 1541 yili, Xumoyunning harbiy yordami bilan Kashmirni bo'ysundirdi va u yerda qariyb 10 yil hukmronlik qildi. U 1551 yili tog'lik qabilalarning biri bilan bo'lgan to'qnashuv paytida halok bo'ldi.

Muxammad Xaydar zamonasining o'qimishli va keng ma'lumotli kishilaridan edi. Boburning guvohlik berishiga qaraganda, u durustgina shoir, xattot, rassom, shuningdek, nayza va kamon yasovchi usta bo'lgan.

Muxammad Haydarning bizning zamonamizgacha ikki yirik asari yetib kelgan. Bulardan biri "Jahnnoma" deb atalib, ertak tarzida yozilgan. Uning yagona qo'lyozmasi Germaniyaning Berlin shahri kutubxonalaridan birida saqlanmoqda.

Olimning ikkinchi yirik va mashhur asari "Tarixi Rashidiy" dir.

Kitob ikki qism, daftardan iborat bo'lib, birinchi qismida Mo'g'uliston xalqarining tarixi Turlug' Temur (1348-1363)dan to Abdurashidxonning taxtga utirguni (1533 y.)gacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Asarning birinchi daftari turli naql-rivoyatlar, shuningdek, Yoqut Xamaviyning "Mu'jam ul-buldon", Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy", Rashiduddin "Jome ut-tavorix", Jamol Qarshiyning "Mulhaqot us-suroh", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Mirzo Ulurbekning "Tarixi arba' ulus" va nihoyat, Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' us-sa'dayn" kitoblaridagi ma'lumotlar asosida yozilgan. Lekin, unda xam Markaziy Osiyoning XI-V-XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangi, asl nusxada bo'lmagan ma'lumotlar ko'p. Qolaversa, birinchi aftar Qoshg'ar, Qozog'iston, shuningdek, Movarounnahr va Turkistonning XIV-XVI asr boshlaridagi siyosiy tarixini mukammal qamrab olishi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchi daftar birinchisidan keskin farkqli o'laroq esdalik, xotiralar tarzida yozilgan bo'lib, Qoshg'ap, Movarounnahr, Afg'oniston hamda Shimoliy Xindistonning XVI asrning I yarmidagi tarixini o'rganishda asosiy va qimmatli manbalardan hisoblanadi. Muxammad Haydar va uning "Tarixi Rashidiy" asari o'tgan asrning o'rtalaridan beri ilmiy jamoatchilikning e'tiborini jalb etib keladi. Uning ayrim qismlari uyg'ur, o'zbek va rus tillariga tarjima qilingan. Asarning qisartirilgan inglizcha tarjimasi bo'lib, 1895 yili Londonda nashrdan chiqqan. A.O'rinboyev, R.Jalilova va L.Yepifanova rus tiliga tarjima qilib, so'z boshi va zarur izohlar bilan, 1996 yili Toshkentda chop etgan. Kitob qozoq tiliga ham tarjima qilinib nashr etilgan.

"Tarixi Rashidiy" asarining qo'lyozmalari Sankt-Peterburg, Toshkeng, shuningdek, ko'pgina xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmokda.

5. "ABDULLANOMA"

"Abdullanoma" yoki "Sharafnomayi shohiy" asarining ijodkori XVI asrda yashab o'tgan shoir va yirik tarixchi olim Hofiz Tanish Buxoriydir. U 1549 yili Buxoroa nufuzli mansabdor xonadonida dunyoga kelgan. Otasi

Mir Muxammad al-Buxoriy Buxoroning ko'zga ko'ringan boyonlaridan bo'lib, shayboniy Ubaydullaxonning yaqin kishilaridan bo'lgan, 1550 yilning boshlarida Qoshg'arga kelgan va oradan ikki yil vaqt o'tgach, o'sha yurtida vafot etgan. Hofiz Tanish Buxoriy o'z davrining chuqur va keng ma'lumotli kishilaridan bo'lib, 1584 yili Abdullaxon soniyning (1583-1598 yy.) yaqin Odami Qulbobo ko'kaltoshning tavsiyasi bilan xonning xizmatiga qabul qilingan va uning shaxsiy voqeanavisi, tarixchisi vazifasiga tayinlangan. Hofiz Tanish Buxoriy umrining oxirigacha shu lavozimda ishlagan. Maleho Samarqandiyning ma'lumotiga ko'ra, Hofiz Tanish 1589 yili xotini tarafidan zaharlab o'ldirilgan.

Hofiz Tanish o'zining "Abdullanoma" yoki "Sharafnomayi shohiy" asari bilan nom chiqargan. Kitobda O'rta Osiyo, Qozog'iston, shuningdek, qisman, Afg'oniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon qilinadi. Bundan tashqari, asarda Buxoro xonligi bilan Eron, Xindiston, Qoshg'ap va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor. Asar XVI asrning 80-yillari oxirida yozib tamomlangan. Hofiz Tanishning zamondoshi shoir va adabiyotshunos olim Mutribiyning guvohlik berishiga qaraganda, asarning oxirgi qismini, xonning topshirig'i bilan, qozi Poyanda Zominiy (1602 yili vafot etgan) yozgan. Lekin, bu fikrni boshqa manbalar tasdiqlamaydi.

"Sharafnomayi shohiy" muallifining rejasiga ko'ra asar muqaddima, ikki qism yoki maqola va xotimadan iborat qilib yozilishi mo'ljallangan. Masalan, muqaddima, odatdagidek Allohning madxu sanosi, homiy, oliy xukmdor Abdullaxonning sha'niga aytiladigan ta'rifu tavsif, asarning yozilishi tarixi, xonning ota-bobolari, qadimda Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turk-mo'g'ul qavmlari, Chingizxon va uning avlodi haqida ma'lumot, birinchi maqolada Movarounnahrda 1533-1583 yillar orasida sodir bo'lgan voqealar, ikkinchi maqolada esa O'rta Osiyo, Qozog'iston va qo'shni xorijiy mamlakatlarda 1583 yildan keyin yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar, xotim ada esa Abdullaxonning olijanob fazilatlari, uning bilan zamondosh bo'lgan shayx, olim, shoir, vazir va amirlar, shuningdek, Abdullaxon zamonida qurilgan binolar haqida ma'lumot berishi mo'ljallangan. Lekin, asar yozilishi jarayonida reja o'zgargan - birinchi va ikkinchi maqolalar qo'shib yozilgan, xotima esa

muallifning bevaqt vafoti sababli yozilmay qolgan.

Muallif asar muqaddimasini yozishda Narshaxiyning “Tarixi Buxoro”, shayxulislom Safiuddin Abubakr Abdullo Balxiyning “Fazoili Balx”, Istaxriyning “Kitob masolik ul-mamolik”, Juvayniyning “Tarixi jaxonkushoy”, Rashiduddinning “Jome ut-tavorix”, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Sharafudsin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” va Muxammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarlarida keltirilgan ma’lumotlardan foydalangan. XVI asrning 30-60 yillari orasida yuz bergan voqealar saroyda muntazam yuritib turiladigan kundalik daftar, sodir bo’lgan muhim siyosiy voqealarning shoxidi bo’lgan kekxa kishilarning og’zaki axborotlari asosida, 70-80 yillar voqealari esa muallifning bo’lib o’tgan voqealarda shaxsan o’zi qatnashib to’plagan daliliy ma’lumotlar asosida yozilgan. “Sharafnomayi shoxiy” asari qofiyali nasr, ya’ni saj – murakkab badiiy uslubda yozilgan. Unda Firdavsiy, Rudakiy, Sa’diy, Kamoliddin Binoiy, Mushfiqiy va muallifning o’z she’rlari, “Qur’oni Karim” oyatlari, “Hadisi sharif”lardan parchalar xam ko’p. Kitobda siyosiy voqealar bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy mavzudagi ma’lumotlar, masalan, 1) yer egaligining iqto, suyurg’ol, tanhoh kabi shakllari, turli-tuman soliq va jarimalar, masalan, xiroj, ixrojot, tag’or, ulufa, qo’nalg’a, madadi lashkar, boj, tamg’a, begar; 2) o’lja va uning jamiyatdagi o’rni, asirni qulga aylantirish hollari; 3) O’rta Osiyoning yirik shaharlari va hunarmandchilikning umumiy axvoli; 4) Shayboniylar davlatining ma’muriy tuzulishi, Buxoro xonligi bilan Rossiya, Hindiston va Qoshg’ar o’rtasidagi munosabatlar xamda qimmatli dalil va ma’lumotlar mavjud. Bundan tashqari, asarda Hindiston va Qoshg’ar o’rtasidagi munosabatlar haqda qimmatli dalil va ma’lumotlar mavjud. Bundan tashqari, asar etnografik, masalan, o’zbek xalqi tarkibiga kirgan urug’ va qavmlar nomlari hamda topografik ma’lumotlar, masalan, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Termiz, Kulob, Balx kabi yirik shaharlardagi diqqatga sazovor bino, osori atiqalar, shuningdek, mazkur shaharlarning geografik holati va topografiyasi xaqidagi axborotlarga nihoyatda boydir. Ushbu asarning qo’lyozma nusxalari ko’p, asl matnining uchdan ikki qismini Sankt-Peterburglik olim M.Salohutdinova rus tilidan tarjimasini chop etgan. Kitob 1942-1952 yillari Sodiq Mirzayev va oxirgi qismi Y. Hakimjonov

tomonidan 60 yillarda o‘zbek tiliga tarjima qilinib, 1 -2 jildlari, zarur tuzatishlar, tadqiqot va izohlar bilan 1966 va 1969 yillarda B.Axmedov tomonidan chop qilingan. 3-4 jildlari bosilmay qolgan edi. 1995-1997 yillarda ikki kitob holida B.Axmedov tomonidan so‘zboshi va ilmiy izohlar bilan nashr etildi.

6.“AKBARNOMA”

“Akbnarnoma” yoki “Iqbolnoma” nomli asar muallifi Abulfazl Allomiydir. U XVI asrda Hindistonda yashagan yirik tarixnavis olim va davlat arbobidir. Olimning ismi Abulfazl ibn Muborak bo‘lib, bilim doirasi juda keng bo‘lgani uchun Allomiy, bilimlar sohibi deb atashganlar. U 1551 yil 14 yanvarda Agrada tug‘ilgan. Otasi shayx Muborak ibn Xizr o‘z davrining mashhur ilohiyot olimlaridan hisoblangan. Akasi Abulfayz yirik shoir bo‘lgan, Fayziy taxallusi bilan she‘r yozgan. Abulfazl Allomiy 1574-1602 yillari Boburning nabirasi Jaloluddin Muxammad Akbar (1556-1605 yy.)ning bosh vaziri bo‘lgan va Xindistonning XVI asrning II yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o‘ynagan. 1602 yil 22 avgustda Dekan subasidan qaytib kelayottanida shahzoda Sulton Salim, bulg‘usi Jahongir yollagan qotil tomonidan yo‘l ustida o‘ldirilgan.

Abulfazl Allomiyni asosiy asari “Akbnarnoma” Hindiston va Afg‘onistonning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan bahs yuritadi. Ma‘lum darajada “Vaqoye’” asarini davomi sifatida yaratilgan bu ulkan asar uch kitobdan iborat. Birinchi kitobda Akbarning tug‘ilishi, otabobolari - Bobur, Humoyun, shuningdek Akbar podshoxligining dastlabki 17 yil ichida bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon qilinadi. Ikkinchi kitob Hindiston va qisman Shimoliy Afg‘onistonning 1573-1601 yillardagi tarixini o‘z ichiga oladi. Uchinchi kitobda Boburiylar davlatining tuzilishi, Xindistonning ma‘muriy tarkibi, aholidan yig‘iladigan soliq hamda jarimalar va ularning miqdori, hindlarning dini va urf-odatlarini kabi masalalarga keng o‘rin berilgan. Uchinchi kitob mustaqil mazmunga ega va u “Oyini Akbari”, ya‘ni “Akbar qonunlari” nomi bilan ataladi. “Akbnarnoma” asarining matni 1872-1877 yillarni, G.Beverij tomonidan ingliz tiliga qilingan tarjimasi 1903-1921 yillari Kalxuttada chop etilgan. “Akbnarnoma” Boburiylar saroyida muntazam yuritilgan maxsus kundalik daftar, rasmiy davlat hujjatlari, shuningdek, bo‘lib o‘tgan

voqealarning ishtirokchilari bolgan, yoki o'sha voqealarni bilgan kishilarning og'zaki axborotlari asosida yozilgan. Asarning noyoblighi va ahamiyati ham shundandir. Abulfazl Allomiy asari Boburiylar davlati va Buxoro xonligi o'rtasidagi siyosiy va madaniy munosabatlarni o'rgannshda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

7.“XAFT IQLIM”

“Xaft iqlim” ya'ni, “Yetti iqlim” nomli geografik-biografik asarining ijodkori mashhur adabiyotshunos olim Amir Ahmad Roziydir. U asli Eronning Ray shahridan, badavlat va o'qimishli xonadondan chiqqan. Amir Ahma d Roziy o'z asarini 1594 yili tugatgan bo'lib, unda VII asrdan to XVI asr oxirigacha yetti iqlim mamlakat va shaharlarida istiqomat qilgan 1560 nafar yirik shayx, olim, yozuvchi, shoir va davlat arboblari haqida qisqa, lekin qimmatli ma'lumotlar beradi. Muallif o'zigacha bo'lgan davrga tegishli masalarni yoritishda “Suvar al-aqolim” (“Iqlimning ko'rinishi”), “Masolik ul-mamolik” (“Mamlakatlar orasidagi masofalar”), “Tarixi Banokatiy” kabi asarlarga tayangan, lekin ulardan tanqidiy foydalangan, ularni yangi dalillar va ma'lumotlar bilan boyitgan.

Shahar va mamlakatlarni tavsif qilganda ularning geografik o'rni, diqqatga sazovor joy, osori atiqalari, xalqi va uning hayoti, mashg'uloti va urf-odatlarini, ba'zida aholisining umumiy soni, xo'jaligiga oid qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Masalan, Chingizxon xurujidan avval Balxda 50 mingdan ortiq odam istiqomat qilgan, XV-XVI asrlarda Toshkent atrofidagi tog'larda temir, firuza, ohak konlari, Xo'jandda firuza, Badaxshonda la'l konlari ishlab turgan. “Xaft iqlim”da Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodi davrida Hindiston va O'rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Sharqiy Turkiston, Qoshg'arning XVI asr II yarmidagi umumiy ahvoli haqidagi zarur ma'lumotlarni uchratish mumkin. Asarda VII-XVI asrlarda O'rta Osiyo va Xurosonda o'tgan yirik olim va shoirlar haqidagi ma'lumotlar o'ta muhimdir. Bular orasida “shoirlar podshohi” Rashiduddin Votvot (1088-1182), “Olimlar faxri” Abulqosim Maxmud ibn Umar Zamaxshariy (1074-1144), buxorolik buyuk hadis olimi Abu Abdullox, Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870)lar bor.

“Xaft iqlim” asarining qo'lyozma nusxalari mumlakagimizda va xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida ko'p, leknn hali to'liq nashr

qilinmagan. Undan tarixchilar yordamchi manba sifatida foydalanishi mumkin.

8. “BAHR UL-ASROR”

“Baxr ul-asror fi manoqib ul-ahyor”, ya’ni, “Olijanob kishilarning jasorati xaqidagi sirlar dengizi” nomli asar muallifi XVII asrda o‘tgan balxlik yirik qomusiy olim Maxmud ibn Validir. Uning otasi Mir Muxammad Vali asli farg‘onalik, kosonlik bo‘lib, Shayboniylardan Pirmuxammadxon avval (1546-1567 yy.) davrida Balxga borib yashagan. U o‘qimishli va keng ma’lumotli kishi bo‘lib, asosan fiqx ilmida zamonasining peshqadam kishilardan hisoblangan. U Mir Xislat taxallusi bilan she’rlar xam yozgan.

Maxmud ibn Valining amakisi Muhammad Poyanda (1602 yili vafot etgan) Samarqand hokimi Boqi Muxammad (1603-1606 yillari Buxoro xoni) devonida xizmat qilgan. Akasi amir Abulboriy esa fiqx, tafsir va tibb ilmini yaxshi egallagan olim kishi bo‘lgan.

Maxmud ibn Vali 1596 yili tug‘ilgan. 19 yoshga borganda, ya’ni 1614 yili u yirik fiqx, va xadis olimi Mirakshox Xusayniyning xizmatiga kiradi va deyarli o‘n yil undan saboq oladi. Mirakshoh, Xusayniyning boy kutubxonasi bo‘lib, unda, Maxmud ibn Valining so‘zlariga qaraganda, tarix, geografiya, mumtoz adabiyot, fiqh, hadis va boshqa ilmlarga doir juda ko‘p kitoblar saqlanar edi. Bu ilmga chanqoq yosh olim uchun bebaho xazina bo‘ldi, albatta. Keyinchalik Maxmud nbn Valining o‘zi kutubxonadagi ko‘p kitoblarni o‘qib foyda topganini aytadi.

Mirakshoh, Xusayniy vafot etgan 1624 yil 13 aprel kunidan keyin Maxmud ibn Vali kitobiy ilmini amaliy bilimlar bilan boyitish maqsadida boshqa mamlakatlarga sayohat qilishga qaror qildi va bir yillik tayyorgarlikdan keyin, 1625 yilning iyul oyida savdo karvoniga qo‘shilib Hindiston tomon yo‘l oldi. U Hindistonda yetti yil istiqomat qildi va uning Peshovar, Lohur, Dehi, Agra, Xaydarobod, Vijayanagar, Kalkutta, Bihar kabi qator yirik shahar va o‘lkalarni borib ko‘rdi va ularning aholisi, xalqining urf-odati, tarixi, madaniyati, va nihoyat, osori atiqalari haqidagi qimmatli ma’lumotlar to‘pladi.

1631 yil 20 avgustda Balxga qaytib kelgandan keyin Nadr Muxammadxon (1606-1642 yillari Balx, 1642-1645 yillari Buxoro

xoni)ning xizmatiga kirdi va to umrining oxirigacha uning kutubxonasida kitobdor bo‘lib xizmat qildi. Maxmud ibn Valining qachon vafot etganligi ma’lum emas.

Maxmud ibn Vali fanning juda ko‘p sohalarini, tarix, geografiya, ilmi nujum, ma’danshunoslik, botanika va boshqa sohalarini qamrab olgan “Bahr ul-asror fi manaqib ul-ahyor” yoki “Bahr ul-asror” nomli o‘ta qimmatli qomusiy asarini yaratdi. Bundan tashqari u qator ilmiy va badiiy asarlar yaratgan bo‘lib, ular bizgacha yetib kelmagan.

1634-1640 yillar orasida yozilgan “Bahr ul-asror” asari mundarijasida ko‘rsatilnshicha, yetti jilddan iborat bo‘lgan. Uning II-VII jildlari jahon tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, O‘rta Osiyo va u bilan qo‘shni mamlakatlarning qadim zamonlardan to 1640 yilgacha kechgan tarixidan bahs yuritadi. Asarning birinchi jildi ilmi nujum, geografiya, ma’danshunoslik va botanika fanlariga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Afsuski, bu muhim va qimmatli asarning fakat I va VI jildlarigina topilgan, xolos.

Asarning I jildida yetti iklim mamlakatlarining, shuningdek, O‘rta Osiyoning o‘rta asrlardagi shahar va viloyatlarining geografik holati, xalqi va uning turmush tarzi haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

“Bahr ul-asror”nnng VI jildi alohida qimmatga ega. Unda XSH-XUP asrning I yarmida Chog‘atoy ulusi, O‘rta Osiyo, Mo‘g‘uliston va Shimoliy Afg‘oniston tarixi keng va atroflicha yoritilgan.

Maxmud ibn Vali va uning mazkur asari ilmiy jamoatchilikka 1902 yildan beri ma’lum bo‘lsa-da, hali juda kam o‘rganilgan. Undan ayrim parchalarning rus tiliga tarjimasi V.V.Bartold, B.A.Axmedov va K.A.Pishulina tomonidan e‘lon qilingan.

“Bahr ul-asror” asarining olti nafar qo‘yozmasi mavjud. Ularning to‘rttasi O‘zR FA Sharqshunoslik institutida I jild va VI jildning 1 -3 qismlari, ikkitasi esa Angliya va Pokistonda, VI jildning 4 qismi saqlanmoqda.

9.“UBAYDULLANOMA”

“Ubaydullanoma” XVII asrda yashab o‘tgan Mir Muxammad Amin Buxoriy asaridir. U o‘qimishli va fozil kishilardan bo‘lib, 1645 yilda tug‘ilgan vafot etgan yili ma’lum emas. Ashtarxoniylardan Subxonqulixon

va Ubaydullaxon (1702-1711) saroyida bosh munshiylik vazifasida xizmat qilgan.

“Ubaydullanoma” Buxoro xonligining 1702-1716 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqida hikoya qilinadi. Asar 1716 yildan keyin yozilgan, muqaddima, xotima va 80 bobdan iborat.

Muqaddimada muallifning hol-ahvoli, ya’ni Subxonqulixon hukmronligining so‘nggi yillarida xizmatdan chetlashtirilib, og‘ir ahvolga tushib qolganligi va Ubaydullaxon xizmatiga qabul qilinishi, Abdulazizxon va Subxonqulixon davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli bayon qilingan.

1-80 boblarda Buxoro xonligining qariyb 15 yillik (1702-1711) ijtimoiy-siyosiy tarixi batafsil yoritilgan. Muallif mazkur asarida katta yer egaligi, aholidan yiriladigan soliq va jarimalar, Buxoro xonligining ma’muriy tuzulishi, tarqoqlikning kuchayishi, mamlakat boshiga tushgan iqtisodiy qiyinchiliklar va uning ayrim sabablari kabi masalalarga keng o‘rin bergan. Asarda geografik va etnografik ma’lumotlar xam ko‘p.

Xotimada muallif bilan zamondosh bo‘lgan va Buxoroda istiqomat qilgan olim, shoirlar, masalan, Sayido Nasafiy, Qosimxoja, mulla Sarfarozi, Fitrat, Mulham, mashhur qozilar haqida qisqacha, lekin e’tiborga molik ma’lumotlar keltirilgan.

“Ubaydullanoma” asarining 10 dan ortiq qo‘lyozma nusxasi mavjud. Asar A.A.Semenov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va 1957 yili Toshkentda nashr qilingan.

10. “TARIXI SAYYID ROQIM”

“Tarixi kasira” yoki “Tarixi sayyid Roqim”, “Tarixi sayyid Roqim Samarqandiy” nomlari bilan mashhur bo‘lgan asarni Mulla Sharafuddin Alam yaratgan, U XVII asrning II yarmi va XVIII asrning I choragida yashab o‘tgan shoir va tarixchi olimdir. V.R.Rozen va A. A.Semenovlar keltirgan ma’lumotlarga qaraganda, Mulla Sharafuddin A’lam asli andijonlik, yoshlik paytida Samarqandga, otasi huzuriga kelgan. Otasining ismi mullo Nuriddin bo‘lib, xalq orasida oxund mulla Farhod nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Mulla Sharafuddin yoshligidan mehnatsevar va ilmga chanqoq bo‘lgan. Otasining yordami bilan yaxshi o‘qidi, turli ilmlarni kasb etdi va

keng ma'lumotli olim va shoir bo'lib yetishdi. V.R.Rozen va A.A.Semenovlarning tadqiqotlaridan anglashilishicha, mulla Sharafuddin Samarqandning eng ma'lumotli olimlaridan mulla Boqijon Buxoriyning xizmatida bo'lgan va uning vafotidan keyin o'rniga a'lamlik vazifasiga o'tirgan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, ustozilik mansabida ham turgan.

Olim "Tarixi kasira" asari bilan mashhur. Unda mashhur shaxslarning hayotiga oid mamlakatda bunyod etilgan katta binolar, usti yopiq bozor, tim, hammom qurilishi va mashhur kishilar hayoti bilan bog'liq sanalarga bag'ishlangan tarix-xronogrammalar majmuidan iboratdir. U Amir Temur tavalludi (1336)dan to XVIII asrning o'rtalarigacha kechgan voqealarni o'z ichiga oladi.

"Tarixi kasira" asariing qo'lyozma nusxalari va toshbosma nashrlari ko'p. Asarning birinchi toshbosma nashri olim va yirik davlat xizmatchisi Mirza Salimbek tarafidan 1913 yili Toshkentda amalga oshirilgan. Mazkur asar "Tarixi Tomm" nomi bilan 1998 yili bosmadan chiqqan.

"Tarixi kasira" ba'zi muhim voqealar tarixini aniqlashda qimmatli manba rolini o'ynaydi. Dalil sifatida bir necha misollar keltiramiz.

Yirik tarixnavis olim va vazir Rashiduddinning o'ldirilishi voqeasi 1318 yil 27 oktabr kuni sodir bo'lgan. Shoir Kamol Xo'jandiyning vafoti 1391 yili yuz berdi.

Amir Temur zamonida o'tgan yirik alloma Taftazoniy haqida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: 1322 yili tavallud toptan. 18 yoshida G'ijduvonda "Sharhi Zandoniy" asarini yozgan. 1347 yilning 10 iyun kuni Jom viloyatida "Sharhi mulaxxas al-miftox" kitobini yozib tamomlagan.

1373 yil 23 may kuni Samarqandda "Maqosid ul-kalom va sharhi maqosad" kitoblarini yozib tamomlagan. Vafoti 1392 yili sodir bo'ldi.

"Tarixi kasira"da Amir Temur davrida o'tgan yana bir yirik olim Mir Sayyid Sharif Jurjoni haqida quyidagilarni o'qiymiz: Asli Mozandaroniing To'un qishlog'idan. 1377 yili tug'ilgan. Sherozdagi "Dor ush-shifo" o'quv yurtida mudarrislik qilgan. Amir Temur Sherozni ishg'ol qilgan 1393 yili Samarqandga ko'chib kelgan va hazrat soxibqironiing inoyat va marhamatlariga sazovor bo'lib, uning saroyida xizmat qilgan. 76 yoshida Sherozda vafot etgan.

Movarounnahrlik ilohiyot olimi xoja Muxammad Porsoning vafoti

1419 yili yuz bergan.

Mirzo Ulurbekning birinchi muallimi shayx Ozariy, haqiqiy ismi Hamza ibn Abdulmalik at-Tusiy 1440 yili vafot etgan. “Tarixi kasira”da uning haqida yana quyidagilar aytiladi: Otasi sarbadorlar jamoasiga mansub bo‘lgan. O‘z davrining yetuk olimi va shoirlari jumlasidan bo‘lgan. She‘rlari mashhur bo‘lib, nazm va nasrda bir necha asar yozib qoldirgan. “Javohir al-asror”, “Tug‘royi humoyun” va “Ajoyib ul-g‘aroyib” shular jumlasidandir.

Shayboniylar, xususan, Muxammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon soniy davrida Movarounnahr va Balx shaharlarida bir talay katta qurilish, madrasa, masjidu xonaqo, tim, yirik suv inshootlari qurilib ishga tushirilgan. “Tarixi kasira”da bular haqida ham muhim ma’lumotlarni uchratamiz. Bir necha misol: Kesh (Shahrisabz)da Oqsaroy binosining qurilishi, asosan 1382 yilda, Mirzo Ulug‘bekning Samarqanddagi madrasasi 1425 yili; Mirzo Ulug‘bekning rasadxonasi 1429 yili qurib ishga tushirilganligi; Alayka ko‘kaltoshning Samarqanddagi jome’ masjidida Kuchkinchixon tarafida qurilgan marmar minbar 1528 yili bitkazilganligi; Buxoroda Ubaydullaxon tomonidan Mir arab madrasasining bino qilinishi 1536 yili sodir bo‘lganligi; Mavlono Mir muftiy tomonidan Buxoroyi sharifda qurilgan kutubxona 1558 yili bitkazilgan.igi; Juvonmard Alixon tomonidan Buxoroda hammom qurilishi 1574 yili poyoniga yetganligi; Mehtar Qosim tarafidan G‘ijduvon yonida, Ko‘hak daryosi ustiga qurilgan ko‘p oshiyonalik suv ayirg‘ich inshooti 1576 yili qurilib ishga tushirilganligi; Abdullaxon soniy tomonidan Buxoroda bunyod etilgan chorbog‘ 1584 yili qurib tamomlanganligi; Mazkur xon tomonidan Buxoroda Chorsu bozorining qurilishi 1587 yili tamomlanganligi; Karmina yonida, Ko‘hak daryosi ustiga ko‘prik qurish ishlari 1587 yili tamomlanganligi haqidagi muhim va diqqatga sazovor ma’lumotlar keltirilganki, bular tariximizning ochilmagan qirralarini ochishga xizmat qiladi.

Kitobda mashhur asarlarning yozib tamomlangan vaqti ham ko‘rsatilgan. Masalan, Ulug‘bek Mirzoning “Ziji jadidi ko‘ragoniy” kitobi 1437 yili, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” asari 1469 yili, “Husni Xusayn” kitobi 1606 yili yozib tamomlangan.

“Tarixi kasira” asari, uning qiymati va ilm-fan uchun zarurligi keltirilgan misollardan ham ko‘rinib turibdi.

11.“TARIXI ABULFAYZXON”

“Tarixi Abulfayzxon” asarini Ubaydullaxon va Abulfayzxon (1711-1747) saroyida xizmat qilgan unajjim, shoir va tarixchi olim Abdurahmon Davlat yozgan. Muallif ko‘proq Abdurahmon Tole nomi bilan mashhur.

Mazkur asar hajm jihatdan kichik, 161 varaq bo‘lib, “Ubaydullanoma”ning davomi hisoblanadi va Buxoro xonligining 1711-1723 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, XVIII asrning 1 choragida Buxoro xonligining iqqisodiy va siyosiy ahvoli zaiflashadi, ulus boshliqlarkning, ya’ni mahalliy hukmdorlarning mustaqillik uchun olib borgan harakati kuchaydi, ularning ayrimlari, masalan, Balx va Samarqand markaziy hukumatga bo‘ysunmay qo‘ydilar, Farg‘ona XVIII asr boshlarida, 1709 yili Ashtarxoniylar davlatidan ajralib chiqdi va ulkada mustaqil Qo‘qon xonligi tashkil topdi, 1722 yili Samarkand ham mustaqillik e’lon qildi va Rajabxon ismli kimsani xon qilib ko‘tardilar (1722-1728), o‘zaro urushlar boshlanib ketdi.

“Tarixi Abulfayzxon” asarida mana shu masalalar keng yoritib berildi. Bundan tashqari, asarda Buxoro xonligining mamuriy tuzulishi va o‘zbek xalqining o‘sha yillardagi etnik tarkibi haqida ham ayrim, diqqatga sazovor dalil va ma’lumotlar bor.

“Tarixi Abulfayzxon”ning to‘liq rus tilidagi tarjimasi, zarur izohlar bilan 1959 yili A. A.Semenov tomonidan Toshkentda nashr qilingan.

12.“TARIXI JADIDAYI TOSHKAND”

“Tarixi jadidayi Toshkand” (“Toshkentning yangi tarixi”) nomli asar muallifi Muxammad Soliq Toshkandiydir. Muxammad Solih domla Rahim Qoraxo‘ja o‘g‘li, Tarixchi 1830 yilda tug‘ilgan, vafot etgan yili noma’lum. Boshlang‘ich ma’lumotni bobosi mulla Abdurahimxojadani (u Qiyot mahallasida joylashgan Bekmuhammadbiy masjidida imom bo‘lgan) olgan, so‘ng Beklarbegi va xoja Ahror madrasalarida o‘qigan. Avval Farg‘onaning Qo‘qon (1853 y.), Marg‘ilon, Namangan va O‘sh (1853 y.), keyinchalik Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz va boshqa shaharlarda bo‘lib, madrasada olgan bilimni kengaytirdi. 1863 yildan boshlab, ilgari

bobosi imomlik qilgan masjidda imom bo'lib xizmat qildi, ayni paytda dars xam berib turdi. Muxammad Soliq turli ilmlar, tarix, geografiya, adabiyot, tibbiyotdan xabardor bo'lgan ma'lumotli kishi edi, lekin uning tarixga qiziqishi yuqori bo'lgan. U Abu Tohirxoja (XIX asr)ning "Samariya"siga o'xshash Toshkent, uning tarixi va osori atiqalariga bag'ishlab bir asar yozishni ko'pdan orzu qilib yurgan va nihoyat, 1863-1888 yillari maqsadiga erishgan. Asar ikki jildidan iborat. Birinchi jildda qadim zamonlardan to XV asr oxirigacha Sharq mamlakatlarida, shunnngdek, O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan voqealar, ikkinchi jildda esa Qo'qon xonligining XV asr oxiridan Zahiriddin Muxammad Bobur davridan to XIX asrning 80- yillarigacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy ahvoli, madaniy hayot haqidagi qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Asar xali biron tilga tarjima qilinmagan. Faqat Toshkentda, O'zRFA Sharqshunoslik institutida uning uch qo'lyozma nusxasi mavjud, tartib raqamlari № 7791, 11072-73, 5732.

Kitob va uning muallifi to'g'risida A.O'rinboyev, O.Buriyevlar 1983 yili "Toshkent Muhammad Solix tavsifida (XIX asr)" nomli risola chop etganlar. 2007 yili O'.Sultonov asar to'g'risida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi va kitob nashr etdi.

13. "TARIXI SHOXRUXIY"

"Tarixi Shohruxiy" ("Shohrux (bek) tarixi") nomli asar muallifi XIX asrda yashab o'tgan farg'onalik tarixchi olim Niyoz Muxammad Xo'qandiydir. U taxminan 1803 yili Qo'qonda yirik xarbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan, Xudoyorxon qo'shinida lashkarnavis, ya'ni harbiy kotib lavozimida xizmat qilgan, 60-yillar boshlarida iste'foga chiqib, ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan. Niyoz Muxammad juda ma'lumotli kishi bo'lib, Niyoziy taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. Lekin, yirik tarixiy asari "Tarixi Shohruxiy" bilan mashhur bo'lgan. Bu asar Qo'qon xonligining 1709-1876 yillar orasidagi tarixi to'g'risida mukammal ma'lumot berib, unda ushbu xonlikka qaram bo'lgan boshqa Toshkent, hozirgi Qirg'iziston, Qozog'istonning janubiy viloyatlari hududlarining ijtimoiy-siyosiy tarixi ham bayon etilgan. Unda Qo'qon xonligining Buxoro, Sharqiy Turkiston va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari xaqida xam e'tiborga molik ma'lumotlar

keltirilgan. “Tarixi Shohuxiy” asarining matni N.N.Pantusov tomonidan 1885 yili Qozonda chop etilgan. Ayrim parchalari V.V.Bartold, N.G.Mallitskiy va V.A.Romodina tarafidan rus tiliga tarjima qilingan. Bu asar T.K.Biysemyev tomonidan keng va atroflicha oʻrganilib, 1987 yili rus tilida Alma-Atida alohida kitob chop etildi.

XVI-XIX ASR I YARMIGA OID HUJJATLAR

Hujjatlar Oʻzbekiston tarixining muhim manbalari. Rasmiy hujjatlarni oʻrganish - diplomatika tarix fanining yordachi ilm sohalaridan biri boʻlib, shuning uchun juda muhimki, hujjatlardagi qimmatli maʼlumotlar boshqa yozma yodgorliklardagi tarix va tarixda oʻtgan voqea, hodisalarni oydinlashtirishga, ularni tushunishga va hatto qayta koʻrib, yangi fikr, mulohaza va tasavvurga olib kelishi mumkin. Hujjatlarni oʻrganish keng maʼnoda tarix ilmi, xususan yozma yodgorliklarga kiradi. Shuning bilan birga hujjatlarni alohida oʻrganish maxsus ilmiy soha, yoʻnalish boʻlib, diplomatika deb ataladi. “Diplomat” - italyanча soʻz boʻlib, “buklangan qoroz” “Hujja”ni bildiradi. Yurtimizning koʻp asrlik tarixiga oid yozma manbalar qatorida yuz yoki yuz ellik mingdan ziyod hujjatlarni oʻrganish, ulardagi dahshatli maʼlumotlardan foydalanib, oʻz tariximizning qorongʻu sahifalarini yoritish katta ilmiy ahamiyatga ega. Biz hujjat degan soʻzning ikki maʼnosi borligini eslatmoqchimiz. **Birinchisi** - hujjat, dokument, akt maʼnosida boʻlib, hokim - podshoh, amir, xon, yirik davlat amaldorlari va qozilar nomidan bitilib, ularning shaxsiy dastxati va mutfi bilan tasdiqlangan hujjatlar. Bular juda kam hollarda asl nusxada uchraydi, aksariyat hollarda esa, ularning qayta koʻchirilgan nusxalari saqlangan.

Ikkinchi maʼnosi - oʻtmishdan qolgan hokim, davlat idoralari, xususiy shaxslarga tegishli maktub, insho, arznoma va qaydlarni bildiradi. Respublikamizda yurtimiz tarixiga oid boy hujjatlar mavjud boʻlib, mutaxassislar fikricha, ularda jami yuz ellik mingdan ziyod hujjat bor. Hujjatlarni eng boy xazinasini Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida boʻlib, ularning umumiy soni yuz mingdan koʻp deyish mumkin. Ular, asosan K|ushbegi arxivi, Buxoro amirlari, Xiva xonlari, viloyatlar xokimlari devon va mahkamalariga tegishli hujjat, XVI-XIX

asrlarga oid vaqfnomalardan iboratdir. O'zbekistan Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozma xazinasida taxminan o'n mingdan ziyod yozma yodgorliklar bo'lib, ular, asosan vaqfnoma, yorliq, savdo bitimi, qarz vasiqa, ijaraga oid tilxat, da'vo ariza va boshqa turli mazmundagi rasmiy hujjatlarni tashkil qiladi. Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa viloyat va shaharlardagi muzey va arxivlarda ham bir necha ming hujjatlar saqlanmoqda. 1873 yili Xorazm Rossiya tomonidan zabt etilganidan so'ng Xiva xoni devonidagi hujjatlar mo'tabar qo'lyozmalar qatorida Sankt-Peterburg shahriga olib ketilgan edi. Ancha muddatdan so'ng, ya'ni 1936 yili sharqshunos olim P.P.Ivanov Rossiya Milliy kutubxonasida Xivadan olib ketilgan hujjatlarning bir qismi saqlanayotganini aniqladi. Ular 137 ta hujjat edi. Keyinchalik M.Y.Yuldoshev Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida to'qqizta hujjatni aniqlab, ularni o'rganib, nashr etdi. Shunday qilib, jami 155 ta Xiva hujjatlari chop etildi. Mazmuniga ko'ra ularni ikki qismga: kirim-chiqim qayd daftarlari (Mehtar, qushbegi, Devonbegiga tegishli) va xon amaldorlari nomlari qayd etilgan daftarlarga ajratish mumkin.

1967 yili Rossiya Milliy kutubxonasida yana uch mingdan ko'p Xiva xonlari hujjatlari borligi aniqlandi va 1962 yili avval aniqlangan hujjatlar bilan birga Toshkentdagi O'zbekiston Davlat arxiviga keltirildi. Bu hujjatlar, asosan, Xiva xoni nomiga yozilgan arznomalar, turli amaldorlarga murojaatnoma, soliq yig'ini to'g'risida ma'lumotnoma, yurtda olib borilgan turli tadbir, kanal qazish, turli ta'mir ishlari to'g'risida. Xiva hujjatlarining ma'lum qismi UzR FAning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida ham mavjud. Bu yerda to'rtta qozixona faoliyatni qayd etilgan daftarlari bo'lib, ularda qozixonalarda amalga oshirilgan tadbirlar - savdo, qarz, da'vo, vasiyat va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar bitilgan. Bu hujjatlarda Xiva xonligi hududiga kiruvchi Hazorasp, Qipchoq, Mang'it, Qatag'on, Qo'ng'rot, Shahobod, Toshovuzlarda amalga oshirgan ishlar zikri mavjud. Bu daftarlarda 1893-1912 yillarda tuzilgan 28 205 ta hujjat qayd etilgan. Uzbekiston tarixiga oid hujjatlarni O.D.Chexovich, P.P.Ivanov, M.Yuldoshev, E.Y.Bregel, T.Ne'matov, A.Shayxova va boshqa olimlar

o'rganganlar. Ammo, ularning tadqiqotlari chuqur ilmiy xarakterga ega bo'lib, asarlari ancha vaqt ilgari chop qilingan, hozirgi kunda kamyob nashrlarga aylangan.

O'zbekiston tarixiga oid hujjatlarni o'rganish muammolari O.D.Chexovich tomonidan 1969 yili alohida maqolada yoritilib, olimlarning o'ziga ma'lum bo'lgan o'ttiz to'rt turi borligini qayd qilgan bo'lib, ularning nomlarini keltirgan. Ular quyidagilar:

1. Omonnoma - harbiy vaziyatda tinch qo'yish va xavfsizligini ta'minlash haqidagi hujjat;
2. Ariza - murojaatnoma bilan ta'minlash;
3. Ahdnoma - kelishuv;
4. Barot – soliq olish huquqini beruvchi hujjat;
5. Vaqfnoma - ma'lum mol-mulkni vaqf qilish, ya'ni xayriya tashkilotlariga o'tkazish hususidagi hujjat;
6. Vasiyatnoma;
7. Vasiqa;
8. Vasiqai batot - savdo xususidagi vasiqa;
9. Vasiqai baxshish- tuxfa qilinganligi to'g'risidagi hujjat;
10. Vasiqai joiz- garov to'g'risida hujjat;
11. Vasiqai ijoza - ijara to'g'risidagi hujjat;
12. Daftar – soliqlar haqidagi yoki amaldorlar nomlari va maoshlari qayd qilingan ro'yxat;
13. Inoyatnoma ~ tuhfa - oliy mansabdor shaxs tomonidan berilgan hujjat;
14. Istimolatnoma – soliqni undirish haqidagi buyruq.
15. Kabola - savdo haqidagi (X-XVI asrlarga oid) hujjat;
16. Mahzar janjal qaydi;
17. Manshur - farmon;
18. Misol- viloyatni boshqarish huquqini beradigan farmon;
19. Muboraknoma - hokim devoni buyrug'i yoki u to'g'risidagi ma'lumot;
20. Nishon - manshur bilan bir manodagi hujjat;
21. Rivoyat – muftiy tomonidan bahsli masala bo'yicha chiqarilgan yuridik qaror;
22. Sulhnoma - sulh to'g'risidagi shartnoma;
23. Tilxat - qarz olinganligi to'g'risidagi hujjat;

24. Fathnoma - harbiy g'alaba to'g'risidagi e'lon;
25. Fatvo rivoyat ma'nosida;
26. Farmon;
27. Xatti vakolat;
28. Xatti da'vo, ariza;
29. Xatti nikox - nikox, shartnomasi;
30. Xatti taraka - meros taqsimlash haqidagi xujjat;
31. Xatti ibro - qarzdan ozod qilish yoki da'vodan voz kechish to'g'risidagi hujjat;
32. Xukm – **qog'ozi** yoki hokim hujjati;
33. Xukmnoma - hukm hujjati;
34. Yorliq - xon tomonidan lavozimga tayinlash haqidagi hujjat.

“VASIQA”

Xijriy 973 yil rajab oyining 22-kun (1566 y. 14 fevral)da amirzoda Mirza Muxammad Sharif marhum Muxammad Latif Mirak o'g'li, o'z mulkini qonun bo'yicha idora etishga haq huquqi bo'lgani uchun, qonun qoida bo'yicha mana bu arzni bayon qildi: "Eski qal'a tashqarisida, Puli sarrofon yonida, mulla Ashraf masjidi ko'chasida joylashgan, dukanimni, do'koncha yonidagi oshxonasi bilan qo'shib, shuningdek u bilan tutash bo'lgan yerimni, undagi binolar va narsalar bilan qo'shib, uzil-kesil va qonun-qoida bilan xoja Kalonxoja Muxammad Islom o'g'illariga sof kumushdan zarb qilingan 160 tanga badaliga sotdim. Ushbu mulk g'arb tarafdin marhum xoja Yusuf Ali sabbog' (bo'yoqchi) ustod Sadriddin sabbog' o'g'liga tegishli do'konga, shimol tarafdin shahar nahriga, janubda bozor yonidan o'tadigan katta jamoat yo'liga tutashgandir.

(Mazkur) vasiqa quyidagi guvohlar ishtirokida tuzildi:

Mavlono Sodiq;

Ustod Turdi me'mor;

Xofiz Paxsa;

Mir Qalandar;

Mavlono Abduvohid;

Mavlono Xusaynning birodari sayyid Muxammad;

Muxammad Latif Hofiz Paxsa o'g'li;

Shayx Xasan Qorako'liy .

“XATTI IQROR”

Hijriy 997 yil zulhijja oyi boshida (1589 yil oktabr oyining birinchi yarmida) mullo Abdulboqiy hoji boqiy o'g'li o'z amakivachchasi sag'ir Mirhodi marhum xoja Opoq o'g'li tarafidan uning ishlarini (qozi) mahkamasida amalga oshirish uchun to'la huquqli ekanligi shar'an mullo Qurbon Muxammad Ali najjorlarning to'g'ri guvohliklari bilan isbot qilingani holda, Samarqand shahri va unga tobe' yerlarning qozilar qozisining noib va viloyatning adolatli hokimi, Alloh uning soyasini uzun qilsin, huzuriga kelib, shar'an to'g'ri iqror bo'ldiki, sag'irning Samarqanddagi Masjidi nigoron mahallasida joylashgan, chegaralari aniq bo'lgan va imorat qilishga yaroqli bir bo'lak yerini Mirza Do'stim Baxtibiy o'g'liga bir misqollik 63 dinorga sotdi.

“HUKMNOMA”

Abulmuzaffar va-l-mansur Ubaydulla Bahodirxon so'zimiz!

Buxoroning Poyariq (tumani) hokimlari, omillari (omil-qishloq (oqsoqoli), kadxudolari (oila boshlig'i), ellikboshilari, o'nboshilari, shuningdek Shomuhammad qishlog'ining kadxudolariga ma'lum bo'lsinkim, Rabotak qishlaridagi 46 tanob yer mulla Mir Shofe'ga taalluqli ekanligi xaqida berilgan shar'iy chekka asosan uch qismga bo'lingan edi. Shu kunlarda u vafot etgan. (Shuning uchun) mazkur yerlar meros sifatida uning o'g'li O'zbekxoja taalluqli deb topilgan va uning tarafidan tasarruf qilinmoqda va hamma soliqlardan ozod etilgan.

Shuning uchun biron vajh bilan dirxam, yoki dinor to'lamagan.

Shu sababdan buyuramiz. Ushbu yerlarni qadimdan mulki xurri xolis hisoblab, undan tanobona, avorizot va boqa oliq-soliq talab qilinmasin. Aytilganlardan tashqariga chiqmasinlar va undan yangi hujjat talab qilmasinlar.

“IJARA AKTI”

Ushbu hodisa hijriy zulqa'da oyida (1856 y. iyul oyida) sodir bo'ldi.

Buxoroning Somjin tumanida, hokim mullo Mirza degan joydagi va mulla Mir mahramga yozilgan taxminan 5 tanob dahyakiy yerning undan bir qismiga beriladigan daromaddan ajratib mulla Abdurahim mullo Abdurahmon o'g'liga (bir yil muddatga) ijaraga berildi.

Mazkur hujjat quyidagi guvohlar ishtirokida tuzildi:

Mulla Avaz;

Boqiyxoja;

Arbob Abduzohir;

Arbob Yo‘ldosh;

Allohberdiboy;

Hodiboy;

Hakimboy va boshqalar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Shayboniylar davriga oid qaysi manbalarni bilasiz?
2. “Abdullanoma” asari muallifi kim?
3. “Tarixi Rashidiy” asarini kim yozgan?
4. “Silsilat ul - salotin” asari necha qismdan iborat?
5. “Tarixi jadidayi Toshkent” asari mazmunini so‘zlab bering?

60039
 21-07
 secro secro secro — parat
 stuporem secro secro
 — sub — mo: que rogne sige sondo
 — mides — na idu pger sponax
 — mays — quer qg — mclmuras
 — mcs que — agne que ro mcs
 — yem — bgy — s — cy — ro ar
 — yem — mcs — s — mcs — spon
 — mo sonyng — qm — bgy — q
 — m — mcs — mcs — mcs




Bo`g`inlar Qadimgi Misr, Shumer, Ossuriya, Bobil, Qadimgi fors, xitoy va boshqa ideografik Yozuv sistemalarida ajralib chiqqan. Odatda bir bo`g`inli ideogrammlar - «rebus» usulida bo`g`inlarga aylangan.

Biroq turli tarixiy sharoitlar taqozosi bilan qadimgi Yozuvlar ba`zan sof bo`g`inlarga aylanishga ulgura olmay, muomaladan chiqib ketgan. Boshqa, ancha «yoshroq» Yozuvlar esa, aksincha, qadimgi ideografik sistemaning belgilar asosidan foydalanib, bo`g`inli Yozuvga aylangan (masalan, yapon Yozuvi). Xitoy Yozuvining rivojlanish yo`li o`ziga xos bo`lgan.

Bo`g`inli Yozuv sistemasi o`rganish va qo`llanish uchun ideografik Yozuvga qaraganda ancha qulay bo`lgan. Undagi belgilar soni ikki-uch yuzdan oshmagan va bir necha belgidan kam bo`lmagan, shunga ko`ra Yozuv ancha ixchamlashgan, tilning fonetik va grammatik tuzilishini aniqroq aks ettirgan.

Shunday bo`lishiga qaramay, til oz bo`g`inlardan «yig`ilgan» holdagina bo`g`inli Yozuv o`zini oqlay olgan. Boshqa hollarda Yozuv xetkamligini yo`qotgan - ko`p joy egallaydigan bo`lib qolavergan.



Hindlarda har bir rang muayyan ma'noni: qora rang - baxtsizlikni, o'limni, binafsharang - xavf-xatafni yoki dushmanlikni, qizil rang - urushni, oq rang - tinchlikni, sariq rang - oltinni, yashil rang - don-dunni bildirgan. Hindlar turli ranglarni va tugunlarni turlicha qo'shib ishlatib har xil xabarlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Ba'zi olimlar, kipuga qonunlar majmui, xronikalar, xatto she'rlar yozilgan bo'lishi mumkin, degan fikrni aytmoqdalar. Boshqa olimlar esa murakkab Yozuvlarni tugunlar va rangba-rang tizimcha yordamida amalga oshirish mumkin emas demoqdalar.

Hozirgi vaqtda ham ishlatish qulay bo'lgan joylarda signalizatsiya uchun buyumli Yozuv printsiptan foydalanilmoqda; masalan, suv yo'llarida xatarli joylarni ko'rsatib turadigan suzg'ich - bakenlar, mayoqlar va signal bayroqchalari - dengizda, svetofor va semaforlar - quruqlikdagi yo'llarda, signal lampochkalari - xar xil priborlarda qo'llaniladi. Bularning hammasi «axborot hassalari» va perulik cho'ponlarning tizimchalariga «qarindosh»dir.

Buyumli Yozuv o'zining asosiy vazifasini bajara olmadi: insoniyatniig to'plangan bilimlarni saqlab, yodlab qoladigan o'ziga xos xotirasiga aylana olmadi. Ijtimoiy turmush murakkablashgan sari bunga ehtiyoj tobora ortib borardi. Urf-odatlar, an'analar shakllandi, ~~mlaw~~ yangi avlodga etkazish lozim edi. Mehnat taqsimoti va mol ayirboshlash aniq hisob yuritishni talab qilardi. Qabila boshliqlari va koinlar ajralib chiqdilar, ularning faoliyatini abadiylashtirish zarur edi.

Bevosita aloqa bog'lash yo'li bilan buni amalga oshirish qiyin emas edi, biroq bu holda inson xotirasining mukammal emasligi tufayli ko'p axborotlar esdan chiqib qolgan, yo'qolgan. Bunga fazo hamda vaqt asosiy to'sik bo'lib, yozilgan so'zgina ulardan ustun kela olardi. Buyumlardan dastlab mnemonika vositalari yoki «eslatuvchi» vositalar sifatida foydalanish zamonaviy Yozuvga olib keluvchi mashaqqatli uzoq yo'ldagi birinchi qadam bo'ldi. Bu vositalar fikrni uzatmas, balki uni faqat eslatardi. Biror narsani eslab qolish uchun ro'molning uchini tugish odati shundan qolgan. So'ngra buyumlarga konkret ma'no berila boshlagan. Ular oldindan kelishib olingan narsalarni bildiruvchi o'ziga xos signallar, shartli belgilar bo'lib hisoblangan. Cho'pxatga yoki daraxt tanasiga kertib belgi solish, tugunlar, tizimchalar, urush e'lon qilish vaqtida esa kamon o'qi va boshqa buyumlar shunday shartli belgi vazifasini o'tagan. Buyumga ma'no birkitib qo'yishning bu usuli «buyumli Yozuv» deb atalgan.



QASHQADARYO OSTADON VII ASR



Handwritten cuneiform script on a tablet.



Древне-шумерские	Древне-египетские	Китайские
 Глаз	 Видеть	 Глаз
 Лес	 Вода	 Вода
 Горы	 Города	 Гора
 Факел	 Огонь	 Огонь
 Человек	 Мужчины	 Человек
	 Женщины	 Женщина

Qadimgi Misr Yozuvida dastlab undosh tovushlar ajratilgan, bupga qadimgi Misr tilida bir tovushdan tuzilgan logogrammalar bo'lganligi yordam bergan.

Birinchi alifboni eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda *finikiyaliklar* yaratgan. Bu alifbo yigirma ikki xarfdai iborat bo'lgan, harflar faqat undosh tovushlarni yoki undosh va unli tovushlardan tuzilgan bo'g'irlarni ifodalagan. Chunki finikiyaliklar tili semit tillari gruppasiga mansub bo'lib, unda undosh tovushlar asosiy rol o'ynagan. So'zlarning ildizi undosh tovushlardan tuzilgan. Unli tovushlar esa asosan grammatik bog'lanishlarni va so'zning shakli (formasi)ni ifodalagan. SHu sababli finikiyaliklar alifbosi Yozuvning bo'g'inli va harf-tovushli sistemalari o'rtasida oraliq masofani egallagan. Fipikiyaliklar alifbosidagi belgilarning shakli sodda bo'lib, yozish uchun ham, yodlab qolish uchun ham qulaydir.

Kishilik jamiyati o'z tarixining ko'proq qismini Yozuvsiz o'tkazgan. U Yozuvga etib kelguncha uzoq yo'lni bosib o'tgan va nutqni yozib olish uchun bir necha ming yil ilgarigina belgilar qo'llanila boshlagan. Bu qariyb olti ming yil ilgari, eramizdan oldingi to'rtinchi ming yillikda sodir bo'lgan, deb hisoblaniladi. Biroq 1901 yili Transilvaniyada, Terteriya posyolkasi (Ruminiya) yaqinida arxeologlar juda ham ko'p sirli rasm-belgilar chizilgan uchta sopol taxtacha topishdi. Bular deyarli etti ming yillik o'tmishga ega yozma yodgorliklar edi.

Odamning tajribasi va bilimi orta borgan sari unda bilganlarini yodda tutish va boshqalarga berish zarurati tug'ildi. Zamonaviy til bilan aytganda, axborotni saqlash va uzatish problemi kelib chiqdi.



www.arxiv.uz



14-§. QO'SHIMCHA MANBALAR

“Avesto”

Xitoyshunos olim A. Xo'jaevning aytishicha, “xu” va “xulu” turkiycha “**xur**” atamasining xitoycha talaffusidir. “**Xur**” qadimgi turkiyda **erkin, ozod**, bir joyda uzoq turib qola olmaydigan, bir joyga bog'lanib qolmagan ko'chmanchi xalq ma'nosini beradi. Qadimgi turkiyda “**xur**” so'zining erkin, ozod va o'zlarining beklardek xis etishlari Avestodagi “**arya**” so'ziga monanddir. Demak, eroniyda “**arya**” turkiyda “**xur**” bir xil ma'no va mazmunga ega, bir ijtimoiy tabaqaga mansub etnos bo'lagidir. Zardushtiylik dinining ezguliklar xudosi Axuramazda olamni yaratganda, odamlar uchun har xil iqlimli o'lkalar va mamlakatlarni yaratdi. Birinchi bo'lib, keng yaylovlarga boy, chorvaga qulay muqaddas Aryanam Vaychahni yaratib, unga oriylarni joylashtirdi. Aryanam Vaychah atamasining tub ma'nosi ham oriylar mamlakati demakdir. Olimlar har xil davrlarda Avesto madxiyalari taxlili asosida Aryanam Vaychahni **Eron hududlaridan (Ariana), Qadimgi Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Xilmend vahosi, Eron Azarbayjonidan** qidirdilar. Biroq, Aryanam Vaychah tabiati, tabiiy-geografik iqlim sharoitlari, aholisining turmush tarzi, mashg'uloti va asosiy boyligi haqida guvoxlik beruvchi hamdu-sanolar, ta'riflar Aryanam Vaychah ko'proq Yevrosiyo cho'llari ekanligini eslatadi. Chunki bu yurt aholisi chorvadorlarga xos saxroi turmush kechirganlar, ularning ma'budlari “keng yaylovlar egasi”, “ajoyib otlar yubaruvi ilohlar” bo'lgan. Ular xudolarga iltijo qilib, ulardan yaylovlarga osmondan yomg'ir yubarishni, ko'plab otlar va xo'kizlar ato etishni so'raydilar, ma'budlarga atab otlar, novvos va qo'ylarni qurbonlik qiladilar. Ularda Tvashtar birinchi gubchakli aravani yaratguvchi iloh hisoblangan. G'ildirakli transport turining barchasi, ikki g'ildirakli arava (zolotaya kolesnitsa), uning qismlari, ot abzali, dashtliklarning barcha kiyim-boshlarini nomlarigacha chorvador aholiga tegishli bo'lib, ammo, ularni “evropasentrizm” tarfdorlari bular hindu-eroniy qabilalari edi, deb hisoblab kelganlar.

Yevraosiyo dasht va cho'llarining chorvador qabilalarini eroniy tilli xalqlar ekanligi haqidagi lingvistik farazlar Yevraosiyoning dasht mintaqalarida Tog'li Oltoy hududlaridan boshqa joylarda turk etnosiga

o‘rin qoldirmaydi. Xatto, uning tevarak-atrof rayonlari aholisi va undan G‘arbda to Qora dengiz sharqiy sohillarigacha, Sharqda to Bayqalgacha cho‘zilgan mintaqalarning dasht aholisi ham eron zabon edi, degan tasavvur shakllanib, u hozirgacha davom etmoqda.

Ilmiy, ilmiy etnografik asarlarda dasht ko‘chmanchilarini dastlab “varvarlar”, “varvarlarning janubga okkupatsiyasi” kabi iboralar ishlatib kelindi. Qachonkim, Avesto terminlari ilmiy asosda o‘rganila boshlagach, ana shu “varvarlar”ning janubga migratsiyasi tufayli Eron tog‘ oldi rayonlarida Ariana tarkib topgach, “varvar” atamasi “oriy”terminiga olmashtirildi. Oriylar jamiyatning aslzodalari, erkin va ozod tabaqasi, el-yurt boshqaruvchilari, xo‘jayini ekanligi oydinlashgach, “Evropasentrizm” nazariyasining, boshqacha qilib aytganda, Yevropa davlatlarining Osiyo va Afrikaga mustamlakachilik siyosatining kurtaklari oriylar bilan bog‘lik ekanligi, xatto gitlerchilar Germaniyasi o‘z davrida o‘zlarini oriy irqi, toza irq, haqiqiy irq, deb e‘lon qilganliklarini xech kim unitmagan.

Savol tug‘iladi, oriylar o‘zi kimlar? Ular eroniy tili etnoslarga tegishlimi yoki turkiy etnos vakillarimi? Yozma manba-Avestoga ko‘ra, ular ijtimoiy hayotda jamoaning erkin, ozod, jangovar mulkdorlar tabaqasi bo‘lib, mana shu tabaqa va uning oila a‘zolari o‘z urug‘-aymoqlaridan farqli o‘laroq Avestoda **«ozodlar»** (“azadý»), ya‘ni «oriylar» deb yuritilgan. Ular yashagan yurt oriylar vatani, oriylar kengligi (ariyskiy prostor), ya‘ni «Aryanam Vaychah» deb nomlandi. Bu yurt xalqining asosiy boyligi chorva, ya‘ni mayda va yirik shoxlik hayvonlar, ot, tuya va eshak hisoblanadi. Ularning kundalik turmush tarzi dasht aholisiga xos ko‘chmanchi chorvachilik asosida qurilgan.

Ma‘lumki, chorvadan keladigan boylik dehqonchilikka nisbatan juda tez ko‘payuvchan bo‘ladi. Badavlat mulk egasi ishtahasining esa cheki bo‘lmaydi. Ibtidoiy jamoa tuzimidan dastlabki sinfiy jamiyatga o‘tish bosqichi hisoblangan harbiy demokratiya davri imkoniyatlar qabilalar aro to‘qnashuvlarni tez-tez sodir bo‘lishini taqozo etadi. Ko‘p hollarda ko‘chmanchilar orasida o‘z aro bo‘ladigan harbiy to‘qnashuvlar doimiy xarakter tusini oladi. Bunday sharoitda qo‘shinga chaqqon va abjir, baquvvat va mard o‘g‘lonlar, tashabbuskor va tadbirkor harbiylar kerak. Qachonkim, chorvador qabilalar hayotimda ko‘chmanchilik turmush tarzi

qaror topgach, jangavor harbiylar tarbiyalashga keng imkoniyatlar ochildi. Davr taqozasiga ko'ra, abjir va chaqqon chavandoz, mohir mergan va chayir va chabdash jangchi bo'lishga intilish har bir yoshning kundalik harakat dasturiga aylanib bordi. Oqibat natijada o'tish davrining ana shu jangavor harbiy ruhiyati jarayonida suvoriy oriylar tarkib topib, ular tomonidan o'zga yurtlarni bosib olish chorvador qabilalarning muhim daromat manbaiga aylandi.

Ana shu chorvador qabilalarning suvoriy harbiylari hayotda o'zlarini ozod va erkin, xech kimga qaram va tobe xis etmas, ular o'zlarini doimo hayotda iqtisodiy va siyosiy mustaqil xis etuvchi ozodlar-oriylar edilar. Ularning Urug'-aymoqlari ham qabila an'anasiga ko'ra, o'zlarini oriylar deb atashgan.

Chunki, o'sha davr chorvador jamoalarida **harbiy demokratiya tizimiga** xos tartib-qoidalar hukmron edi. Har bir oilada tug'ilgan farzand yoshligidan qabila udumlariga sodiqlik ruhida tarbiyalanadi. Tarbiyaning maqsad yo'nalishi esa har bir nufuzli chorvador siymosida **oriyni** shakllanishi bilan yakunlanadi.

Avesto va Rigvedaga ko'ra, dastlab oriylar mahalliy aholiga nisbatan "begona", "boshqa yerlik", "bosqinchi" ma'nosini anglatgan. Keyinchalik, ular "xo'jayin", "aslzoda" ma'no va mazmunni kasb etgan. Chorvadorlarning dehqonlarga nisbatan tezda boyib ketishiga chorvachilikda yilqichilikning tarkib topishi, ya'ni ot, tuya, xo'kiz va eshakdan transport vositasi sifatida foydalanishga o'tish asosiy rol ni o'ynadi.

Aynan shu vaqtda ko'chmanchi chorvachilikka o'tishga keng imkoniyatlar yaratildi. Bu jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Ana shu tub o'zgarishlarning mevasi sifatida ibtidoiy chorvador jamoalari tarkibida badavlat mulk egalari: o'nlab, yuzlab atar mol-qo'yga ega jamoa sardorlari etishib chiqadi.

Demak, oriylar Markaziy Osiyo chorvador qabilalarning iqtisodiy yuksalishidagi ko'chmanchilik hayot bosqichining ijtimoiy mahsuli, ularning tashabbuskor va tadbirkor ishbilarmand qatlami, tug'ilib kelayotgan dastlabki sinfiy jamiyatning aslzodalar tabaqasi edi.

Yozma manba'lardagi oriylarga berilgan bu tavsiflar arxeologik

yodgorliklar misolida ham o'z aksini topgan¹. Xatto, arxeologlar oriylarning arxeologik tavsifini ishlab chiqqanlar. Bunga ko'ra, oriylar o'z urug'-aymoqlari ichida eng nufuzli, badavlat, erkin va ozod suvoriylar bo'lib, ular vafot etganda:

birinchidan, o'sha davrning urf – odatlariga ko'ra, chuqur xurmat va extirom belgisi sifatida qabiladoshlari ularga atab mahobatli mozor qo'rg'onlar bunyod etganlar Tegisken, Soloxa, Arjan, Salbik, Kulobo, Sintashta, Bashadar, Pazirik va boshqalar);

ikkinchidan, oriy jasadi ko'milgan mozor qo'rg'onga uning hayotlik chogidagi jangavor qurol-aslohalari va boyligi bilan ko'miladi;

uchunchidan, markaziy jasad (oriy jasadi) tevarak-atrofiga, qo'rg'on ostiga, marxumning tiriklik chogidagi jamiyatda tutgan o'rniga qarab, 10-15 tadan to 70-80 tagacha otlar majburiy o'lim izlari va egar-jabduklari bilan ko'milgan bo'ladi;

to'rtinchidan, oriy jasadining oyoq yoki yon tomoniga uning xaramidagi xotinlaridan birini kanizaklari hamda unga tegishli zebi-ziynat va oltin arava (zolotaya kolesnitsa) lari bilan birga (zahar berish yo'li bilan o'ldirilib) ko'milgan bo'ladi. Bunday mozor qo'rg'onlar so'ngi bronza va ilk temir davrlariga xos bo'lib, ular Qora dengizning shimoliy-sharqiy sohillaridan to Bayqalgacha cho'zilgan evraosiyo cho'llarida uchraydi.

Miloddan avvalgi II- ming yillikning o'rtalarida evraosiyo cho'llarining oriylari o'z chorvalariga yangidan-yangi yaylovlar qidirib, janubga tomon, nafaqat O'rta Osiyoning ichki rayonlariga, xatto Eron adirlik zonalariga ham kirib boradilar.

Ularning O'rta Osiyo hududlaridan o'tganligi bronza davri arxeologik yodgorliklarida yaxshi kuzatiladi. Miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmi davomida O'rta Osiyoda ular kirib bormagan dasht va cho'l mintaqalari qolmagan bo'lsa kerak. Ular miloddan avvalgi II-ming yillikning oxirgi choragida xatto ularning bir qismi mahalliy aholining shahar va qishloqlariga ham kirib boradilar. Avesto ma'lumotlariga ko'ra, ular **Eron** va **Shimoliy Hindistongacha** kirib boradilar. Chorvador oriylarning shimoliy mintaqalardan kelib Eron

¹ Кузьмина Е.Е. Откуда пришли индоарии? Материальная культура племен андроновской общности и происхождение индоиранцев. Москва-1994.

adirlarida o‘rnashib qolgan joylar **Avestoda “Ariana”** nomini olgan. Eron Ariananing yangi shakli. Aslida, qadimgi tarixda Ariana termini nafaqat hozirgi Eron hududi, balki qadimgi eroniy tillar tarqalgan geografik kenglik ma’nosida tushiniladi. Shu bois, fanda oriylarning Eron hududida qolib ketganlari **eroniylar**, Hindistonga yo‘l olganlari **hindu-oriylar** nomini olgan. Shunday qilib, **“oriy”** termini dastlab ijtimoiy ma’noda, keyinroq esa ular mahalliy aholi bilan qorishib ketgach, yangi etnik ma’no va mazmun kasb etdi va ulardan son jihatidan bir necha marta ko‘p bo‘lgan mahalliy aholi til muhiti ta’sirida sekin – asta o‘z **turkiy tillarini** yo‘qotib eroniylashib ketadilar.

Tarixiy tilshunoslikka ko‘ra, qadimda **O‘rta Sharq** mintaqasida oriylarning bu zaminda paydo bo‘lgunlariga qadar, xurrit va elam tillarida so‘zlashuvchi jamoalari kabi qadimgi fors- dariy tili ham mavjud bo‘lishi kerak. U Eronning janubiy-g‘arbida fors jamoalarining ona tili bo‘lgan. Chorvador oriylar dastlab shu zaminda makon topgach, ular mahalliy fors jamoalari ustidan o‘z siyosiy hokimiyatini o‘rnatadilar. Bu hokimiyat kadxudot Ahamoniy avlodlari **Chishpish** davridan boshlab nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy-ma’muriy boshqaruv tizimi tarkib topishiga olib kelgan, ya’ni janubiy Eron doirasida mahalliy hokimlik Pars (Fors)da shakllanadi. Ahamoniy Kir II va Dorush I davrida bu podsholik imperiya darajasiga ko‘tarildi. Fors tilining davlat tili sifatida mavkei va yoyilish doirasi kengaydi.

Shunday qilib, miloddan avvalgi II- ming yillikning ikkinchi yarmi va I- ming yillikning boshlarida yuz bergan tarixiy jarayonlarning mantiqiy xulosasi shuki, ahamoniylarning kelib chiqishi bu zaminga **Yevraosiyo cho‘llaridan** kirib kelgan **turkiy tilli oriylar** edi. Ular ko‘p o‘tmay mahalliy aholi til muxiti va madaniy-xo‘jalik ta’sirida eroniylashadilar. Shuning uchun ham Kir II va Doro I qoyatoshlarga bitilgan kitobalarida o‘zlarini “haqiqiy oriy” ekanliklarini alohida ta’qidlaydilar.

Nafaqat ular, xatto kushon podsholarining (masalan, **“Rabatak” bitigi**) asli zoti oriy, ya’ni turkiy ekanligiga ishora qilinadi. Pars (Fors) podsholari o‘zlarining kelib chiqishlarini eslaydilar va alohida qayd etadilarki, ular ahamoniylar urug‘idan, Pars qabilasi (yoki qabila ittifoqi)

dan ekanliklari va ularning tag tomiri oriylarga borib taqaladi¹.

Yuqorida keltirilgan fikr – mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, turkiy xalqlarning ilk vatani, azaliy yurti buyuk turk cho‘li bo‘lgan. Hozirgi tasavvurlarda bu qadimgi turkiy etno maydon adabiyotlarda Yevraziya cho‘llari deb nomlanadi. Uning hududiy doirasi juda keng. G‘arbda Qora dengizning shimoliy-sharqiy sohillaridan Sharqda to janubiy Baykalgacha cho‘zilgan cho‘l va dasht mintaqalaridan iborat. Uning shimoliy chegarasi O‘rol daryosi va undan ham shimolroqqa, qalin rus o‘rmonlarigacha borib taqaladi. O‘rol tog‘i qadimdan to so‘ngi o‘rta asrlargacha slavyanlar bilan turkiy qabilalarning hududiy chegarasi bo‘lgan. Janubiy –sharqda **shimoliy Xitoy**, janubiy—g‘arbda **O‘rta Osiyo** hududlari bilan chegaradosh bo‘lgan. Antik davr yunon mualliflari Sirdaryoning quyi oqimi eron zabon sug‘diylar bilan turkiy tilli qabilalar chegara rayonlari bo‘lganligini alohida ta’qidlaydilar. Turkiy zabon qabilalarning O‘rta Osiyoga ilk bor kirib kelishi bronza davriga borib taqaladi³. Aynan mana shu davrdan boshlab o‘zbek etnogenezi boshlanadi⁴.

Turkiston xalqlarining yozuv madaniyati.

Arab istilochilari Eronga (651 yil) va O‘rta Osiyoga bostirib kirishining eng boshlarida zardushtiylar olami xalqlarining ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti ancha yuqori darajada ekanligiga duch kelgan edilar.

Bunday yuqori daraja shahar va qishloq jamolari hayotini tashkil etishning rivoj topgan ilk o‘rta asr shakllari, ularning o‘z-o‘zini ijtimoiy rivjlanib borishi, xalqlar ma’naviyatining yuqori darajasi bilan belgilanardi. Bu xalqlarning diniy va mifologik ongi ularning zardushtiylar hayot tamoyilariga ayloqiy ma’naviy estetik, shuningdek oiloviy-maishiy va turmush yo‘l yo‘riqlariga sodiqligini taqozo etardi. Mazkur xalqlar umumiy madaniy darajasining yuqori bo‘lishi asrlar mobaynida vujudga kelgan qudratli an’anviy **mifologiya, epik rivoyatlar bilan xalq og‘zaki**

¹ Дьяконов М. М. Очерки истории древнего Ирана. Москва-1961. стр.67.

³ Асқаров А. Мустақиллик йилларида тарих, археология ва этнология. “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” журнали, №6, Тошкент-1996, 71 бет.

⁴ Асқаров А. Ўзбек халқи этногенез ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий-методологик масалалари. «Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий —методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих» . Республика семинари материаллари. Тошкент-2004, 9 бет.

ijodi asarlari, afsonaviy og‘zaki va yozma tarix asarlari umumiy tizimining mazmunini tashkil etuvchi barcha-barcha narslar bilan belgilardi. Kitob madaniyati va kitobat ishi tarmoqlari xususida ham ilk o‘rta asr uchun ancha rivojlangan darajani qayd etish mumkin. Deyarli xar bir elatning o‘z «**milliy**» **yozuvi va yozma yodgorliklari** bo‘lgan. Arablar istilosi boshlanishi tarixiy davr uchun muayan ma’noda gap zardushtiylik olamiga xos bo‘lgan qandaydir umumiy kitoblar repertuari haqida ham borishi mumkin. Bu repertuar asosini zardushtlar ma’naviy adabiyoti, chunonchi fanning tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, xuquq, sohalari **o‘rta Eron, Xorazmiy, Baqtriya, So‘g‘d** shuningdek, **Yunon tillaridagi** folklor va badiiy adabiyot namunalari, **Sanskrit** va **Yunon tillaridan** tarjima qilingan kitoblar, **budda, manixey va xristian** mazmunidagi **qadimgi turkiy tildagi** diniy asarlar tashkil etadi. **Eron va O‘rta Osiyo xalqlarining** arab bosqinchilariga qarshi o‘z ozodligi va mustaqilligi uchun olib borgan qurolli kurashida shunchaki turli xalqlar bosqinchilar va qarshilik ko‘rsatish qatnashchilari emas, shu bilan birga ikki xil diniy qarashga va madaniy an‘analarga ega bo‘lgan xalqlar to‘qnash kelganlar.

Arablar istilosi jarayonidagi ayyovsiz janglar vaqtida hamisha ko‘p odamlar – tinch aholi, lashkarlar, ayniqsa zardushtiylar vakillar kirishgan, shu bilan birga ko‘pgina ibodatxonalar, hazina omborlari yozma hujjatlar va kitoblar majmui talon-taroj qilingan, mahalliy moddiy madaniyat yodgorliklari vaxshiylarcha yo‘q qilingan.

Musulmon bosqinchilarining boshqa diniy e’tiqodlar, urf-odatlar va dunyoqarash ko‘rinishlariga toqatsizligi o‘sha vaqtlarda mavjud bo‘lgan ko‘p sonli yozuv yodgorliklariga munosabatida ham o‘z ifodasini topgan edi.

Bosqichilar **Eron va O‘rta Osiyo xalqlarining mahalliy “milliy” yozuv** tizimlarida bitilgan kitoblarning harfiy belgilarini **“muqaddas”** arab yozuviga qarama-qarshi qo‘yishar, asarlarning o‘zi esa ularning tasavvurida islomga zid **“soxta”** diniy talimot deb hisoblanib, yoppasiga yo‘q qilib yuborilar edi.

Beruniy “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli asarida quyidagicha guvohlik bergan: **Qutayba Xorazmiylar yozuvini**, ularning

rivoyatlarini bilgan va Xorazmiylarda mavjud bo'lgan fanlarni, o'rgangan kishilarni yo'q qilgan va har qanday azob-qiynoqlarga duchor qilgan.

Kitobda yana bunday deyilgan: so'ngra **Qutayba Ibn Muslim al-Baxiliy** xorazmiylik xatotlarni yo'qotgan din peshvolarini o'ldirgan, ularning kitoblari va xatlarini yoqib yuborgan, xorazmiyliklar savodsiz bo'lib qolishgan va kerak bo'lgan narsalarni xotiralarida saqlashgan (99- va 18-, 63- sahifalar). **Beruniydan** tashqari o'rta asr mualliflaridan **an-Nodim**, **ibn Xalddun**, **Davlatshox Samarqandiy**, **Xoja Xalifaning** asarlarida arablar mahalliy xalqlarga tegishli bo'lgan kitoblarni yo'q qilib yuborgani xaqidagi malumotlarni keltirishgan. **B.G.G'ofurovning "Tojiklar"** nomli kitobida arablarning mahalliy diniy va kitob madaniyati an'analari munosabati xaqida quyidagilar qayd etilgan: Ular (arablar-R.M.A) ayniqsa zardushtiylikka qarshi keskin kurash olib bordilar, zardushtiylik kupchilik aholining dini bo'lgan edi. Boshqa dinlarning ta'sirini yo'qqa chiqarish uchun xalifaning noiblari hamma joyda O'rta Osiyo xalqlarining diniy adabiyotlarini, ayniqsa, zardushtiylikka oid adabiyotini yo'q qilgan edilar. Natijada, Movaraunnuxr xalqlarining nafaqat diniy adabiyotlari emas, balki dunyoviy adabiyotlari ham deyarli butunlay yo'q bo'lib ketdi.

Lekin, mutaxasislarning allaqachon ta'kidlashlaricha arab agressiyasining dastlabki eng shavqatsiz to'liqini etib bormagan joylarda masalan, **Sharqiy Turkistonda, Pafiya, O'rta Eron, So'g'd, Manixey, Qadimgi turkiy, uyg'ur yozuvlari namunalari G'arbiy va Janubiy Turkistondagina** nisbatan birmuncha kamroq zarar ko'rgan.

Bular hammasi bizga yetarli darajada aniqlik bilan shuni qayd qilish imkonini beradi: arablarning Turkistonga bostirib kirishining dastlabki bosqichi va shundan keyin yangi diniy tizim xisoblangan islomning zo'ravonlik bilan joriy etilishi va **arab yozuvining** tadbqiq etilishi o'tgan asr mobaynida vujudga kelgan kitoblar repertuaridagi asosiy ko'pchilik kitoblarning yo'q bo'lib ketishiga olib keldi.

Umayyad xalifasi Xishomning 742 yildagi **Xuroson noibligining** (Movaraunnuxr xududi xam unga kirardi) mamuriy apparati uchun majburiy qilib qo'yildi. Mahalliy yozuv tizimlari xali birmuncha vaqt **arab yozuvi** bilan hamohang ravishda tadbqiq etib kelindi, lekin X asrning

oxirlariga kelib **Xorazmiy, So'g'd, Baqtriya, O'rta Eron** tillaridagi qadimgi kitoblar deyarli saqlanib qolmagan edi. Turkiston xalqlari o'z kitob fondlarini amalda yangidan to'play boshlashlariga to'g'ri keldi va bu fond Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida Yangi arab yozuvida bitilgan kitoblardan, turkistonlik va eronlik olimlar, shoirlar, faylasuflarning arab yozuvida yaratilgan, shuningdek **forsiy-arabiy, turkiy tillarda** chop etilgan asarlaridan, **sanskrit, Yunon, O'rta Eron, Suriya va Nabatiy tillaridan** arabchaga tarjima qilingan qadimgi mualliflarning kitoblaridan tashkil topa boshladi. Vaqt o'tishi bilan faqat **Xorazm, Parfiya, So'g'd, Baqtriya va Farg'ona yozuvlarning** o'z iste'moldan siqib chiqarilib qolmay, shu bilan birga bu tarixiy viloyatlarning qadimgi tillari xam ishlatilmay qo'yildi, **o'lik tillarga** aylanib qoldi. IX-X asrlarda **Eron, Turkiston, Afg'oniston va Ozorbayjonning** ulkan xududida davr tillarining almashinishi sodir bo'ldi. Ularda asta-sekin **Yangi Eron tillari – forsiy, Dariy, Tojik va Eski turkiy tillarga** o'tish yuz berdi.

Shu narsa shak-shubxasizki zardushtiylar madaniy olamining so'nib borishi va **Eron** bilan **Movoraunnaxr** zardushtiy aholisining yangi musulmon diniga o'tish jarayoni ancha uzoq tarixiy muddatga vaqti-vaqti bilan sakrashlar va asta sekinlik bilan majburiylik va tinch yo'l bilan bordi.

Bu xildagi mulohazalarni tasdiqlash uchun shunday tarixiy voqeani chunonchi, deyarli xar bir Eron viloyatida arablar istilosidan keyin o'tgan uch asr mobaynida zardushtiylar ibodatxonalari ruhoniylarining aholi orasidagi ta'siri malum daraja davom etib keldi.

Beruniyning bergan ma'lumotiga qaraganda xali X asrdayoq **so'g'd** va **xorazmiy** zardushtiylarning olov ibodatxonalari mavjud bo'lgan. Zardushtiylikdan musulmonchilikka o'tish davrining dastlabki ikki asr mobaynida **eski O'rta Eron, Xorazmiy, So'g'd qadimgi turkiy** adabiyotlar va kitoblar qoldiqlari shuningdek, yangi yoki mahalliy arab yozuvida adabiyot va kitoblar paralel ravishda mavjud bo'lib keldi.

Shu bilan birga mahalliy tillardagi kitoblar xam **zardushtiylik, Budda, manixey** iloxiy diniy axloqiy ma'naviy mavzundagi matnlarga shuningdek, fol'klorlik va dunyoviy adabiyot matnlariga asoslangan edilar. Avlodlarning bir necha bor almashinishi pirovard natijada zardushtiylik

jamoalarining Zardushtlar dinidagi kishilarning yo‘q bo‘lib ketishiga olib keldi, zardushtiylik kitoblarining o‘quvchilari qolmadi.

Zardushtiylar olami, jug‘rofiy til bilan aytganda, arab manbalarida aytilganidek, Movaraunnaxr kitob madaniyatining buzilishi va o‘zgarish kiritish jarayonlariga bizning qarashlarimiz prinsipial jixatdan ana shundaydir. Voqealarni bu xildagi tushinishiga Eronning (Movaraunnaxrdan farqli o‘laroq) kitobat ishidagi voqealarni xisobga olgan xolda tuzatishlar kiritilar va chuqurlashtirilar, G‘arbiy Yevropa olimlari o‘z tadqiqotlarida ularga tayanganlar.

Masalan: **E.Vest** arablarning Eronga bostirib kirgandan keyin uch asr mobaynida (VII asr o‘rtalari –X asr o‘rtalari) zardushtiylar kitoblari va boshqa kitoblarning ko‘p miqdorda mavjud bo‘lganligi va jamyaytda foydalanib kelinganligi, “Avesto” deyarli barcha qismlarining O‘rta Eron tiliga qilingan tarjimasining **Denkard** yaratilgan vaqtlarda xam (X asr) saqlanganligi sabablarini tahlil qilib kitob repertuari asosiy o‘zagi yo‘qolib ketganligini arablar istilosi bilan bog‘lab bo‘lmaydi degan xulosaga keldi.

Forslarning anchagina qismi o‘zining qadimgi diniga amal qilishar ekan, ular o‘z adabiyotini ham xatto, bir necha asrlar mobaynida saqlab qolishga qodir edilar, deb yozadi **E.Vest**, biroq zardushtiylarning boshqa dinga o‘tishi va kirib yuborilishi sababli **Mazda** tarafdorlari ozayib ketdi so‘ngra ular **totarlarning** vaxshiylarcha xukmronligiga duch keldilar va tezda o‘zlarining qadimgi adabiyotidan mahrum bo‘ldilar.

Chunki, undan xar kuni diniy ruhda foydalanib bo‘lmasdi. Shu sababli kitoblarning yo‘q bo‘lib ketishiga qo‘lyozmalarga bosqinchilar tomonidan xar qanday putur yetkazilishidan ko‘ra ularni ko‘chirish zarurligiga e‘tiborsizlik bilan qaralgani malum darajada sabab bo‘ldi. **M.Boysning** xam fikriga ko‘ra ayni XIII asrda Markaziy Osiyo va Eronga mo‘g‘ullar bostirib kirgan davrda zardushtiylar adabiyoti qolgan qismi shu jumladan Sosoniylar Avestosining nusxasi xam (ayrim kitoblaridan tashqari) batamom yo‘q qilingan edi.

Yangi tartibdagi va ijtimoiy ishlab chiqarishni, ijtimoiy xayotning tashkil etishning yangi shakllariga o‘tilishi va deyarli ikki yuz yil davom etgan musulmonlashtirish Turkiston jamiyatini eng muxim tamonlariga o‘z tasirini o‘tkazmasdan qolmas edi.

X asr boshlariga kelib bu jamiyat VIII asrdagi jamiyatdan butunlay boshqacha edi. Uning ijtimoiy tuzilishida jamiyatni boshqarish institutlarida xalqlarning madaniy xayoti va faoliyatida fikrlash tarzida bir qator sifat o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangi din aqidalarini qabul qilgn va tashqi tomondan islom qobig'iga o'ralgan Turkiston xalqlari ichki tomondan inson shaxsining mazmuni va manaviy o'zagini madaniy axloqiy ijtimoiy-psixologik va maishiy yo'l-yo'riqlarni saqlab qoldilar.

Xalqlarning qurolli qarshilik ko'rsatishlarini yengish yo'li bilan xalq ommosi orasida uning eng bilimdon qismini mavx etish madaniyat yodgorliklarini yo'q qilish bir necha avlodlar xayoti davomida axolining asosiy qismini islom diniga kritish mumkin edi.

Lekin, jamiyatning manaviy tuzilishini yo'q qilib bo'lmas edi, chunki u ko'p asrlik an'anaviy xalq madaniyatiga asoslangan va u bilan shaxsning ijtimoiylashuvi orqali boglangan ediki bu aslida bir vaqtlar zardushtiylikning o'zaro boglanib kelishi diniy qarashlar tizimi sifatida jamiyatning manaviy tuzilishini xalqlarning butun an'anaviy madantiyatini qo'llab quvatladi.

Turkiston jamiyati madaniy an'analar voriysiyligi ob'ektiv qonunlarining amal qilishi tufayli o'zining bu negizini oilada shakllanadigan ijtimoiy ongni o'zgartira olmas edi. Bu an'ana inson ongiga ona suti bilan birga singib madaniyatni tashkil qiluvchi asosiy tabiiy vositalardan biri xisoblanadi shuning uchun xam xalqlarning madaniy diniy axloqiy manaviy va boshqa an'analarida ayniqsa sezilarli darjada uzilishlar sodir bo'ladi. Farq xalqlar madaniyatlar (xususan zardushtiylik madaniyyati) an'analarning o'zgarishi va musulmon din aqidalari tizimi bilan birlashuvi ularning o'zaro maqbul sinkritizmi va yanada rivojlanishi xaqidagina gap borishi mumkin (bu yerda ijtimoiy ongning ijtimoiy omillar tasiri ostida va vaqt o'tishi bilan o'zgarish xususiyati o'z kuchini ko'rsatadi).

Islom dinini joriy qilishning dastlabki ikki yuz yili mobaynida ro'y bergan xuddi shunday evolyusion rivojlanish X asrga kelib Turkiston xalqlarining yangi o'zgargan qiyofasini uning yangi fikrlash tarzini (u o'ziga endi sinkretik an'anani meros qilib olgan edi) o'ziga eski va yangi madaniyat tarkibiy qismlarni singdirgan fikrlash tarzini belgilab beradi.

Axolining o'z kitob repertuaridan maxrum b'lishi, yangi tillarga o'tishi, islom dinini qabul qilishi va arab tilining joriy etilishi xam yozma madaniyat va kitobat ishining an'analari yozma asar yaratish va ko'chirish an'alarining qoidalarini uzilib qolishiga sabab bo'ldi. Turkiston xalqlari arab istilosi vaqtiga kelib o'ziga xos boy madaniyat, barqaror madaniy an'analarga ega bo'lganligi chuqur ijobiy axamiyatga ega bo'ldi.

Shuning uchun xam **Turkiston xalqlarining** turli soxalarini, san'at turlari va adabiyotni kitoblar ishi tarmoqlarini rivojlantirishdagi shundan keyingi yetuklari endi arab yozuvida foydalanadigan musulmon olami mamlakatlari ilmiy siyosiy va madaniy vorislik jarayoniga kirish bilan bir qatorda avvalgi davlatlardagi o'z ilmiy va madaniy yutuqlariga asoslangan edi.

Buning eng yaxshi guvoxi Turkistonlik **Al-Xorazmiy** (783-850), **At-Termiziy** (VIII-IX asrlar), **Al-Buxoriy** (VIII-IX asrlar), **Al-Fargoniy** (873-950), **Beruniy** (973-1048), **Ibn Sino** (980-1037)larning yaratgan asrlari bo'lib ularning faoliyati **qadimgi Xorazm, Baktriya, Sugd, Isfijob**ning ilmiy va madaniy an'alarini davom ettirdi xamda boyitdi. Maxalliy tarixiy-madaniy va adabiy-badiiy an'alarni davom ettirishning buyuk namunasi X asrning ulkan shoiri **Firdafsiy**ning butun jaxonga mashxur **"Shoxnoma"** dostoni bo'ldi, bu asar bundan oldingi butun Eron-O'rta Osiyo istiografiysiga asoslangan edi. Uchta juda katta davr mifologik (afsonaviy) qaxramonana va tarixiy davrlarga bo'lingan bu dostonining eng muxim tarixiy manbalari **Paxlovon Rustam** to'g'risidagi **so'g'd - sak** rivoyatlari turkumida, **Siyovush** to'g'risidagi **Sug' d - Xorazm afsonalari**, Isfandiyor to'g'risida **Baqtriya afsonasi**, O'rta Osiyo va Eronga doir ko'pgina afsonalar va rivoyatlardan iborat bo'lib ularning ildizlari Avestoda xam aks ettirilgan edi.

O'zining tasir ko'rsatish kuchi jixatidan g'oyat muxim va tarixan qaror topgan shundan keyingi o'rta asr kitob madaniyatida ko'pgina tomoyillarni belgilab bergan narsa Eron Dariy, eski Turkiy va Tojik tillariga o'tgan.

Turkiston xalqlarining ko'p asrlik o'z yozuv an'anasi bo'lib, u nisbatan qisqa muddat ichida arab yozuvini o'zlashtirish va unga o'tishga uni o'z tillariga moslashtrishga imkon berdi.

Dastlab o'zini avesto an'alarida kitobiy paxlaviy va sug'd yozuvi

soxalarda nomoyon qilgan xatotlik yozuvi san'ati o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining kitobat ishi zaminida o'zgarib, mustaqil kitob san'ati soxasiga aylandi. U o'ziga badiiy-obrazli faollik, o'qishga qulaylik talablarini va insonning ijtimoiy-amaliy faoliyati soxasini qamrab olib, kitob boyliklarining shiva bilimlarining tarqalishiga xizmat qiladi. Birmuncha oldinlab ketib shuni qayd etamizki, keyinchalik oradan bir necha asrlar o'tgandan so'ng Turkiston, Ozorbayjon va Eron va turkiy tillaridagi xalqlarning orasidan yetishib chiqqan xattotlari **arab yozuvining** yangi uslubiy turlari ijodkorlari sifatida xam maydonga chiqadilar. Ular tamonidan yaratilgan o'ziga xos **taliq, nastaliq, mojoriy, devoniy, jali-devoniy, riqo**, uslublari yaqqol ifodalangan maxalliy koroliti bilan ajralib turadi o'zida milliy kitob madaniyati tasirini va birinchi navbatda mazkur xalqlar yozuvlarning qadimgi an'alarini aks ettiradi. Masalan, **Eron**da yaratilgan **taliq yozuv** uslubi kitobiy **paxlaviy uslubi**ga (O'rta Eron alifbosi tizimining qiya yozuvi) juda yaqin. Turkistonda poydo bo'lgan **siyogat uslubi** sug'd qiya yozuvi asosida rivojlangan uyg'ur uslubi

yaqindir. Bizgacha yetib kelgan Avesto qo'lyozmalari shundan dalolat beradiki, uni kotifikatsiya qilishda ayniqsa **avesto yozuvi** yaratilgandan keyin va chamasi u bilan bir vaqtda matnni bo'limlarga bo'lish matnni ko'chirish chog'ida uni eng muxim mantini tarkibiy qismlar bo'lim, qism rukn va shu kabilarga ajratish qoidalari xam ishlab chiqildi.

Manixeylar kitobida original texnika va estetik bezatish bilan bir qatorda matnni ikki qismlarga ajratishda o'ziga xos qoidalari ishlab chiqilgan va tadbiq etilgan edi. Manixeylar - **eronliklar, sugdlar, turklarning** kitoblarini bezatish mo'jaz tasviriy san'at, xatotlik muqovachilik ishi soxasidagi erishgan yutiqlari bilan shundan keyingi davrlarda turkiston xalqlari kitobat ishi soxasida qo'lga kiritgan yutiqlarining jiddiy bog'likligi ko'zga tashlanadi.

Eramizning II-VIII asrlarida Xorazm, Baqtriya, So'gd, Chag'aniston, Usturshona (Afrosiyob, Panjikent, Varaxsha, Shaxriston, Dalvarzintepa, Xolchayon, Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Ajinatera, Fayoztepa) mavjud bo'lgan devoriy tasviriy sanat an'alarining shundan keyingi Turkiston kitob san'atining rivojlanishiga sezilarli tasir korsatganligini xisobga

olmaslik mumkin emas.

Turkistonda arab yozuvining m ustaxkamlanishiga imkon bergan omillar q atorida **arab yozuvi** asosida vujudga kelgan va rivoj topgan **eski tojik, eski o'zbek, eski turkman, eski qozoq, eski qirg'iz singari Yangi Turkiston yozuvining** paydo bo'lishida bu yerda qog'oz ishlab chiqarishning keng yo'lga qo'yilganligi xam muxim ahamiyatga ega bo'ldi. Qog'ozning yozuvda tadbqiq etilishi **arab yozuvi** grafikasi va uslublarining rivojiga xattotlik san'ati kitob ishi va qo'lyozmalarni tuzatishda qulay tasir ko'rsatdi shu bilan birga qo'lyozma kitoblar shakli va tashqi ko'rinishi yanada rivojlantirish turllarni belgilab berdi.

Turkistonda kitob yozish qo'lyozmalarni ko'chirish va ko'paytrish an'analari kitob to'plash va xar xil kutubxonalar sulola (Saroy), shaxsiy (xususiy) kutubxonalar shuningdek, madrasa mavzoley xonoqolar (pansionlar) kasalxonadagi kutubxonalar shaxar va qishloq mavzolaridagi (maxallalardagi) kutubxonalar xamda musulmon mahkamalari mulki bo'lgan kutubxonalar tashkil etish ishlari Yangi tarixiy sharoitda va yangicha davom etardi.

Turkiy yozma manbalar

Turkiy qo'lyozmalar juda katta geografik hududda yaratilgan va ko'chirilgan. Bular: **O'rta Osiyo, G'arbiy Sibir, Ural, Volga bo'yi, Shimoliy Kavkaz, Kavkaz orti o'lkalari, Qrim, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Kashmir, Misr, Iroq, Suriya, Bolgariya, Ruminiya, Yugoslaviya o'lkalaridir.** Bu qo'lyozmalar juda ko'p **turkiy tillarda, tatar, qrimtatar, bashqird, qozoq,** va boshqa tillarda yaratilgan.

O'rta Osiyo qo'lyozmalari haqida gapirar ekanmiz, yana shuni ununtmasligimiz kerakki, O'rta Osiyoning chegarasi doimo o'zgarib turgan. Temuriylar davrida Xirot ham shu rayonga tegishli bo'lsa, Boburiylar davriga kelib, Hindistonning shimoliy qismi ham shu regionga qarashli bo'lgan.

Turkiy tilda arab grafikasida bitilgan turkiy, qo'lyozmalarning eng qadimiysi XI asrga mansub bo'lib, u **Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig»** asaridir. U 1069-1070 (462 xijriy) da yozilgan. Uning bizgacha etib

kelgan eng qadimiy qo'lyozmasi XIII asrda bitilgan. Undan keyingi qo'lyozma Mahmud Qashg'ariyning **«Devoni lug'otit-turk»** asaridir. U 1073-1074 (466 xijriy) da yozilgan. Uning eng qadimgi qo'lyozmasi 1266 (64 xijriy). Turkiy tilda eng ko'p qo'lyozma bitilgan davr XVIII-XIX asrdir. XI-XIII asrlarda esa ular barmoq bilan sanarli edi. Buning sababi: turkiy qo'lyozmaning ko'pi yo'qolib ketgan yoki u davrda asosan **arab** va **fors tillaridagina** qo'lyozmalar yaratilgan.

O'rta Osiyodagi ilk qo'lyozmalar **Ahmad Yassaviy**ning **«Hikmat»**laridir. (1166 yilda - 562 xijriyda vafot etgan). She'riy uslubda yozilgan bu hikmatlar o'sha davrdayoq devon shakliga keltirilgan va turkiyzabon aholi o'rtasida keng tarqalgan.

Mashhur Xorazmlik faqix va filolog olim **Muhammad ibn Umar Zamahshariy** (1143 yilda-538 xijriyda vafot etgan). **Xorazm shohi Otsizning** buyurtmasi bilan **«Muqaddimat-ul adab»** asarini yozgan. Bu asar arabcha-turkiycha lug'at va turkiy tilning gramatikasiga bag'ishlangan. Bu asar bir necha marta ko'chirib yozilgan. Uning eng qadimgisi 1492 yilda 989 xijriy. Buxoroda ko'chirilgan. Shuningdek u **Samarqand va Toshkentda** ham ko'chirib yozilgan.

XII asr oxiri, XIII asr boshlarida yashagan mutasavvuf shoir Sulaymon Boqirg'oniy yoki Hakim ota Xorazmning Baqirg'on degan joyida yashagan. U birinchi diniy mazmundagi qasidalar yozgan. **«Boqirg'on kitobi»**, **«Maryam kitobi»**, **«Oxir zamon kitobi»** shular jumlasidandir. Bular qo'lyozma shaklida keng tarqalgan va ommabop kitoblardan hisoblangan. XII-XIII asrlarda Qarshida Qur'onga turkiy tilda tafsir yozilgan. U shartli ravishda **«Qur'onning O'rta Osiyo tafsiri»** deb ataladi (asli nomi va muallifi no'malum). 1212-1213 yillar-609 xijriy) Ali ismli shaxs Xorazmda **«Qissayi Yusuf»** asarini yozgan va qo'lyozma shaklida o'qilgan. 1220 yilda Xorazm mo'g'illar tomonidan bosib olingan. Bu davrda Xorazmning Raboti O'g'uz degan joyida **Nasriddin Burxoniddin** (u qozi bo'lgan) **«Qissasul anbiyo»** asarini yozgan. U o'sha davrda Raboti O'g'uzning hokimi bo'lgan Nasriddin **Toq Bug'aga** tortiq qilish uchun 1310-1311 (710 xijriy) yillarda yozilgan. Bu asar aholi orasida **«Qissasi Rabg'uziy»** nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu davrda Xorazmda shoir **Qutb «Xusrav va Shirin»** she'riy dostonini yozgan.

Ho‘jabek Xorazmiy degan shoir «**Muhabbatnoma**» she’riy asarini yozgan. Har ikki asar qo‘lyozma shaklida el orasida mashhur bo‘lgan. **Temuriylar davriga** kelib **O‘rta Osiyoning madaniy markazlari Samarqand bilan Xirotda** edi. Bu shaharlarda fanlarni o‘rgatishga, she’riyatga va san’atga ko‘proq e’tibor qaratilgan edi. Bu davrdagi shoirlardan XIV asr oxiri-XV asr boshlarida yashagan **Xo‘jandiy**, XV asr birinchi yarmida yashagan **Sakkokiy, Lutfiy** (1366-1465), **Atoyi** (XV asr)larni eslab o‘rish kerak. **Sulton Husayin Boyqaro** hukmronlik qilgan davrga kelib (1469-1506), she’riyat o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga etishgan edi. Bu esa, mashhur shoirimiz mutafakkir **Alisher Navoiy** ijodi bilan bog‘liq edi. Navoiydan tashqari Husayin Boyqaroning o‘zidan tortib, **Durbek** va boshqa juda ko‘p shoirlar etishib chiqqan edilar. Bu davrda juda ko‘p **forsiy zabon she’riy asarlar turkiy tilda** qayta ishlanib, **turkiy adabiyot** boyitilgan.

Bunday badiiy adabiyot namunalaridan tashqari **Navoiy** 1481-1482 (886 xijriy) yilda «**Vaqfiya**» asarini yozgan va bunda o‘ziga qarashli bo‘lgan er-mulkni Xirotdagi Ixlosiyya masjidiga vaqf qilib berish masalasi ko‘tarilgan. 1488-1489 (894 xijriy) yillarda Xurosonda yashab xukmronlik qilgan podshohlarning tarixiga bag‘ishlangan «**Tarixi mulki Ajam**» nasriy asarini yozgan. Bu asarning barchasi qo‘lyozma shaklida vujudga kelgan.

Tarixdan ma’lumki, XVI asrda O‘rta Osiyoni **Shayboniylar sulolasi** boshqargan. Ularning poytaxti ham **Samarqand shahri** edi. Bu sulolaning asoschisi bo‘lgan **Shayboniixonning** o‘zi ham shoir bo‘lgan (1506-1510) va o‘sha davrdagi olim va shoirlarga homiylik qilgan. Uning saroyida «**Shayboniynoma**» asarining muallifi **Muhammad Solih** (1534-941 xijriy) yilda favot etgan. Shuningdek, «**Tavorixi guzida Nusratnoma**» nomli tarixiy asar muallifi (ismi no‘malum) ham saroyda yashagan. Bu asar 1502-1503 (908 xijriy) yilda yozilgan. Bu davrda **Binoiy** isimli shoir yashagan. U **forsiy zabon** she’rlar yozgan va «**Ajoyib-ul mahluqot**» nomli asarini **forsiydan turkiyga tarjima** qilgan. 1525 (931 xijriy) yilda musulmon hukmronlarning umumiy tarixini yorituvchi «**Zabdatul-asar**» nomli ilmiy kitobi vujudga kelgan. Uning muallifi **Nasrulloiy** isimli **tarixshunosdir**.

XVI asrda **Bobur Hindistonda Boburiylar sulolasiga** asos soldi. Boburning o'zi bu davrda **«Boburnoma»** nomli memuaridan tashqari aruz janriga bag'ishlangan **«Mubayyin»** nomli risolasini yozgan. Boburiylarning saroyida **Baramxon** ismli **turkman shoiri** yashagan. (1561 da vafot etgan). Uning o'g'li **Abdurahim Mirzo** ham shoir bo'lgan va **«Boburnoma»ni fors tiliga** tarjima qilgan.

XVII-XVIII asrga kelib, O'rta Osiyoning madaniy markazlari sifiga **Buxoro va Xiva shaharlari** ham qo'shildi. **Buxoroda Imomqulixon** (1640 yilda vafot etgan), **Subxonqulixon** (1702 yilda vafot etgan), **Qulsharif** (1692 yilda vafot etgan), **So'fi Olloyor** (1721 yilda vafot etgan), **Saykaliy** (1797 yilda vafot etgan), **Turdi** (1700 yilda vafot etgan), **Obidiy** (1828 yilda vafot etgan) kabi shoirlar yashab ijod etishgan. Xivada esa, **turkman qabila boshliqlarining** iltimosiga ko'ra 1661 yilda **«Shajarayi tarokima»** asarini va **«Shajarayi turk»** asarlarini yozgan **Abulg'azi Bahodirxon, Hasanquli Axsaniy** (XVII asr) yashagan. XVIII asr oxirida ismi noma'lum bir tarixshunos **Shayboniyning** qilgan yurishlariga bag'ishlangan **«Shayboniynoma»** asarini yozgan.

XIX asrda Xivada podshah saroyida bir qator tarixshunoslar, shoirlar, tarjimonlar yashashgan. Masalan, shoir **Munis** (1778-1829) va uning jiyani **Ogahiy** (1809-1874) dunyo yaratilgandan beri 1825 yilgacha hukmronlik qilgan xonlarning tarixini yorituvchi **«Firdavsul iqbol»** asarini yozishgan. Keyinchalik **Ogahiy** xonlarning topshirig'i bilan bir qator salnomalar yaratgan: 1825-1843 yillarga doir **«Riyozud-davla»** solnomasini, 1843-1846 yillarga doir **«Zubdatul-tavorix»** solnomasini, 1845-1855 yillar voqeasiga doir **«Jamiu voqioti sultoni»** solnomasini, 1855-1864 yillarga doir **«Gulshani davlat»** solnomasini, 1864-1873 yillarga doir **«Shohiul-iqbol»** solnomasini yozgan.

Eshmurod Al-Alaviy ismli mudarris 1804 yildan 1864 yilgacha davom ettirgan inoqlar sulolasi hukmronligiga bag'ishlangan **«Tarixi Sayyid Muhammadxoniy»** (1861 yilda) va **«Tarixchayi Muhammad Yoqubxo'ja»** tarixiy asarini (1863-1864 yillarda) yozgan. Bundan tashqari Xivada **Komil Xorazmiy** (1825-1899), **Feruz (Muhammad Rahimxon-II)** (hukmronlik yillari 1865-1910) yashab ijod etganlar.

XIX asr boshlariga kelib, Qo'qon ham madaniy markazlar safiga

qo'shildi. Bu yerda **Amir Umarxon** (1810-1822) boshchiligida **Fazliy Namangoniy, Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy, Fitrat, Xamza** kabi shoirlar etishib chiqdi. XX asr boshlarida esa **Rojiy** (1908 yilda vafot etgan), **Kameb** (1922 yilda vafot etgan), **Mirza** (1922 yilda vafot etgan) kabi shoirlar yashab ijod etishgan.

Bulardan tashqari bir qator ilmiy asarlar fors tilidan turkiy tilga tarjima qilingan. Jumladan: Tarixiy asarlardan **Mirxondning** (XV asr) «**Ravzat us-safo**» asari, uni XIX asr o'rtalarida **Rojiy** nomli shaxs tarjima qilgan, **Mexdixonning** (XVIII asr) «**Durrayi Nodiriy**» asari, uni **Muhammad Nazar** va **Ogahiy** (XIX asr) tarjima qilishgan. **Muhammad Xakimning** «**Muntaxabut-tavorix**» asari. Uni XIX asrning ikkinchi yarmida ismi noma'lum shaxs tarjima qilgan. Tasavvufga oid 1696-1697 yillarda **Muhammad Sodiq Yangixisoriy** tomonidan yozilgan «**Jomiul-makomot**» asari, uni **Abulboqi ibn Baxouddin ibn Maxdumi A'zam** tarjima qilgan. Shuningdek, **Vosifiyning** «**Badoyiul-vaqoyi**» nomli memuar asari (XVI asr) **Dilovar** ismli shaxs tomonidan tarjima qilingan. **Albalxiyning** geografiyaga oid «**Majmaul-g'aroyib**» asari (1566-1567 yil). **Muhammad Xusayin Mahdum** tomonidan tarjima qilingan. Bundan tashqari **Amir Temurning** biografiyasiga oid «**Tuzuki Temuriy**» asari ham fors tilidan 1835-1836 yillarda **Xotifquli** ismli shaxs tomonidan turkiy tiliga tarjima qilingan. **O'rta Osiyodagi kutubxonalar haqida:**

O'rta Osiyo hududida juda boy saroy va shaxsiy kutubxonalar qadimdan mavjud bo'lgan. XI-XIII asrlarda Samarqandda anchagina kutubxonalar shakllangan edi. XII asrda **Marvda Somoniylar sulolasining** kutubxonasi mavjud bo'lgan.

XIII asrdan boshlab **Rashididdin** ismli shaxsning kutubxonasida (1247-1318) qo'lyozma kitoblarni bitadigan xattot va boshqa ustalarning ustaxonasi ham mavjud bo'lgan. Buxoroda XV asr boshlarida **Muhammad Fors** tomonidan asos solingan (1419 yilda vafot etgan) kutubxona mavjud bo'lgan. XV asr boshlarida Samarqand **Amir Temur** tug'ilgan va keyinchalik nevarasi **Ulug'bekka** o'tgan kutubxona vujudga kelgan. Xirotda **Boysunqur mirzo** saroyi kutubxonasini tashkil etgan (1433 yilda vafot etgan). U erda Alisher Navoiyning ham shaxsiy kutubxonasi mavjud edi. XVII asrda **Buxoroda Ashtarxoniylar**

sulolasiga mansub shoxlardan **Abdulazizxon** (1645-1680), va uning inisi **Subxonqulixon** (1680-1702) qo'lyozmalarini jamlab kutubxona tashkil etishgan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Xivada **Muhammad Rahimxon II** ning kutubxonasi ishlab turgan. XX asr boshlarida bir necha shaxsiy kutubxonalar: jumladan, Buxoroda Validovlarning kutubxonasi, Toshkentda **Jo'rabekning** kutubxonasi va hokazo.

Boburiylar davrida (XVI-XVII asrlar) O'rta Osiyo bilan Hindiston o'rtasida madaniy aloqalar kuchaygan edi. Hindistonga Farg'ona vodiysidan, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlardan yirik shoirlar, olimlar, tabiblar, xattotlar, me'morlar, naqqoshlar taklif qilingan edi. Shuning uchun Hindiston kutubxonalarida ham bir qator turkiy qo'lyozmalar to'plangan. Masalan, «Buxoronoma» ning Haydarobod nushasi, Kalkutta nushasi, Boburning XVIII asrda tuzilgan uchta devoni, Boburning aruzga oid risolasining fors tiliga tarjimasi (uni XVIII asrda Azfariy Qoraxoniylar Madrasasida tarjima qilingan). **Haydar Xorazmiy, Durbek, Lutfiy, Zebunisobegimlarning** she'rlari qo'lyozmalari hozirgacha Hindiston kutubxonalarida saqlanmoqda.

XIV asrda Xorazmdan Sherozga ketib qolgan Abdurahim ismli shoirning to'plami-u Sherozda mashhur shoir Xofiz Xorazmiy bilan tanishgan va o'ziga ham Xofiz deb taxallus tanlagan. U keyinchalik Xofiz Xorazmiy nomi bilan mashhur bo'lgan. Shu shoirning yagona she'riy to'plami ham Hindistonda saqlanmoqda. XV asr o'zbek shoiri Said Qosimiyning «Majmaul-axbor», «Gulshani roz», «Ilohiynoma» kabi didaktik asarlari 1634 yilda ko'chirilgan nushasi ham Hindistondan o'rin topgan. Shuningdek, Ulug'bekning, Ali Qushchining, Ibn Sinoning, Abdurahmon Jomiyning arab tilida yozgan asarlari ham Hindiston kutubxonalarida saqlanmoqda. Hindistonning Rampur shahrida Turkman shoiri Bayramxonning, Boburning o'g'li Kamronning yozgan lirik she'rlari bilan bitta qilib devon qilingan qo'lyozmasi hozircha saqlanmoqda. Xulosa: O'rta Osiyo qadimdan butunjahon sivilizatsiyasining o'choqlaridan hisoblangan va unda yaratilgan ilmiy va badiiy qo'lyozmalar dunyo madaniyatiga qo'shilgan yirik asarlar muhim salmoqqa ega.

15-§.QADIMGI AXBOROT TASHUVCHI VOSITALAR

Bugungi kunda axborot tashuvchi vositaar haqida gap ketganda, ko‘pchilik turli dikslar, fleshka kabi qurilmalarni tilga oladi. Biroq mazkur qurilmalar yaratilguniga qadar insoniyat taraqqiyotida qanday axborot tashuvchi vositalar mavjud bo‘lganligi, odamlar qanday usulda axborotni saqlab, ko‘p asrlar osha avlodlarga etkazganliklari barchani qiziqтира kerak. Bu borada ayrim ma’lumotlarga ega bo‘lishni istasangiz, navbatdagi sahifamiz aynan shu haqda. Shunday qilib, mamlakatimiz «Aloqa tarixi muzeyi» bilan tanishishda davom etib, qadimiy axborot tashuvchi vositalar mavzusida so‘z yuritamiz.

Insoniyat tarixining ilk davrlaridanoq axborot almashishga ehtiyoj paydo bo‘la boshlagan hamda doimo mavjud bo‘lgan. Shu maqsadda tarixiy taraqqiyot bosqichlarida juda ko‘plab axborot tashuvchi vositalardan foydalanilgan. Axborot tashuvchi vositalar qator ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, ularning rivojlanish istiqboli mazkur axborot tashuvchilarga o‘z davrida qanday talablar qo‘yilishi bilan belgilangan. Axborot tashuvchi vositalar — tushunchasi nimani anglatadi?

Axborot tashuvchilar — bu uzoq vaqt mobaynida kiritilgan axborotni saqlash, tarqatish, uzatish, tashish va etkazishga qodir har qanday material, obyekt yoki virtual muhitdir. Axborot tashuvchilar — toshlar, daraxt, qog‘oz, metall, plastmassa, kremniy va boshqa magnit qatlamli (bobinli yoki kassetali) lenta, maxsus xususiyatga ega plastik (optik yozuvli — CD, DVD), EMN (elektromagnitli nurlanish) va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Axborot tashuvchi vositalar barcha uchun kiritilgan, saqlanayotgan axborotni o‘qish qulay bo‘lgan har qanday obyekt bo‘lishi mumkin. Axborot tashuvchilar fanda (axborot markazlari, kutubxonalar), texnikada aloqa sohasi vositalari, ijtimoiy sohada ommaviy axborot vositalari bo‘lib, quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- yozish;
- saqlash;
- o‘qish;
- uzatish (tarqatish);
- asar yaratish.



Axborot tashuvchilar qobiqda joylashtirilgan, himoyalanganligi bilan axborot saqlash xususiyatining oshishini ta'minlaydi va shunga muvofiq, axborotni ishonchli saqlaydi (masalan, qog'oz varag'i — muqovalanadi, xotira mikrosxemasi — plastik smart-kartalar, magnit lentalar va boshqalar korpusda joylashtiriladi).



Axborot tashuvchilarning quyidagi tarixiy turlari ma'lum:

- turli materiallardan ishlangan qadimiy axborot tashuvchilar;
- elektron axborot tashuvchilar;
- axborot saqlash qurilmalari.

Axborot tashuvchilarni turkumlashtirish:

- narsa-predmetli (kitoblar, maktublar, arxeologik va paleontologik topilmalar, xotirada saqlovchi apparat qurilmalari);
- bioximik (DNK, RNK va boshqalar);
- to'liqlik-ovozli, elektromagnit va boshqa to'liqliklar.

Kelib chiqishi bo'yicha:

- tabiiy (kimyoviy tarkibi bo'yicha axborot beruvchi yulduzlar rangi, o'lchamlari haqida axborot etkazgan dinozavrlar suyaklari, meteoritlar);
- sun'iy (biror axborot berilgan qog'oz varag'i, radioto'liqliklar, olis kosmik kemalar bilan aloqa, axborot almashish imkonini beruvchi antennali stansiyalar).

Axborot tashuvchilarning turlari sharoit va tashqi shartlarga bog'liq holda o'zgarib boradi. Axborot tashuvchilarning asosiy materiallari — qog'oz, perfolenta, perfokarta, varaqchalar va quyidagilar: plastik — shtrix-kod, optik disklar; magnit materiallar — magnit lentalar va disklar; yarim o'tkazgichlar-xotira turlari bo'lishi mumkin.

Axborot tashuvchi vositalarning eng qadimgilari: kuydirib bitilgan, pishirilgan loy, tosh, yog'och, pergament, daraxt po'stlog'i, papirus, mum, turli mato va boshqalardan iborat bo'lgan. Axborot tashuvchi materiallarni tayyorlashda turli ta'sir uslublari:

- mexanik (naqsh-o'ymakorlik, parmalash, tikish);
- issiqlik ta'sirida (kuydirib);
- elektrik (elektrik signallar);
- kimyoviy (bo'yoqlar va boshqalar)dan foydalanilgan.

Axborot tashuvchi vositalarning eng qadimiy namunalari o'quvchilik davrimizdanoq tarix fanidan ko'pchilikka ma'lum. Qadimgi odamlar qoyalarda o'zlari ov qilgan hayvonlarning rasmini tasvirlaganliklari haqida o'qiganmiz. Biroq ko'mir, loy, bo'r bilan tasvirlangan rasmlar yog'ingarchiliklar mavsumi davrida yuvilib ketgan. Shu boisdan ham

ibtidoiy davrlarda, rasmlar ishonchli saqlanib qolishi muddatini oshirish maqsadida hayvonlar shaklini qoyalarga o'tkir qirrali toshlar bilan o'yib tasvirlay boshlaganlar. Toshlar axborotni uzoq muddat saqlasada, biroq odamlarda axborotni uzatish tezligi zarurati ham tug'ila boshlaydi. Odamlar boshqa manzillarga axborotni tezkor etkazish maqsadida loydan foydalana boshlaydilar, u axborot saqlashda tosh kabi xususiyatga ega bo'lib, yozuvlarni samarali amalga oshirishda qulayroq edi.



Yozuvlarni samarali amalga oshirish esa yozma maktublar paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Miloddan besh ming yil avval dastlabki yozuvlar, ya'ni loyda amalga oshirilgan (rasmlar o'rnida ko'proq harflarni eslatadigan belgi va piktogramma) yozuvlar paydo bo'ldi.

Bu davrda odamlar loyga belgilar orqali yozuvlarni bitganlar va turli qutilarda saqlaganlar, shunday loyga bitilgan yozuvlar namunalari topilmalari bunga guvohlik beradi. Vaqt o'tishi bilan loyda bitilgan yozuv bo'laklari katta matnlar uchun og'irlik qila boshladi, biroq aynan katta axborotlarni etkazishga ehtiyoj o'sib borardi. Shuning uchun ham uning o'rniga boshqa axborot tashuvchi vosita paydo bo'lishi zarur edi. Bu Misr papirusi bo'ldi.

Eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik boshlarida **Misrda** avvalgisidan afzal yangi axborot tashuvchi vosita paydo bo'ldi. Misrliklar o'tsimon o'simlik **papirusdan deyarli haqiqiy qog'oz ishlashni o'rganib olgandilar**. Papirus so'zidan ayrim xalqlar lug'at boyligida: **papier** — fransuz tilida, **paper** — ingliz tilida, **papel** — ispan tilida, **papera** — belorus tilida **qog'oz** atamasi paydo bo'lgan. Mazkur axborot

tashuvchining kamchiligi u vaqt o'tishi bilan qorayib, sina boshlardi. Buning ustiga misrliklar papirusni chet elga olib ketishni qat'iy taqiqlagandilar.



Axborot tashuvchi vositalar (loy, papirus, mum)ning kamchiliklari yangi axborot tashuvchi vositalar paydo bo'lishiga asos bo'lib, rag'batlantirdi. Bunda asosan doim yangi va yangi vositalar afzallik xususiyatiga ega bo'la bordi: Eronda qadimdan yozuvlar uchun quritilgan hayvonlar terisidan, ya'ni oshlangan teridan tayyorlangan — «**daftar**»lardan foydalanilgan. Mazkur so'z turkiy tillar lug'at boyligiga kiritilib, shu kungacha foydalanib kelinadi. Shuningdek, miloddan oldingi II asrda **Yunonistondagi Pergam shahrida** (qadimiy texnologiyaga asosan) teriga ishlov berib, tayyorlash jarayonini takomillashtirib, **pergament** ishlab chiqarishga kirishdilar. Yangi axborot tashuvchining afzalligi — uning yuksak darajada axborotni saqlashida edi.

Avvalgi axborot tashuvchilarda kamchiliklar mavjudligi sababli **Xitoy imperatori Lyu Chjao** ularning o'rniga munosibini topib, almashtirishga buyruq berdi, amaldorlardan biri (**Tsay Lun**) miloddan oldingi 105-yilda daraxtlar yog'och tolalari, poxol, o't-o'lan, mox, latta-putta, zig'irpoya, o'simlik chiqindilari va boshqalardan qog'oz tayyorlash (hozirgi qog'ozlar undan juda oz farqlanadigan) usulini ishlab chiqdi.

Mamlakatimizda axborot saqlovchi vositalar o'z tarixiga ega. Ma'lumki, axborot yetkazishda yozuv madaniyati tarixi davlatchilik,

ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotning bevosita uzviy qismi hisoblangan. Yozuv madaniyati uzoq asrlar maboynida shakllanib borib, harf sifatida shakllanguniga qadar, «mnemonika», «buyumli yozuv», «piktografiya», «ideogramma» kabi bosqichlarni bosib o'tgan. Mamlakatimizning ko'plab mintaqalarida olib borilgan arxeologik kuzatish ishlarida yuqorida tilga olingan axborot tashuvchi vositalarning ayrim namunalari saqlanib qolgan.



Markaziy Osiyo xalqlarining axborotlarni saqlash va avlodlariga yetkazishda qadimiy yozuvlardan foydalanganlar. Miloddan avvalgi asrlarda shakllangan: **oromiy, so'g'diycha, xorazmiy, boxtariy** kabi qadimiy yozuvlaridan tashqari, qadimgi **turkiy yozuvlarda** bitilgan qadimiy manbalar topilgan. **Podayotoqtepa yodgorligidanda**n topilgan sopol idish sirtiga tasvirlangan **ideogramma** uslubidagi yozuv namunalari yuqoridagi fikrlarimizga dalil bo'la oladi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda ming yildan ortiq davrda **arab yozuvi** bilan bog'liq va yozma merosimiz bo'lgan **arab, fors va turkiy tillardagi** asarlar ham arab yozuvida bitilgan. Shahrisabzdagi **Oqsaroy, Dorulsaodat** va boshqa majmualarining devoriy bezaklarida ham geometrik to'g'ri burchakli etib ifodalangan naqshsimon yozuvlar mavjud. IX–XI-asrlardagi ko'plab sopol idishlarda (Qoraxoniylar davri) bitilgan kufiy uslubidagi yozuv namunalari ham alohida e'tiborga loyiq.

Qadimgi avlodlarimizdan bizgacha etib kelgan bunday axborot

tashuvchi yodgorliklar mamlakatimizning turli burchaklarida, ayniqsa, poytaxtimiz Toshkent shahrida ham ko‘p ekanligini yaxshi bilamiz.

Ma’lumki, Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida barcha sohalardagi kabi axborot saqlash, uzatish madaniyatida ham rivojlanish davri boshlangan. Amir Temur saroyida katta kutubxonalar tashkil etilib, kutubxonada ko‘plab dunyoga mashhur xattotlar faoliyat yuritgan. Davlatlararo munosabatlarda ham maktublarni etkazish usullari taraqqiy etib borgan. Masalan, tarixchi Sharofiddin ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida mavlono Abdulloh Keshiy tomonidan Misr podshohiga Amir Temur «eni 3 gaz, uzunligi 70 gaz (hozirgi o‘lchovda eni 1,8 metr, uzunligi 42 metr) kitobat va xusnixat fazilatida yagona mavlono Muhammad xati bilan bitilgan maktub jo‘natilganligi haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Markaziy Osiyoning yozuv tarixida Amir Temur va temuriylar davrida xusnixat rivojiga katta e’tibor qaratilgan, bu an’ana Xusayn Boyqaro hukmdorligida Alisher Navoiy homiyligida ravnaq topgan. Bu davrlarga kelib, axborot tashuvchi vositalar qatorida kitoblar alohida muhim o‘rinni egallay boshlagandi. Ular nafaqat o‘z zamonasi, balki bizning axborot asri deb atalayotgan asrimizga qadar katta ahamiyatga molik milliy qadriyat, bebaho ma’naviy merosimiz namunasi sifatida o‘zida saqlangan axborotlarni kitobxonlarga etkazib kelmoqda, kelajak avlodlar bilim doiralari va dunyoqarashlarini kengaytirishga munosib hissa qo‘shmoqda.

«Aloqa tarixi muzeyi» bilan hamkorlikdagi loyihamiz asosida axborotlarni asrlar osha avlodlarga etkazish, saqlash, tarqatish, tashish, uzatish vazifalarini bajaruvchi boshqa vositalar to‘g‘risidagi fikrimizni jurnalning navbatdagi sonlarida davom ettiramiz.

Materialni tayyorlashda manbalardan foydalanildi. (M.R.A)

<http://taqvim.uz/uz/event/view/3140>

Qayin po'stlog'idan qadimgi rus yozuvi topilgan kun

1951 yil 26 I yulda Qadimgi Novgorodda arxeologik qazilma ishlarini olib borilganida qayin po'stlog'iga yozilgan qadimgi rus yozuvlari topilgan. Birinchi qadimgi rus yozuvlari oddiy xolatning yozma murojatlari XV asrdagi yozuvlari Xolopyey ko'chadagi **Nerevek** arxologik qazilmalaridan topilgan edi.

Birinchi raqamli rus yozuvlarini Novgorod mebel zavodida ishlovchi **Nina Akulova** topib oldi. Keyinchalik qadimgi rus yozuvlari **Moskva Pskov, Smolensk eski Russiyada, Tverda, Torjda, Belarussiyada, Vitebek va Mstislavda, Ukrayinada, Zvenigorod** shaharlari qazilmalarida topildi.

Hozirgi kunda qadimgi rus yozuvlari bir necha mingni tashkil etadi. **“O'tmishdan nomli”** yozuvlarida XI asrning birinchi yarmi oxirlari esa XV asrning o'rtalariga mixlanib yozilgan edi. To'rt yuz ellikdan ortiq qadimgi rus yozuvlari XI-XIII asr Qadimgi rusni **Chingisxon** asarlari bosib olmasdan ilgari yozilgan.

“O'tmishdan noma yozuvlarida” qadimgi rus yozuvlari yilma-yil yozib borilgan tarixiy manba hisoblangan boshqa matnlarga araganda alohida ahamiyatga ega manba hisoblanadi. Mayshiy turmushga oid manbalar bayon tarzda ifoda etilgan.

“O'tmishdan noma yozuvlarida” qadimgi rus so'zlashuv tilida kutubxona kitob javonlarida yozilgan saqlanmoqda. Mutaxasislarni takidlashiga Novgorod madaniyat qatlamlari 20 mingdan ziyod qadimgi rus yozuvlari saqlanib qolingan. Tasaduf emaski birinchi qadimgi rus yozuvlari buyuk Novgoroda topilgan.

Qo'yqirilgan qal'a topilmalari

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kungacha saqlanib qolgan xar bir buyum o'tmish to'g'risida guvohlik beradi. Yurtboshimiz ta'kidlab o'tganidek, «Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali-xanuz o'zining ko'rk-u tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morlik va

shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi».

O'tmish tarixni xolisona o'rganish kelajak zamini mustahkam bo'lishini ta'minlaydi. Qadimgi Xorazm hududidagi noyob obidalaridan biri Qo'yqirilgan qal'a bo'lib, u bugungi Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l shahridan 22 km shimoli-sharqda joylashgan.

Qo'yqirilgan qal'a miloddan avvalgi IV- milodiy III asrlarga oid. Bu yodgorlikni dastlab **S. P. Tolstov** boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan 1938 yilda topilgan va arxeologik tadqiqotlar ishlari 1951-1957 yillar mobaynida olib borilgan.

Qurilish uslubi jihatdan Qo'yqirilgan qal'a alohida ajralib turadi. Qo'yqirilgan qal'a tashqi devori ortida qal'ani aylana bo'ylab to'liq o'rab olgan, eni 15 m, chuqurligi 3 m suv bilan to'ldirilgan xandaq bo'lgan.

Qadimgi Xorazm harbiy istehkomlari va qal'alari devorining mudofaa xususiyatini kuchaytirish uchun proteyxizma (qo'shimcha devor) ko'tarilib, u eski devorni o'rab olgan. Tashqi mudofaa devorda xar 20 metr dan burjlar joylashgan. Bu burjlar ichkariga ham, tashqariga ham devor chizig'idan turtib chiqmagan.

Bu antik Xorazm arxitekturasida juda noyob hisoblanib, xozircha uning o'xshashi topilmagan. Mil. avv. IV – II asrlarda va undan keyingi davrda qal'a devorlarida shinaklar bilan birga yorug'lik tushishi uchun tuynuklar ham bo'lgan. Bulardan tashqari, qo'shimcha tarzda yoritish maqsadida ajabtovur tuynuklardan – toqlardan foydalanilgan. Qal'aning sharqiy qismida darvozasi bo'lib, darvoza oldi labirint (pandus- nishab yo'lka) shaklida qurilgan.

Qal'a aylana shaklda qurilgan. Markaziy qismida ark joylashgan. Shuning uchun Qo'yqirilgan qal'a arkining atrofi 2 qator mudofaa devori bilan o'ralgan. Bu devor qalinligi 1 metr, balandligi 7 metr bo'lgan.

Qal'a devor konstruksiyasiga kiruvchi har ikkala (tashqi va ichki) devor umumiy platforma – paxsa asos ustiga qurilgan. Bu qal'adan mil. avv. IV – III asrlarga oid doira shaklidagi ikki qavatli markaziy ibodatxona binosi (diametri 44.4 m, balandligi 9.5 m ga yaqin) qazib o'rganilgan. Shuningdek, u rasadxona sifatida ham foydalanilgan. Asosiy kuzatishlar quyosh va yulduzlarga qaratilgan.

Yil bo'yi quyosh botishini o'rganish orqali ular bahorgi tengkunlik,

yozgi quyosh turishi, kuzgi tengkunlik va qishki quyosh turishini aniqlaganlar. Bu tengkunlik va quyosh turishlari qishloq ho'jaligi rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu kunlar qishloq ho'jaligi kalendarida belgilangan va qishloq ho'jaligi ishlari shu asosda olib borilgan.

Tengkunlik va quyosh turishlari o'rtacha 41-45 kundan so'ng yana qaytarilgan. Bu erdan oramiy xatiga asoslangan qadimgi **Xorazm yozuvi** topilgan. U mil. avv. VII-VI asrlarda vujudga kelgan. Oromiy yozuv 22 ta harfdan iborat. Oromiy yozuvidan **Parfiya, Baqtriya, So'g'd, xorazmlik** amaldorlar o'zlarining ma'muriy va davlat ishlarini rasmiylashtirishda foydalanganlar. O'rta Osiyo oromiy xatining eng qadimgi namunasi miloddan avvalgi V-IV asrga oiddir.

Qo'yqirilgan qal'adan topilgan buyumlar turli davrga oid. Shuning uchun tadqiqotchilar arxeologik topilmalarni buyum toifasi, ishlatilish maqsadi bo'yicha guruhlaganlar va tahlil etganlar. Bu holatdagi tahlil har xil davrga tegishli, lekin bir joyda topilgan buyumlarni isbotlash yo'lini beradi. Qo'yqirilgan qal'adan qurol –aslahaga oid topilmalar kam topilgan. Ular asosan 3 ta bronza va 4 ta temirdan yasalgan kamon o'qi uchlaridir.

Tahlillarga ko'ra o'q uchlari miloddan avvalgi VII-VI asr boshlariga oid. Temirdan yasalgan kamon o'qi uchlari sarmatlar mozarlarida ham uchraydi. Bunday o'qlarning O'rta Osiyo va Qozog'iston hududlarida qachon paydo bo'lganligi aniq emas. Xorazmning o'zida esa bunday o'qlar Qo'yqirilgan qal'adan tashqari Tuproq qal'adan ham topilgan (milodiy III asr). Bundan kelib chiqqan holda Qo'yqirilgan qal'adan topilgan kamon o'qi uchi xronologik sanasini miloddan avvalgi I – milodiy IV asr bilan belgilash mumkin.

Qo'yqirilgan qal'adan topilgan kamon o'qi uchi yonida kamon uchun suyakdan yasalgan detal topilgan. Tuproq qal'adan kamon o'qi bilan birgalikda topilgan. Bunda bu detal kamonni bezatish uchun ishlatilganligi aniqlangan. Kamonning bezak o'rnatiladigan chuqurchasi ichida tekis bo'lmagan bo'rtma chiziqlari bo'lgan.

Bu esa bezakni kamonga o'rnatganda siqilib zich turishi va tushib qolmasligi uchun xizmat qilgan. Shuningdek, toshdan yasalgan juda kichik hajmdagi idishlardan (miniatyura) bir nechitasi topilgan. Bular asosan, yumshoqroq tosh turlaridan yasalgan bo'lib, quticha ko'rinishida bo'lgan.

Qutichaning tashqi tomoni qo'lda berilgan parallel shakldagi chiziqlar bilan bezatilgan.

Qo'yqirilgan qal'adan bronzadan yasalgan ko'zgular, munchoqlar, uzuklar, suyakdan yasalgan oshiqlar va turli-tuman ro'zg'or buyumlari topib o'rganilgan. Ko'zgular asosan bronzadan dumaloq shaklda ishlanib, o'rtasi bo'rttirilgan, yarim doira shaklida chetlari buklangan. Bunday ko'zgular sarmatlar mozorlaridan (mil. avv. IV-II asrlar) ham topilgan.

Ular mil. avv. I - milodiy I asrlarda ham keng taqalgan.⁸ Bunga asoslanib aytish mumkinki, Qo'yqirilgan qal'adan topilgan ushbu ko'zgu miloddan avvalgi IV- II asrlarga tegishli. Yodgorlikdan juda kam miqdorda taqinchoq va bezaklar topilgan. Shuning uchun ham o'sha davrdagi Xorazmliklarning taqinchoqlari va bezaklari haqida ma'lumot berish qiyin. Bu yerdan sariq rangdagi tog' billuridan yasalgan osma taqinchoq topib o'rganilgan.

Olim **G.G. Lemmleyn** shunday taqinchoqlarni **Qora dengiz, Dnepr va Don qirg'oqlarida, Kuban dalalarida, G'arbiy Gruziyada** topib, solishtirib, miloddan avvalgi III -milodiy IV asrlarida tarqalganligi haqida ma'lumotlar beradi.⁹ Munchoqlar asosan agatdan yasalgan, katta, pastki qismi silindrik shaklga ega qora rangda bo'lgan. Bunday munchoqlar Xorazmdagi Jonbos qal'adan ham topilgan, u **olim I.V.Ptashnikova** tomonidan tahlil etilib, mil. avv. III - I asrlarga tegishlilikini aniqlagan.

Yodgorlikdan temirdan ishlangan uzuklar ham topilgan. Tuzilishiga ko'ra silliq, ovalsimon, gorizontal holatdagi asosga ega. Qo'yqirilgan qal'adan juda ko'p qo'y suyaklaridan oshiqlar topilgan.

<http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/285>

Avestoning muqaddas yozuvi

Avesto dingina emas, dunyoviy bilimlar, tarixiy voqealar, o'zi tarqalgan o'lkalar, elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy va ma'naviy qarashlari, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar haqidagi manbalardandir. Unda bayon etilgan asosiy g'oya diniy e'tiqodning ilk sodda bilimlari Zardusht nomli payg'ambar nomi bilan bog'langan.

U Avestoning eng qadimiy qismi «**Gat**» (xat – noma)ni ijod etgan. Avesto tarkibiga kirgan bilim, ma'lumotlar qariyb 2000 yil miloddan avval 3000 yillik ohirlari 2000 yillik boshlaridan to milodning boshlarigacha o'tgan davrda yuzaga kelib, avloddan-avlodga og'zaki ko'chirib olingan, uning ko'p qismi yo'qolgan, ettidan bir qismi saqlangan. Miloddan avvalgi 3 asrda Arshakiylar sulolasi davrida to'plangan.

Dinshunoslikda Avesto uch tarixiy qatlarga ajratilgan: 1. eng qadimiy qismi

miloddan avvalgi 3 ming yillikda vujudga kelgan Yashtlardir; ularda urug'chilik tuzumidagi e'tiqodlar, ko'p xudolik tasavvurlari tasvirlangan; 2. Gatlar deb atalgan qismidir. Bunda Ahuramazda nomli xudo haqida uydirmalar yozilgan. Uni zardusht yozgan deb tahmin qilinadi. 3. Qadimiy ko'pxudolik va keyingi yakkaxudolik g'oyalari orasidagi kurash sharoitlarida eramizdan avvalgi V-asrda har ikkisini kelishtirgan Mazdakiylik dini shakllangan. Avesto bu dinning oxirgi va asosiy qismini tashkil etdi.

Hozirgi dinshunoslikka xos bo'lgan Avestoning 6 asrlarda Eronda hukmronlik qilgan Sosoniylar sulolasi shohi Xisrav V hukmronligi davrida yozib tugatilgan, keyinchalik pahlaviy tiliga tarjima qilinib asosiy tekstiga ko'plab sharhlar berilgan. Bular «**Zend**» nomi bilan ma'lum.

Avesto oldin 12 ming mol terisiga yozilib, xajmi g'oyat katta bo'lgani uchun undan foydalanish osonlashtirish niyatida «kichik avesto» yaratildi. (Beruniy).

VII asrda Sosoniylar davlati parchalanib, arab bosqinchilari, Eron va O'rta Osiyoni bosib olgach, Zardushtiylik ham zarbalarga uchrab, unga ishonuvchilar quvg'in va ta'qib ostiga olingach Avestoning aksariyat beshdan uch qismi yo'qolgan va unitilgan.

Avestoda bu dinning diniy- falsafiy tizimining qoida dasturlari bayon etilgan. U qadimiy ajdodlarimizni dunyoqarash, huquqiy, axloqiy, tamoyil qoidalarini o'z doirasiga olgan. Unda tabiat falsafasi, kosmogoniya, tarix, etika, mediöinaga doir materiallar, bilimlar yozilgan. Yana unda shoh, oliy tabaqa, quldor, qul, dindorlar va diniy urf-odatlar katta o'rin olgan. Hokim va zolimlar ulug'langan; ruhoniylar muqaddas odamlarni hamma hurmat

qilishi kerak deb da'vo qilingan.

Xulosa shuki, Avesto Zardushtiylikning muqaddas yozuvi hisoblangan, 2000 yil davomida yaratilgan 5 dan 3 qismi yo'qolib ketgan u yakka hudolikni targ'ib etgan, olovga sig'inmaslik, faqat uni asrash va e'zozlashni tavsiya etgan.

Avesto zardushtiylikning asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi. U Apastak, Ovisto, Ovusto, Avesto, Avasto kabi shakllarda ham ishlatib kelingan. Avesto O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlar, ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim va yagona manbadir. Uning tarkibidagi materiallar qariyb ikki ming yil davomida vujudga kelib, avloddan-avlodga og'zaki tarzda uzatilib kelingan.

Zardushtiylik dini rasmiy tus olguniga qadar Avestoning bo'laklari Turon va Eron zamini xalqlari orasida tarqalgan. Ushbu – Axura-Mazdaning Zardusht orqali yuborilgan ilohiy xabarlar deb hisoblangan bo'laklar turli diniy duolar, madhiyalar sifatida yig'ila boshlangan. Bular Zardushtning o'limidan keyin kitob holida jamlangan va «Avesto» – «O'rnatilgan, qat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar» deb nom olgan. Bu qadimiy yozma manba bizgacha to'liq holda etib kelmagan. Avesto haqida Abu Rayhon Beruniy (v. 1048 y.) shunday yozadi: «Yilnoma kitoblarida bunday deyilgan: podshoh Doro ibn Doro xazinasida [Avestoning] 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtda Avestoning beshdan uchi yo'qolib ketdi».

Avestoning Aleksandr Makedonskiy tomonidan Gretsiyaga olib ketilgani, zarur joylarini tarjima ettirib, qolganini kuydirtirib yuborgani, 12 ming qoramol terisidagi tillo matn haqida (at-Tabariyda – 12000 pergament) keyingi davrlarda yaratilgan zardushtiylik adabiyotida («Bundahishn», «Shahrihoi Eron», «Dinkard»; IX asr, «Arda Virafnamak»; IX asr, «Tansar xatlari», al-Mas'udiyning «Muruj az-zahab», «Fors-noma» va boshqalarda) ma'lumotlar bor.

Bu asarlarda yunonlar otashxonalarini vayron qilganlari,

ibodatxonalar boyliklarini talon-taroj etganlari, din arboblari o'ldirib, asir olib ketganliklari haqida yoziladi. Hozir bizgacha etib kelgan Avesto, Beruniyning yozishicha, aslining beshdan ikki qismi xolos. U «Avesto 30 «nask» edi, majusiylar (zardushtiylar) qo'lida 12 nask chamasi qoldi» deb yozgan.

Yozma manbalarga ko'ra, haqiqatan ham Avestoni mo'badlar avloddan-avlodga, og'izdan-og'izga olib o'tib, asrlar osha saqlaganlar. Buning sababi mo'badlar mag'lub xalqlar (Yaqin va Sharq xalqlari) yozuvini harom hisoblab, muqaddasxabarni unda ifodalashga uzoq vaqt jur'at etmaganlar.

Dastavval (mil. II yoki III asrlarida), Arshakiylar davrida Avesto qismlarini to'plash boshlangan. Keyinchalik, Sosoniy Ardasher Popakon (227-243) davrida, ayniqsa, Shopur (243-273) davrida astrologiya, tabobat, riyoziyot va falsafaga oid qismlari yozib olinib, hamma qismlari tartibga keltirilgan, so'ng bu asosiy matn to'ldirib borilgan.


Avestoning ana shu to'ldirilgan nusxasining ikki to'liq qo'lyozmasi Hindisonda saqlanadi – biri Mumbayda, zardushtiylarning madaniy markazi bo'lmish Koma nomidagi insitutda, ikkinchisi – Kalkuttadagi davlat kutubxonasida.

Avestoning eng qadimiy qismlarida Zardusht tug'ilgan va o'z faoliyatini boshlagan yurt haqida ma'lumot berilgan. Unda aytilishicha, «bu mamlakatning ko'p sonli lashkarlarini botir sarkardalar boshqaradilar, baland tog'lari bor, yaylov va suvlari bilan go'zal, chorvachilik uchun barcha narsa muhayyo, suvga mo'l, chuqur ko'llari, keng qirg'oqli va kema yurar daryolari o'z to'lqinlarini Iskata (Skifiya), Pauruta, Mouru (Marv), Xarayva (Areya), Gava (so'g'dlar yashaydigan yurt), Xvarazm (Xorazm) mamlakatlari tomon eltuvchi daryolari bor».

Shubhasiz, «keng qirg'oqli, kema yurar daryolar» bu Amudaryo va Sirdaryo bo'lib, Avesto tasvirlagan mazkur shaharlar O'rta Osiyo shaharlarining bu ikki daryo qirg'oqlarida joylashganlaridir. Shunga asoslanib, biz Zardushtning vatani, zardushtiylikning ilk makoni va Avestoning kelib chiqish joyi deb – Xorazm, tarqalish yo'nalishi deb – Xorazm-Marg'iyona-Baqtriya ayta olamiz. Avestoning «Yasna» kitobida bayon etilishicha, Zardushtning vatandoshlari unga ishonmay, uning

ta'limotini qabul qilmaganlar.

Zardusht vatanni tark etib, qo'shni davlatga ketadi, u erning malikasi Xutaosa va shoh Kavi Vishtaspaning xayrixohligiga erishadi. Ular Zardusht ta'limotini qabul qiladilar. Natijada qo'shni davlat bilan urush boshlanib, Vishtaspa g'alaba qozonadi. Shundan so'ng bu ta'limot xalqlar o'rtasida keng tarqala boshlagan. Keyingi davr rivoyatiga ko'ra, Shoh Kavi Vishtaspa farmoniga bilan Avesto kitobi o'n ikki ming mol terisiga yozib olinib, otashkadaga topshirilgan.



Avestoning tarkibiy qismlari. Avesto zardushtiylik muqaddas kitoblarining majmuidir. U – murakkab to'plam. Avestoning saqlanib qolgan to'rtta kitobidan birinchisining nomi «**Videvdat**» (**vi-daevodatam** – «**Devlarga qarshi qonun**») deb ataladi. Ushbu kitob Avestoning saqlanib qolgan kitoblari orasida eng mukammali hisoblanadi.

U yigirma ikki bob bo'lib, boblari **fragard** deb nomlangan. Fragardlarning ma'nosi, vazifasi, uslubiy tuzilishi turlicha: **birinchi fragard** – odamlar yashaydigan barcha yurtlarni **Axura-Mazda** qanday yaratgani to'g'risida bo'lib, ular orasida **Xorazm, So'g'd, Marg'iyona, Baxdi (Balx)** va boshqalar bor; **ikkinchi fragardda** Jamshid podsholigi – kasallik, o'lim, azob-uqubatlar bo'lmagan zamon haqida, ya'ni insoniyatning oltin asri haqida gap boradi; **uchinchi fragard** dehqonchilikning savobli sharofatlari va h.k. haqida.

Shuningdek, Videvdatning boshqa fragardlaridan Zardusht bilan Axura-Mazdaning savol-javoblari va muloqotlari ham o'rin olgan.

Ikkinchi kitob «**Yasna**» deb atalib, Avestoning e'tiborli bo'limi sanaladi. **Yasna** – yaz o'zagidan bo'lib, «**sajda, topinch, namoz**» ma'nolarini ifodalaydi. Yasna 72 bobdan iborat bo'lgan. Boblari **ha, haitiy** deb atalgan.

Har bir **ha** zarur o'rniga qarab marosimlarda, ibodatlarda kohinlar tomonidan o'qilgan, qavmlar unga ergashib ibodat qilganlar. Yasna kitobi (**nask**) tarkibiga Zardusht o'zi ijod qilgan targ'ibot she'rlari ham kirgan. Ular Yasnaning 28-34, 43-46, 47-50, 51, 53 – jami bo'lib, 17 ta hasini tashkil qiladi. Zardusht she'rlari ilmiy adabiyotda gatalar deb atab kelinadi.

Ha «bashorat» demakdir. Yasnaning 35-42-halari ayniqsa, yuksak qadrlangan. Bu **etti ha Haptanxati Yasna** – «**Etti bob Yasna**» deb nomlangan. Ular orasida olovning muqaddasligi haqida bob bo'lib, zardushtiylik urf-odatlar orasida olovga e'tiqod qilish, dinning esa «**otashparaslik**» deb atalishi shunga bog'liq. Binobarin, **olov** Axura-Mazda nurining quyoshda namoyonligi va uning yerdagi zarrasi deb hisoblangan.

Oliy haqiqat **Arta** ham olovda o'z ifodasini topgan. Olov haqni nohaqdan, eng oliy gunoh hisoblanmish yolg'onni rosdan ajratib bergan. Yolg'on esa chin e'tiqodga xiyonat deb qoralangan. Arta so'zi fonetik o'zgarib, dastlab atar, hozir esa otash shaklida ishlatilib kelmoqda. **Uchinchi kitob «Vispered»** deb nomlangan. U 24 bobdan tashkil topgan va har bir bob alohida **karde** deb atalib, ma'budlar sha'niga o'qilgan duolar va ibodat ustida ularga murojaatlar hamda olamni bilishga doir pand-nasihatlardan iboratdir.

Uni ibodat namozlari yig'indisi ham deyishadi. Ayni paytda u Yasnaga qo'shimcha hisoblanadi. **To'rtinchi kitob «Yasht» (gimn)** deb ataladi. U Avestoning eng qadimiy qatlami bo'lib, 22 bobdan iborat.

Har bir bob Axura-Mazdadan boshlab, u yaratgan va uning ma'lum vazifalarini bajaruvchi ma'budlar sha'niga aytilgan madhiyalardan iborat. Avestoning bizgacha etib kelmagan kitoblaridan ba'zi qismlari uning yig'ma parchalar to'plami «**Xo'rdak Avesto**» kitobida jamlangan.

Masalan, **Exrpatastan** kitobidan **mo'badlar (kohinlar)** uchun qonun-qoidalar, diniy boshqaruv tizimiga xos ma'lumotlarga oid qismlari,

Nirangastan – diniy-mavsumiy, ijtimoiy marosimlar tartib-qoidolari qismi, 20-naskda jonning u dunyodagi ahvoli haqidagi qismi va boshqalar shu kitobda saqlangan. Avesto haqida eng muhim manba IX asrga oid «**Dinkard**» (**din amallari**) asaridir. Unda Avestoning 21 kitobi to'la ta'riflab berilgan. Bu ta'riflar savobli ishlar yo'riqnomasi, diniy marosimlar va rasm-rusumlar qoidasi; zardushtiylik ta'limoti asoslari; dunyoning Axura-Mazda tomonidan yaratilishi; oxirat kuni va undagi hisob-kitob; falakiyot; ijtimoiy-huquqiy qonun-qoidalar; Zardushtning tug'ilishi va bolaligi; haq yo'lini tutish; jamiyat a'zolarining haq-huquqlari; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o'qiladigan duolar, amallar va boshqalardan iboratdir. Zardushtiylik dini haqida fransuz olimi **Anketil-Dyuperron** juda qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Masalan, **Anketil-Dyuperron** 1755 yilda Hindistonga ilmiy safar qilib, u yerdagi zardushtiylar orasida uch yil yashagan, ularning ibodatlari, urf-odatlarini yaxshi o'rgangan va Avestoni fransuz tiliga tarjima qilgan. Uch jildlik tarjima 1771 yilda nashr etilgan. Ayni paytda, shuni ham ta'kidlash joizki, olimlarimizning fikricha, **Avesto G'arbiy Evropa, Eron va Hindiston** tillari orqali bizga yetib kelgani uchun undagi nomlar, atamalar aksariyat hollarda asliga to'g'ri kelmaydi. Avestoda turkona jihatlar kam qolgan. Zartushtiylikni o'rganish hozirgi kunlarda ham faol olib borilayapti. Ta'kidlash kerakki, bu sohadagi tadqiqotlar O'zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy qadriyatlar va ko'p qatlamli diniy tajribada mazkur dinning tutgan o'rni beqiyosdir.

16-§. YOZUV TARIXIDAN

Yozuv-muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimidir. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan (**tovush tili 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, yozuvning paydo bo'lganiga esa IV-V ming yillar bo'lgan**). Yozuv og'zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo'shimcha aloqa vositasi bo'lsa-da, unga qaraganda ko'p afzalliklarga ega. Tilning vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Ayniqsa, tilning insoniyat qo'lga kiritgan tajriba-bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita yozuv orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so'z san'ati durdonalari va boshqa qimmatli axborotlarning barcha-barchasi avlodlardan avlodlarga yozuv orqali etib boradi.

Yozuvning paydo bo'lishi va o'zbek yozuvlari tarixi

Yozuvning paydo bo'lishi – kishilik jamiyati yaratgan eng yirik mandaniy kashfiyot hisoblanadi. Insoniyatning qo'lga kiritgan eng yirik davrga xos madaniy obidalar yig'indisi, fikriy natijalarning hozirgi davrga yetib kelishida yozuvning roli kattadir.



Agar yozuv bo'lmaganda, qadimgi



ajdodlarimizdan qolgan meros, ular yaratgan ijodiy yodgorliklar bizgacha etib kelmagan bo'lar edi. Yozuvning yaratilishi, unung takomillashtirilishi, jamiyat taraqqiyoti, eng muhimi adabiy tilning rivojlanishini tezlashtirish. Til dastlabki qarashda barqaror, o'zgarmas fonetik leksik va grammatik sistemami

tashkil etadi. Masalan, bizga fikr almashish quroli bo'lib xizmat qilayotgan o'zbek tili, bobolarimizga ham, ota-onalarimizga ham birday xizmat qilib kelgan. Bobo va nabira o'zaro gaplashayotganlarida na birinchi va na keyingi "avlod til nuqtai nazaridan xech qanday qiyinchilik sezmaydi. Ular doimo bir-birlarini tushunishadi.

Lekin shu bilan birga, til qotib qolgan narsa emas. Tilga chuqurroq yondashilsa, bunga ishonch hosil qilinadi. Til har kun, har daqiqa o'zgaruvchan xodisadir Tildagi sodir bo'layotgan o'zgarishlar shunday sekinlik bilan bo'ladiki, buni bir avlodning yashash davrida ajratib olish va uni qayd qilish odatda amri maxoldir.

Uch-to'rt avloddan keyin esa, tilning leksik, grammatik qatlamlaridagi siljishlar ko'zga tashlana boshlandi. Bunday siljishlarni biz bir narsa tufayli u xam bo'lsa yozuv orqali bilib olishimiz mumkin (gap yozuv paydo bo'lgandan so'nggi davr xaqida boradi). Agar yozuv bo'lmasa, til evolyustiyasi to'grisida bizda xech qanday tasavvur bo'lmasligi mumkin edi.

Faqat yozuv borligi uchungina, biz tilning tarixiy taraqqiyotini kuzatish sharafiga muyassar bo'lamiz: bu rivojlanishni qayd qilamiz, oldingi avlodlarimiz tilini o'rganib, uni xozirgi davrdagi til bilan qiyoslaymiz. Tilning rivojlanish yo'lini o'rganamiz, tilga kirib kelayotgan yangiliklarni va ularning sababini aniqlaymiz.

O'qish va yozuv hozirgi vaqtda shunchalik odat tusiga kirib qolganki, go'yo ular bir umr til bilan birga bog'liq bo'lgandek ko'rinadi. Aslida yozuvning paydo bo'lganiga ko'p davr bo'lgani yo'q. Ba'zi tillarning hanuzgacha yozuvi yo'q. Amerika qit'asi maxalliy axolisining ko'pchilik tillarini bunga misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Inqlobgacha Rossiyada yashovchi kam sonli millatlarning o'z yozuvlari yo'q edi. Ularning yozuviga asrimizning 20-30 yillarida asos solindi.

Yozuvning paydo bo'lishi juda katta ahamiyatga ega bo'ldi, u tilning taraqqiyotiga ijobiy xissa qo'shdi. Yozuv voqea va

xodisalarni abadiylashtirish hamda voqea va xodisalarni (axborotni) uzoq, masofaga etkazish imkonini beradi.

O'ZBEK YOZUVLARI TARIXIDAN

Markaziy Osiyodagi xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqi behad ko'hna yozuv madaniyatiga ega. Ular qadimda turli yozuvlardan foydalanib kelganlar.

Bu o'rinda **so'g'd, O'rxun-Yenisev (runik), uyg'ur, arab yozuvlarini** esga olish kifoya. Har biri o'ziga xos bu yozuvlar muayyan



darajada **oromiy yozuvi** bilan bog'liq.

Turkiy tillarga oid eng qadimiy yozma matnlar eramizning beshinchi asriga tegishlidir. V—X asrlarda turkiy xalqlar orasida **O'rxun yozuvi (boshqa nomlari - turkiy runik yozuv, dulbarchin)** keng tarqalgan edi.

O'rxun yozuvi turkiy tillarning xususiyatlariga juda mos edi. Bu yozuv yodgorliklari rang-barang bo'lgan, lekin ulardan bizgacha, asosan, qabr toshlariga yozilgan bitiklarga etib kelgan, chunki toshlar davr sinovlariga chidamlidir.

Bu xat **turkiy**, jumladan, o'zbek xalqi XX asrgacha qo'llab kelgan yozuvlar ichida eng qulayi bo'lgan. XI asrdan keyin **o'rxun yozuvi** tamoman iste'moldan chiqdi.

O'rxun yozuvi bilan deyarli bir davrda o'zbek xalqining ajdodlari **uyg'ur yozuvidan** ham foydalanganlar. **Uyg'ur yozuvi so'g'd yozuvi** asosida shakllangan bo'lib, u vatanimizda, XV asrgacha iste'molda bo'lgan. Mashhur **“Qutadg'u bilik”** dostonining bir nusxasi, **“Hibatul haqoyiq”** ning bir necha nusxasi, Xorazmiy **“Muhabbatnoma”** sining bir nusxasi, hatto XV asrda ko'chirilib bir to'plamga kiritilgan **Lutfiyning bir necha g'azallari uyg'ur yozuvida** yozilgan.

Arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi esa VIII asrdan boshlab qo'llanila boshlanadi. Deyarli 800 yil mobaynida bu yozuv **uyg'ur yozuvi** bilan yonma-yon ishlatilib kelindi. Ammo XVI asrdan, ya'ni Shayboniylar hukmronligi davridan uyg'ur yozuvi iste'moldan chiqib

ketdi.

Arab yozuvida bizning eng nodir yozma yodgorliklarimiz, ming yillik tariximiz bitilgan bo'lsa-da, bu yozuv o'zbek tili fonetikasi va tabiatiga mos kelmas edi.

Shuning uchun jadidlar XX asrning boshlaridayoq eski o'zbek yozuvini isloh qilish, uni o'zbek tiliga moslashtirish uchun harakat qildilar.



1921-yildan boshlab **lotin alifbosi** asosidagi o'zbek yozuviga o'tish harakati boshlandi. (Bu sohadagi harakatlar bilan chuqurroq tanishmoqchi boisangiz Y. Abdullayevning "Hamrohim" (Toshkent, "O'qituvchi", 1997) kitobini o'qing.)

1929- yildan boshlab o'zbek xalqi lotin alifbosiga asoslangan yozuvdan foydalana boshladi. Lotin alifbosi asosidagi ilk o'zbek yozuvi o'zbek adabiy tili me'yorlari aniq belgilanmagan

davrda qabul qilingan edi va unda ayrim noqulayliklar bor edi. Oradan ko'p o'tmay, sobiq sho'ro tuzumida millatlarni tenglashtirish, millatlararo farqlarni yo'qotish harakati boshlandi, rus tilining, ta'siri kuchaydi. Natijada, 1940- yildan boshlab o'zbek xalqi **kirill (rus) alifbosi** asosidagi yozuvga o'tdi.

Kirill alifbosining o'zbek tili xususiyatlarini ifodalash uchun qulay emasligi haqida mutaxassislar uzoq vaqt munozara qildilar, imloni takomillashtirish, hatto **kirill alifbosidan** voz kechish haqidagi fikrlarni ilgari surdilar.

O'zbekistonning mustaqilligi, uning jahonga yuz tutayotganligi ilg'or kommunikatsiya tizimiga jadal kirishini taqozo etmoqda. Jahondagi ilg'or texnologiya va fan yutuqlaridan samarali foydalana olish mamlakatimiz uchun muhimdir. Hozir dunyoda eng keng tarqalgan yozuv **lotin yozuvidir**, bu yozuvdan dunyo aholisining 30% i foydalanadi.

Ana shulardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993- yilning 2-sentabrida "**Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida**"gi Qonunni qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisi 1995- yil 6-mayda bu qonunga ayrim o'zgarishlar kiritish haqida qaror qabul qildi. Bu hujjatlarga binoan yangi alifboga o'tish bosqichma-bosqich, ya'ni 1996- yil 1- sentabrdan boshlab 2005- yil 1- sentabrga qadar amalga oshiriladi, deb ko'rsatilgan. Ushbu **alifbo 26 harf va 3 ta harflar birikmasidan** iborat.

Nutq tovushlari nutqning eng kichik, bo'linmas qismidir. Nutq tovushlarining yozuvdagi shakli **harf** deb ataladi. Nutq tovushlarini talaffuz qilamiz va eshitamiz. Harflarni esa ko'ramiz, yozamiz va o'qiymiz. Ma'lum tartibda joylashgan harflar qatori **alifbo (yoki alfavit)** deyiladi.

Lug'atlarda, turli ro'yxatlarda so'zlar alifbo tartibida joylashtiriladi. Masalan, barcha lug'atlardagi so'zlar, saylovchilar ro'yxati, kutubxona kartotekasidagi mualliflarning familiyalari, kitoblarning nomlari alifbo tartibida joylashtirilgan bo'ladi. Shu sababli alifboni yoddan bilishimiz zarur.

Inson nutqi **ikki xil** ko'rinishga ega bo'ladi: **og'zaki va yozma**. Yozma nutq og'zaki nutqni maxsus belgilar sistemasi yordamida ifodalash demakdir. Og'zaki nutqda biz **tovushlardan**, yozma nutqda esa **harflardan** foydalanamiz.

Yozma nutq yozuvning kelib chiqishi va uning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Dastlab nutq faqat og'zaki shaklda bo'lgan. Kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum davrida hayotiy zaruriyat natijasida asta-sekin yozuv yaratilgan. Boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqi ham kechmishda bir qancha yozuv turlaridan foydalangan. **Avesto, o'rxun-enasoy, so'g'd, xorazm, uyg'ur yozuvlari** shular jumlasidandir.

Tarixchilarning aniqlashicha, **yozuv dastlab Mesopotomiyada** paydo bo'lgan va bu yozuv tarixga **mixxat nomi** bilan kirgan. Er. avv. V-IV asrlarda **O'rta Osiyoning Eronga** yaqin hududlarida **rasmiy yozuv sifatida mixxat** ishlatilar edi.

Hozirgi eramizdan boshlab taxminan VI asrgacha **so'g'd yozuvi** ishlatilgan. V-VIII asrlar davomida **turkiy xalqlar O'rxun-Enasoy yozuvidan** foydalanishgan. Qadimgi **turkiy yozuv yodgorliklari** dastlab **Janubiy Sibirning Enasoy daryosi havzalarida** va **Mo'g'ulistonning O'rxun vodiysida** topilgan.

Shunga nisbatan **qadimgi turkiy yozuv O'rxun-Enasoy obidalarining yozuvi** deb ham yuritiladi. 1893-yili **daniyalik olim N.Tomson** va **rus olimi V.V.Radlov** **qadimgi turkiy yozuvni** o'qishga muvaffaq bo'ldilar. **O'rxun-enasoy yozuvlari Rim yozuvlariga** o'xshab ketganligi uchun **run (runik) yozuvlari** yoki **dulbarchin** deb ham yuritiladi.

O'rta Osiyoning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi mahalliy xalqi **sak va massaget urug'lari** bo'lib, ularning ham o'z yozuvlari mavjud edi. Ana shu yozuvdan **qadimiy xorazmiy va so'g'd yozuvlari** yaratilgan. 1970-yillargacha **turkiy yozuv** eramizning VI-VII asrlarida shakllangan degan fikr yetakchi edi. Keyingi topilmalar **turkiy yozuvning** ildizlarini ikki yarim ming yillik o'tmishdan izlamoq kerak, degan xulosani chiqarishga asos bo'ldi.

1988-yilda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi **Lo'mbitepa yodgorligidan** ko'za topildi. Uning bandi sirtiga **qadimiy turkiy bitik** o'yib tushirilgan edi. Bu bitik VII-VIII asrlarga oid turkiy obidalaridan yosh jihatidan qariyb I-II asrcha qadimiyroqdir.

VI-VII asrlardan to XV asrlargacha turkiylar va mo'g'ullar uyg'ur yozuvidan foydalanishgan. Bu yozuvda bitilgan yodgorliklarning eng qadimgisi **Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"** asarining Vena kutubxonasidagi nusxasidir. Ahmad Yugnakiyning **"Hibat ul-haqoyiq"** (**"Haqiqatlar armug'oni"**), Xorazmiyning **"Muhabbatnoma"**, Lutfiy va boshqa shoirlarning ayrim she'rlari **uyg'ur yozuvida** yozilgan. **Uyg'ur yozuvi** X-XV asrlarda mavjud bo'lib, **arab yozuvi** bilan ma'lum davrgacha baravar ishlatilgan.

720-yildan **arab yozuvi** tarqala boshlagan. Arab yozuvida bitilgan eng qadimgi turkiy yodgorliklar XI asrga taalluqlidir. Bular **Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"** asarining **Namangan va Qohira** nusxalaridir. Mahmud Qoshg'ariyning **"Devonu lug'otit-turk"** asari ham **arab yozuvida** yozilgan. Xalqlarimiz taxminan 1200 yildan ko'proq vaqt davomida arab alifbosidan foydalanganlar.

1929-yildan lotin alifbosi asosidagi yangi yozuvga o'tilgan edi. 1940-yildan boshlab esa rus (kirill) grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga o'tildi. Bizning davrimizda jahondagi xalqlar 220 xil yozuvdan

foydalanadilar.

Shu yozuvlardan keng tarqalgani **lotin yozuvi** bo'lib, jahon xalqlarining 30 foizdan ziyodi shu yozuvni qo'llaydilar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XIII sessiyasi (1993-yil 2-3-sentabr)da bo'lib o'tgan yig'ilishida **o'zbek yozuvini lotin alifbosiga** o'tkazish to'g'risida Qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-mayda Oliy Majlis sessiyasida bu alifboga ayrim o'zgarishlar kiritildi va bu yozuvga to'liq o'tish muddati 2005-yil sentabr oyi deb belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi qarori bilan **“O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari”** tasdiqlandi. 2004-yilda chiqarilgan qonunga ko'ra esa **lotin yozuviga** to'liq o'tish muddati 2010-yil sentabriga qadar cho'zildi.

Logografik yozuvning piktografik yozuvdan avzalligi quyidagilardan iborat:

a)logografik yozuv habar qilinishi kerak bo'lgan tekstni ancha mufassal aks ettira oladi;

b) piktografik yozuvda so'z tartibi, so'z formalari noanik bo'lsa, logografik yozuvda bu masalalar hal qilingan;

v)piktografik yozuv sub'ektivlikka, ixtiyoriylikka yo'l qo'ysa, logografik yozuv barqaror logogrammalardan tashkil topgan.

Logografik yozuvning biroz mukammallashtirilgan formasi **iyeroglifik yozuv** deb nom olgan. Iyeroglif so'zi grekcha **hyeroglyphoi** so'zidan olingan bo'lib, u «**muqaddas yozuv**» demakdir. Iyerogliflarda oz bo'lsa xam, ifodalanuvchi narsa bilan bog'langan biror xususiyat saqlanib turadi.

Bu yozuv qadimgi **Arabistonga** , **xozirgi Xitoyga** xosdir. Agar logografik yozuvda ba'zi mavhum tushunchalarni ifodalash qiyin bo'lgan bo'lsa, endi bu masala **iyeroglifik yozuvda** uzil-kesil hal



umuman

etildi. Bu yozuvda alfavit tushunchasi xam paydo bo'la boshladi. Chunki **ieroglifik yozuv** asosida yozilgan tekstni o'qish uchun bir qancha mavxum tushunchalarni anglatuvchi belgilarni va ko'p miqdorda ierogliflarni bilishga tug'ri keladi.

YOZUV TURLARI

- Piktografiya yozuv
- Logografik, yozuv
- Ieroglifik yozuv
- Ideagrafik yozuv

	Египетские			Ассирийско-вавилонские	Фонетические	Сирийские	Пальмирские	Греческие Герациановы	Римские
	Иероглифы	Иератические	Демонические						
1	I	I	I	▼	I	I	I	I	I
2	II	II	Ч	▼▼	II	P	II	II	II
3	III	III	б	▼▼▼	III	PI	III	III	III
4	IIII	Ч	У:У	▼▼▼▼	IIII	PP	IIII	IIII	IV
5	IIII	У	1	▼▼▼▼	II III	—	У	Г	V
6	IIII	У	1	▼▼▼▼	III III	—	У	Г	VI
7	IIII	У	1	▼▼▼▼	IIII III	—	У	Г	VII
8	IIII	У	1	▼▼▼▼	II III III	—	У	Г	VIII
9	IIII	У	1	▼▼▼▼	III III III	—	У	Г	IX
10	н	Λ	Λ	<	—	7	Д	Δ	X
11	ни	Λ	Λ	<	—	7	Д	Δ	XI
15	ни	Λ	Λ	<	II III —	→	Д	Δ	XV
20	нн	Λ	5	<<	HH	0	3	ΔΔ	XX
30	ннн	Λ	2	<<<	→ HH	70	Д3	ΔΔΔ	XXX
40	нннн	Λ	4	<<<<	HH	00	33	ΔΔΔΔ	XL
50	ннннн	Λ	2	<<<<	→ HH	700	Д33	Р	L
60	ннннн	Λ	2	▼	HHH	000	333	РΔ	LX
70	ннннн	Λ	3	▼<	→ HHH	7000	Д333	РΔΔ	LXX
80	ннннн	Λ	3	▼<<	HHHH	0000	3333	РΔΔΔ	LXXX
90	ннннн	Λ	3	▼<<<	→ HHHH	70000	Д3333	РΔΔΔΔ	XC
100	9	У	—	▼▶	PI	71	Д'	H	C
200	99	У	—	▼▼▼▶	PII	7II	Д"	HH	CC
400	9999	У	—	▼▼▼▼▶			Д'''	HHHH	CD
500	9999	У	—	▼▼▼▼▶			Д'	Г	D
1000	I	У	5	<▼▶			ДД'	У	M
10000	I			<<▼▶				M	
10 ⁵	Q								
10 ⁶	Q								
10 ⁷	Q								

- Mixsimon yozuv

• Fonografik yozuv

Ko'pchilik olimlarning fikricha, har qanday yozuvning asosida musavvirlik yotadi. Atrof-tevarakdagi narsalarni suratda aks ettirish xamma xalqlarga xosdir. Shuning uchun hozirgi zamon yozuvi bo'lmagan paytda odamlar ba'zi xodisa va voqealarni uzoq, masofaga yetkazish niyatida yoki zamonda abadiylashtirishni, jonli va jonsiz narsalarning rasmini chizish yo'li bilan amalga oshirishgan. Bunday yozuv **piktografik yozuv** deb nom olgan. Bu atama ikki so'zdan iborat bo'lib birinchi yarim lotincha **pictus (chizilgan)** va ikkinchi yarmi grekcha **grapho yozaman** degan ma'nolarni anglatadi. Bu yozuvning birliklarini **piktogrammalar** deb atashadi. AQSHning taniqli olimi **L.Blumfild** bu yozuvga misol tariqasida



«Tilava Panjau» nomidagi yordagi
Himnlar tarkibi (Himnlar)

quyidagilarni keltiradi: Amerikaning mahalliy odjibva qabilasining bir a'zosida daraxtning uzun po'stlogi bo'lgan. Po'stloqda bir qancha shakllar chizilgan bo'lib (tulki, boyo'g'li va boshqalar), u aytiladigan muqaddas qo'shiq tartibini ko'rsatar edi. Yana bir misol: **mandan qabilasining** bir a'zosi savdogarga ikki bir-birini kesib o'tgan chiziq va bu kesmalarning bir tomoniga bir miltiq bilan qunduz va uning o'ttizta parallel chiziqchalarni, ikkinchi tomonda esa, savsar, suvsar va qo'tosning surati chizilgan maktubni yuborgan. Bu xatning ma'nosi quyidagicha bo'lgan: «**Men savsar, suvsar va qo'tos mo'ynalarini bir miltiq va o'ttizta kunduzning terisiga almashtirishga roziman**».


Yozuvning bu turi mukammal bo'lmay, u **birinchidan**, rasmlar orasidagi munosabatlarni, ularning tartibini ko'sata olmaydi va buning natijasida bir maktubni bir necha xil o'qishga, talqin qilishga yo'l qo'yadi.

Ikkinchidan, mavhum tushunchalarni aks ettirish imkoni yo'q, darajadadir.

Logografik, iyeroglifik va mixsimon yozuv

Tushunchalar mavhum tafakkurning rivojlanishi natijasida piktografik yozuv aqa-sekin mukammallashib bordi va natijada **ideografik** (grekcha **ideya** tushuncha, g'oya, **grapho** yozaman degan so'zlardan tashkil topgan) yozuv paydo bo'ldi.

Ba'zi olimlar yozuvinng bu turini **logografik** (grekcha **logo** so'z va **grapho** yozaman degan so'zlardan tashkil topgan) yozuv deb atashadi, chunki bunday yozuvda undagi simvollar faqat bizni



o'rab turgan muxitdagi narsalarni aks ettirmay, tildagi so'zlarni ham aks ettiradi. Tildagi har bir so'z o'z simvoliga ega bo'ladi.

Ideografik (logografik) yozuvning birligini, “ideogramma” (logogramma) deb yuritishadi. Masalan: **ko'l tez kunda qurib qoldi**, deyigan bo'lsak, bu gapda tashqi dunyodagi bir predmet to'g'risida gap borayotir. Ideografiya nuqtayi nazaridan bu yerda bir simvol bor, lekin gap besh simvoldan tashkil topgan. Ma'lumki, tildagi hamma so'zlar tashqi dunyodagi narsalarga mos kelmaydi.

Logogrammaning piktogrammadan farqi shundaki, **piktogramma bevosita predmetni aks ettiradi, logogramma esa, so'zning ma'nosini izoxlaydi**. Demak, logogramma bevosita predmet shakli bo'lmay, u so'z ma'nosini aks ettiruvchi shartli belgidir.

Bu yozuvdagi qiyinchiliklardan biri, ma'nosini shakllar bilan

aks ettirish qiyin bo'lgan logogrammalarni ishlab chiqishdir. Qadimgi arablar «**yuz ming**» sonini **itbaliqning shakli** orqali izohlashgan. Xitoyliklar esa, «**yaxshi**» so'zini **ayol kishi bilan bola simboli** orqali ko'rsatishgan.

Шестидесятеричная система широко применялась в астрономических расчётах вплоть до эпохи Возрождения. Именно ею пользовался во II в. греческий математик и астроном Клавдий Птолемей при составлении таблицы синусов, древнейшей из дошедших до нас.



Ma'lum shakllar ma'lum narsalargya bog'lanib qolgandan keyin, ular yozuv shakllari deb ataladi. Yozuv shakllari barqaror va doimiy shakl bo'lib, u xamma vaqt kishilar tomonidan bir xil qabul qilinadi va ma'lum sharoitlarda boshqalarga tegishli ma'lumotlarni yetkazish maqsadida qo'llaniladi. Kishilar bu shakllarni yaxshi o'zlashtirib olganlaridan so'ng bu shakllar bilan ular ifodalayotgan narsalar orasidagi o'xshashlik katta ahamiyatga ega bo'lmay qoladi. Tez yozish va ko'proq ma'lumot

yetkazish maqsadida odamlar shakllarning ba'zi ikkinchi darajali elementlarini tushurib qoldiradilar va natijada bu shakllar bilan ular ifodalayotgan narsalar orasidagi o'xshashlik kamayib, oxir natijada u yo'q bo'lib ketishi mumkin.

Bunday o'zgarishlar yozuvni qanday materialga yozilayotganiga va qanday yozuv quroli ishlatilayotganiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. **Qadimgi Mesopotamiyada** qo'llanilgan **mixxat** ana shunday o'zgarishlarni o'z boshidan kechirgan **logografik yozuvning** bir ko'rinishidir.

Bu shakllar turli kombinatsiyadagi uzun va qisqa mixsimon chiziqlardan tashkil topgan bo'lib, ularning asosida **piktogrammalar va logogrammalar** yotgan bo'lishi aniqdir. Mazkur yozuvlarning shu darajada o'zgarib ketishiga sabab, ularning loyga yozilgan bo'lishidir.

Yuqorida keltirilgan yozuvlarning hamma turi uqish va uqitish ishlarini ancha mushkullashtiradi. Yozuvni ommaviylashtirish uchun, uni albatta osonlashtirish, soddalashtirish kerak edi. Bunday zaruriyatning tug'ilishiga yana boishqa ob'ektiv sabablar ham bor edi: savdo-sotiqning rivojlanishi va davlatlarning barpo bo'lishi ham yuqorida zikr etilgan jarayonni tezlashtirishga sabab bo'ldi. Yozuvning soddalashtirish jarayoni bir necha yo'llar bilan amalga osha



DI.

1. Leksik elementlarning sonini yangi shakllar bilan ko'paytirish o'rniga, yangi tushunchalarni mavjud logogrammlar yoki ierogliflar kombinatsiyasi orqali ifodalashdir. Bu yo'l bilan xitoy yozuvi rivojlana boshladi. Masalan, «ko'z yoshi»ni ifodalash uchun «ko'z» va «suv»ning kombinatsiyasidan, «asirlik»ni ko'rsatish uchun «oyoq» va «doira» yoki «aylana» kombinatsiyasidan foydalanish kerak edi.

Logografik alfavitni bu yo'l bilan soddalashtirish va qisqartirish unumsiz edi.

2. Logografik yozuvni soddalashtirishning ikkinchi yo'li — so'zlarning grammatik formalariga taalluqliligidir. Masalan, logogrammlarni o'zak sifatida qoldirib, grammatik ma'nolar

uchun yangi logogrammalarni o'zak logogrammalar ma'nosiga qarab qo'shish. Bunday usul tilning grammatikasi uchun birmuncha siljish bo'lsa ham, tildagi leksik birliklarni, ya'ni so'zlarning sonini qisqartirishga xizmat qilmas edi.

3.Yozuvni soddalashtirishning eng unumli va progressiv usuli **fonografik yozuv**ga o'tish edi. Bu so'z grekcha bo'lib, u **phone** **tovush** **grapho yozaman** degan ma'nolarni anglatadi. Shunday qilib, **fonografik yozuv** tilni faqat grammatik tuzilishini ifodalamay, balki uning fonetik tuzilishini, ya'ni so'zning tovush tarkibini ham aks ettirar edi.

Fonografik yozuv

Fonografik yozuv bir turli bo'lmay, u ham ko'p ko'rinishlarga ega. Shulardan biri — **sillabik yoki bo'g'in yozuvidir**. Bu yozuv qo'shma so'zlarni mayda qismlarga bo'lish yo'li bilan paydo bo'ldi. Bu mayda qismlar hozirgi vaqtdagi bo'g'inlarga to'g'ri keladi. Shunday qilib, **ierogliflar** bo'ginlarni ifodalaydigan bo'ldi. U yoki bu so'zni yozish lozim bo'lsa, ana shu bo'ginlarni bir-biriga qo'shish usuli bilan tuzishar edi. Bu yozuvga qadimgi hind yozuvi **devanagari** yaxshi misol bo'la oladi.

Bu yozuvdagi har bir ishora undosh tovushlarning va unlisi bilan qo'shib talaffuz qilinishini nazarda tutadi, ya'ni **pa, ba, da, ga, sha** va shu tartibda. Agar boshqa unlini talaffuz qilish zarur bo'lsa, unda **yo** harflarning ustiga, yoki tagiga ma'lum belgilar qo'yilardi.

Qadimgi Mesopotamiyaliklarning mixxati xam shunday bo'g'inlarga ega edi: **ma, mi, mu, muk, ..., pat** shu tartibda. Bu birliklar logogramma sifatida qo'llanishi bilan bir qatorda, yangi so'zlarni yasashda ham ishtirok qiladilar.

Yangi so'zlarni yasashda ana shu logogrammalardan qaysi biri tug'ri kelsa, shularning kombinatsiyasidan foydalanilar edi. Shunday qilib, **logografik yozuv** birliklari asta-sekin **fonografiya** vazifasini bajara boshladi. Boshqacha qilib aytganda, bo'g'inlar tovushlarning vazifasini o'tay boshladi.

Bo'g'inlarning soni turli tillarda turlicha edi. Masalan, **Kipr orolidagi qadimgi greklar** taxminan 65 ta **sillabariydan** (bo'g'in birligidan) foydalanishgan. **Gvineya orolidagi vaylar** 226 **sillabariydan** foydalanishgan.

“Avesto” yozuvi

Ma'lumki, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” dir. Uning Vatani Xorazm ekanligi tarixiy manbalarda tasdiqlangan.

Bu memuar asar Eron Ozarbayjon, ayniqsa, Xorazmning tarixi, madaniyati, ijtimoiy hayoti, tili, yozuvi bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni berishi mumkin Eng muhim, eramizdan avvalgi davrlardayoq, Xorazmda san'nat, madaniyat jumladan, tilning taraqqiy topganidan dalolat beradi.

Ma'lumki, **alifboli yozuv** yozuvning taraqqiy etgan shakli bo'lib u mil.avv ming yil ilgari **Nil daryosi vodiysiga** bostirib kirgan **giksos qabilalari** tomonidan **Finikiyada** yaratilgan. **Finikiya yozuvi** asosida **sharqda oromiy yozuvi, suriya yozuvi** shakllangan.

Oromiy yozuvi bir qancha yozuvlar, jumladan, **arab, xorazm yozuvlarini** shakllanishida muhim rol o'ynagan. Milodiy I-IV asrlarga kelib, **avesto tili va yozuvi o'lik tilga** aylandi. Lekin, hozirgacha avesto tili va yozuvi o'z izlarini qoldirgan. Masalan: **bratar (birodar), band (bog'lab qo'yish), zar (oltin), framan (farmon).**

Xorazmiy yozuvi

Markaziy Osiyo o'lkasi insoniyat yozuv madaniyatining qadimgi o'choqlaridan biri sanaladi. Turon zaminida yozuvidan foydalanish davri 2700 yilga borib taqaladi.

Avlodlarimiz **so'g'd, xorazmiy, parfiyoniy, baqtariy, manaviy, suryoniy, braxmiy, uyg'ur - turkey, avesto, paxlaviy** va boshqa yozuvlardan foydalanganlar.

So'g'd yozuvi namunalari mil.avv II , milodiy VIII asr o'rtalariga mansub bo'lib, unda buyumlarga ko'plab bitiglar bitilgan. Ular bizgacha etib kelgan.

Keyingi yillarda **Xorazmiy yozuvi va tili** haqida ko'p yozilmoqda **Xorazmiy yozuvi oromiy yozuviga** asoslangan bo'lib, u Xorazmda yashagan ajdodlarimizning ijtimoiy turmushi, madaniyati, adabiy-badiiy tafakkuri haqida ko'pgina ma'lumotlarni beradi.

Xorazm yozuvi namunalari **Katta Oybo'yirqal'a shahri** xarobalarida, **Qo'yqirilganqal'**adan topilgan.

Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, bu yozuv mil.avv V-IX asrlarga tegishlidir.

Akademik **S.P.Tolstov**ning ta'kidlashicha, **xorazmiy yozuvi** faqat Xorazmdagina emas, balki yangi Markaziy Osiyodan topilgan yozuvlar ichida eng qadimgisi hisoblanadi.

Baqtriya yozuvi

Bu O'zbekiston janubida (Surxon vohasi) va unga chegaradosh **Tojikiston, Shimoliy Avfg'oniston** yerlarida joylashgan tarixiy madaniy viloyat aholisning **tili va yozuvidir**. **Baqtriya yozuvi** ikki xil – **oromiy va qadimgi yunon alifbosi** asosida rivojlangan va takomillashgan .

Baqtriya yozuvi va tili hali unchalik o'rganilmagan . bizgacha bu yozuvdan yuzdan ortiq so'z etib kelgan .

Baqtriya yozuvi yodgorliklari asosan milodning birinchi asrlariga tegishlidir.

Lotin yozuvi

Tarixiy – madaniy yodgorliklarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, lotin alfaviti eramizdan oldingi VII –V asrlarda **Finikiya va Etrus alfavitlari zaminida** paydo bo'ldi. Lotin so'zi **Tibra daryosining quyi old oqimida** yashagan **Latsiya qabilasing** nomi bilan bog'liq. Bu qabila o'sha vaqtda **lotinlar**, ularning tili esa **lotin tili** deb atalgan .

Qadimgi Rim imperiyasi davrida **lotin tili O'rta er dengizi** atrofidagi barcha mamlakatlarga tarqalgan. **Yevropaning shimoli –sharqiga, Shimoliy Afrika, Kichik Osiyo, Buyuk Britaniya, Fransiya, ispaniya, Norvegiya, Ruminiya,**

Germaniya, Moldaviya, Polsha va boshqalar.

Bu davrlarda **lotin tili va yozuvi** xalqaro madaniy, ilmiy, siyosiy aloqalarning asosiy vositachisi bo'lib qolgan edi. Shuning uchun ham barcha fanlar, ayniqsa, tibbiyotga oid atamalarning ko'pchiligi **lotin tiliga** mansub, yozuvdagi ifodasi esa **lotin grafikasiga** asoslangan edi.

Milodiy V asrdan **Rim imperiyasi** qulay boshlagach, lotin tilidan bir qancha tillar - **roman tillari, italyan tillari, fransuz, ispan, portugal, rumin, moldavan** kabi tillar ajralib chiqadi.

Britaniya va g'arbiy Germaniyada lotin tili o'rnini **german tillari, Panamada slavyan tillari** egallaydi.

Hozirgi paytda dunyoda eng ko'p tarqalgan yozuv turi bu lotin yozuvidir.

GRAFIKA

Grafika atamasi **grek tilidagi** graphikos so'zidan olingan bo'lib **yozilgan, ifodalangan** degan ma'nolarni anglatadi. Bu harflarning yozilishi shakllarini va harf bilan tovush orasidagi munosabatni o'rgatadigan fandır. Shunday qilib, grafikani xarflarning yozilish shakli, turi, xususiyatlari, so'zdagi o'rin va shu munosabat bilan ular ifodalagan tovushlarning xususiyatlari qiziqtiradi.

So'nggi yillarda ba'zi psixologlar ayrim shaxslarning harflarni yozish xususiyatiga qarab, bu shaxslarning harakterini aniqlash yo'lida ancha ishlar qildilar.

Uzbek tilining alfavitidagi ba'zi tovushlar turli grafik formalarga ega. Masalan, **T** harfining bosma shakli bilan yozma shakllari orasida, ya'ni **T** bilan **T** va **t** orasida ancha farq bor. **B** harfining so'zdagi o'rniga qarab, har xil talaffuz qilamiz: so'zning boshida, yoki unli oldida **u b** talaffuz qilinadi, masalan, barobar, darboza va **h q** «Lekin ba'zida so'zning oxirida **p** deb talaffuz qilinadi: kelib ketdi, o'qib- chiqdi va boshqalar. Bu masalalarda **ingliz, franquz tillari** alohida o'rin tutadi. U tillarda harf bilan talaffuz orasida juda katta farq yotadi.

Yozuvning maxsus turlari

Yuqorida keltirilgan yozuvlardan tashqari xozirgi vaqtlarda maxsus yozuvlardan foydalaniladi. **Stenografiya, transkripsiya** - yozuvning ana shunday maxsus turiga kiradi

Stenografiya. Bu soʻz ikkita grek soʻzidan tuzilgan boʻlib **stenos tor grapho yozaman** degan maʼnoni anglatadi. Stenografiya maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan va mutahasislar tomonidan ishlatiladigan yozuvdir. Uning yordamida ogʻzaki va yozma nutqni tez va toʻliq qogʻozga tushurish mumkin. Uni harfli yozuvning boshqa bir turi desak ham boʻladi. **Stenografik yozuvning** oʻz orfografik prinsplari mavjud. Bu prinsplar stenografik belgilarni toʻgʻri, bir xil maʼnoda ishlatilishlarini taʼminlaydi. Yozuvning bu turi ogʻzaki nutqni yozib olishni bir necha martaga qisqartirishi mumkin. Shuning uchun u yigʻin va majlislarning protokollarini yozib olishda keng qoʻllaniladi.

Transkriptsiya. Transkriptsiya soʻzi lotin tilidagi transcription degan soʻz asosida kelib chiqqan. Bu soʻzning maʼnosi koʻchirib yozishdir. Bu stenografiya singari maxsus va sunʼiy yozuv boʻlib, nutqdagi soʻzlarning talaffuzini aniq koʻrsatish uchun qoʻllaniladi. Uning ishlatilish doirasi juda tor. Agar orfografiya xamma uchun umumiy va birdan-bir yozuv deb hisoblansa, transkriptsiya maxsus ehtiyojlar uchun ishlatiladi.

Ishlatilish maqsadiga koʻra, transkription yozuv **fonetik, fonematik, amaliy transkriptsiyaga** ajratiladi.

Fonetik transkriptsiya - talaffuzni aniq ifodalashga xizmat qiladi. Transkriptsiyaniig bu turi xorijiy tillar lugʻatida keng qoʻllaniladi. Orfografiyasi tarixiy va anʼanaviy prinsplarga asoslangan tillarni talaffuzini aks ettirishda maxsus fonetik transkriptsiyaning roli ayniqsa kattadir.

Xozirgi vaqtda chet tilini oʻqish va oʻqitish ishlarida amalda Xalqaro Fonetik Assotsatsiyaning **lotin tili grafikasi** asosida tuzilgan transkriptsiyasi keng qoʻllaniladi.


Transliteratsiya. Bu soʻz ikkita lotin soʻzidan tashkil topgan boʻlib **trans** orqali **lit(era** harf maʼnolarini anglatadi. Shunday qilib transliteratsiya - bir tilning grafik belgilarini yoki harflarini ikkinchi tilning grafik belgilari yoki harflari bilan ifodalashdir. Transliteratsiya odatda soʻzlarni tarjima qilish kerak boʻlganda yoki tarjima qilishga ehtiyoj boʻlmaganda ishlatiladi. Koʻpincha atoqli otlar terminlar shu yoʻl bilan ifodalanadi. Masalan: ingliz tilidagi **astronaut** [astreʼna:t] deb talaffuz qilinsa ham, biz uni rus va oʻzbek tillarida astronavt deb yozamiz .

Adabiyotlar:

1. Sodiqov A. S , Abduazizov .A “Umumiy Tilshunoslik.” T. 1979.
2. Sodiqov A. S , Abduazizov .A, Irisqulov .M ”Tilshunoslikka kirish” Universitet va Pedagogika Institutlarining filologiya fakultetlari uchun darslik .- T.:Oʻqituvchi, 1981
3. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi.Tuzuvchi : H. Dadaboyev. - T. 2004.
4. Usmonov .S - Umumiy Tilshunoslik.” T., 1972.
5. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007.

Internet saytlar

1. www.taʼlim.uz
2. [www.talant.spb.ruG`wald.html](http://www.talant.spb.ruG`wald.html)
3. www.school.edu.ru.
4. [www.inter – pedagogika.ru](http://www.inter-pedagogika.ru).
5. www.obrozavaniye.ru
6. www.wings.ru
7. www.ppf.uni.udm.ru
8. www.search.re.uz - Oʻzbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi.
9. www.Google.uz



**MO'G'UL MIS TAXTACHASIDA (PAYIZA) YOZILGAN
YORLIG'I. UYGUR YOZUVIDA (PAYIZA)**

XULOSA

Tarixni mukammal bilish, uning mazmun va mohiyati teran anglash millat uchun yuksak fazilat. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini o'rganish, undan xalqning bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. Tarix o'tmish haqida ma'lumot to'plovchi va saqlovchi xususiyatlarga ega bo'lgan va uni anglash jarayoni bo'lib, ajdodlar, inson va insoniyatning tarixiy tajribasi haqida mushohada yuritishni aks ettiruvchi ijtimoiy xotiradir.

Qo'llanmani tayyorlashda va mavzularni shakllantirishda xalqimizning iqtisodiy sohadagi, ishlab chiqarish, bunyodkorlik, yaratuvchanlik sohalaridagi tajribasi ham asrlar davomida taraqqiy etib kelganligi, ayrim tarixiy davrlarda turli siyosiy jarayonlarning iqtisodiy sohaga ta'siri, ichki iqtisodiy munosabatlar, xalqaro iqtisodiy aloqalar ko'lamining kengayib borishini aks ettiruvchi manbalar tahlili masalalariga asosiy urg'u berildi.

Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari, qadimgi yozma yodgorliklarning Markaziy Osiyo tarixini o'rganishdagi ahamiyati, piktografik belgilar, piktografik belgilar topilgan yodgorliklar, O'rta Osiyo hududining qadimgi tub aholisi va uning yozma yodgorliklarda aks etishi, qadimgi so'g'd yozuvi va yozma yodgorliklari, oromiy yozuvi va yozma yodgorliklari, manixey yozuvi va yozma yodgorliklari, qadimgi Xorazm yozuvi va yozma yodgorliklari, turkiy yozma yodgorliklarning vatan tarixini o'rganishdagi ahamiyati kabi masalalar haqida so'z yuritildi, shuningdek, O'zbekiston tarixining muhim jihatlaridan yana biri sifatida uch xonlikning shakllanishi bilan yuzaga kelgan siyosiy parokandalik va uning keyingi siyosiy jarayonlar va davlatchilik jarayonlariga ko'rsatgan ta'siri masalasini ko'rsatib berish bilan birga bu davr iqtisodiy hayoti o'zining taraqqiyoti, yutuqlari va ayni vaqtda inqiroz holatlari ham tahlil etildi va mavzularda bu masalalarga keng o'rin berildi, bu esa mazkur davr iqtisodiy hayoti tarixini o'rganishning muhimlik darajasini yana bir karra oshiradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mavzularni yoritishda turli davrlarda

yaratilgan manbalar, arxiv hujjatlari, ilmiy va o'quv adabiyotlarida ko'rsatilgan ko'plab faktik ma'lumotlarga mavzularning mazmuni va mohiyatini ochib berishda keng o'rin berildi.

Qo'llanma yuzasidan tarixchi olimlar va mutaxassislar tomonidan bildiriladigan barcha fikrlar uchun avvaldan minnatdorlik bildiramiz va ko'rsatiladigan takliflar va fikrlarni bajonidil qabul qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 104 b.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.: 2008 й.
6. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Том IV. –Т.: 1996 й.
7. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Том III. –Т.: 1996 й.
8. Каримов И.А. Қонун ва адолат устуворлигининг ҳаётбахш манбаи. Конституция кунига бағишланган тантанали маросимда сўзланган нутқ. 1998 йил 5 декабрь.
9. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: 1997 й.
10. Аальто П. Имя «Ташкент» (Перевод и комментарии А. К. Акишева) // Shygys. № 1. – Алматы, 2005 г.
11. Абаев В.И. К вопросу о прородине и древнейших миграциях иранских народов «Древний Восток и античный мир». – Москва. 1972 г.
12. Абаев В.И. Осетинский язык и фольклор. Том I, – Москва. 1949 г.
13. Абаев В.И. Скифский быт и реформа Зороастра «Археологические открытия, часть XXIV, № I. 1956 г.
14. Абаева В.И. “Хрестамотия по истории древнего мира». Том I, Древний Восток. – Москва, 1950 г.
15. Абдулғозиева Б. Восточная Фергана в древности и раннем средневековье (система расселения, районирование и типология). Афтореферат. кандидатской дисс. – Самарканд, 1988 г.
16. Абдуллаев К. Живопись крепости Тавка, к проблеме этнической ситуации Северного Тохаристана (по данным настенных росписей) // Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии. Материалы Международной конференции Самарканд, 7–8 сентября 2009 г. Самарканд-Ташкент. 2010 г.
17. Абдуллаев К. Историко-географическая справка. “Археологическое исследование Джандавлаттепа и Шерабадского района”. – Прага. 2013 г.
18. Абдуллаев К. Уникальная находка терракотового фриза. ОНУ, № II, 1974.
19. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Форс тилидан таржима ва изоҳлар А. Ўринбоевники. – Т.: 2008 й.
20. Абдурайимов М. Вопросы феодального землевладения и феодальной ренты в письмах эмира Хайдара. – Т.: 1961 г.
21. Абдурахманов А. Топонимика и этимология. А-А., 1975 г.

22. Абдурахмонов Ғ.А., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Т.: 1973 й.
23. Абдурахмонов Ғ.А., Рустамов А.Р. Қадимги туркий тил. – Т.: 1982 й.
24. Абдурахмонов Ғ.А. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. – Т.: 1999 й.
25. Абдурахмонов Ғ.А., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Т.: 1973 й.
26. Абдуҳалиқ Абдурасул ўғли. Туркий халқлар тарихига оид бир тибетча хужжат. “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” журнали, № VI, – Т.: 1997 й.
27. Абдуҳалиқ Абдурасул ўғли. «Қадимги Фарғона тарихи». – Т.: 2002 й.
28. Аванесова Н.А. Культура пастушеских племен эпохи бронзы Азиатской части СССР. – Т.: 1991 й.
29. Аванесова Н.А. Межкультурные взаимодействия степного населения Евразии и урбанизированных земледельцев Средней Азии. Тез. докл. «Цивилизация Центральной Азии: земледельцы и скотоводы традиции и современность» Самарканд-2002 г.
30. Аванесова Н.А. Новые материалы эпохи бронзы Зарафшанской долины. «Археологические исследования в Узбекистане-2001 год»
31. Аванесова Н.А. Проблемы истории андроновского культурного единства (по металлическим изделиям). Автореф. канд. Дисс. – Ленинград, 1979 г.
32. Аванесова Н.А. Проявление степных традиций в Сапаллинской культуре. «Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии». – Т.: 2010 г.
33. Аванесова Н.А., Ташпулатова Н. Символика огня в погребальной практике сапаллинской культуры. (по материалам исследования могильника Бустан VI). ИМКУ, вып.30. – Самарканд, 1999 г.
34. Аванесова Н.А., Шайдуллаев Ш.Б., Ёркулов А. К вопросу о культурной принадлежности джамских древностей эпохи палеометалла. «Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии.» Самарканд–Бишкек, 2005
35. Авесто. Аскар Маҳкам таржимаси. – Т.: Шарқ. 2001 й.
36. Агаджанов С.Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии в IX-XIII вв. – Ашхабад, 1969 г.
37. Агеева Е.И., Пацевис Г.И. Из истории оседлых поселений Южного Казахстана. «Тр. ИИАН Каз. ССР» т.V. – Алма-Ата, 1958 й.
38. Агзамходжаев Т. Погребальные сооружения Чирчико-Ангренской долины I-VIII. Автореф. Канд. Диссертации. – Т.: 1966 г.
39. Адылов Ш.Т. Административно-территориальное устройство западного Согда в раннем средневековье. Общественные науки в Узбекистане, № VI, – Т.: 1998 г.
40. Адылов Ш.Т. Административно-территориальное устройство западного Согда в раннем средневековья. ОНУ, VI, 1998 г.
41. Азимов И. Росписи Узбекистана. – Т.: 1987 г.
42. Айдаров Г. Язык Орхонского памятника Бильге-кагане. – Алма-Ата, 1966.
43. Акишев К.А. Саки азиатские и скифские. «Археологические исследования в Казахстане. – Алма-Ата, 1973 г.

44. Акишев К.А., Байпаков К.М., Ерзакович И.М. Древний Отрар. – Алма-Ата, 1972 г.
45. Алиев И. История Мидии. – Баку, 1960 г.
46. Алимов К. Памятники скотоводов Чача. – Т.: 1979.
47. Алихонтўра Соғуний. Туркистон қайғуси. Тошкент-2003.
48. Альбаум Л.И. Исследование Фаязтепе в 1973 г. «Бактрийские древности. – Ленинград, 1976 г.
49. Альбаум Л.И. К датировке верхнего слоя поселения Кучуктепа. ИМКУ № 8, Изд. «Фан» Уз. ССР. 1969 г.
50. Альбаум Л.И. Поселение Кучуктепе в Узбекистане. “Материалы сессии, посвященной итогам археолог-этнографических исследований 1964 года в СССР” Тезисы докладов. Баку-1965.
51. Альбаум Л.И. Раскопки буддийского комплекса Фаязтепе (По материалам 1968-1972 гг.). “Древняя Бактрия. – Ленинград, 1974 г.
52. Аманжулов А.С. Материалы и исследования по истории древнетюркской письменности. Автореф. докт. дисс. – Алма-Ата, 1975 г.
53. Аманжулов А.С. Рунообразная надпись из сакского захоронения. «Вестник АН Каз.ССР», № II, Алма-Ата, 1971 г.
54. Аманжулов А.С. Тюрская руническая графика, – Алма-Ата, 1980 г.
55. Аманжўлов С.А. Вопросы диалектологии и истории казахского языка. – Алма-Ата. 1959 г.
56. Анна Каминна. Алексиада, – Москва. 1965 г.
57. Аннаев Т. ДЖ. Об одной группе раннесредневековой керамики Северного Тохаристана. ИМКУ, XXI, – Т.: 1987 г.
58. Анорбоев А. Қадимги ва ўрта асрларда Ахсикент. «Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона» тўплам. – Т.: 2001 й.
59. Анфимов Н.В. Меото-сарматский могильник у станицы Усть-Лабинской. МИА № XXIII. – Москва, 1951 г.
60. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и исследования об их численности. “Живая старина”, вып. III-IVБ, СПб. 1896 г.
61. Артамонов М.И. История Хазар. Изд. Государственного Эрмитажа, – Ленинград. 1962 г.
62. Археологические работы в Таджикистане в 1957 г. Вып V, – Сталинабад. 1959 г.
63. Аскарлов А. Археологическая поездка в северо-западную часть Каршинской степи. // ИМКУ, Вып. V. - Т.: 1964.
64. Аскарлов А. “Бир китоб ҳақида минг эътироз” - Т.: 2013 й.
65. Аскарлов А. Арийская проблема: новые подходы и взгляды. «История Узбекистана в археологических и письменных источниках». –Т.: 2005 г.
66. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Изд. “Фан”, –Т.: 1977 г.
67. Аскарлов А. Могильник эпохи бронзы в Муминабаде. КСИА АН СССР, Вып. 122, – Москва, 1970 г.

68. Аскарлов А. Некоторые аспекты изучения этногенеза и этнической истории узбекского народа. «Материалы к этнической истории населения Средней Азии». –Т.: 1986 г.
69. Аскарлов А. Об исконной родине расселения древних тюрков. ИМКУ, вып. 32, –Т.: 2001 г.
70. Аскарлов А. Памятники андроновской культуры в низовьях Зарафшана. // ИМКУ, Вып. III, –Т.: 1962 г.
71. Аскарлов А. Раскопки могильника эпохи бронзы в Муминабаде. ИМКУ, вып. VIII, –Т.: 1969 г.
72. Аскарлов А. Сапаллитепа. Изд. «Фан», –Т.: 1973 г.
73. Аскарлов А. Степной компонент в оседлых комплексах Бактрии и вопросы его интерпретации. Сборник “Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций». – Алма-Ата, 1989 г.
74. Аскарлов А., Абдуллаев Б. Джаркутан. (К проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). Изд. «Фан», –Т.: 1983 г.
75. Аскарлов А., Альбаум Л.И. Поселение Кучуктепа. Изд. «Фан», –Т.:1979 г.
76. Аскарлов А., Джураев И. К вопросу о взаимоотношении населения степей Евразии и Средней Азии в эпоху бронзы.. «Марказий Осиё деҳқончилик ва дашт цивилизациясининг ўзаро муносабатлари мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари». – Самарқанд, 2011 й.
77. Аскарлов А., Филанович М.И. Новые данные о зарождении городской культуры на территории Ташкента. ОНУ, № VI, 1980 г.
78. Аскарлов А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд, 1993 г.
79. Аскарлов А. Қадимги Хоразм тарихига оид баъзи бир масалалар. Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндашувлар” –Т.: 2004 й.
80. Аскарлов А. Мустақиллик йилларида тарих, археология ва этнология. “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар”, № VI, –Т.: 1996 й.
81. Аскарлов А. Орийлар муаммоси: янгича қарашлар ва ёндашувлар. “Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда”. –Т.: 2005 й.
82. Аскарлов А. Сополли маданияти пиктографик ёзув белгиларини ўқишдаги дастлабки изланишлар. “Марказий Осиё халқлари тарихи манбашунослиги ва тарихшунослиги масалалари”. V-сон, –Т.: 2013 й.
83. Аскарлов А. Тарихимизнинг уч муаммоси ва уларнинг ечими ҳақида янгича мулоҳазалар //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар.– № V, –Т.:2000 й.
84. Аскарлов А. Ўзбек давлатчилигининг илк босқичларида Қадимги Фарғона. «Фарғона кеча, бугун ва келажакда». – Фарғона, 2003 й.
85. Аскарлов А. Ўзбек давлатчилигининг тарихий илдизлари // Давлатчиликнинг илк босқичларида – Ўзбекистон. (Республика илмий-амалий конференция материаллари). –Т.: 2010 й.
86. Аскарлов А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий-методологик масалалари. «Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих» мавзусидаги Республика илмий-назарий семинар материаллари. –Т.: 2004 й.

87. Асқаров А. Ўзбек халқи этногенез ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий методологик асослари. “Ўзбекистон тарихи” журнали, №4, 2002
88. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.: 2007.
89. Асқаров А. Ўрта Осиё қадимги дунёсининг асосий хусусиятлари.// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № VI. 1994 й.
90. Асқаров А. Энг қадимги шаҳар. “Маънавият”. – Т.: 2001 й.
91. Ахинжанов С. М. Кыпчаки в истории средневекового Казахстана. – Алматы: Гылым, 1995 г.
92. Ахмедов Б.А. Государство кочевых узбеков. – Москва. 1965 г.
93. Ахмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Т.: 1994 г.
94. Ахмедов Б.А. Ўзбек улуси. Т.: 1992 г.
95. Аширов А. Ўзбек миллий менталитети ҳақида баъзи мулоҳазалар.”Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих”. Тошкент-2004 й.
96. Бабаяр Г., Кубатин А. К вопросу монетного чекана Западно-Тюркского каганата (на основе нумизматических материалов Ташкентского оазиса) // Тюркология. – Туркестан (Казахстан), – № VI. 2005 г.
97. Бабаяров Г. Государственной строй Западно-Тюркского каганата. Автореф. дис. ... док. ист. наук. – Т.: ИВАНРУз, 2012 г.
98. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI–VIII вв.). Изд-во Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои, Т.: 2007 г.
99. Бабаяров Г., Кубатин А. Некоторые аспекты взаимоотношений между кушанами и древними тюрками в свете нумизматических данных // “Этнос ва маданият: анъанавийлик ва замонавийлик” “Академик Карим Шониезов ўқишлари” туркумида этнологларнинг V Республика илмий конференцияси материаллари. – Т.: 2010 й.
100. Байпаков К. М. Западно-Тюркский и Тюркешский каганаты: тюрки и согдийцы, степ и города //Известия НАН РК. Средневековая археология. Серия общественных наук. № I. – Алма-Ата, 2009 г.
101. Байпаков К.М. Средневековые города Казахстана на Шёлковом пути. – Алма-Аты, 1998 г.
102. Байпаков К.М., А.Н. Подушкин. Памятники земледельческо-скотоводческой культуры Южного Казахстана. – Алма-Ата, 1979 г.
103. Байтанаев Б. Древний Испиджаб. – Шымкент – Алматы, 2003 г.
104. Камолиддин Ш. Илхамов З. Средневековые источники Средней Азии. Т. 2018.

MUNDARIJA

*
=====

KIRISH	3
1-§. YOZUVLARNING KISHILAR JAMIYATI HAYOTIDA TUTGAN O'RNI.....	5
2-§. ILK YOZUVLAR TARIXI VA ULARNING O'RGANILISHI	13
3-§. MARKAZIY OSIYO HUDUDLARIDA PIKTOGRAFIK BELGILAR. ARXEOGRAFIYA.	17
4-§. MARKAZIY OSIYODA OROMIY YOZUVI YODGORLIKLARI	20
5-§. QADIMGI ERON YOZMA YODGORLIKLARIDA MARKAZIY OSIYO TARIXINING AKS ETTIRILISHI	34
6-§. QADIMGI VA O'RTA ASRLARDAGI YOZMA YODGORLIKLAR.....	39
7-§. ARAB YOZUVI YODGORLIKLAR.	47
8-§. SUG'D YOZMA MANBALARI YODGORLIKLARI	57
9-§. QADIMGI BAQTRIYA YOZUVI YODGORLIKLARI.....	62
10-§. QADIMGI XORAZM YOZUVI YODGORLIKLARI.....	69
11-§. MARKAZIY OSIYONING IX-XII ASRLAR TURKIY VA FORSIY, ARAB YOZMA YODGORLIKLARI VA TARIXIY ASARLARI TALQINI.....	73
12-§. MARKAZIY OSIYONING XIII-XV ASR YOZMA YODGORLIKLARI.....	99
13-§. MARKAZIY OSIYONING XVI-XIX ASR YOZMA YODGORLIKLARI.....	120
14-§. QO'SHIMCHA MANBALAR.....	156
15-§.QADIMGI AXBOROT TASHUVCHI VOSITALAR	175
16-§. YOZUV TARIXIDAN.....	192
XULOSA.....	211
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	213

ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение.....	3
1-§. Место письменности в общественной жизни всего человечества	5
2-§. История ранних видов письма и их изучение.....	13
3-§. Пиктографические знаки на территории Центральной Азии. Археография.....	17
4-§. Памятники арамейской письменности в Центральной Азии	20
5-§. История Центральной Азии в письменных памятниках Древнего Ирана.....	34
6-§. Письменные памятники древности и средних веков	39
7-§. Памятники арабской письменности.....	47
8-§. Памятники Согдийских письменных источников	57
9-§. Памятники письменности Древней Бактрии	62
10-§. Памятники письменности Древнего Хорезма	69
11-§. Тюркские, персидские, арабские письменные памятники Центральной Азии IX- XII веков.....	73
12-§. Письменные памятники Центральной Азии XIII-XV веков	99
13-§. Письменные памятники Центральной Азии XVI-XIX веков.....	120
14-§. Дополнительные источники.....	156
15-§. Древние носители информации	175
16-§. Из истории письменности	192
Заключение.....	211
Литература	213